



KONFERENSIYA

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI
RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN
KREATIV G’OYALAR,
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”**

@bestpublication |     | Street: Alisher Navoiy

FARG’ONA 2022



«BEST PUBLICATION»

Ilm-ma’rifat markazi

“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA
QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR”
MAVZUSIDAGI 36-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE
KONFERENSIYASI
MATERIALLARI TO‘PLAMI
1-MAY , 2022-YIL

36-SON

“DEVELOPMENT OF A MODERN EDUCATION SYSTEM AND CREATIVE
IDEAS FOR IT, REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL ON-LINE
CONFERENCE ON "SUGGESTIONS AND SOLUTIONS"

1- MAY 2022

PART-36



INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL



Ushbu to‘plamda “Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 36-sonli Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasiga kelib tushgan tezis va maqolalar o‘rin olgan.

Mazkur ilmiy-amaliy on-line konferensiyada zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta’limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur Respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiya materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta’limmaktabo‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgantadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyiligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

*Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD*

Mas‘ul muharrir

*Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti*

Mas‘ul kotib

*Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li
Marg‘ilon shahar 11-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi o‘qituvchisi*

Nashrga tayyorlovchi

*Qobilova Saidaxon Muahhamdjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti
Salomov Shoxabbos Nozimjon o‘g‘li
Andijon Davlat Tibbiyot Instituti „ Davolash ishi “ fakulteti talabasi*

Tahrir kengashi a‘zolari

Mo‘minov Qobiljon Qodirovich

Fizika-matematika fanlari doktori professor

Sultonali Mannopov

O‘zbekiston xalq artisti, professor

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Nikadambayeva Hilola Batirovna

*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti, Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari nomzodi,
Dotsent*

Qurbonova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Otaqulov Fozil Sobirovich

Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Aslanov Xakimjon Ro‘ziboyevich

*FarDU, Harbiy ta‘lim fakulteti Umumqo‘shin tayyorgarligi
sikli boshlig‘i, podpolkovnik*

Karimov O‘lmasbek Umaraliyevich

FarDU o‘qituvchisi

Arslonov Zarifjon Zokirjon o‘g‘li

*Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi yetakchi ilmiy
xodimi*

Zaparov Abduqaxxor Abdumalikovich

*Andijon davlat universiteti Umumtexnika fanlari kafedrasini professori
texnika fanlari doktori*

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

SO’Z BOSHI

Salimova Marg’uba Ne’matovna <i>YOSHLARGA DOIR DAVLAT SIYOSATINING ZAMONAVIY RIVOJLANISHI</i>	10
Расулова Моҳигул Одилжон қизи <i>ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КАДРЛАРНИ МОТИВАЦИЯЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ</i>	13
G’ofirova Mohlaroyim <i>RUS TILINI O’QITISH METODIKASI</i>	15
Isomiddinova Hulkar Umid qizi <i>ABDULLA O’RIPOV TUYG’ULAR MUSAVVIRI</i>	18
Abdullayeva Iroda Abdukarim qizi <i>«INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARNING O’RNI VA AHAMIYATI</i>	20
Abdullayeva Mavluda Yuldashbayevna <i>BOSHLANG’ICH TA’LIM JARAYONIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS O’TISHNING AHAMIYATI.</i>	23
Abdurahmonova Muhabbat Muydinjonovna <i>TIBBIYOTDA QO’LLANILADIGAN MATERIALLARNING KIMYOVIY TARKIBI</i>	25
Aminova Oltinoy Yusupovna <i>TA’LIM JARAYONIDA INFORMATIKA VA MATEMATIKA FANLARI INTEGRATSIYASI</i>	29
Bobojonova Shaxnoza Rashidovna Matrasulova Nargiza Boltoboyevna <i>BOSHLANG’ICH SINFLARDA DARS VA MATEMATIKA DARSLARI TIZIMI.</i>	31
Oxunjonova Shoxistaxon <i>BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING DOLZARBLIGI</i>	33
Xo’janiyazova Shohista Beknazarovna <i>BOSHLANG’ICH MATEMATIK TA’LIMDA O’RTA OSIYOLIK ALLOMALARNING ILMIY ME’ROSIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI</i>	35
Babaniyazova Feruza Tursunboyevna Rajabova Matluba <i>BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI</i>	38
Xudayberganova Dildora Jumaniyozova Munira <i>BOSHLANG’ICH SINFLARDA ONA TILI FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH</i>	40
Rajabova Saida Matnazarovna <i>BOSHLANLANGICH SINFLARDA ALGEBRAIK MAZMUNDAGI MASALALARNI EVRISTIK METOD YORDAMIDA ORGANISH METODIKASI</i>	43
Djurayeva Oydinoy Bobirbek qizi <i>MATEMATIK TUSHUNCHALARNI TA’RIFLASH METODIKASI</i>	46
Otajonov Dostonbek Muhammadjon o’g’li D.Sotvoldiyev <i>FARG’ONA JAMOAT SOG’LOMLASHTIRISH INSTITUTI UCHUN AHOLINI KO’RIKDAN O’TKAZISHNI AVTOMATLASHGAN TIZIMINI LOYIHALASHTIRISH VA DASTURIY TA’MINOTINI YARATISH</i>	48
Abdullayev Nuriddin Narzullayevich <i>GEOGRAFIYA DARSLARIDA XARITA BILAN ISHLASH</i>	50
Hasanboyeva E’zozxon Ikromjon qizi <i>FIZIKA DARSLARIDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	53
Nomozov Odiljon Egamberdi ogli Uralov Humoyun Fazliddin ogli Mustafakulova Feruza Inomovna <i>EARTHQUAKE EFFECTS ON BUILDINGS AND STRUCTURES AND THEIR ELIMINATION</i>	55
Kuldosheva Gulnoza Shukurjon qizi <i>IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION OMILLAR RO’LINI OSHIRISH YO’LLARI</i>	58
Kaxxorova Zamira Saydilla qizi <i>PAXTA XOM-ASHYOSINI QURITISH, SAQLASH VA HARORATNING TA’SIRINI O’RGANISH. JARAYONLARNI BOSHQARISHNI TASHKILLASHTIRISH VA AMALIYOTGA TADBEQ QILISH.</i>	61
Mademinova Guljayna Kewnimjayovna	63

“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 36-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE KONFERENSIYASI

Eshimuratova Raushan Joldasbaevna Bazarbaev Kilishbay Turganbay o’g’li <i>KISLOTA VA UNING TURLARI</i>	
Karimova Umida <i>DIFFERENCES IN AMERICAN AND ENGLISH VOCABULARY</i>	66
Davlatova Muhabbat O’rmonovna <i>MANZARALI O’SIMLIK MANGOSTIN DARAXTINI YETISHTIRILISHI</i>	69
Sobirjanova Shahrinsa Ahmadjon qizi <i>ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” VA “SAB’AI SAYYOR” DOSTONLARIDA SINONIM SO’ZLARING QO’LLANILISHI”</i>	71
Saydulloyeva Mahliyo Rahmatjonovna Ibragimova Zohida Maxamadovna <i>BOSHLANG’ICH SINFLAR O’QUVCHILARINING IJODIY QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI</i>	75
Raxmonov Dilmurod Nusratovich Qosimov Bekzod Zoirovich <i>GIMNASTIKANING BA’ZI TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI</i>	78
Shomurotova X.B <i>O’ZBEKISTONDA DORIVOR O’SIMLIKLARNI RIVOJLANTIRISHDA ERISHILGAN NATIJALAR</i>	81
Kuchkarov Samandar Nematovich <i>ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARIDA OILA MASALALARI</i>	83
Eshniyazov Mansur <i>INGLIZ TILIDA ANIQLOVCHINING IFODALANISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR</i>	86
Faxriddinova Rahimaxon Abdurasulova Gulnozaxon <i>I- SINFLARDA “ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TEATRLASHTIRISH”</i>	91
Xolmatova Mahliyo Nazirjon qizi Mamajonova Shohista Solijonovna <i>MATEMATIKA FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI</i>	94
Атаходжаев Абдубоситхожа Абдулахатхожа ўғли Жовлиев Мухриддин Норбой ўғли <i>ОҚОВА СУВЛАРИНИ ТОЗАЛАШДА МЕХАНИК УСУЛИ</i>	97
Turdiboyeva Dildora Bekmirza kizi <i>THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF MODAL VERBS</i>	99
Normatov Sanjar Abdug’ani o’g’li <i>KONFESSIYALAR ARO MULOQOTNING IJTIMOY FALSAFIY AHAMIYATI</i>	101
Umurzakov Uyg’un Abdutalipovich <i>O’QUVCHI YOSHLARNING MAFKURAVIY XURUJLARGA QARSHI KURASHISHDA MILLIY GO’YA VA MAFKURALARNING O’RNI</i>	104
Eshmuminov Obidjon O’ktam o’g’li Mardanov Abdulatif Abdukarimovich <i>YUZ-JAG’ SOHASI YALLIG’LANISH KASALLIKLARI HAQIDA NIMALARNI BILISH LOZIM</i>	106
Qurbonov Elyor Qurbonovich Bozorova Madina To’raboy qizi <i>O’ZBEK XALQINING MENTALITETIGA XOS QADIMGI UDUM VA AN’ANALAR VA BU BORADAGI ASOSIY MUOMMOLAR</i>	108
Qo’ziboyeva Aziza Quyli qizi <i>UZUMNING AYRIM TURLARI TAVSIFI</i>	112
Ravshanova Firuza Minyasharovna <i>INFORMATIKA FANINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARASI</i>	115
Salimova Marg’uba Ne’matovna <i>MASHG’ULOT JARAYONIDA JISMONIY YUKLAMALARNI BELGILASH(VOLEYBOL SPORT TURI MISOLIDA)</i>	117
Мухиддинов Нодир <i>ШАРТНОМАГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ.</i>	120
Mahammatqulov Shaxzod Baxtiyor o’g’li Xayrullayeva Odina Sayfiddin qizi <i>BO’YOQDOR RO’YAN-RUBIA TINCTORUM L.</i>	125
SHomirzayeva Mavluda Sobirovna <i>O’QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA YANGI TEXNOLOGIK USULLARDAN FOYDALANISH (MATEMATIKA</i>	127

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR,
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 36-SONLI RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY ON-LINE
KONFERENSIYASI**

<i>FANI MISOLIDA)</i>	
Abdullayev Botir Baxtiyor o’g’li <i>TALABALARNING BILIMINI BAHOLASHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARDAN FOYDALANISH.</i>	129
Jamoldinova Lutfiya Rahmonaliyevna <i>MAKTABLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH</i>	131
N. Dalimova <i>U. STRAUSVA N. HOUVNING AVLODLAR NAZARIYASI MOHIYATI</i>	134
Adxamjonov Shoxbozbek Bobirjon o’g’li <i>MAMLAKATIMIZDA DUALISTIK TIZIMNI TASHKIL QILISHNI AHAMIYATI</i>	136
Tohirova Munira Bobojonovna <i>ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH</i>	139
Vaxobov Ulug’bek Bahodir o’g’li <i>MUSTAQIL O’ZBEKISTONDA MA’NAVIYAT MASALALARINING DAVLAT SIYOSATI DARAJASIGA KO’TARILISHI SABABLARI</i>	142
Irgasheva Umida Asqarjon qizi <i>XITOIY VA O’ZBEK TILLARI FREZELOGIZMLARINING O’RGANILISHI TARIXIDAN</i>	144
Madina Egamova <i>XX ASR BOSHLARIDA JADID ADABIYOTDAGI YANGILANISHLAR.</i>	147
Arifov Maxamadjon Pulatbaevich <i>БОЛА ТУҒИЛИШИ БИЛАН БОҒЛИҚ, ЧАҚАЛОҚ ВА ОНАГА АЙТИЛАДИГАН ТИЛАК/ОЛҚИШ/ДУОЛАР СЕМАНТИКАСИ</i>	151
Z.J.Jaksimuratova G.Y.Matqurbanova <i>UZLUKSIZ TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHDA UZVIYLIK PRINCIPIN QO’LLASHNING DIDAKTIK ASOSLARI</i>	154
Zilola Hasanova <i>THE ROLE OF APPROACHES AND METHODS OF TEACHING PROCESS</i>	157
Гофуров Жавлонбек Абдувахобович Худойбердиева Хамро Тиллаевна <i>БОЛАЛАРДА ОБСТРУКТИВ БРОНХИТ ВА УНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎЛЛАРИ</i>	160
Гофуров Жавлонбек Абдувахобович Худойбердиева Хамро Тиллаевна <i>БОЛАЛАРГА ПНЕВМОНИЯНИНГ ЮҚИШИ САБАБЛАРИ</i>	162
Ф.Ф.Болтаев <i>ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ТИЛ МАДАНИЯТИ ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ</i>	164
Абдумуминова Рухаё <i>ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫЙ МИР И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРИЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЧИНГИЗ АЙТМАТОВА " ПЛАХА".</i>	168
Эргашов Мамур Моминович <i>ДУХОВНО-ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В ШКОЛЕ</i>	170
Vohidov Bahriddin Rahmidinovich Murtozayeva Mohinabonu Mansur qizi Utkirova Shakhzoda Ixtiyor qizi <i>DEVELOPMENT OF COMPLEX TECHNOLOGY FOR RECOVERY OF NOBLE AND PRECIOUS METALS ON THE BASIS OF PROCESSING OF WASTE ASH-SLAG OF ANGRENSKOYE AND NOVO-ANGRENSKOYE TPP.</i>	174
К.Ф.Умарова <i>ЖИНОЯТЛАР МАЖМУИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ</i>	177
Axmedova Matlubaxon Rahmatovna <i>БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ</i>	179
Daniyarova Yulduzxon Rahimovna <i>БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ</i>	183
Egamberdiyeva Ziyodaxon Xolmatovna <i>МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA MA’NAVIIY-AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLAR</i>	186
Тешабоева Нодира Джураевна <i>ПОДГОТОВКА И ТРАНСПОРТИРОВКА СМЕШАННОГО БЕТОНА</i>	189
Шарофутдинова Раънохон Шавкатовна <i>БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДИЙ ФАОЛЛИККА ЙЎНАЛТИРИШ</i>	193
Muratov R.S Ergashev S.Z	195

“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 36-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE KONFERENSIYASI

<i>MAMLKATIMIZ TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI</i>	
Muratov R.S Ergashev S.Z <i>IQTISODIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT KOMMUNIKATSIYALARI LOGISTIKA INFRATUZILMALARINING XUSUSIYATLARI</i>	200
Худойбердиев Ф.И Жапаков Т <i>ИЗУЧЕНИЕ ФЛОСФОРИТОВ И ГЛАУКОНИТОВ КАРАКАЛПАКСТАНА</i>	207
Умиджон Бекимметов <i>ХОРАЗМДАГИ ДАСТЛАБКИ ҚОЛХОЗЛАР ВА УЛАРДАГИ ВАЗИЯТ</i>	210
Feruza Nabijonova Valijon qizi <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKSISGA OID BERILADIGAN BILIMLAR MAJMU</i>	214
Nigora Mahmudova <i>TAXALLUS NIMA?</i>	217
Охунова Мо'tabarxon Djo'rayevna <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI</i>	218
Rasulova Feruzaxon Xoshimjon qizi <i>TA'LIM JARAYONIDA ELEKTON MULTIMEDIALI O'QUV QO'LLANMALARDAN FOYDALISHNING AFZALLIKLARI.</i>	221
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna <i>BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLOVCHI OMILLARNING YAIMGA TA'SIRI VA PROGNOZ VARIANTLARI</i>	224
Abduxalimova Go'zal Hazratqulovna <i>PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA'LIMDAGI O'RNI VA AHAMIYATI</i>	226
G'aniyeva Hulkar Safarovna Bozorova Rayhon Sadullayevna <i>ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA NUTQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH</i>	229
Babayeva Vasila Tashpulatovna <i>ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OLMON TILINI O'RGANISH</i>	232
L.Yunusov., G.Abdurasulova., A.Zaynabiddinov., Sh.Adizov <i>VINCE ERECTA O'SIMLIK TURIDAN AJRATIB OLINGAN KOPSININ VA NI-ATSETIL KOPSININ ALKALOIDLARINI AORTA SILLIQ MUSKULINING SARKOPLAZMATIK RETIKULUM Ca²⁺-TASHISH TIZIMLARIGA TA'SIRI</i>	235
Raxmatova Ra'no Baxromboyevna <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA OG'ZAKI, KO'RSATMALI VA AMALIY METODLAR.</i>	236
Джаксымуратов К.М Кадирбаев А <i>СОВРЕМЕННЫЕ АНТРОПОГЕННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРИАРАЛЬЯ</i>	238
Eshmurotova Gulshod Norboyevna <i>MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONIDAGI XUSUSIYATLARI</i>	241
SHeraliyev Lazizbek Nodirbek o'g'li SHeraliyeva Maftunaxon Maqsudali qizi <i>ATROF –MUHITNI MUXOFAZA QILISH TO'G'RSIDA CHORA TADBIRLAR</i>	243
Tajiboyeva Gavhar Yusupovna <i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH</i>	246
Sobirova Dilnoza Nasrilloevna <i>BIOLOGIYANI O'QITISHDA O'QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI TARKIB TOPTIRISH.</i>	249
Payzullayeva Feruza Ramazonovna <i>ADABIYOT DARSLARIDA ASARLAR YUZASIDAN TUZILGAN SAVOLTOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH.</i>	251
KarimovaUmida <i>DIFFERENCES IN AMERICAN AND ENGLISH VOCABULARY</i>	253
Ачилова Мадина Шерзод кизи <i>ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИЯДА ҚЎЛЛАНИЛИШГА БАҒИШЛАНГАН ЗАМОНАВИЙ ДАРСЛИКЛАР ЯРАТИШНИНГ АҲАМИЯТИ</i>	256
Tayrov Kudiyar Baxtiyar uli <i>MUZEYLAR ELEKTRON ARXIVINI SHAKILLANTIRISH</i>	259
Ibragimova Dilrabo Abdug'aniyevna	261

**“ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR,
TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 36-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE
KONFERENSIYASI**

<i>TEKNOLOGIYA FANINI O’QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR</i>	
Yuldasheva Sevara Po’latjonovna <i>TARIX DARSINI O’QITISHDA INTERFAOL USUL VA TEKNOLOGIYALAR</i>	263
Yaxshiboyeva Damira Tolib qizi <i>BO’LAJAK BIOLOGIYA O’QITUVCHILARINING BIOTEKNOLOGIYA FANIDAN MUSTAQIL O’QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA AXBORT-TA’LIM MUHITINING IMKONIYATLARI</i>	266
Kiyamova Zilola O’rinbojevna <i>TARIX FANINING O’QITILISHIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</i>	269
Mardonov Amirjon Suxrobovich <i>SEGNETOELEKTRIKLARDA FAZAVIY O’TISHLAR</i>	272
Mavlonova Mamlakatxon Alijonovna <i>ANVAR OBIDJON SHE’RLARIDA BOLALAR DUNYOSI</i>	277
Sheraliyeva Shoira Tulkinovna Abdurahmonova Zilola <i>PROBLEMS, SOLUTIONS AND PROSPECTS IN TRANSLATION STUDIES</i>	280
Turayev Adhamjon Abdulfayiz o’g’li Eshbo’riyev Javohir Bobomurot o’g’li Xolboyeva Rayxon Saparali qizi Do’styorov Manguberdi Abdurazzoq o’g’li <i>DNK FAZOVIIY STRUKTURASINING O’ZIGA XOS TUZILISHI</i>	284
Yusupova Kamola Otabek qizi <i>UBAYDULLA UVATOV HAYOTI VA FAOLIYATINING MUHIM QIRRALARI</i>	287
Matyakubova Inabat Raxmonberdiyevna <i>ONA TILI VA ADABIYOT O’QITUVCHILARI UCHUN ZAMONAVIY DARS USULLARI ORQALI DARSLARNI TASHKILLASH UCHUN TAVSIYALAR</i>	290
Qalandarova Fazilat Shonazarovna <i>TARIX FANINI O’QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	292
Raximova Tozagul Sobir qizi <i>INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI DARSLARINI PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH</i>	295
Sultanov Rustam Sabir o’g’li <i>FIZIKA FANINI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI</i>	298
Hazratova Surayyo Sirojiddin qizi <i>YOSHLARNI KASBGA YO’NALTIRISHGA QO’YILADIGAN PEDAGOGIK - PSIXOFIZIOLOGIK TALABLAR</i>	301
Sobirova Dilnoza Nasrillojevna <i>BIOLOGIYANI O’QITISHDA O’QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI TARKIB TOPTIRISH.</i>	306

YOSHLARGA DOIR DAVLAT SIYOSATINING ZAMONAVIY RIVOJLANISHI



Salimova Marg'uba Ne'matovna
*Navoiy davlat pedagogika instituti,
jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *uyushmagan yoshlarga doir davlat siyosatining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga motivatsiyalash, mahallalarda ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari, xususan, sport o'yinlari turi xisoblangan voleybol orqali, uyushmagan yoshlar o'rtasida sport musobaqalari tashkil etish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *uyushmagan yoshlar, sport, sog'lom turmush tarzi, sport o'yinlar, voleybol, sog'ligiqni tiklash, bo'sh vaqtni samarali tashkil etish.*

YOshlarni uyushmagan qatlamini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ularni jismoniy tarbiya va sportga qiziqish hamda qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, motivatsiyalash, ularda jismoniy tarbiya va sportga oid amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlarni olib borish uchun, hozirgi kunda mahallalarda sport sohasi vakillari faoliyati ko'zga tashlanmoqda. YOshlarni ayniqsa uyushmagan yoshlar qatlamini jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish orqali global muammolar qatoridan joy olgan, jinoyatchilik va huquqbuzarliklar ko'chasiga kirmasliklarini hamda odam savdosi qurboniga aylanmasliklarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar, profilaktika ishlari olib borilmoqda.

Jahonda o'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama sog'lom, yuksak intellektual salohiyatga ega va jismonan barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy tarbiya, milliy harakatli va sport o'yinlari samarali vosita sifatida qo'llanib kelinadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoev yurtimizda va xalqaro anjumanlarda yoshlar mavzusida alohida fikr bildirib o'tishlari bejiz emas.

2017 yil 30 iyun kuni O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so'zlagan tanqidiy nutqida; "Harakatning joylardagi tuzilmalari faoliyati tor doirada cheklanib, asosan o'quvchi-yoshlarga qaratilmoqda. Ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlash masalasi e'tibordan chetda qolib ketmoqda".

Hozirgi zamon xususiyatlaridan biri – bozor munosabatlarini ta’siri yoshlarning moddiy ehtiyojlar ma’naviy ehtiyojlardan ilgarilab ketdi. YOshlar ongida ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar moddiy dunyo ma’naviydunyodan ustun, degan tushuncha shakllandi. Moddiy ehtiyojlar ma’naviy ehtiyojlardan ilgarilab ketdi, “o’tish davri”ning ijtimoiy, psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklari ba’zi insonlar ongida “moddiy dunyo ma’naviyat dunyosidan ustun”, degan tushunchani shakllantirdi. Buning natijasida ko’pchilik ota-onalar tirikchilik bilan band bo’lgan paytda o’z farzandi ustidan nazoratni yo’qotib qo’ydi, uning bilim olishi, kasb-hunarga yo’naltirish, sog’ligini tiklash, bo’sh vaqtini samarali tashkil etishga, jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanishlariga e’tiborsiz bo’ldi.

Natijada jamiyatimizda qarovsiz, ishsiz, kasbi-kori yo’q, e’tibordan qolib ketgan uyushmagan yoshlar qatlami shakllandi. Bu qatlamdagi yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish ularni jismoniy tarbiya va sportga kizikish va qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish motivatsiyalash, ularda amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlarni olib borish uchun hozirgi kunda mahallalarda sport sohasi vakillari faoliyatini faollashtirish zarurligi ko’zga tashlanyapti. SHu bilan birga, uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga kizikish va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali global muammolar qatoridan joy olgan jinoyatchilik va xuquqbuzarliklar ko’chasiga kirmasliklarini oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar hozirgi shiddat bilan o’zgarib borayotgan zamoni talablariga etarlicha javob bermayapti. Ushbu holatlar uyushmagan yoshlar bilan alohida tizimli ishlarni olib borish zarurligi va dolzarbligini ko’rsatib turibdi. SHu bilan birga, tadqiqotchilarning fikricha, har bir qishloq, tuman, viloyatlarning o’ziga xos demografik, iqtisodiy, geografik imkoniyatlaridan kelib chiqib, uyushmagan yoshlar deb, ma’lum bir ixtisoslik yoki kasb-hunar bilan shug’ullanmaydigan, aniq ish yoki o’qish joyiga ega bo’lmagan, ijtimoiy faol bo’lmagan 14 yoshga to’lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslarni aytish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport orqali jamiyatda qadri balandligini his qilib yashashlari, ularning jismoniy tarbiya va sportga oid amaliy kompetensiyalarini shakllantirish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga qiziqishlarini oshirish hamda qobiliyatlarini ro’yobga chiqarish muxim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA: SHuningdek, mahallalarda ommaviy sog’lomlashtirish tadbirlari, xususan, sport o’yinlari turi xisoblangan voleybol maydonchalarini qurish, amaldagilarini tamirlash orqali uyushmagan yoshlar o’rtasida sport musobaqalari, mahorat darslari (master klass) mashhur sportchilar bilan uchrashuv va davra suhbatlari, va boshqa madaniy tadbirlarni maqsadli va tizimli olib borish uyushmagan yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish ishlarini samarali echimiga olib keladi.

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlariga, sport federatsiyalariga hamda sport klublariga jalb etishimiz ularni ijtimoiy faolligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. 2017 yil 3 iyun 2017 yil 30 iyun kuni O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyida so‘zlagan tanqidiy nutqida.

ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КАДРЛАРНИ МОТИВАЦИЯЛАШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Расулова Моҳигул Одилжон қизи

178-ИДУМ ўқитувчиси

Тошкент Давлат иқтисодийёт университети

2-курс MRB-10 гуруҳи талабаси

Таълим муассасалари раҳбариининг асосий вазифаларидан бири ўқитувларнинг бор потенциалини ишга тўла жалб қилишдан иборатдир. Меҳнатни мотивлаш борасидаги ишлар айнан шу мақсадга йўналтирилган. Сифатли дарс бериш даражасини ошириш ва натижада юқори натижаларга эришиш – оқилона тузилган мотивлаш тизимини тадбиқ этиш натижасидир. Бунга эса руҳий муҳит бошқарувини йўлга қўймасдан эришиб бўлмайди. Иш унумини кўзлаган раҳбар ҳам ўзининг, ҳам ходимларининг кайфиятларини бошқаришга қодир бўлиши лозим.

Раҳбарлар ходимнинг кайфиятига ижобий таъсир кўрсатиш имкониятлари унинг иш унумини оширишга, ҳамкасблари билан муносабатларини яхшилашга, мижозлар билан ўзаро муносабатларни чуқурлаштиришга хизмат қилишини англашлари керак. Руҳий ҳолатнинг сарали меҳнатга таъсирини тан олиш, мотивлаш моҳиятини тушуниш учун ташланиши лозим бўлган биринчи навбатдаги қадамдир.

Ходимларнинг руҳий кайфиятларига самалари таъсир қилиш учун таълим муассасалари раҳбарлари учун бошқарув психологияси, руҳий компетентлик бўйича семинарлар ва тренинглари ўтказиш мақсадга мувофиқдир. Бу раҳбарларгага ўзларининг кайфиятларини бошқариш ва иш манфаатлари йўлида ходимлар кайфиятига таъсир қилишни ўрганиш имконини беради.

Таълим муассасасининг корпоратив маданиятида инсоннинг ички дунёси, унинг интилишлари ва орзулари инобатга олиниши керак. Бу бошқарувчиларга ходимларнинг руҳий кайфиятларига самарали таъсир қилиш учун йўл очади.

Таълим муассасасидаги менежмент услуги имкон қадар камроқ директив тус олиши лозим. Мисол учун, бугунга келиб бошқарув услублари ичида энг самарали бўлган коучинг унсурларини тадбиқ этиш мақсадга мувофиқдир. Коучинг нафақат бошқарув самарасини салмоқли равишда ошириш, балки ходимларнинг руҳий ҳолатига ижобий таъсирни таъминлаш имконларини беради.

Шундай қилиб, меҳнатни мотивлаш стратегияси танланар экан, уни мунтазам такомиллаштириш зарурлигини доимо ёдда сақламоқ керак. Тажрибали раҳбарлар таълим бозорида пайдо бўлган янги жараёнларни вақтида сезиб, рағбатлантириш услубларини қайта кўриб чиқади, янги услубларни тадбиқ этиб, самарасини йўқотган эски услублардан воз кечади.

Ҳар қандай таълим муассасасининг хўжалик-молия фаолиятининг асосий кўрсаткичлари, муассаса ходимлари таркиби ва тузилмасининг бугунги кундаги ташкилий-меҳнат характеристикаси билан боғлиқ ҳолат ана шулардан иборат.

Таълим муассасасида меҳнатни мотивлашни такомиллаштириш бўйича

кўйидаги чораларни амалга ошириш тавсия этилади:

1. Меҳнатга ҳақ тўлашнинг эгилувчан тизимларини қўллаш. Бу тизимлар ходимларнинг ўз мажбуриятларига нисбатан рағбатини кучайтиради, чунки иш ҳақи миқдори уларга бевосита боғлиқдир.

2. Иш вақтидан самарали фойдаланиш энг кам вақт сарфлаб, таълим сифатини ошириш билан боғлиқ қатор масалаларни ҳал этиш имконини берувчи фан-техника тараққиётига боғлиқдир. Замонавий ахборотлар технологиялари билан жиҳозланишни такомиллаштириш, ташкилий шароитлар яратилганида, ходимларнинг фаолияти муайян тизимга бирлаштирилганидагина аҳамият касб этади.

3. Меҳнат шароитлари. Меҳнат шароитларини ўрганиш таълим муасасасининг нуфузини оширишда катта аҳамиятга эга. Моддий рағбатлантириш ҳар доим ҳам биринчи ўринга қўйилмайди, ўз иш ўрнида қулайсизлик ҳис этган ходим иш жойини ўзгартиришга уринади. Ходимни иш куни, иш ҳафтасининг давомийлиги, ишда танаффусларнинг берилиши, тушликнинг ташкил қилиниши қизиқтиради. Иш жойини яхшилаш тўғрисидаги таклифларга раҳбариятнинг муносабати ҳам жиддий аҳамиятга эга бўлади.

4. Таълим муассасалари ходимларининг ижтимоий фаоллигини кучайтиришга қаратилган шароитларни яратиш. Муассасанинг олдида қўйилган вазифалар, шунингдек, ходимлар турмушидаги муаммоларни ҳал қилиш учун алоҳида гуруҳлар ёки бутун жамоанинг иштироки талаб этилиши мумкин. Ютуқларга эришиш учун жипслашган командага эга бўлиш керак. Агар ходим ўзини ягона гуруҳ аъзоси деб ҳис этса, у ҳолда унга юклатилган вазифалар юқори самара билан бажарилади.

5. Эришилган натижаларни баҳолаш ва тақдирлаш. Ютуқларни янада ошириш мақсадида тақдирлаш ва рағбатлантириш тизимини жорий қилиш лозим. Тақдирлаш – бу ходим ўзини кадрланган деб ҳис этиши демакдир. Аммо ҳар бир одам кадрият тушунчасини ўзича тушунади. Кадриятлар тушунчасининг нисбийлиги боис, тақдирлаш ҳам турлича баҳоланади. Шунинг учун ташқи тақдирлаш (мартаба ошиши, қўшимча тўловлар, мақтов, маълум харажатларнинг қопланиши, суғурталаш) билан бир қаторда раҳбар ўз ходимларини тақдирлаш ва рағбатлантиришда уларнинг ҳар бири эҳтиёжларини ҳисобга олиши лозим.

6. Ходимларни мақсадларни шакллантириш ва қарорларни ишлаб чиқишга жалб қилиш. Муасасада таълим сифатини ошириш мақсадида қўл остидагиларга қарорларни шакллантириш жараёнига жалб қилиш тажрибаси мавжуд.

RUS TILINI O‘QITISH METODIKASI

G‘ofirova Mohlaroyim

*Farg‘ona tumani 30-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
rus tili fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada rus tili darslari jarayonida ta‘limda foydalaniladigan pedagogik metodlar to‘g‘risida fikr-mulohazalar olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *rus tili, metodika, pedagogik texnologiya, ta‘lim tizimi.*

Maktabda rus tilini o‘qitishning umumiy didaktik tamoyillari. Har qanday fanni o‘qitishning markazida *tamoyillari-* o‘qituvchi faoliyatining traektoriyasini belgilovchi dastlabki nazariy qoidalar. Ushbu qoidalar barcha maktab fanlarini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin va ular sifatida tavsiflanishi mumkin *umumiy didaktik*, shuningdek, ular sub'ektlardan birini o‘zlashtirishni sifatli tashkil etishga hissa qo‘shishi va tasniflanishi mumkin. *xususiy didaktik (umumiy uslubiy)*. Har bir lingvistik bo‘limni o‘zlashtirish bo‘yicha ishda ham shunday deb taxmin qilinadi *xususiy didaktik* tamoyillari, ular quyida muhokama qilinadi. Muayyan fanga tatbiq etilganda, birinchi guruh tamoyillari izohlanadi. Ha, tarkib *ilmiy tamoyil* lingvistik nazariyani o‘zlashtirishda u ishonchlilikni, aytilganlarning fanda haqiqatda o‘rnatilgan narsaga to‘liq mos kelishini nazarda tutadi; hodisalarning mohiyati, bu tamoyilga tayanib, munosabatlar va aloqalar xususiyatlaridan kelib chiqib, oqilona tarzda ochiladi. Prinsip *rivojlantiruvchi ta‘lim* bolalarning o‘qish va faolligi uchun motivatsiyani yaratadigan fanga barqaror qiziqishni shakllantirishga qaratilgan. O‘quv material ustida ishlashga ekstralingvistik yondashuv o‘quv sub'ektining axloqiy, ijtimoiy, baynalmilal, vatanparvarlik va mehnat fazilatlarini shakllantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi va printsipning muhimligidan dalolat beradi. *ta‘lim va tarbiyaning birligi*.

Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlik printsiplari til fanlarini o‘zlashtirishda ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega: tilshunoslik nazariyasi turli muloqot sharoitlarida til birliklaridan foydalanish ko‘nikmalari shakllanadigan asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tamoyilning amalga oshirilishi tilni assimilyatsiya qilishda yorqin ifodasini topadi: har bir nazariy pozitsiya nutq vaziyatiga ekstrapolyatsiya qilinadi. Tilshunoslik nazariyasini o‘zlashtirishdagi onglik darajasi o‘quvchilarning faolligi, qiziqishi bilan bog‘liq. *Mavjudlik, xabardorlik va faollik tamoyillari* Agar rus tili o‘qituvchisi bolalarni qiziqitira olsa, metodik usullarning umumiy arsenalidan samaradorligi ma'lumotlarni yuqori sifatli o‘zlashtirishga, ularni ko‘nikmaga aylantirishga yordam beradiganlarni tanlasa, kuzatiladi. *Ketma-ketlik printsiplari* yangi ma'lumotni ilgari o‘tilgan material bilan bog‘lash usullari haqida tushuncha beradi va printsipga mos keladi *davomiylik*: bu yondashuv bilan nafaqat mavzular va bo‘limlarning o‘zaro bog‘liqligi, balki talabalar o‘rtasida ilgari shakllangan kognitiv faoliyat ko‘nikmalaridan foydalanishdagi o‘zaro bog‘liqlik ham amalga oshiriladi. Muhim rolni printsipga malakali va maqsadli rioya qilish o‘ynaydi *ko‘rgazmali o‘qitish vositalaridan foydalanish*: uning tarkibiy qismlarining har birining mazmunini va

darslarning turli shakllarida qo'llash usullarini diqqat bilan ko'rib chiqish bilish jarayonini to'g'ri tashkil etishning eng muhim shartlaridan biridir.

Shuni esda tutish kerakki, o'qituvchining o'quvchilarning individual xususiyatlarini bilishi, har birining o'quv faoliyatini sinchkovlik bilan kuzatish, xotira, diqqat, ishlashning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil murakkablikdagi turli yondashuvlar va vazifalarni qo'llash qobiliyati. tamoyili bilan bog'liq *ta'limni individuallashtirish*, uni amalga oshirish materialni assimilyatsiya qilish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Faqat ta'limni differentsiyalash asosida tamoyili mumkin *foydalanish imkoniyati*, bu ham tinglovchilarning yosh xususiyatlari, ham ularning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. *Shaxsiy didaktika* tamoyillar ma'lum bir fanni o'qitishga yondashuvlarni belgilaydigan umumiy qoidalar haqida fikr beradi. Shunday qilib, rus tilini o'qitishda ustuvor qoidalar quyidagilar bo'ladi:

- ekstralingvistik (til birliklari va hayotiy haqiqatlarni taqqoslash);
- funksional (til hodisasining nutqdagi o'rni va vazifasini ko'rsatish);
- darajalararo va darajalararo aloqalar;
- til birliklaridan foydalanishga me'yoriy-stilistik yondashuv;
- tarixiy sharhlarga havola.

O'qitish usullarining tasniflash xususiyatlari. Usul - muayyan ta'lim maqsadiga erishishga qaratilgan usullar va shakllarning kombinatsiyasi. Usul talabalarning kognitiv faoliyatini tashkil etish usuli va tabiatining ko'rsatkichini o'z ichiga oladi. Didaktikada tushunchalar munosabatini tavsiflashda turlicha yondashuvlar mavjud *usuli Va qabul qilish.* Metodni o'qituvchi va o'quvchining bilimlarni uzatish va o'zlashtirishga, ushbu bilimlarni qo'llash ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishga qaratilgan ish usuli sifatida belgilash qonuniy bo'ladi. Faol ratsional usullarni tanlashda farqlovchi xususiyat sifatida o'quvchilarning faollik darajasi ko'rsatkichidan, shuningdek, ularning o'quv va kognitiv faolligining tabiatidan foydalanish tavsiya etiladi. 60-70-yillarda mashhur didaktiklar I.Ya.Lerner va M.N.Skatkinlar beshta asosiy ajratib ko'rsatishgan. **usullari: haqida tushuntirish va illyustrativ, reproduktiv, muammoni taqdim etish usuli, qisman izlash va tadqiqot** Xususiy usullarda ushbu tasnif mos ravishda tuzatiladi. Shunday qilib, N. Z. Bakeevaning fikricha, uchta muammoli qidiruv usulidan. va Z. P. Daunene, ikkita - muammo taqdimoti va tadqiqot - rus tilini ona tili sifatida o'rgatishda sezilarli foydalanishni topa olmadi. Bunday sharoitda rus tili darslarida ular I. Ya. Lerner va M. E. Skatkinlar mos ravishda tushuntirish-illyustrativ va qisman izlanish deb ataydigan ikkita usuldan biriga amalda mos keladi.

A. M. Smolkin tomonidan ishlab chiqilgan faol o'rganish usullarining tasnifi qiziqish uyg'otadi, chunki u ona tilini o'rgatish uchun eng mos keladi. Olim faol o'qitishning simulyatsiya usullarini, ya'ni maktab o'quvchilarining o'quv va kognitiv faoliyati taqlidga asoslangan ish usullarini ajratib turadi. Boshqa barcha usullar taqlid qilmaslikdir (masalan, materialni ma'ruza shaklida taqdim etish). Til darslariga nisbatan o'qitish usullari haqida gapirganda, buni alohida ta'kidlash kerak *nutqni o'rgatish usullari.* Shunday qilib, *nutqni simulyatsiya qilish usuli* avtomatlashtirilgan nutq ko'nikmalarini shakllantirish uchun mo'ljallangan: talaba eshitgan yoki yozgan narsalarni takrorlashi, taqlid qilishi talab qilinadi.

Foydalanish *operatsion usul* talabalar tilning ayrim birliklarini topish, ajratib ko'rsatish, to'ldirish, o'zgartirish, kiritish yoki chiqarib tashlash bilan bog'liq har qanday nutq harakatlarini bajaradilar. *Kommunikativ usul* aloqa birliklarini - jummalarni yoki izchil matnlarni anglash va mustaqil ravishda shakllantirishni o'z ichiga oladi. U qayta hikoya qilish, qurish, tarjima qilish, xulosalar yozish, insholar, sharhlar, tezislardan foydalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Митяева А.П. Ассоциативный эксперимент как способ конструирования концепта «бизнес» / А.П. Митяева // Молодой ученый. – 2015. – №11.
2. Палутина О.Г. Архитектоника концептов МИР/WORLD/PEACE в сознании носителей русского и английского языков / Terra Linguae: сб. науч. ст. – Вып. 2. – Казань: Издательство «ТАИ», 2015. – С. 6–9.

ABDULLA ORIPOV TUYG’ULAR MUSAVVIRI

Isomiddinova Hulkar Umid qizi

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining
Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti
1-bosqich talabasi*

Annotasiya: *Bu maqolamizda Abdulla Oripov o’z davrining so’z sehgari va mutafakkir, go’zal, pokiza ko’ngi sohibi va betakror, mehnatkash xalqimizning azim-u shijoatini, mustaqilligini yorqin jilokor shoiri ranglar tasvirlagan buyuk musavvir tasvirlanga*

Kalit so’zlar: *she’r, asar, tilla, tuyg’ular, xalq, shoir, daqdiri, ushbu.*

Аннотация: *В данной статье Абдулла Арипов описывается как маг своего времени и мыслитель, прекрасный, чистый сердцем и неповторимый художник, гениальный поэт, изображающий великое мужество и независимость нашего трудолюбивого народа.*

Ключевые слова: *стихотворение, произведение, золото, эмоции, люди, поэт, судьба, это.*

Annotation: *In this article, Abdulla Aripov is described as a magician of his time and a thinker, a beautiful, pure-hearted and unique artist, a brilliant poet who depicts the great courage and independence of our hardworking people.*

Keywords: *poem, work, gold, emotions, people, poet, destiny, this.*

She’r - bu ruhiyat taqdiri, tuyg’ular tasviri - deb ta’kidlagan edi Alisher Nazar. Haqiqatdan ham, unda go’zal, pokiza ko’ngilning goh mayin, gohida o’tli gohida esa mungli manzaralari tasvirlanadi. Demak, shoirlarni “Tuyg’ular musavviri” desak mubolag’a bo’lmaydi. Mana shunday o’zining o’zining jilvakor ranglari va jo’shqin tuyg’ulari ila qalam tebratgan buyuk musavvir “O’zbekiston Qahramoni” Xalq shoiri Abdulla Oripovning qalblardan qalblargacha kirib bora oladigan hayot baxsh tuyg’ulari meni o’ziga rom etgan Abdulla Oripov vatanimiz jonajon O’zbekistonimizni uning o’tmishi, buguni va kelajagini uning betakror tabiatini, mehnatkash xalqimizning azim-u shijoatini, mamlakatimizning mustaqilligini yorqin jilokor ranglarda tasvirlagan musavvirdir. XX asrning 60-yillarida Abdulla Oripov “Men nechun sevaman O’zbekistonni” O’zbekiston she’rlarida Ona - Vatan va fidoiy vatanparvar obrazining ajoyib matvatsiya yaratdi

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni

Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.

Tashlandi ushoq yeb o’tadi kuni

xor-u xas xazonlar ustin yopdilar .

Ushbu “Tilla baliqcha” she’rida shoir adolatga insoniy barkomollikka chorlovchi tasvirlarni singdirgan. Tilla baliqcha dunyoga keldi-yu, og’ir muhit uni o’z girdobiga oldi. Qizig’i shundaki, u boshqa maskanlarni ko’rmagani bois shu muhitga ko’nikdi va sokingina yashay boshladi. Ammo isyonkor shoir qalbi bu holga ko’nikolmadi: “Menga alam qilar, tilla baliqcha bir ko’lmak hovuz deb bilar dunyoni”, deb hayqirdi u “Tilla baliqcha” asli kim

edi? She’rdagi “loyqa hovuz”, she’r yozilgan davrdagi jamiyat, tuxumdan chiqqan “tilla baliqcha” esa bu jamiyatda voyaga yetayotgan yangi inson, yangi avlod unga yemish sifatida berilayotgan “tashlandiq ushoqlar” esa fuqorolarning g’oyaviy ozig’i bo’lmish firqaviy va sho’roviy mafkurani tasvirlaydi. Usha davrlarda o’zbek xalqiga ig’volar, tuhmatlar uyushtirilgan. Hatto, bir mayizni qirqqa bo’lib yeyishdek bag’rikenglikni, o’zi yemay do’stiga tutishdek mehmonparvarlikni uyalmay poraxo’rlik deb atagan kimsalar bo’ldi. Bunday adolatsizliklarni ko’rgan shoirimiz “Javob” nomli she’rida;

“Muruvvat neligin bilmas mehmonim”- deya qalbi qattol kimsalarni fosh etadi.

Bir kimsa umrining so’ngiga qadar,
Yig’di mol-u dunyo, yig’di siym-u zar
Beshavqat ajalga berar ekan tan,
U dedi shu ekan dunyo shu ekan,

Dunyo va hayot haqida har kim o’z falsafasiga ega. Ammo insoniylik qiymati shundaki, u faqat bu dunyoni emas, balki oxirat hayotini ham o’ylab yashaydi va ezgu amallar qilmoqqa intiladi. Zero, ana shu ezgu amallar insonning bu dunyoda yaxshi nomga, oxiratda esa ajr-u mukofotga erishuviga sabab bo’ladi.

Parchagina bulut, cheksiz osmon
Adir ortidagi yolg’izoyoq yo’l.
Parcha tashvishlarni unitib shodon
Qayta olsam edi qoshinga butkul.

Xulosa: Abdulla Oripov — ardoqli o’zbek shoiri va jamoat arbobi. Zamonaviy o’zbek she’riyatida inson qalbidagi murakkablik va ziddiyatlarni teran, haqqoniy o’ziga xos betakror kuylagan taniqli ijodkor. Abdulla Oripov hozirgi o’zbek she’riyatiga yangicha badiiy tafakkur yo’sinlarini olib kirdi. U tub mohiyati bilan Yassaviy, Navoiy, Bobur, Cho’lpon, G’afur G’ulom singari ijodkorlar badiiy an’alarining davomchisi hisoblanadi. Shoir O’zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi she’ri muallifidir. o’rnida shuni aytish joizki, XX asrning ikkinchi yarmi, 70-yillardan bugungacha o’zbek she’riyatida falsafiylikni Abdulla Oripov lirikasi bilan bog’lash o’rinli bo’lar edi. Shoir she’rlarida so’zlar, satrlarda cho’g’dek yonib turadi. Shuning uchun ham shoir she’rlarini loqaydlik bilan o’qib bo’lmaydi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Oripov Saylanma Toshkent “Tafakkur qanoti” 2019.
2. Abdulla Oripov Ruhim. Toshkent, 1971.
3. Abdulla Oripov Hayrat. Toshkent, 1974.
4. <https://tafakkur.net> sherlar abdulla-oripov

«INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI» FANINI O’QITISHDA INTERFAOL METODLARNING O’RNI VA AHAMIYATI

Abdullayeva Iroda Abdukarim qizi

*Xorazm viloyati Xonqa tumani 6- umumiy o’rta ta’lim maktabining
Informatika va AT fani o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika fanini o’qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari haqida ma’lumot keltirilgan.*

Kalit so’zlar: *texnologiya, zamonaviy metodlar, interfaol usullar, didaktik tamoyillar.*

Keyingi vaqtlarda pedagogik texnologiya masalasi mutaxassislar tomonidan alohida tadqiqot ob’yekti sifatida o’rganila boshlandi. Bunda pedagogik texnologiya ta’lim, o’qitish jarayoni maqsadiga va shaxs barkamolligiga erishtirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat samardorligini oshirishning tizimlashtirilgan, loyihalashtirilgan vosita va usullari sifatida talqin qilinadi. Fanlarni o’qitish o’qituvchidan mantiqiy usullar asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Chunki fan asoslarini o’zlashtirish uchun talaba abstrakt tushuncha, (kategoriya)larning mazmun, mohiyatini teran anglab yetishi kerakligi, bunga esa o’qituvchi, eng avvalo, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mantiqiy usullardan mohirlik bilan foydalangani holda qo’llay bilishi orqali erishadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar asosida o’qituvchining yangi bilimlarning o’quvchilar tomonidan muayyan o’quv topshiriq, masalalarni yechishi bo’yicha muammoviy vaziyatlarni tashkil qilishi va shu yo’nalishda o’quv jarayonini boshqarishi tamoyili yotadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o’quvchilarda fanga bo’lgan qiziqishini hosil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki mazkur usullar o’quvchilarning diqqatini qo’yilgan muammolarning mohiyat-ahamiyatini anglab olishga va ularning yechimi ustida mustaqil, tanqidiy muhokama yuritishga yo’naltiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun bir qator interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar qo’yilgan muammoning yechimini topishga qaratilgan bo’lib, bunda mantiqiy usullar, xususan, tushunchani ta’riflash va bo’lish, umumlashtirish va chegaralash, savollar tuzish, baxs va boshqalar nazariy- metodologik mavqeini egallaydi.

Pedagogik texnologiyalardan biror bir fanni o’qitish jarayonida foydalanish o’qituvchidan informatika va axborot texnologiyalari fani asoslarini yaxshi bilishni, uning qonun-qoidalari va usullarini amaliyotda qo’llay bilish malakasiga ega bo’lishini talab etadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani didaktikasi va o’qitish metodikasida asosiy o’rinlardan yana birini o’qitish usullari egallaydi.

O’qitish usuli (metodi) (grekcha *metodos* - biror narsaga yul so’zidan) - bu ta’lim va tarbiya vositasi sifatidagi o’qitish maqsadlariga erishishga yo’naltirilgan o’qituvchi va o’quvchining bir-biri bilan bog’langan faoliyatining tartiblangan usullaridir.

O’qitish metodlarining muammosini qisqacha “*qanday o’qitish kerak?*” degan savol yordamida ifoda qilish mumkin. Lekin shuni e’tirof etish lozimki, ushbu savolga javob olish uchun “*Nima uchun o’qitish kerak?*”, “*Nimalarni o’qitish kerak?*” va “*Kimlarni o’qitish kerak?*” kabi savollar bo’yicha yetarlicha axborotga ega bo’lish kerak. Ana shundagina o’qitish maqsadi va mazmuniga, o’quvchilarning fikrlash faoliyati darajasiga to’liq javob bera oladigan o’qitish metodlarini tanlash masalasi xal etilishi mumkin.

O’qitishning maqsadi va vazifalari o’qitish metodini yagona ravishda aniqlamaydi. Ma’lum bir mazmun bir necha metod bilan o’rganilishi mumkin. Bunda albatta xar bir metod yordamida o’qitish maqsadlariga erishiladi.

O’qitish metodlari ko’p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko’plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo’yicha jamlanadi.

Ma’lumki, “Informatika va axborot texnologiyalari” o’quv predmetining asosiy vazifasi o’quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba’zi bir umumiy g’oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi ro’lini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni xisobga olgan holda, o’quvchilarga nafaqat faktlarning qat’iy ilmiy bayonini berish, balki o’qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo’llash lozim.

Masalan, ko’pchilikka ma’lum va ommabop bo’lgan krossvord o’yini bolalarda qiziqish uyg’otishi tabiiydir. Krossvord ko’rinishidagi so’rov shakli o’quvchilar uchun har doim qiziqarli va o’ziga tortadigan metoddir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dastri”da o’sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi qo’yilgan. Ushbu masalani hal etilishi ko’p jihatdan o’qitishning interfaol metodlarini qo’llashga ham bog’liq.

Avvalo “*interfaol (interaktiv)*” tushunchani aniqlashtirib olaylik. “Interaktiv” degan so’z inglizcha “*interact*” so’zidan kelib chiqqan. “Inter” - o’zaro, “act” - ish ko’rmoq, ishlamoq degan ma’nolarni anglatadi. Demak interaktiv deganda o’zaro ish ko’rish, faoliyat ko’rsatish yoki suxbat bilan yoki tartibda kim bilandir (inson bilan) diolog (mulokot) xolatida bo’lish tushiniladi. Shunday kilib, interfaol o’qitish - bu, avvalambor muloqotlili o’qitish bo’lib, jarayonning borishida o’qituvchi va o’quvchi orasida o’zaro ta’sir amalga oshiriladi.

Interfaol o’qitishning mohiyati o’quv jarayonini shunday tashkil etadiki unda barcha o’quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo’lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo’ladilar.

Darslardagi interfaol faoliyat o’zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin xar bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko’zda tutadi. Interfaol usul bitta so’zga chiquvchining, shuningdek bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini chiqarib tashlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun // Xalq ta’limi. 1997. №5. S.4-16.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to’g’risida”gi qonuni. “Xalq so‘zi”. 11-fevral, 2004.
3. “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to’g’risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2005, 3-iyun.
4. “2001-2005 yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, “Internet”ning Xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora- tadbirlari to’g’risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori. “Xalq so‘zi” 24- may, 2001.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS O‘TISHNING AHAMIYATI.

Abdullayeva Mavluda Yuldashbayevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

7-sonli maktab Boshlang‘ich ta’lim fani o‘qituvchisi

Annontatsiya: *"Yangi tamoyillar asosida rivojlanayotgan ta’lim tizimi yosh avlodni barkamol, ma’naviy yetuk inson sifatida shakllantirishga qaratilgandir", - deyiladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida.*

Kalit so‘zlar: *Texnologiya-tuzilma, didaktik maqsad, pedagogik texnologiyalar, didaktik maqsad, DTS talablari.*

Umumiy ta’lim, jumladan, boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarni o‘rta ta’lim bosqichiga tayyorlash bilan birga ularda o‘qish, mehnat qilish, tashabbus ko‘rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatlarni taraqqiy ettirish kabilar ham amalga oshirildi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borilmoqda. Texnologiya-tuzilma, didaktik maqsad, ya’ni vazifalarni belgilab olishdan boshlanib, ta’lim jarayonini bir butun yaxlitlikka yo‘nalishni nazarda tutadi. Bu jarayon 1-4 sinflar orasidagi uzviylikni ta’minlash bilan bog‘liq. U shunday kechadiki, bitta o‘qituvchi to‘rt yil mobaynida o‘quvchilarni ta’lim tizimining o‘rta bo‘g‘inida olib chiqadi.

1-4 sinflarda joriy etilgan yangi texnologiya, avvalo fanlar orasidagi bog‘liqlikni ta’minlash, ortiqcha qiyinchiliklarni bartaraf etish, fanlarni integratsiyalash, o‘quvchi faoliyatini to‘g‘ri izga solish, vaqtdan unumli foydalanish, tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, ijodiy ishlash tizimini yaratish kabi qator maqsadlarni amalga oshirish kabi zarur ishlarni bajaradi.

Boshlang‘ich ta’lim oldiga qo‘yiladigan vazifalarning to‘laqonli bajarilishini nazorat qilish, ta’lim bo‘yicha DTS talablari asosida amalga oshiriladi, ya’ni integratsiya asosidagi takomillashtirilgan boshlang‘ich ta’limga o‘tildi. Ta’lim tizimi shaxsni shakllantirish uchun, Davlat Standarti Talablari asosida hamda jahon ta’lim darajasida kadrlar yetishtirish uchun avvalo o‘qituvchilar, murabbiylar shaxsini har tamonlama mukammal bo‘lishini talab qiladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mas‘uliyati katta, u umumiy ta’lim tizimining asosini, poydevorini yaratuvchi shaxsdir. Barcha yaxshi ishlar bolani ezgulikka yetaklash, o‘qituvchining pedagogik mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Buyuk alloma, inson ruhhiyatining muhandisi Ibn Sino o‘zining "Tib qonunlari" asarida shunday fikr bayon qiladi: "O‘qituvchining barcha hatti harakatlari ezgulikdan iborat bo‘lmog‘i kerak".

Bugungi kunda ta’lim tizimini to‘g‘ri yo‘naltirish dolzarb muammodir. Bu jarayon bola ruhiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bu borada ruhshunos olimlarning fikri qanday?

Ular bolani ortiqcha yukdan ozod qilish, saboqlarni me‘yorlash, nazariy bilimlarni hammasini amaliy mashg‘ulotlar zamiriga singdirishga e‘tibor berish, o‘yin-mashg‘ulot turlarini ko‘paytirish orqali samaradorlikka erishish mumkinligini takidlaydilar.

Darhaqiqat, o‘yin bolaga orom, qoniqish baxsh etadi. Masalan, kompyuter hozirgi kunda ta‘lim tizimida keng o‘rin egallaganini bilamiz. Bu bola faoliyatida o‘z aksini topmoqda. Qolaversa bolalar sayr-sayohatlar tashkil etish orqali allomalarimiz, xalq qahramonlari hayotifaoliyati bilan yaqindan tanishib, o‘zbek xalqining jahon xalqlari qatoridagi o‘rni va nufuzini anglamoqdalar. Bola tafakkurini har tamonlama rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirishda sayrsayohat darslari keng ko‘lamda olib borish kerak. Chunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to‘g‘ri samarali foydalanish esa o‘qituvchining vazifasidir.

Bolaning hissiy bilish, ma‘lumot va ko‘nikmalarni qabul qilishga keng imkoniyat yaratish uchun erkinlik berish, uni ijodiy ishlar qilishga, bajargan ishi samarasini ko‘rib quvonishiga, yangi-yangi yutuqlarga yo‘llash zarur.

Yangi pedagogik texnologiya bola faoliyatini to‘g‘ri yo‘naltirishga qaratilgan bo‘lib, avvalo uning sog‘ligini muhofaza qilishni, unda turfa fazilatlarni shakillantirish uchun amaliy yondashuv rejalarini tuzishni, bu rejalarda bolani quvnoqlikka, topqirlikka undovchi vositalar jamlanishini, hozirjavoblikka, sermulohazalikka, to‘g‘ri raqobat qila olishga yoki faraz qila olishi qobiliyatini rivojlantirishga, ijodiy tafakkur, qilish, tadbirkor bo‘lishga undovchi qator nazariy va amaliy ishlar majmuasini barqaror etishni nazarda tutadi.

Yangicha ta‘lim jarayonida o‘quv dasturlaridan keyin, o‘rin olayotgan iqtisodiy ta‘lim berish, insonning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlari hamda jamiyat talablarini qondirishga doir bilimlarni ko‘proq amaliy ishlar bilan bog‘lash, oila bilan maktab hamkorligini mustahkamlash bolada burch hissini paydo qilish, halollik, irodali bo‘lish, iltifot ko‘rsata bilish, o‘z mulkini saqlash, odod-ahloq qoidalariga to‘la rioya qilish, milliy g‘urur hissini tarbiyalash kabilar uchun bolalarda intilish, ishtiyoq uyg‘otish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
2. Pedagogik ta‘lim
3. Bola o‘qitish metodikasi
4. Ijodkor o‘qituvchi jurnali 2021-yil.

TIBBIYOTDA QO‘LLANILADIGAN MATERIALLARNING KIMYOVIY TARKIBI

Abdurahmonova Muhabbat Muydinjonovna

Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri

1 - o'rta ta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tibbiyotda foydalanishni taqazo etadigan materiallarning ro'yxati va ularning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari haqida suhbatlashamiz.*

Kalit so'zlar: *kimyoviy tarkib, gipsli, bint, Infuzion, transfuzion, eksfuzion sistemalar,*

....

Tibbiyotda qo‘llaniladigan materiallarning kimyoviy tarkibini aniqlashdan oldin ushbu materiallarning o‘ziga to‘xtalsak.

Tibbiyotda qo‘llaniladigan tibbiy buyumlar ro‘yxati quyidagichadir.

I. Tibbiyot bog‘lov materiallari:

1. Tibbiyot dokasi, shu jumladan paxta matoli va to‘qilgan;
2. Tibbiyot gigroskopik, gigiyenik, jarrohlik paxtasi;
3. Tibbiyot gipsli bintlari;
4. Mato va nomato materialdan tayyorlangan tibbiyot bintlari;
5. Birinchi tibbiy yordam bog‘lamlari to‘plami;
6. Gemostatik materiallar;
7. Tibbiyot tamponlari, turundalar, paxta-dokali bog‘lov vositalari, shu jumladan dokadan tayyorlangan salfetaklar va qirqimlar;
8. Tibbiyot niqoblari;
9. Tibbiyot plastirlari (mahkamlovchi yoki davolovchi);
10. Tibbiyot yelimlari;
11. Sorbentlar va gemostatik kukunlar;
12. Tibbiyot tayoqchalari.

II. Tibbiyot tikuv materiallari:

13. Tibbiyotda qo‘llaniladigan iplar (so‘riladigan yoki so‘rilmaydigan, ignali yoki ignasiz);

14. Jarrohlik tikuv skobalari va klipsalari.

III. Teshish, inyeksiya, transfuziya va so‘rib olishga mo‘ljallangan tibbiy buyumlar:

15. Bir marotaba qo‘llaniladigan inyeksion shprislar;
16. Infuzion nasos uchun shprislar;
17. Tana bo‘shliqlariga suyuqlik yuborish uchun qo‘llaniladigan shprislar;
18. Jane shprislar;
19. Drenaj uchun mo‘ljallangan tibbiy buyumlar;
20. Tibbiyotda qo‘llash uchun mo‘ljallangan ignalar;
21. Infuzion, transfuzion, eksfuzion sistemalar;

22. Qon olish hamda qon va uning komponentalarini saqlash uchun konteynerlar;
23. Shpris-ruchkalar;
24. Kanyula va kateterlar;
25. Zondlar;
26. Skarifikatorlar, lansetlar.

Ushbu materiallarni tayyorlash jarayonida tabiiy paxta bilan birgalikda sun‘iy, ya‘ni sintetik polimer ashyolar ham keng qo‘llaniladi. Tabiiy polimer ashyolardan ko‘plab bog‘lash vositalar tayyorlanadi:

Masalan, momiq, doka, va ulardan tayyorlangan mahsulotlar –alignin, shuningdek choklash iplar (jarrohlik ipagi). Polimerlar turli asboblar, tibbiy apparatura va asbob-uskunalar qismlarini tayyorlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Keyingi moddamiz bu- Elastomerlar. Kauchuk va rezina

Kauchuklar endilikda "elastomerlar" deb ataladi. Keng haroratlar oralig‘ida yuksak egiluvchanlik – qiyosan katta bo‘lmagan bosimlarda sezilarli qaytish deformatsiyalar (bir necha yuzdan 1000 % chan va undan ortiq) ga chidaydigan polimerlar elastomerlardir. Bunday egiluvchan ashe tabiiy kauchuk bo‘lib, bugungi kundagi elastomerlar ishlab chiqarishda, shu jumladan bezararligi bilan o‘zining ahamiyatini yo‘qotmagan.

Kauchuk ushbu lateksda 34-37 %, 25-27 % oqsil, 1,65-3,4 % smola, 1,5- 4,92 % qand bor, suvda yarmidan ortiq eritilgan lateks (braziliya geveyasining sut sharbati) dan olinadi. Lateksdagi kauchuk – sharsimon diametri 0,15- 3 mkm bo‘lakchalar (o‘rta- cha hajmi 0,17-0,26 mkm) ko‘rinishida bo‘ladi.

Lateks buyumlarni botirish yo‘li bilan ishlab chiqarishda birlamchi ashyo sifatida muhim ahamiyatga ega (jarrohlik qo‘lqoplar, so‘rg‘ichlar, barmoqqiloflar).

Hozirgi vaqtda sintetik kauchukning, shu jumladan tabiiy kauchukdan kam farq qiladigan rangsiz izopren turi va bir necha xillari ishlab chiqarilmoqda. Tibbiy maqsaddagi buyumlar uchun siloksan (silikon) kauchuk istiqbolli hisoblanadi.

Sintetik kauchuklarni tayyorlash uchun neft, tabiiy gaz, toshko‘mir xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi.

Elastomerlar. Lateks-tabiiy kauchuk bo‘lib, Hevea Brasiliensis Braziliya geveyasi daraxtining sutidan olinadi, lateks rezina buyumlarni tayyorlashda ishlatiladi.

Hozirga vaqtda latek olinadigan daraxt turlari 2000 dan ortiq turlari aniqlangan, lekin 99%olingan lateks miqdori Hevea Brasiliensis to‘g‘ri keladi.

Rezinani ishlab chiqarish jarayonida lateksga texnik ishlov beriladi. Rezina buyumlarni kerakli darajada mustaxkam, elastiklik bo‘lishi uchun ularga turli kimyoviy moddalar (ammoniy, antioksidantlar, tsink oksidi, tiuram, kaptaks, pigmentlar, kislota, emmulsiyalar, oltingugurt va boshqalar) qo‘shiladi. Tayyor rezina buyumlarga ularni mustaxkamligini oshirish maqsadida talk, jo‘xori kraxmali, kaltsiy nitrat kukuni sepiladi. Ba‘zi shaxslarda lateksdan tayyorlangan buyumlar allergiya chaqirib, teri yuzasida turli toshmalar hosil qiladi. Shu sababli bunday lateks qo‘lqoplar o‘rniga vinilli, nitrilli, neoprilli qo‘lqoplar ishlatiladi. Ukrainada ko‘rik uchun nitrilli (—Nitra

Teks",—Nitroteks EP"), vinilli (—Sinseyshen", —Sinseyshen PF"), neoprenli jarrohlik (Derma Pren Ultra) qo‘lqoplari keng tarzda qichariladi.

Tashhis uchun qo‘lqoplar eng keng tarqalgan turi bo‘lib, boshqalardan narxi bo‘yicha ham farq qiladi- arzon. Ular ko‘rik uchun, muolajalar o‘tkazishda ishlatiladi, uchta o‘lchamda chiqariladi:

—S –kichik (qo‘lqoplarning 6-7 raqamiga to‘g‘ri keladi).

—M – o‘tacha (7-8 o‘lchamga to‘g‘ri keladi).

—L – katta (8-9 o‘lchamga to‘g‘ri keladi).

Qo‘lqop uzunligi 24 sm, yuzasi tekis, silliq. Ba‘zan qo‘lqoplarning bunday turlari uzunligi 28 sm li chiqariladi. Qadoqlaganda 100 – tadan chiqariladi. (50 dona juft).

Kauchuk yoki —xom kauchuk aralashmani egiluvchan rezina (foydalanish uchun xossalari zarur ashyo) ga aylantirish vulqonlashtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Vulqonlashtirish metallar va qotishmalar termik ishlov berilishiga o‘xshab, kauchuk tarkibini o‘zgartiradi. Asosiy vulqonlashtirish moddasi oltingugurt bo‘lib, shuningdek tellur va selen ham qo‘llaniladi. Kauchukga qanchalik ko‘p oltingugurt qo‘shilsa, u shunchalik qattiq va egiluvchan elastomer hosil qiladi. Oltingugurt miqdori 35 % dan yuqori bo‘lsa, qattiq ebonit xosil bo‘ladi.

Shaklga solish qulay bo‘lgan egiluvchan ashyo va rezina buyumlar ishlab chiqarish uchun qayishqoqlangan kauchuk vulqonizator, to‘ldiruvchilar, bo‘yoqlar, eskirishga qarshi moddalar, yumshatgichlar bilan aralashiriladi. Hosil qilingan rezina yoqimsiz hidli bo‘lmasligi kerak. Tozalanadigan rezina buyumlar

o‘zlarining mexanik sifatlarini yo‘qotmasligi lozim.

Plastik ashyolar. Muayyan sharoitlarda plastik holatga o‘tadigan va ko‘zda tutilgan shaklni kasb etadigan, organik va anorganik moddalar bilan aralashgan polimer ashyolarga plastik massalar deyiladi. Plastmassalar asosini tashkil etadigan ayrim polimer ashyolar tibbiy buyumlar ishlab chikarishda urnini bosolmaydigan xossalari (biologik muhitlarga nisbatan zararsizlik, mo‘rtlik, tozalovchi va dezinfeksion reagentlar ta‘siriga qarshilik ko‘rsatishga qodirlik) ga ega bo‘ladi.

Plastmassani hosil qiladigan asosiy modda bo‘lib 2 turdagi sintetik smola xizmat qiladi: termoplastik va termoaktiv smolalar. Takroriy qizdirilganda erish qobiliyatni saqlab qoladigan va sovutilganda qotadigan smolalar termoplastik smolalar deyiladi. Yuqori haroratda qotadigan va quyilmaydigan va erimaydigan xolatga o‘tadigan smolalar termofaol smolalar deyiladi. Ba‘zida pastmassani kerakli rangda bo‘lishi uchun smolaga bo‘yoqlar yoki mineral pigmentlar aralashiriladi. Bunday plastmassadan faqat batafsil toksikologik sinovlardan keyin tibbiy buyumlar tayyorlanadi.

Termoplast ashyo hisoblangan polistirol – plastifikatorlar ishtirokida yoki ular ishtirokisiz stirolni polimerlashtirish mahsulotidir. Kislotalar va ishqorlar, suvga chidamli va qattiqligi bilan ajralib turadi; elektr izolyatsiya ashyosi sifatida xizmat qiladi.

Polistiroidan yasalgan qismlar bosim ostida qo‘yiladi: elektr tibbiyot apparaturasi qismlari, idishlar va iste‘mol idishlar (qutilar), bir marta foydalaniladigan buyumlar (shpirtsalar).

Polipropilen –propilenni polimerlash mahsulotidir, qattiq tiniq polimer. Kimyoviy chidamliligi, mexanik xossalari va issiqqa bardoshliligi bilan polietilendan ustun turadi. Gaz apparaturasining naylari va shlanglari (konnektorlar) ni, sun’iy qon aylantirish apparatlari qismlari va bog‘lamlarini, shuningdek qadoqlash kobigini tayyorlashda qo‘llaniladi.

Penaplast - oddiy xlorange poliefir. Qizitishga ancha chidamli, bug‘ bilan tozalashda 400 turkunga bardosh beradi, kimyoviy tozalovchi eritmalarga chidamli. Shpitslar, Petri chashkalari, kolbalar, tomizgichlar tayyorlashda qo‘llaniladi.

Polietilentreftalat (lavsan) – choklash ashyosi sifatida kullaniladi.

Polikarbonat (diflon) – tiniq va mustahkam, suvga, kislota va ishqorlarga chidamli. SHpitslar, tsilindrlar va boshqa buyumlarni ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

Termofaol plastmassalar

Tibbiyot texnikasi buyumlarini tayyorlashda termoaktiv plastmassalar orasida fenoplastlar va aminoplastlar keng ishlatiladi.

Fenoplastlardan tayyorlangan buyumlar yuqori issiqlikka chidamliligi, binoyidek izolyatsiya xususiyati bilan ajralib turadi, kislota va ishqor eritmalariga chidamli. Ulardan shtepsellar, rozetkalar, patronlar, tonometr va sfigmanometrlarning g‘iloflari, apparatlarning boshqa qismlari tayyorlanadi.

Tibbiyotda ishlatiladigan materiallarning kimyoviy tarkibini o‘tganish juda qiziqarli jarayon bo‘lib ushbu kimyoviy materiallarning xususiyatlari tibbiyotda juda qo‘l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.N.Ziyaeva, G.A.Sultonova. Tibbiyot tovarshunosligi. Darslik.Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Fan»nashriyoti. 2008.318 b.

2. M.N.Ziyaeva. Tibbiyot tovarshunosligi. Darslik. Toshkent. O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.

TA’LIM JARAYONIDA INFORMATIKA VA MATEMATIKA FANLARI INTEGRATSIYASI

Aminova Oltinoy Yusupovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta’lim jarayonida informatika va matematika fanlari integratsiyasi haqida fikr- mulohazalar bildirildi.*

Kalit soʻzlar: *axborot, texnologiya, elektron jadval, modellashtirish.*

Hozirgi davrda olimlar innovatsion ta’lim texnologiyalari tarkibini samarali usul va vositalar asosida tizimlashtirib, ularning tub mohiyatini ochib berishga erishmoqdalar. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborot-ta’lim muhitini shakllantirishga va innovatsion darslarni tashkil etishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Zamonaviy o’qituvchining jamiyatni axborotlashtirish sharoitida ishlashga tayyorligini belgilab beradigan quyidagi axborot-kommunikativ salohiyatlar muhim hisoblanadi: kasbiy vazifalarni informatikaning zamonaviy vositalari va metodlarini axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda bajara olish malakasi; kasbiy faoliyatda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalanish borasida tayyorgarlik darajasini real aks ettiruvchi, shakllanib ulgurgan shaxsiy sifatleri; vaziyatni to’g’ri baholash va pedagogik faoliyatda axborot-kommunikativ texnologiyalardan foydalangan holda samarali qarorlar qabul qila oladigan predmet-maxsus bilimlarni tashkil etish imkoniyatiga ega bo’lish.

Matematika fanlarini o’qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta’minlash maqsadida informatika fani yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini ta’lim muassasalariga tatbiq etish, o’qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo’l ochib beradi. Keyingi o’n yillikda matematika fanini o’qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo’nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamidabilimni baholash, turli tipdagi o’rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish varivojlantirish, bilishgaoid matematikaviy o’yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi.

Ko’p holatlarda vujudga keladigan matematik muammoni tez va berilgan aniqlikda hal etish uchun professional matematikdan o’z kasbi bilan bir vaqtda ma’lum bir algoritmik til va dasturlashni bilishi talab qilinadi. Shu maqsadda XX asrning 90-yillarida matematiklar uchun ancha qulayliklarga ega bo’lgan matematik sistemalar yaratilgan. Bu maxsus sistemalar yordamida turli sonli va analitik matematik hisoblarni, oddiy arifmetik hisoblashlardan boshlab, to xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechishdan tashqari, grafiklarni yasashni ham amalga oshirish mumkin. Kompyuter texnologiyasida matnlar, tasvirlar, ovozlar, shakllar va shunga o’xshash boshqa ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari maxsus dasturlash yordamida

juda yengil va tezkorlik bilan hal etilmoqda. Shuning uchun matematika, fizika, ximiya, biologiya va boshqa fanlarni o'qitishda kompyuter texnologiyasidan foydalanish ijobiy natijalarni olib kelmoqda.

Haqiqatdan o'qituvchi Windows operatsion tizimi bilan ishlatiladigan Word matn muharriri, Power Point, Internet, Excel va boshqa maxsus amaliy dasturlar, multimedia vositalari yordamida yengilgina o'z darsini kompyuter texnologiyasidan foydalanib tashkil etishi mumkin. Buning natijasida o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi, o'tilgan mavzuni tushinish, kerakli tushunchani anglash va o'zlashtirish jarayoni tez kechadi.

Elektron jadvallar asosan iqtisodiy masalalarni yechishga mo'ljallangan bo'lsada. Uning tarkibiga kiruvchi vositalar boshqa sohaga tegishli masalalarni yechishga ham, masalan, formulalar bo'yicha hisoblash ishlarini olib borish, grafik va diagrammalar qurishga katta yordam beradi. Exceldagi avtomatik to'ldirish imkoniyatidan foydalanib sonli qiymatlarni va matn elementlarini kiritishni osonlashtirish mumkin. Bu imkoniyat ayniqsa funksiya qiymatlarini jadval-lashtirishda katta yordam beradi. Funksiya qiymatlarini ma'lum qadam bilan hisoblash matematikaning juda ko'p bo'limlarida uchraydi. Ayni shu imkoniyatlardan foydalanib matematika fakultetidagi talabalar funksiyalarning grafiklarini hosil qilishlari va shu tariqa ayrim murakkabroq funksiyalarning xossalarini ekranda aniq ko'rishlari mumkin. Excel dagi funksiya ustasi funksiya va uning argumentlarini yarim avtomatik tartibda kiritishga yordam beradi. Funksiyalar ustasini qo'llash funksiyaning yozilishi va uning hamma argumentlarini sintaktik to'g'ri tartibda kiritilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida talabalarning funksiyalarning xossalarini qiynalmay va tezda o'rganishlariga juda katta yordam beradi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy - mafkuraviy jihatdan tarbiyalash ishi faqatgina ta'lim muassasalaridagina olib borilib qolinmaydi. Balki, bu ish umumjamiyat miqyosida amalga oshiriladi. Bu jarayonda axborot texnologiyalari, intarnat tarmog'i, oila, mahalla, xuquqiy tashkilotlar, ma'naviy - mafkuraviy markazlar, ijtimoiy institutlar, mehnat jamoalarining o'rnini ham beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET RESURSLARI:

1. Azizxojayeva N.N. “Pedagogika va pedagogik mahorat”- T.: TDPI, Nizomiy 2003 yil.
2. Avliyoqulov N. “Zamonaviy o'qitish texnologiyalari”- T.:, 2001yil.
3. Yo'ldoshev J., Usmonov S. “Pedagogik texnologiya asoslari”- T.: O'qituvchi 2004 yil.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA DARS VA MATEMATIKA DARSLARI TIZIMI.

Bobojonova Shaxnoza Rashidovna
Matrasulova Nargiza Boltoboyevna

Xorazm viloyati Shovot tumani

4-sonli umumta’lim maktab

Boshlang’ich sinf o’qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqola boshlang’ich sinflarda matematika darsi, uning xususiyatlari, darsni tashkil qilish tizimi, darsga qo’yilgan talablar to’g’risidagi bilimlarni mustahkamlash, dars ishlanma tuzishga o’rgatadi.*

Kalit so’zlar: *Dars, dars tizimi, dars mazmuni, dars tarkibi, dars tiplari, matematika darslari xususiyatlari.*

Maktabda matematika o’qitishni uyushtirishning tarixiy, murakkab, ko’p yillik tajribada tekshirilgan va hozirgi zamonning asosiy talablariga javob beradigan shakli darsdir.

O’quvchilarning matematik bilimlarni o’zlashtirishi faqat o’quv ishida to’g’ri metod tanlashga bog’liq bo’lmasdan, balki o’quv jarayonini tashkil qilish formasiga ham bog’liqdir. Dars deb dastur bo’yicha belgilangan, aniq jadval asosida, aniq vaqt mobaynida o’qituvchi rahbarligida o’quvchilarning o’zgarmas soni bilan tashkil etilgan o’quv ishiga aytiladi.

Dars vaqtida o’quvchilar matematikadan nazariy ma’lumotga, hisoblash malakasiga, masala yechish, har xil o’lchashlarni bajarishga o’rganadilar, ya’ni darsda hamma o’quv ishlari bajariladi.

Matematika darsining o’ziga xos tomonlari, eng avvalo, bu o’quv predmetining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Bu xususiyatdan biri shundan iboratki, unda arifmetik material bilan bir vaqtda algebra va geometriya elementlari ham o’rganiladi.

Matematika boshlang’ich kursining boshqa o’ziga xos tomoni nazariyamaliy masalarning birgalikda qaralishidir. Shuning uchun har bir darsda yangi bilimlar berilishi bilan unga doir amaliy ko’nikma va malakalar singdiriladi.

Odatda darsda bir necha didaktik maqsadlar amalga oshiriladi: yangi materialni o’tish; o’tilgan mavzuni mustahkamlash; bilimlarni mustahkamlash; bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish; mustahkam o’quv va malakalar hosil qilish va hokazo.

Matematika darslarining o’ziga xos yana bir tomoni shundaki, bu - o’quv materialining abstraktligidir. Shuning uchun ko’rgazmali vositalar, o’qitishning faol metodlarini sinchiklab tanlash, o’quvchilarning faolligi, sinf o’quvchilarining o’zlashtirish darajasi kabilarga ham bog’liq.

Hozirgi zamon matematika darslari oldiga qo’yilgan talablardan yana biri o’quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyatini o’stirishdan iboratdir. O’quvchida analiz, sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish kabi aqliy operatsiyalar shakllanadi.

Boshlang‘ich sinflarda matematika darslar tizimi- O‘quvchilar bilan har bir darsda bir necha tushunchalar bilan ish olib boriladi. Har birini shu darsning turli bosqichlarida o‘zlashtirishi mumkin. Har bir tushunchani tushunish boshqa bir tushunchani takrorlash, esga olish bilan olib borilsa, bu tushuncha esa keyingi tushunchalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. O‘qitish jarayonida har bir o‘quv materialini rivojlantirilgan holda olib boriladi, bu o‘quv materialini o‘zidan keyin o‘qitiladigan materiallarni tushunish uchun poydevor bo‘ladi. Boshqa tushunchaning o‘zlashtirilish jarayonini qarasa, u bir necha darslarning o‘zaro bog‘liqlik o‘qitilishi natijasida hosil bo‘ladi. Shunday qilib matematik tushunchalarini hosil qilish birgina darsning o‘zida hosil qilinmasdan, balki o‘zaro aloqada bo‘lgan bir qancha darslarni o‘tish jarayonida hosil qilinadi. Bunday darslarni birgalikda darslar tizimi deb ataymiz.

Shuning uchun o‘qituvchi mavzuning mazmunini ochadigan darslarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirishi kerak.

Darslar tizimining tuzilishidagi eng katta talab darsning o‘quv-tarbiyaviy maqsadini e‘tiborga olish, o‘qitish tamoyillarining metodik va umumpedagogik tomonlarini hisobga olishdir. Mavzu bo‘yicha yaxshi o‘ylangan darslar tizimining o‘quv vaqtini mavzuchalarga to‘g‘ri taqsimlashga bog‘liq.

Unda o‘quvchilarning mustaqilligini hosil qilish, xususiy misollarni qarash, xususiy xulosalar chiqarish, undan umumiy xulosalar chiqarishga olib kelish diqqat markazida turishi lozim. Bu bilimlar darslar tizimida hosil qilinib, mustahkamlangandan keyin misol va masalalar yechishni ta‘minlashi kerak. Undan keyin mashqlar yordamida malakalarni qayta ishlashi, shuningdek, hosil qilingan bilimlarni doimo bir tizimga keltirish va umumlashtirishni ham ta‘minlash kerak.

Dasturning qandaydir mavzusining mazmunini aniqlashda, mavzu materialini dars vaqtlariga taqsimlashda, ya‘ni bilimlarni o‘zlashtirishga quyidagi asosiy bosqichlar qaraladi.

1. Yangi materialni o‘qitishga tayyorlash.
2. Yangi o‘quv materialini idrok qilish va yangi bilimlarni hosil qilish.
3. Bilimlarni mustahkamlash va turli xil mashqlar orqali malakalarni hosil qilish.
4. Bilimlarni takrorlash, umumlashtirish va bir tizimga keltirish.
5. Bilim va malakalarni tekshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi (OO‘Y uchun darslik) Toshkent. . “Turon-Iqbol” 2016 yil
2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINING DOLZARBLIGI

Oxunjonova Shoxistaxon

*Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani
41-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanining mazmuni va dolzarbligi haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Kalit so'zlar: *matematika, boshlang'ich, miqdorlar, algebra, geometriya, arifmetik amallar, o'nlik, yuzlik.*

Ma'lumki, matematika fani - abstrakt fan. Uning mazmuni boshidan oxirigacha inson tasavvurining va mantiqiy tafakkurining mahsulidan iborat. Fanning bunday abstrakt tuzilishi, o'zini-o'zi boyitib borishi, ya'ni yangidan-yangi matematik tushunchalar va ularning xossalarni ma'lum xossalardan hosil qila olish imkoniyati qadimdan insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Xatto matematik masalalarni yechish musobaqalari o'tmishda inson aqlini peshlash vositasi bo'lgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, matematika fanining eng asosiy vazifasi aynan o'quvchilarni o'ylashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga va mushohada yuritishga o'rgatishdan iborat ekanligi oydinlashadi. Hech qaysi fan matematika fanichalik o'quvchilarni o'ylashga va fikrlashga majbur qila olmaydi. Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o'quvchilar to'g'ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar.

Bugungi kunda o'quvchilarda hisob-kitob ko'nikmalarini shakllantirish, ularni kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish boshlang'ich ta'limdagi matematika fani o'qituvchilarining asosiy vazifalardan biridir.

Demak, boshlang'ich sinf matematikasining mazmuni yuqori sinf matematikasining mazmunini ham belgilab beradi. Boshlang'ich matematikaning tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Arifmetik material kursning asosiy mazmunini tashkil qiladi. U natural sonlar arifmetikasi, asosiy miqdorlar, algebra va geometriya elementlarining propedivtik kurslari asosiy bo'lim shaklida o'qitilmasdan arifmetik material bilan qo'shib o'qitiladi.

2. Boshlang'ich sinf materiali konsentrik tuzilgan. Masalan, oldin I-o'nlikni raqamlash o'qitilsa, keyin 100 ichida raqamlash va arifmetik amallar bajarish o'qitiladi. Undan keyin 1000 ichida arifmetik amallar bajarish, keyin ko'p xonali sonlar ichida.

Bularni o'qitish bilan birga raqamlash, miqdorlar, kasrlar, algebraik va geometrik materiallar qo'shib o'qitiladi.

3. Nazariya va amaliyot masalalari o'zaro organik bog'langan xarakterga ega.

4. Matematik tushuncha, xossa, qonuniy bog'lanishlarni ochish kursda o'zaro bog'langan.

5. Har bir tushuncha rivojlantirilgan holda tushuntiriladi.

Masalan, arifmetik amallarni o'qitishdan oldin uning aniq mohiyati ochiladi, keyin amalning xossalari, keyin komponentlar orasidagi bog'lanish, keyin amal natijasi, oxirida amallar orasidagi bog'lanish beriladi.

6. Asosiy tushunchalar va natijaviy tushunchalar o'zaro bog'lanishda berilgan.

Masalan, qo'shish asosida ko'paytirish keltirib chiqarilgan.

Boshlang'ich matematika kursi o'z tuzilishi bo'yicha o'z ichiga olgan, arifmetik, algebraik va geometrik materialdan iborat qismlardir.

Algebra elementlarini kiritish, chuqur, tushunilgan va umumlashgan o'zlashtirish maqsadlariga javob beradi: tenglik, tengsizlik, tenglama, o'zgaruvchi tushunchalari konkret asosda ochib beriladi.

1-sinfдан boshlab sonli tengliklar va tengsizliklar ($4=4$, $6=1+5$, $2<3$, $6+1>5$, $8-3<8-2$ va hokazo) qaraladi.

Ularni o'rganish arifmetik materialni o'rganish bilan bog'lanadi va uni chuqurroq ochib berishga yordam beradi.

Tenglamalarni yechish, oldin tanlash metodi bilan, so'ngra amallarning natijalari bilan komponentlari orasidagi bog'lanishlarni bilganlik asosida bajariladi.

O'zgaruvchi bilan amaliy tekshirish o'quvchilarning funksional tasavvurlarini egallashlariga imkon beradi. Geometrik material bolalarning eng sodda geometrik figuralar bilan tanishtirish, ularning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish, shuningdek, arifmetik qonuniyatlarni, bog'lanishlarni ko'rsatmali maqsadlariga xizmat qiladi. (Masalan, to'g'ri to'rtburchakning teng kvadratlarga bo'lingan ko'rsatmali obrazidan ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasini bog'lanishi ochib foydalaniladi...).

1-sinfдан boshlab to'g'ri va egri chiziqlar, kesmalar, ko'pburchaklar va ularning elementlari, to'g'ri burchak va hokozo kiritilgan.

O'quvchilar geometrik figuralarni tasavvur qila olishni, ularni nomlari, katakli qog'ozga sodda yasashlarni o'rganib olishlari kerak. Bundan tashqari, ular kesma va siniq chiziq uzunligini, ko'pburchak perimetrini, to'g'ri to'rtburchak, kvadrat va umuman har qanday figuraning yuzini (paletka yordamida) topish malakasini egallab olishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. www.ziynet.uz
2. Matematika. 4-sinflar uchun darslik. Toshkent-2013-y.
3. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. kutubxona.adu.uz

BOSHLANG'ICH MATEMATIK TA'LIMDA O'RTA OSIYOLIK ALLOMALARNING ILMIY ME'ROSIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xo'janiyazova Shohista Beknazarovna

*UrDU Ta'lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi yo'nalishi
1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Xorun ar-Rashid tashabbusi bilan Bag'dodda ilmiy Markaz-Akademiya («Bayt ul-Xikma»)-tashkil etilganligi, O'rta Osiyolik allomalar, ularning hayoti va ijodi, biz avlod uchun yozib qoldirgan asarlari hamda bu noyob asarlarning bebaholigi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Markaz-Akademiya («Bayt ul-Xikma»), quyosh O'rta Osiyolik allomalar, asarlar, ijod, ilm-fan.*

Barchamizga ma'kumki, boshlang'ich matematik ta'limda O'rta Osiyolik allomalarning o'rni beqiyos. Hozirgi vaqtgacha dunyo bizning ota-bobolarimiz asarlaridan unumli foydalanib kelmoqda.

Xorun ar-Rashid tashabbusi bilan Bag'dodda ilmiy Markaz-Akademiya («**Bayt ul-Xikma**»)-tashkil etilib, unga barcha musulmon o'lkalari, jumladan O'rta Osiyodan ham olim va fozillar to'plandi. Bu markazda Movaraunnahr va Xurosondan kelgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marvoziy, Marvarudiy, Javhariy kabi olimlar Bag'dod akademiyasini jahonga mashhur bo'lishida katta hissa qo'shdilar. Movaraunnahrda arab halifaligini hukmronligini o'rnatilishi hamda islom dinining keng yoyilishining ijobiy tomonlaridan biri shuki, Bag'doddagi ilmiy akademiya o'rnak olib Xorazmda ham X asrda Ma'mun akademiyasi vujudga keldi va uning a'zolari bo'lmish o'z davrining olim-u donishmandlari o'z ijodlari bilan Movaraunnahr nomini olamga yoydilar.

Shuningdek o'lkamiz hududidan islom dunyosining eng mo'tabar shaxslari, hadisshunoslari yetishib chiqdilar, ularning nomi hozirgi kungacha ham dunyoviy, ham tasavvuf ilmining yuqori pog'onalarida turibdi.

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al - Xorazmiy. (783-850yy) Buyuk mutafakkir va olim al-Xorazmiyning arifmetika va algebraga doir «Kitob al-jabr val mukobala» (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi. «Hind arifmetikasi haqida kitob» asari tufayli avval Sharq xalqlari, so'ngra esa Yevropa xalqlari ham Qadimiy Hindistonning katta yutug'i – o'nli pozitsiyasi hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. (XII asrda lotin tiliga o'girilgan). Al-Xorazmiyning «Kitob sur'at al-arz» (yerning sur'ati) asari geografiyaga, «Astronomik jadvallari» astronomiyaga oid bo'lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, «Quyosh soatlari to'g'risida risola», «Tarix risolasi», «Usturlab haqida risola», «Musiqqa risolasi» singari ajoyib asarlari olinga katta shuxrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr val muqobala» asari keyinchalik Yevropada «Algebra» deb yuritila boshlandi. Uning

astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G’arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o’ynadi.

Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad Al-Farg’oniy. Al-Farg’oniyning tarjimai holiga doir ma’lumotlar tarixda kam saqlanib qolgan. 861-yilda vafot etgan. Astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni Bag’dod va Damashqdagi rasadxona qurilishlarida faol qatnashdi va u yerda Ptolemeyning «Yulduzlar jadvalidagi» ma’lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Al-Farg’oniy astronomiyaga oid «Astronomiya negizlari» asarida astronomiyaga oid bilimlarni tartibga soldi, o’zining yangi natijalari bilan boyitdi. O’sha davr an’anasiga muvofiq mamlakatlarni yetti iqlimga bo’lib o’rgandi. Quyosh soatlarini bayonini berdi, astronomik asboblari yaratdi. Farg’oniyning bu asari N.Kopernik davriga qadar Yevropada astronomiya fanidan asosiy qo’llanma sifatida foydalanildi.

Abu Nasr al-Forobiy (873-950 yy). O’trorda tug’ilgan, boshlangich ma’lumotni Shosh, Buxoro, Samarqandda olgan, so’ng Bag’dodda uzoq yashab, zamonasining olimlari bilan ilmiy muloqotda bo’lgan. Ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq risolalar yozgan. Musiqa nazariyasiga bag’ishlangan «Musiqa haqida katta kitob» nomli mashhur asari bu soha tarixiga bag’ishlangan eng dastlabki tarixiy manbalardan biridir. Bundan tashqari, olim matematikaga ham oid bir qancha asarlar yozdi. U serqirra, qomusiy olimdir.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yy). Xorazmda tavallud topgan bu mutafakkir, serqirra olim astronomiya, tarix, tibbiyot, riyoziyot, jug’rofiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, falsafa, filologiyaga oid 150 ga yaqin asarlar yaratgan. Bu asarlar Beruniy nomini jahonga taratdi. Shuningdek, uning xikoyalar, she’rlar bitganligi ham ma’lum. Beruniy o’rta asrda birinchi bo’lib globus yaratdi. U arab, fors, hind, turkiy tillarni mukammal bilgan. Uning «Farmokanaziya», «Geodeziya», «Hindiston», «Minerologiya», «Ma’sud qonuni», «qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlari o’zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Maxmud G’aznaviy saroyida ham xizmatda bo’lgan. U Ibn Sino bilan ham zamondosh edi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yil) U falsafa, mantiq ruxshunoslik, adabiyotshunoslik, she’riyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng bo’lganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga bag’ishlangan asarlar yaratgani ma’lum.

Xulosa sifatida shuni aytadigan bo’lsak, buyuk olimlarimiz asarlari nafaqat matematikani, balki butun inson hayoti davomida kerak bo’ladigan fanlarni o’z ichiga oladi. Biz ulardan unumli foydalangan holda yosh avlodni ota-bobolarimiz bebaho merosi orqali ma’nan boy va jismonan yetuk qilib tarbiyalashimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Erkaev.A. Ma’naviyat – millat nishoni. –Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
2. Jumaboev.Y. O’zbekistonda falsafa va axloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan. – Toshkent: O’qituvchi nashriyoti, 1997.

3. Buyuk siymolar, allomalar. To’plam. 1-kitob. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. –Toshkent: 1995.

4. <http://xorazmiy.uz/>

5. <http://library.ziyonet.uz/>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI

Babaniyazova Feruza Tursunboyevna

Xorazm viloyat Gurlan tumani

31-sonli maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Rajabova Matluba

Xorazm viloyat Gurlan tumani

31-sonli maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish, tashabbuskorligini oshirish, hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash, ijodiy qobiliyatini oshirish.*

Kalit so‘zlar: *Matematika, maktab, sinflarda, shaxs, qiziqish, rang-barang, malaka, ko‘nikma, milliy, tarbiyaviy.*

Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyanan holda ularning darsdan bo‘sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to‘ldiradi. U o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarining o‘ziga xosligi shundaki, to‘garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o‘smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar maktab talim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o‘quvchilarning bosh vaqtlarini yo‘lga qo‘yish formalaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko‘ngillilik asosida tashkil qilinadi. O‘quvchilar sinfdan matematika fanidan va maktabdan tashqari ishlarda o‘zlarini qiziqtiradigan mashg‘ulotlarni tanlab olishadi ular mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi xalq talimi vazirligi tomonidan 1993-yilda tasdiqlangan. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘qituvchining yonaltiruvchi tasiri ostidagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o‘tkaziladigan mustaqil mashg‘ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan va matematika fanidan tashqari ishda talimning moddiy bazasi: qo‘shimcha va malumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko‘rgazmali qo‘llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona foydalanish ko‘zda tutiladi. Sinfdan tashqari ishlarining talimiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish. Tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o‘z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘liga ega bo‘lishi, xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan xalq talimi tizimida ham o‘sib kelayotgan yosh avlod talim-

tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta korib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Manaviyat va marifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish tog‘risida»gi farmonida ko‘rsatilganidek, jamiyatda yuksak manaviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalriga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. To‘garaklar To‘garak sinfdan tashqari ishlarning asosiy turi bolib, u o‘quvchilarning doimiy barqaror tarkibi bilan ish ko‘radi; To‘garaklarda yangi mavzu o‘tilmaydi, dars jarayonida olingan bilimlar mustahkamlanadi, sinf ishlari tahlil qilinadi; Darslikdan tashqari qo‘shimcha adabiyotlardan ham foydalanish mumkin; To‘garakka azo bolish ixtiyoriy, ammo uning mashg‘ulotlarda ishtirok etish majburiydir; To‘garak azolari 20 tadan oshmasligi lozim; Boshlang‘ich sinflarda to‘garak mashgulotlari birinchi sinfning ikkinchi yarim yilligidan boshlanadi. To‘garak uchun ajratildan soat: 1-sinf : 17 soat (haftada bir marta) 2-4-sinflarda: 34 soat (haftada bir marta)

Matematika fanidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda tashkilotchining ish metodikasi. O‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o‘zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko‘p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga Matematika fanidan sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi, to‘g‘ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarish bilan bog‘lanishiga zamin yaratadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Manaviyat va marifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish tog‘risida»gi farmoni
2. Jumayev M . Bolalarda matematik tushinchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. — T.: «Ilm-Ziyo», 2009.
3. Jumayev M. va boshqalar. Matematika o‘qitish metodikasi. - T.: «Ilm-Ziyo», 2003.
4. Bikbayeva N. U., Sidelnikova R. I., Adambekova G. A. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. O‘rta maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. — T.: «O‘qituvchi», 1996.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISH

Xudayberganova Dildora

Xorazm viloyat Gurlan tumani

31-sonli maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Jumaniyozova Munira

Xorazm viloyat Gurlan tumani

31-sonli maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan sinfdan tashqari o'qish, fanga qiziqishni rivojlantirish, boy madaniyatimiz, yigit qizlarni shaxs sifatida shakllantirish.*

Kalit so'zlar: *Boshlang'ich, ona tili fani, fanga qiziqish, darsdan, ishlar, omil, istak, xoxish, o'quvchilar.*

Boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlar o'quv dasturi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unda ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda yaqindan yordam beradi. Buning uchun o'quvchilarda izlanuvchanlik va ijodkorlik darajasiga ko'tarish talab qilinadi. Maktablarda 1959-yildan boshlab maxsus sinfdan tashqari ishlar darslari tashkil etilgan. Sinfdan tashqari ishlar 1-2 -sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinfda 2 haftada 1 marta o'tkaziladi. Savod o'rgatish jarayonida esa haftadagi oxirgi alifbe darsining 17 -20 daqiqasi ajratiladi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlarni asosiy maqsadi-o'quvchilarda fanga qiziqishni rivojlantirish, darsda olingan bilimlarni to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda ona tilidan “sinfdan tashqari ish” deyilganda o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan, dastur bilan bog'liq bo'lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg'ulotlar tushuniladi. Sinfdan tashqari ishlarni ikki turini farqlash mumkin. Uning birinchi turiga rejadagi materiallarni o'zlashtirishda orqada qoladigan bolalar bilan ishlash tushunilsa, ikkinchi turi esa ona tilini o'rganishga qiziquvchi bolalar bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlar kiradi. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bolishi, xalq xojaligining turli sohalarida, jumladan xalq talimi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod talim-tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmokda. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bolgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Manaviyat va marifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish togrisida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak manaviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy

ananalarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g’oyalariga o’yalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Boshlang’ich sinflarda ona tili fanidan sinfdan tashqari ishlar o’quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo’sh vaqtlarida o’quv-tarbiya jarayonini to’ldiradi. U o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligani oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o’ziga xosligi shundaki, to’garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o’smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlar maktab talim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o’quvchilarning bo’sh vaqtlarini yo’lga qo’yish formalaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda kongillilik asosida tashkil qilinadi. O’quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o’zlarini qiziqtiradigan mashg’ulotlarni tanlab olishadi ular mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi. Boshlang’ich sinflarda ona tili fanidan sinfdan tashqari doimiy tadbirlarga to’garak mashg’ulotlari kiritilsa, qolganlari vaqt-vaqti bilan o’tkaziladigan tadbirlarga kiradi. Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o’stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo’shimcha ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo’nalishlarini topib joriy etishga bog’liq. Ushbu Konsepsiya ham xuddi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo’naltirilgan. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bolgan barcha g’oyalar qaytadan ko’rib chiqilishi, asosiy e’tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida toplangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg’armalar, qo’mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Maktabning o’quvchilar bilan olib boradigan o’quv mashg’ulotlaridan tashqari xilma-xil talim-tarbiya ishlari sinfdan tashqari ishlar nomini olgan. Sinfdan tashqari ishlar maktab talim- tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o’quvchilarning bo’sh vaqtlarini yo’lga qo’yish formalaridan biridir. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga aktiv faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko’ngillilik asosida tashkil qilinadi. O’quvchilar sinfdan tashqari ishlarda o’zlarini qiziqtiradigan mashg’ulotlarni tanlab olishadi ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova va boshqalar “Ona tili o’qitish metodikasi” Toshkent 2009.

2. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo‘latova M.I. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish T.: OOO «Jahon - Print», 2011.
3. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O O‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.
4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G‘. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi. Toshkent. “TDPU” 2005 yil.

BOSHLANLANGICH SINFLARDA ALGEBRAIK MAZMUNDAGI MASALALARNI EVRISTIK METOD YORDAMIDA ORGANISH METODIKASI

Rajabova Saida Matnazarovna

Talim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi

1- boshqich magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada matematika fani, uning ahamiyati, boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi, sonni nomerlash va ular ustida arifmetik amallar bajarish hamda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga matematik material bilan uzviy bog'liqlikda turli miqdorlarni ham o'rgatish haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *matematika, boshlang'ich ta'lim, innovatsion ta'lim texnologiyasi, metodika, o'quvchilar.*

Bugungi kunda ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, talimda axborot texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashmoqda. Bu esa, o'qituvchilarning o'z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvni talab etadi. O'quv jarayonida axborot texnologiyalarining joriy etilishi o'qituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki o'qituvchining vazifalari va rolini o'zgartiradi.

Matematika fani aniq fanlardan biri bo'lib, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni matematik bilimlarini o'rgatish usullarini yoritib beradi. O'quvchilarning boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasidan muhim tushunchalar o'zlashtirishlarini, og'zaki va yozma hisoblashga oid ko'nikma va malakalarni egallashlarini ta'minlaydi. Bu ko'nikma va malakalar o'rta maktabda boshqa fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga zamin hozirlaydi. Boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasining ahamiyati juda katta bo'lib, o'quvchilarning matematik madaniyatini egallashlariga yo'l ochadi, umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan matematikadan bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlaydi.

Boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi pedagogika, psixologiya va yosh psixologiyasi fanlari bilan bog'liq.

Boshlang'ich ta'limda matematikani o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi ta'limning boshqa metodikalari (ona tili, tabiatshunoslik, rasm va boshqa fanlar metodikasi) bilan uzviy bog'lanadi. Fanlararo bog'lanish to'g'ri amalga oshirish uchun o'qituvchi buni hisobga olishi juda muhimdir. Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish vazifalari va bolalar bog'chasida arifmetika asoslarini tarkib toptirish, miqdor, makon va zamonga oid tasavvurlarni rivojlantirish o'qitishning asosiy shartidir.

Barchamizga ma'lumki, sonni nomerlash va ular ustida arifmetik amallar bajarish boshlang'ich matematika kursining asosini tashkil qiladi. Unga qo'shib algebra va geometriya elementlari o'qitiladi. Dasturda natural sonlar va 0 haqidagi ma'lumotlarni asta-

sekin o’nlik, yuzlik, minglik va ko’p xonali sonlar konsentrlari (takroriy) kiritish nazarda tutiladi. Bu o’nlik sanoq sistemasining xususiyatlari bilan og’zaki va yozma nomerlashni takror-takror qo’llash orqali beriladi.

Birinchi o’nlik nomerlashda 1-10 sonlarini sanash, nomerlashni aytish, ketma - ketlikning katta-kichikligini o’zlashtirish nazarda tutiladi. 1-o’nlik bilan 0 soni ham birga o’rgatiladi. Uni bo’sh to’plamning xarakteristikasi sifatida berilgan. Nomerlash davomida 11-20, keyin, 21-100 ichida sonlarni nomerlash qaraladi. 1, 2 . . . o’nliklarni hosil qilish birgalikda o’nliklarni ya’ni o’nlik sanoq sistemasining mohiyati tushuntiriladi. Keyingi sinflarda 100 ichida, 1000 ichida va ko’p xonali sonlar yozma va og’zaki nomerlash, arifmetik amallar bajarish komponentlarining nomlarini o’rgatishlar amalga oshiriladi.

Boshlang’ich matematikaning dasturida, oldingidek arifmetik materialda asosiy o’rinni egallaydi. Bunda arifmetika nazariyasi (amallar va ularning xossalari, komponentlar va natijalar orasidagi o’zaro bog’lanish, miqdor, son, o’lchash, hisoblash, masalalar yechish, sanoq sistemi) ni shakllantirishning mukammal sistemi ko’zda tutilgan. Shunga mos boshlang’ich matematika o’qitish metodikasi ham bir muncha rivojlantirilgan. Kichik yoshdagi o’quvchilarni o’qitishning barcha bosqichlarida ularning fikrlash faoliyatlarini aktivlashtirishga tayin faktlar va kuzatishlarni o’z vaqtida umumlashtirishga, ayrim masalalar orasidagi o’zaro bog’lanishni tayinlashga, bolalarda mustaqil ishlash, o’quvchilarda fikrlarni mustaqil paydo qilishga qaratilgan, ya’ni asoslangan usul va uslublar maktab dasturiga kiritilgan.

Boshlang’ich sinflarda matematik material bilan uzviy bog’liqlikda turli miqdorlarni ham o’rganish nazarda tutiladi. Miqdorlarsiz tabiatni, borliq olamni o’rganish mumkin emas. Chunki miqdorlarda turli narsalarning, borliq dunyoning xossalari aks etgan. Miqdor tushunchasi narsa yoki hodisaning xossasi bo’lib, bu tushunchalar o’quvchilarning butun o’qishi davrida shakllanadi.

Boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi o’quvchilarga uzunlik, jismning massasi (og’irlik), hajmi, vaqt, figuraning yuzi kabi miqdorlar to’g’risida tushuncha berishi kerak. Bu tushunchalarni o’rganish arifmetik material bilan qo’shib o’qitiladi.

Masalan: o’lchashni o’rganish, sanashni o’rganish bilan, o’lchov birliklari sanoq sistemi bilan, ismli sonlar abstrakt sonlarni nomerlash bilan miqdorlar ustida amallar arifmetik amallar bilan parallel o’qitiladi. Miqdorlarni o’qitish matematikani hayot, sharoit bilan bog’liq holda o’qitib, politexnik bilimlar berish demakdir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, hisoblash va yasash ishlarini bajarilishini, mehnat tarbiyasini, estetik ta’lim berishni kuchaytiradi. Ayniqsa, miqdorlarni ko’rgazmali, aynan o’zini tushuntirish imkoni mavjud. O’quvchilar atrof-muhitdagi mavjud miqdorlar va ularni o’lchashni amaliyotda ko’radilar, kuzatadilar, haqiqatligiga ishonadilar. Hisoblash ishlarini yakka bajaradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Axmedov M., Abduraxmonova N.Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo’ltanma. Toshkent. “Turon iqbol” 2008 y

2. Jumaev M.E, Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent. “Ilm Ziyo” 2005
3. Rafiqov I.G’. “Boshlang’ich ta’limda matematikani o’qitishda innovatsion ta’lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi” O’quv uslubiy majmua Termiz-2013
4. <https://uzsmart.uz/>

MATEMATIK TUSHUNCHALARNI TA'RIFLASH METODIKASI

Djurayeva Oydinoy Bobirbek qizi

Andijon viloyati Andijon tumani

24- umumiy o'rta talim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada matematik tushunchalarni ta'riflash, matematik tushunchalarni kiritishning abstrat-deduktiv metodi hamda matematik tushunchalarni kiritish metodikasi muhim omillari haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *arifmetika, termin, defnitsiya, real, klassifikatsion, induktiy.*

Har bir fanda bo'lgani kabi matematika fanida ham ta'riflanadigan va ta'riflanmaydigan tushunchalar mavjud.

Maktab matematika kursida, shartli ravishda, ta'riflanmaydigan eng sodda tushunchalar qabul qilinadi. Jumladan, arifmetika kursida son tushunchasi va qo'shish amali, geometriya kursida esa tekislik, nuqta, masofa va to'g'ri chiziq tushunchalari ta'riflanmaydigan tushunchalardir. Bu tushunchalar yordamida boshqa matematik tushunchalar ta'riflanadi.

Ta'rif degan so'zning ma'nosi shundan iboratki, bunda qaralayotgan tushunchalarni boshqalaridan farqlashga, fanga kiritilgan yangi termin mazmunini oydinlashtirishga imkon beruvchi mantiqiy usul tushuniladi.

Tushunchaning ta'rifi ta'riflanuvchi tushuncha bilan ta'riflovchi tushunchalar orasidagi munosabatdan hosil bo'ladi.

Tushunchaning ta'rifi ingiizcha defnitsiya (defnito) so'zidan olingan bo'lib, «chegara» degan yoki «biror narsaning oxiri» degan ma'noni bildiradi. Professor Ikromov o'zining «Maktab matematika tili» nomli kitobida tushunchalarning ta'rifini quyidagi turlarga ajratadi:

1) Real ta'rif. Bunda qaralayotgan tushunchaning shu gruppadagi tushunchalardan farqi ko'rsatib beriladi. Bunda ta'riflovchi va ta'riflanuvchi tushunchalar hajmlarining teng bo'lishi muhim rol o'ynaydi. Masalan: «Aylana deb tekislikning biror nuqtasidan masofasi berilgan masofadan katta bo'lmagan masofada yotuvchi nuqtalar to'plamiga aytiladi». Bu yerda ta'riflanuvchi tushuncha aylana tushunchasidir, ta'riflovchi tushunchalar esa tekislik, nuqta, masofa tushunchalaridir.

2) Klassifikatsion ta'rif. Bunda ta'riflanayotgan tushunchaning jins tushunchasi va uning tur jihatidan farqi ko'rsatilgan bo'ladi. Masalan, «kvadrat - barcha tomonlari teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchakdir». Bu ta'rifda «to'g'ri to'rtburchak» tushunchasi «kvadrat»ning jins tushunchasi, «barcha tomonlari teng» esa tur jihatidan farqini ifoda qiladi.

3) Genetik ta'rif yoki induktiy ta'rif. Bunda asosan tushunchaning hosil bo'lish jarayoni ko'rsatiladi. Boshqacha qilib aytganda, tushunchaning hosil bo'lish jarayonini ko'rsatuvchi ta'rif genetik ta'rif deyiladi.

Bizga psixologiya kursidan ma'lumki, genetika so'zi grekcha *genesis* so'zidan olingan bo'lib «kelib chiqish» yoki «manba» degan ma'noni bildiradi.

Masalan: 1) To'g'ri burchakli uchburchakning bir kateti atrofida aylanishidan hosil bo'lgan jismni konus deyiladi.

2) To'g'ri burchakli trapetsiyaning balandligi atrofida aylanishidan hosil bo'lgan jismni kesik konus deyiladi.

3) Doiraning diametri atrofida aylanishidan hosil bo'lgan jism shar deyiladi.

Yuqoridagilardan, ko'rinadiki, tushunchalarni ta'tiflashda har bir tushunchaning mazmuni beriladi, bu degan so'z tushunchaning asosiy alomatlari yoki muhim belgilarini sanab ko'rsatish demakdir. Demak, ta'rifda faqat ta'riflanadigan tushunchani boshqa turdagi tushunchalardan ajratib turadigan muhim belgilarigina ifodalanadi. Maktab matematika kursida tushunchalarning ta'rifi ikki usul bilan tuziladi:

1) Berilgan tushunchaning hajmiga kiruvchi barcha ob'ektlar to'plamiga asoslaniladi. Masalan, tekislikning (masofalari o'zgarmagan holda) o'z-o'ziga akslanishi siljitish deyiladi. Bu yerda o'q va markaziy simmetriya, parallel ko'chirish va nuqta atrofida burish tushunchalari siljitish tushunchasining ob'ektiga kiruvchi tushunchalardir.

2) Berilgan tushunchalarning aniqlovchi alomatlar to'plamiga asoslaniladi. Bunday ta'rifni tuzishda tushunchaning barcha muhim alomatlari sanab o'tilmaydi, ammo ular tushunchaning mazmunini ochib berish uchun etarli bo'lishi kerak. Masalan, paralleldgramning muhim alomatlari quyidagilardan iborat:

a) to'rtburchak;

b) qarama-qarshi tomonlari o'zaro teng va parallel;

v) diagonallari kesishish nuqtasida teng ikkiga bo'linadi;

g) qarama-qarshi burchaklari teng;

Parallelogrammni ta'riflashda a) va b) alomatlar orqali quyidagi ta'rifni tuzish mumkin:

«Qarama-qarshi tomonlari o'zaro parallel va teng bo'lgan to'rtburchak parallelogramm deyiladi».

Endi, a) va b) alomatlar orqali tarif tuzaylik: «diagonallari kesishib, kesishish nuqtasida teng ikkiga bo'linuvchi to'rtburchak parallelogramm deyiladi».

Xulosa qilib aytish mumkinki, tushunchani ta'riflashda tanlanadigan muhim alomatlar soni yetarlicha bo'lgandagina ta'riflanayotgan tushuncha haqidagi ta'rif to'g'ri chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.Haydarov, E.Sariqov, A.Qo'chqorov, A.Hamrojonov 9-sinfda Geometriya metodik qo'llanma 2006 yil

2. SH.A.Alimov, M.A.Mirzaahmedov —Algebra” 9-sinf uchun darslik. T., 2002.
A.N.Kolmogorov —Algebra va analiz asoslari” T., 1988

FARG’ONA JAMOAT SOG’LOMLASHTIRISH INSTITUTI UCHUN AHOLINI KO’RIKDAN O’TKAZISHNI AVTOMATLASHGAN TIZIMINI LOYIHALASHTIRISH VA DASTURIY TA’MINOTINI YARATISH

Otajonov Dostonbek Muhammadjon o’g’li

TATU Farg’ona filiali magistrantlari

D.Sotvoldiyev

“O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi

Fiskal instituti” dotsenti (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aholini ko’rikdan o’tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy axborot texnologiyalari, aholi salomatligini saqlash, aholini ko’rikdan o’tkazish, avtomatlashtirilgan tizim.*

Hozirgi kunda yurtimizda ham aholi salomatligini saqlash, kasalliklarning oldini olish va davolash, sog‘lom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr ko‘rishni ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Aholi salomatligini saqlashda ayniqsa aholini ko’rikdan o’tkazish tizimini ahamiyati kattadir. *Aholini ko’rikdan o’tkazish tizimi-* bu kasallikni erta aniqlash, davolash va oldini olish.

Hozirgi XXI axborot texnologiyalari asrida boshqa ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi meditsina sohasida ham zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Aholi salomatligini saqlash. Bu hozir zamonaviy hayotda dolzar muammo bo‘lib turipdi. Kasalliklar ko‘p va ular juda tez tarqalmoqda. Va buni oldini olish ushun axborot texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda.

Aholini ko’rikdan o’tkazish tizimi. Butun dunyodagi tibbiyotda kompyuter texnologiyalaridan foydalanib, minglab bemorlarni ko’rikdan o’tkazib aholini kasaligini erta aniqlash rivojlangan. Ko’rikdan o’tkazish bilan bir qatorda, bu raqamni ham saralash va tahlil qilish mumkin bo‘lgan vaqt ichida texnik bir nechta ishlarni bajarishi mumkin.

Tadqiqot ma'lumotlarini yaratish. Tadqiqot Aholini ko’rikdan o’tkazish tizimining muhim qismidir va kompyuter texnologiyalari o‘n minglab shaxsiy yozuvlarni jamlash va ularni qulay formatda taqdim etish uchun ishlatilishi mumkin. Bemor natijalaridan dori-darmonlarni tekshirish natijalariga qadar bu ma'lumotlar ko‘p jihatdan ishlatilishi mumkin.

Bemor ma'lumotlarini tahlil qilish. Agar samarali davolash rejasiga rioya qilish kerak bo‘lsa, bemor to‘g‘risidagi ma'lumotlarni aniq va dolzarb saqlash juda muhimdir.

Aholini ko’rikdan o’tkazish uchun avtomatlashtirilgan tizimlar. Aholini ko’rikdan o’tkazishda yuzaga keladigan katta hajmdagi ma’lumotlar (bemorlar ro‘yxati, tahlil natijalari)ni qayta ishlashda avtomatlashtirilgan tizimlarni qo‘llash yuqori samara beradi. Ushbu tizim ko’rikdan o’tkazish samaradorligini oshirish uchun namunalar va tegishli ma'lumotlar oqimini samarali boshqarish imkonini beradi. Avtomatlashtirilgan tizim

ish jarayonlarini, natijalar va protseduralarni standartlashtirishga yordam beradi, shu bilan birga jarayonni aniq boshqarishni ta'minlaydi.

Aholini ko'rikdan o'tkazish uchun avtomatlashtirilgan tizimlarni qo'llash quyidagi muammolarni hal qilishga yordam beradi:

- Mijozlarga (bemorlarga) sifatli xizmat ko'rsatishga yordam beradi;

- Tibbiyot xodimlari ish unumdorligini oshiradi;

- Katta hajmdagi ma'lumotlarni (bemorlar ro'yxati, tashxis natijalari) tezkor qayta ishlashga yordam beradi;

- Ma'lum bir bemorning tashxislar tarixini tez topishga yordam beradi, bu esa ushbu bemorga tashxis qo'yishni osonlashtiradi;

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish lozimki, hozirgi kunda meditsina sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rnini beqiyosdir. Kompyuterlar meditsina sohasidagi ko'plab muammolarni hal qilishda keng qo'llaniladi. Jumladan, Hozirgi dolzarb muammo aholini kasaligini erta aniqlash va kasalikni oldini olish

Shuningdek, Aholini ko'rikdan o'tkazish tizimi katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Арунянц Геннадий, Калинин Андрей, Столбовский Дмитрий Николаевич Информационные технологии в медицине и здравоохранении Подробнее
2. Г. И. Назаренко, Я. И. Гулиев, Д. Е. Ермаков. Медицинские информационные системы: теория и практика

GEOGRAFIYA DARSLARIDA XARITA BILAN ISHLASH

Abdullayev Nuriddin Narzullayevich

*Surxandaryo viloyati Sherabod tumanidagi 36-maktab
(direktori) geografiya fani o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada geografiya darslarida xarita bilan ishlash haqida fikr-mulohazalar bildirildi.*

Kalit so'zlar: *xarita, iqlim,tog', yer yuzi, dengiz, tropik,qutbiy.*

Geografiyani xaritasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Xarita geografiya o'rganadigan barcha jihozlar va hodisalar haqida hikoya qila oladi, xarita tez, aniq va lo'nda qilib hikoya qilishda kitobdan ham avzallik qilishi mumkin. Xarita - geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbaidir. Shunday ekan har bir o'quvchi xaritani o'qiy olishi lozim. Agar o'quvchi xaritaga qarab hali o'rganilmagan dengiz yoki daryo haqida gapira olsa, tog'larning balandligi va yo'nalishini aniqlay bilsa, ma'lum bir joyning yer yuzasini yoki iqlimini ta'riflay olsa, bu o'quvchi xaritani biladi, deyish mumkin. Xaritadan to'g'ri foydalana olishni o'rganish uchun geografiya o'qituvchi o'quvchilarni har qaysi yangi xarita mana bunday tartibda tanishtirib borishi lozim. Xaritaning turi, undan qanday maqsadda foydalanish va uning shartli belgilarini tushuntirish, o'quvchilar e'tiborini xarita mashtabiga jalb etish lozim.

Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilar e'tiborini gradus to'rining holati, meridian va paralellarning qanday o'tkazilganligiga kenglik va uzunlikni belgilagan o'rniga, ekvator, bosh meridian, qutbiy va tropik doiralariga jalb qilish lozim, Globusdagi joy xaritada boshqacha tasvirlanganligini ko'rsatib olish kerak. Geografiya fani o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga xaritani tushunish va va o'qiy olishni o'rgatishdir.

Xaritaning bilishning ma'nosi shuni, o'quvchilar undagi shartli belgilarga tushunishlari va shu shartli belgilar orqali ko'rsatiladigan joy va hodisalarning xarakterlarini ko'z oldiga keltira olishlari xaritaga qaraganlarida ular ongiga daryolar, tog' tizmlari va muzliklarining manzaralari xosil bo'lishi kerak.

Xaritani bilish uchun joyda mo'ljal olish, gorizont tomonlarini yo'nalishlarini qog'ozga tasvirlashni, masshtab bilan ishlashni joy planini o'rganishni va chizishni bilish kerak. Undan keyin esa o'quvchilar globus va xaritalarda geografik kenglik va uzunliklarin aniqlash turli mazmundagi xaritalarini o'qishni xaritalarini asosiy avzal kamchliklarni aniqlashni bilish lozim.

Geografik ta'limda xarita bilan ishlash uslublarini boshqa uslublar bilan bog'langan xarita bilan ishlash bunday tartibda olib boriladi.

1) Yer yuzasi elementlari rel'ef shakllari vulqonlar dengiz, qo'ltiqe buloqlar, daryolar ko'llar bilan o'quvchlarni bevosta tanishtirish kerak.

2) Xaritani joy bilan solishtirganda topqirlik xarita belgilar bilan tanishtirish.

3) Joy kattaligini ko'z bilan chamalashga o'rgatish.

4) O’quvchilarga xaritaviy bilimlarni o’rgatish maqsadida topografik va geografik xaritalarni solishtirishni o’rgatish.

5) Gradus to’rini yaxshi bilib olishlari uchun geografik koordinatalarni mashq qilishni o’rgatish.

6) Turli masshtabli xaritalardan ayrim geografik joylarni topishni o’rgatish. Umumta’lim maktablarida xaritalarni tuzilishini tushuntirish o’quvchilarga o’rgatish geografik bilimlarni egallashda muhim o’rin tutadi.

O’quvchilarni geografik xaritalarni tuzilishini tushuntirishga o’rgatish uchun joyda amaliy ishlar olib boriladi, joy rejasi bilan ishlanadi, gorizontallarni o’qish bo’yicha amaliy ishlar bajariladi, daraja to’ri bilan mashq qilinadi, turli xaritalar solishtiriladi, nuqtalarning geografik koordinatalari aniqlanadi, turli masshtablar bilan mashq qilinadi va h.k.

Xaritalarni tushunishni eng yaxshi yo’li joyni o’rganish va uni xaritada qanday tasvirlanganligini aniqlashdir. Bundan tashqari globusdan xaritagga o’tish, rejadan geografik xaritagga o’tish orqali ham geografik xaritalarni tuzilishini tushunishga yordam beradi. Mazkur usullar yordamida o’quvchilarni daraja to’ri, kartografik yiriklashtirish (generalizatsi) va geografik xaritalarni tushuntirishga imkon beradi.

Joyda va sinfda olib boriladigan amaliy mashg’ulotlar (yo’nalishlarini aniqlash, masofani o’lchash va ularni chizmada tasvirlash hamda ularni joy rejasiga tushirish) o’quvchilarni geografik xaritalarda haqiqatda borliq va hodisalar tasvirlanganligiga ishonch hosil qilishiga undaydi.

Geografik xaritalarni tuzilishini tushunishga faqat joyda olib borilgan ishlargina emas, balki joyning xomaki rejasi bilan ishlash ham yordam beradi. Bunday ishlar o’quv sayohatlari, turistik poxodlarda va joyda amaliy ishlar olib borganda bajariladi.

O’quvchilar yirik masshtabli xaritalarni tuzilishini gorizontallarni o’qish bo’yicha olib boriladigan mashqlarda, topografik xaritalar yordamida relyefni tasvirini tushirish jarayonida joyni rejasini tuzish davomida o’rganishadi.

O’z yashash joyini tuzilishi va joy rejasini o’rganish davomida o’quvchilar asta - sekin yirik va mayda masshtabli xaritalarni tuzilishini anglay bolashadi. Ular topografik va geografik xaritalarni solishtirish asosida joy rejasi va geografik xarita o’rtasidagi farqlarni tushuna boshlashadi.

O’quvchilar kartografik andozalarni (proyeksiyalarni) turlarini o’rganish davomida geografik xaritalardagi xatoliklar va ularning miqyosini tushuna boshlashadi, xatoliklarni qanday sodir bo’lishini o’quvchilar tushunishi uchun globusdagi va ma’lum bir xaritadagi borliqni o’lchami solishtiriladi. Masalan, Chukotka yarim oroli yoki Grenlandiya orolini globusda va xaritada tasvirini solishtiradi. Ularning tasviri xaritada globusdagiga ko’ra kattaroq tasvirlangan, ana shu farqlarning asosiy sababi xaritalardagi xatoliklar ekanligi tushuntiriladi. Masalan, globus Yerning kichiklashtirilgan modeli hisoblanadi, shuning uchun unda geografik borliq xatosiz tasvirlanadi, xarita esa globusni tekislikka yoyish natijasida hosil bo’lgan, shuning uchun uning chekka qismlarida xatoliklar katta bo’lishi tushuntiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vaxobov X., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. T. «O’qituvchi» 2001y., 150 b.
2. Vaxobov X., Zaynuddinov A. Geografiya o’qitish metodikasi. T., Universitet, 2001.80 b

3. Egamberdiyev Z.O., Tabiiy fanlar o'qitishda xalqaro tadqiqotlardan foydalanish. T., "O'qituvchi"

FIZIKA DARSLARIDA KREATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Hasanboyeva E'zozxon Ikromjon qizi

*Farg'ona viloyati Farg'ona shahar 1-umumiy o'rta ta'lim maktabi
fizika fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada fizika fanidan o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan mavzularni o'tishdagi interfaol metodlarni qo'llash texnologiyasi bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *kreativ, texnologiya, dars, interfaol, fizika, muammo, qobiliyat.*

Fizika fanini o'qitishni takomillashtirish o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning aql zaxirasidagi bilimlar doirasini chuqurlashtirish va yangi imkoniyatlarga tayanuvchi samarali usullarni joriy qilish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. Fizika darslarida kreativ texnologiyalardan foydalanish va shu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish hamda tayyorlanayotgan kadrlarning bu sifatlarini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Mazkur texnologiya tadqiqotchilik xarakteriga ega bo'lib, u asosan o'quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Fikrning ravonligi, uni maqsadga muvofiq yo'llay olish, o'ziga xoslik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati kabilar kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlardir. Barcha o'quv-laboratoriya jihozlari mavjud bo'lgan umumta'lim maktablarida fizika darslarini olib borishda o'quvchilarning tushunchalar ko'lami keng, mustaqil fikrlashga unday oladigan ko'nikmalarni shakllanishida muhim turtki bo'ladigan uslubni - muammoli usulni qo'llash ko'roq ijobiy natija bermoqda.

Muammoli o'qitish oddiy o'qitishdan yuqori darajada ma'lumot saqlashni va o'quvchini tajribaga qiziqtirishni orttirish bilan farqlanadi. Muammoli o'qitishda o'qituvchi eng murakkab tushunchalar haqida bilim berishda yechim talab qilinadigan holatlarni muntazam ravishda keltiradi, o'quvchilarga faqat faktlar yetkazib berish bilan chegaralanmay, balki faollashtirish usulini ham qo'llab bilim beradi. Muammolarni tahlil qilib, o'quvchilar mustaqil xulosaga keladilar. Bunda o'qituvchi yordamida o'rganilayotgan qonun va qoidalarni to'g'riligiga xulosa yasaladi. Namoyish tajribalari asosida o'tkaziladigan muammoli darslar yordamida o'qituvchilar bilim olish va bu bilimlarni amalda mustaqil qo'llash imkoniyatiga erishadilar.

Masalan: Suyuqlik xossalari o'rganishda, suyuqlikni turli diametrli kapilyar naychalardan ko'tarilishini, turli shakldagi shisha idishlarda egallagan vaziyatlarini ko'rsatish va tahlil qilishlariga yo'naltirish lozim. Namoyish tajribalarining muammoli ko'rsatish o'quvchilarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish, hamda ma'lum mavzu yuzasidan o'zining mustaqil fikr muloxazasini bayon qilish bilan birga, tengdoshlari davrasida o'zining tushunchasini bayon etish va fikrini himoya qilish imkoniyatini yaratadi. Bu usul muammoli vaziyatni yaratish orqali amalga oshirilib,

bevosita tajriba samarasi savolning hususiyatiga bog'liqdir. Bu borada qayta xotirlashga asoslangna savollar muammoli bo'la olmaydi, balki o'rganishni ko'zda tutilgan va hali o'quvchi-yoshlarga noma'lum bo'lgan bilimlarga aloqador savollar muammoli hisoblanadi. Muammoni yechish, noma'lumni qidirish o'quvchilarni ilmiy munozaraga, o'quvchilar jamoasini jonlantirishga va darsliklardan tashqari qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashgan chorlaydi. O'quvchilarda har bir hodisaga mantiqiy yondoshuv ko'nikmalarini hosil qilish bilan birga ularni ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirish bilan birga, darsga bo'lgan qiziqishini ham orttiradi.

Kreativ texnologiyalar asosida ta'lim berish nazariyasining ayrim jihatlari, o'quv jarayonida uni qo'llashga oid metodik tavsiyalar, ularga qo'yiladigan psixologik va metodik talablar, samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqilganligiga qaramay, bunda o'ziga xos muammolarni, ya'ni kreativ texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va vazifasi, o'qituvchining shu sharoitdagi ahamiyatidan tortib, mazkur jarayonni bu texnologiya yordamida boshqarishning xususiyatlari, ta'lim berishni individuallashtirish, tabaqalashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni yechishga to'g'ri keladi. Bizning fikrimizcha, quyidagi muammolar hal etilishi talab qilinadi: mazkur texnologiyaning didaktik imkoniyatlarini aniqlash; o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beruvchi dasturlar tuzish; fizika fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limga oid tavsiyalar ishlab chiqish. Mazkur muammolarni to'laqonli yechimi o'quvchilarga fizikaga oid bilimlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Ushbu holat o'z navbatida fizikadan ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ texnologiyalarning muhim tarkibiy mazmunini aniqlashga asos bo'ladi. Shu bois bu jarayonni mazkur texnologiyalar asosida tashkil etish muhim. Bu texnologiyalar mazmuni fizikadan ta'lim maqsadlarini nazarda tutgan texnologik ishlanmalar, o'quv maqsadlarini nazarda tutuvchi o'ziga xos tasniflagichlar, Internet tizimi va elektron darsliklar, test topshiriqlari, to'la o'zlashtirish texnologiyalari bilan bog'liq jarayonlarni nazarda tutadi.

Buning uchun biz kreativ va unga hamohang pedagogik texnologiyalar elementlaridan foydalanib, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga harakat qilishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdalova S. Mustaqil ta'limni boshqarish va o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda kreativ texnologiyalarning o'rni // Ta'lim menejmenti. - Toshkent, 2011.
2. Abdullayev G.À. Fizika. "O'qituvchi"-1989.
3. Bandarkova A. Kreativnaya pedagogicheskaya texnologiya formirovaniya professionalnoy kulturi uchashixsya // Nauchno-metodicheskiy jurnal.-Moskva, 2008.

EARTHQUAKE EFFECTS ON BUILDINGS AND STRUCTURES AND THEIR ELIMINATION

Nomozov Odiljon Egamberdi oqli
student. Jizzakh Polytechnic Institute

Uralov Humoyun Fazliddin oqli
student. Jizzakh Polytechnic Institute

Mustafakulova Feruza Inomovna
*Teacher of “Foreign languages” department of Jizzakh
Polytechnic Institute*

Earthquakes are one of the most natural disasters that have affected buildings and structures since ancient times. The study of the effects of earthquakes is important in assessing the earthquake resistance of building structures. Researchers who have studied the effects of earthquakes say that the shape of buildings in history also has a significant effect on their seismic resistance. Historically, square, rectangular buildings are less damaged than G-shaped, P-shaped, and Sh-shaped buildings.

Significant changes are taking place in the field of science and technology in the country, including in the field of architecture and construction, and new requirements are being imposed on specialists working in the field of earthquake resistance of buildings and structures.

When it comes to the causes of earthquakes, most seismologists agree that the theory of elastic release or elastic return, developed by the American scientist G.F. Reed, is closer to reality. G.F. Reed developed this hypothesis as a result of a detailed analysis of the transverse displacement of 300-400 km along the giant San Andreas Basin as a result of a strong earthquake in San Francisco in 1906.

Earthquakes are divided into the following types depending on the depth of the source. When the depth of the source is up to 70 km, it is called a normal earthquake. Most of the sources are within this boundary. Earthquakes with a depth of more than 300 km have a deep focus. Such earthquakes are rare, occurring mainly in the depths of the ocean; characterized by the strength of its energy. The depth of the source of intermediate earthquakes is 70-300 km. The source of the Carpathian earthquakes is located at this depth.

When studying the consequences of some earthquakes in the territory of the Republic, an earthquake of 8-9 magnitude in 1620 in the ancient city of Aksi (near Namangan) completely destroyed the city. As a result of the strong earthquake, the Syrdarya River overflowed and flooded the area.

On December 16, 1902, one of the most terrible earthquakes in the territory of Uzbekistan, the city of Andijan was shaken three times. The first quake had a magnitude of 8-9, the second had a magnitude of more than 9, and the third quake had a magnitude of 8-9, completely destroying the city.

The magnitude of the Chatkal earthquake on November 3, 1946 was 7.5, with a magnitude of 9 at the epicenter.

The Tashkent earthquake occurred on April 26, 1966, at 5:23 local time. Power at the epicenter 8 points, magnitude 5.1, source depth ~ 8 km. The epicenter was located in the center of the city, and as the distance from the center decreased, the magnitude of the earthquake decreased and was about 5 points at a distance of 7-8 km from the center. The main and strong earthquakes lasted 6-8 seconds, and the roar of the ground was accompanied by earthquakes. Cracks up to 2 cm wide and up to 20 m long appeared in the epicenter. The quake was caused by a shift in the tectonic fault of the earth's crust.

It is known that the Republic of Uzbekistan has adopted a normative document "Construction in earthquake-prone areas QMQ 2.01.03-96" for design and construction works, and this normative document is designed by the Ministry of Construction of the Republic of Uzbekistan "Uzshaharsozlik LITI" prepared by the research institute and put into production.

It is known that measures to ensure the earthquake resistance of buildings are divided into two groups: reducing seismic loads and increasing resistance to seismic impact.

The following methods are used to reduce the amount of seismic loads: the use of design solutions that give the lowest value of seismic loads in accordance with the spectral-time characteristics of the expected earthquakes, the use of light objects and structures and the placement of heavy equipment at the bottom of the structure.

According to the requirements of the normative document, the increase in seismic resistance is based on:

- use of materials and structures (metal, wood, reinforced concrete, reinforced brick walls) that can withstand seismic loads;
- ensuring the distribution of seismic loads on all load-bearing elements, allowing the structure to operate as a single space system;
- ensuring the integrity and uniformity of the entire system by locating the joints of the prefabricated elements away from the zone of maximum stress;
- to create conditions for the development of inelastic deformations in some elements of the structure, often giving way to static indeterminate structures that can ensure the distribution of stresses between elements.

Relation of seismicity of the construction site or change of the calculated seismicity of the building in case of seismicity of existing buildings in the normative document or reconstruction of buildings damaged by earthquakes or other natural disasters

and requirements for strengthening it, repairing the facility, or changing its level of responsibility.

In conclusion, based on the characteristics of production (design and construction) work in accordance with the requirements of the normative document, the quality of all types of construction materials and structures used at construction sites, as well as construction and installation work "QMQ 2.01.03-96 It is expedient to comply with the requirements of the normative document "Construction in earthquake areas".

LIST OF USED LITERATURE:

1. Aliyev MR Sustainability of buildings. Study guide. Jizzax-2019
2. Hobilov BA, Fakhridinov U. Earthquake resistance of buildings and structures. Study guide. - Tashkent: 2011. - 150 p.
3. “QMQ 2.01.03-96 Construction in earthquake zones” Tashkent 1996.

Websites

1. www.gov.uz - the official website of the Government of the Republic of Uzbekistan.
2. www.ziyo.net
3. <http://www.seysmica.ru>
4. www.ms.uz- Official website of the Republic of Uzbekistan Sehbki dfpbhkubi.

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION OMILLAR RO'LINI OSHIRISH YO'LLARI

Kuldosheva Gulnoza Shukurjon qizi
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti
2-bosqich magistranti

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O‘zbekistonning innovatsion faoliyati davlat tomonidan samarali va izchil amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy va faol investitsiya siyosati, rivojlangan xorij tajribasi hamda investitsion muhitni yanada jozibadorligini oshirish mexanizmlariga bog‘liq bo‘lib, keng ko‘lamda o‘rganilishi zarur, dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan turli mulkchilik shaklidagi subyektlarning innovatsion faoliyati birinchidan, amaliyotga yangi, takomillashgan ishlab chiqarishni joriy etish, ikkinchidan, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining barcha turlarini qisqartirish, uchinchidan, ekologik jihatdan barcha me‘yorlarga to‘la javob beradigan hamda ishlab chiqariladigan mahsulotlar narxlarini pasaytirishda ularning iste‘mol va sifat xususiyatlarini doimiy ravishda oshirib borishni talab etadi.

XX asrning o‘rtalarida keng ko‘lamda rivoj topgan ilmiy-texnik inqilob mulkdorlar, tadbirkorlar hamda iqtisodchilar e‘tiborini ishlab chiqarishda ro‘y berayotgan turli texnologik o‘zgarishlarga tortdi. Shunday o‘zgarishlarni ilmiy sohada “innovatsiya” atamasi bilan atay boshlandi. Natijada hozirgi davrga kelib “innovatsiya” tushunchasi biron-bir turdagi faoliyatni tarkibiy jihatdan yangilash, tubdan o‘zgartirish, xo‘jalik faoliyati subyektlari tomonidan ilmiy-texnik, tashkiliy, boshqaruv va boshqa yangiliklarning yaratilishi, tarqatilishi hamda joriy etilishini ifoda etadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizastiyalash borasidagi say-harakatlarning yanada kuchaytirilishi ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta‘minlash hamda ko‘lamini oshirish bilan tavsiflanadi. Bu esa ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini samaradorligi bevosita fan yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, ixtiro hamda loyihalar, ilm-fan sig‘imi yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni joriy qilish bilan belgilanadi.

Mamlakatimiz korxonalarida innovatsion jarayonlarni yanada rivojlantirishga taalluqli muammolarni o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, innovatsion faoliyatni samaradorligi birinchi navbatda mamlakatda innovatsion muhitni yaxshilashga qaratilgan qonunlar doirasida yagona huquqiy normalar tizimini shakllantiradigan institutsional asoslarni ishlab chiqish darajasiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimiz innovatsion faoliyatni rivojlantirishda - Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti (IHRT) tomonidan ishlab chiqilgan innovatsiyalarni boshqarish bo‘yicha xalqaro standartlar va uslubiy tavsiyalarni chuqur o‘rganish zarur.

Bundan tashqari, O‘zbekiston sanoatida innovatsiyalardan foydalanish borasida yangi tendentsiya shakllandi. Bunga qadar, arzon ishchi kuchidan foydalangan holda tabiiy resurslarni qayta ishlash bilan bog‘liq tarmoqlar ustunlik qilgan. Biroq, bugungi kunda

O‘zbekiston tabiiy resurslaridan foydalanishga tubdan yangicha yondashuvni maqsad qilgan. Buning yorqin namunasi yangi UzGTL zavodi tabiiy gazni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishning yo‘lga qo‘yilganidir. Bu kabi yirik loyihalar tufayli O‘zbekiston bosqichma-bosqich tabiiy gaz xomashyosi eksportidan voz kechib, neft mahsulotlari importini kamaytirmoqda. Bu esa, energetik mustaqilligimizni mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shilayotganidan dalolat beradi. Nafaqat O‘zbekiston, balki MDH mamlakatlari ichida eng yirik investitsiya loyihalardan biri hisoblanadigan mazkur UzGTL majmuasi ham innovatsion ishlab chiqarish namunasidir.

Shuningdek, MDH hududidagi eng zamonaviy va innovatsiyalardan biri bu – korxonaning markaziy boshqaruv pulti va zavod markaziy laboratoriyasidir. Yangi korxonada GTL, ya’ni "gazni – suyuqlikka" texnologiyasi asosida yiliga 3,6 milliard metr kub tabiiy gazni qayta ishlab, 1,5 million tonna tayyor mahsulotlar – aviakerosin, dizel yoqilg‘isi, nafta, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bunday zavod shu paytgacha jahonda faqat 4 ta davlatda – Qatar, Nigeriya, JAR va Malayziyada barpo etilgan. Bu yerda yiliga umumiy qiymati 1 milliard AQSH dollari yoki 12,8 trillion so‘mdan ortiq import o‘rnini bosuvchi neft mahsulotlari va uglevodorod xom ashyolari ishlab chiqariladi. GTL texnologiyasi asosida tabiiy gazdan qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar olish uch bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu texnologiya asosida tayyorlangan zamonaviy yonilg‘i turlari ekologik jihatdan sifatli va toza. Bu esa, o‘z navbatida, bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyiliga ham mos tushadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, innovatsiyada ikki narsa mavjud, birinchidan, bu yangi g‘oya, yoki tovar, xizmat. Ikinchidan, ishlab chiqarish tizimini sifat jihatdan yangi darajaga o‘zgartirishga olib keluvchi yangilik(kashfiyot)ni ishlab chiqarish tizimiga joriy(tadbiq) qilish. Yozef Shumpeter innovatsiyani ishlab chiqarish tizimini yangi sifat parametrlariga o‘zgarishi deb tushintirgan. U ishlab chiqarishni resurslar kombinatsiyasi emas, balki yangi tovar (bozor) yaratishdan iborat, deb bilgan. P. Durker ta’rifiga ko‘ra, tadbirkor oddiy ishlab chiqaruvchidan shunisi bilan farq qiladiki, tadbirkor o‘zining barcha faoliyatida o‘z kuchi va energiyasini yangilik qidirib topishga bag‘ishlaydi. Unda yangilik yaratishga qaratilgan fikr bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Djalilova Nigora Mavlonovna “Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovatsiyalarning roli” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 2022 y
2. Voronin S.A. Nalogooblojenie kak instrument stimulirovaniya innovatsiy. // «Obshestvennie nauki v Uzbekistane», №1, 2009g
3. Уткин Э.А., Шабанов Д.С. Антикризисное управление в малом бизнесе: Учебно практическое пособие. - М.: ТЕИС, 2004.
4. Менеджмент малого бизнеса: Учебник/Под. Ред. Проф. Проф М.М.Максимцова и проф. В.Я.Горфинкеля.-М.: Вузовский учебник, 2004.

5. Joraboev I.T. O‘zbekistonda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish omillari//
Bozor, pul va kredit №4 2004.

PAXTA XOM-ASHYOSINI QURITISH, SAQLASH VA HARORATNING TA’SIRINI O’RGANISH. JARAYONLARNI BOSHQARISHNI TASHKILLASHTIRISH VA AMALIYOTGA TADBEQ QILISH.

Kaxxorova Zamira Saydilla qizi
Guliston Davlat Universiteti
1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Paxtani xom - ashyosini saqlashda haroratning ko’rsatuvchi ta’sir ko’rsatkichlari natijasini navbatdagi aniqlashda, shunga ko’ra qayta ishlashning texnologik rejasini moslashni yo’lga qo’yishni, paxta zavodi paxtani haroratga munosib saqlash uchun xo’jalikning vakili ishtirokida paxtani kirim nazoratidan o’tkazish birmuncha samaradorlikka olib keladi.*

Quritish-tozalash sexi (QTS) ning asosiy vazifasi yuqori namlikda tayyorlangan va o’ta iflos paxta xom ashyosini quritish va uni tozalashdan iborat.

Urug’lik paxtalarni QTS da quritishga ruxsat etilmaydi.

Paxtaga QTS da ishlov berish uchun paxta mahsulotini bir xil ko’rsatkichga ega bo’lganlari umumlashtirilib (birlashtirilib) alohida partiya holida jo’natiladi.

QTS da paxtaga ishlov berishni hisob kitob qilish quyidagi dastlabki hisoblash formalari orqali amalga oshiriladi:

Forma №7-XL- Tayyorlov punktidagi paxtani tashishning borishini hisob kitob qilish.

Forma №19-XL-Paxtani quritish va tozalashga topshiriq berish.

Forma №20-XL-Paxtani tashish uchun yo’l varaqasi.

Forma №21-XL-Paxtani quritish-tozalashning natijalarini tahlil qilish xaritasi.

Forma №22-XL-Paxtani quritish-tozalash natijalari bo’yicha tahlillarning yig’ma umumiy xaritasi.

Forma №23-XL-QTS da paxtaga ishlov berishning natijalari to’g’risida hisobot.

Paxta zavodlariga paxtani qabul qilish, partiyalarga jamlash va uni hisob kitob qilish, xo’jalik va uning buxgalterisi tomonidan tayinlangan hamda xo’jalik hisobidagi klassifikator tomonidan amalga oshiriladi.

Paxtani qayta ishlashda uning miqdor va sifat ko’rsatkichlari natijasini navbatdagi aniqlashda, shunga ko’ra qayta ishlashning texnologik rejasini moslashni yo’lga qo’yishni, paxta zavodi paxtani qayta ishlash uchun xo’jalikning vakili ishtirokida paxtani kirim nazoratidan o’tkazadi.

Paxtani qabul qilishda hisob ishlarini quyidagi dastlabki hisoblash varaqasiga yozib boradi:

Forma №1-TXL-Mahsulotni tayyorlov punktidan to paxta zavodigacha tashish uchun yuk transportiga beriladigan nakladnoy.

Forma №14-XL-Yukning transport bilan birga tortilgandagi hisoblash jurnali.

Forma №26-XL-Bir kun mobaynida qabul qilingan paxta to’g’risidagi ma’lumot.

Forma №27-XL-paxta zavodidagi paxta miqdorini yozib boruvchi kitob.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Temurov. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti.
Toshkent 2002. 154-157 betlar.
2. Ochildiyev O‘tkir Ollanazarovich. Avtoreferat. Toshkent 2019.

KISLOTA VA UNING TURLARI

Mademinova G‘uljayna Kewnimjayovna

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Ximiya-texnologiya fakulteti ximiya ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

Eshimuratova Raushan Joldasbaevna

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Ximiya-texnologiya fakulteti ximiya ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

Bazarbaev Kilishbay Turganbay o‘g‘li

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Ximiya-texnologiya fakulteti ximiya ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kislotalar, uning turlari va har bir mahsulotda kislotalarning turlari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kislota, tabiiy, fosfor kislotasi, nitrat kislota, sorbin kislota*

Kislotalar – tabiatda tabiiy holda uchraydi va sun’iy ravishda ham ishlab chiqarilishi mumkin, foydalanishi juda keng tarqalgan moddalardir. Har bir mahsulotda kislota bo’lishi mumkin. Lotin tilida «nordon» degan ma’noni anglatuvchi «asidus» so’zidan olingan. Achchiq ta’mi tufayli ba’zi manbalarda «nordon» deb nomlanadi. Kislotalar biz kundalik hayotda ishlatadigan ko’plab mahsulotlarni ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismidir. Sanoatdagi barcha turdagi kimyoviy jarayonlar, pestitsidlar va ayniqsa o’g’itlar, minglab kimyoviy mahsulotlarda kislotali moddalar mavjud.

Kislota nima

Kislota ta’rifi to’g’risida har xil fikrlar mavjud bo’lsa-da, odatda bu » [vodorod](#) birikmasi » deb qaraladi. Umumiy qabul qilingan ta’rifga muvofiq, suvda eritilganda ular (H +) musbat bo’lgan vodorod ionlarini hosil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, ular vodorod ionlarini suv eritmasiga chiqaradi.

Kislota turlari

Tabiiy va sun’iy kislotalarning ko’p turlari mavjud. Turli sohalarda ishlatiladigan kislotalar sanoat, tibbiyot va oziq-ovqat sanoatining muhim qismidir. Keling, ushbu kislota turlarining ba’zilari va ular ishlatiladigan sohasini ko’rib chiqamiz.

[Sirka kislota](#): sirka kislota bir valentli hisoblanadi. Tuzlamalarda ishlatiladi.

Askorbin kislota: C vitamini o’z ichiga oladi. Bu sitrus mevalarida mavjud bo’lgan kislota turi. U tibbiyot keng qo’llaniladi.

Benzo kislotasi: bu pishgan mevalarda uchraydigan kislota. U mikroblardan buzilishini oldini oladi. Bu ko’plab oziq-ovqat mahsulotlarida qo’shimcha sifatida keng qo’llaniladi.

Folik kislota: Qulupnay tarkibida mavjud. Bundan tashqari, bu vitaminning bir turi. Bu inson tanasidagi to’qimalarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Sut kislotasi: sut va yogurt tarkibida mavjud. U tuzlash va pishloq tayyorlashda ishlatiladi.

Malin kislota: ko’plab meva va sabzavotlarda, ayniqsa olma tarkibida mavjud. Bu kislotalikni tartibga solish uchun ishlatiladi.

Oleyk kislota: U zaytun moyida uchraydi. Bu to’yinmagan yog’ kislota. Sovun va jilo tayyorlash, charm tayyorlash kabi sohalarda qo’llaniladi.

Limon kislota: limon tarkibiga kiradi. U limon tuzi deb ham ataladi. Shaffof va kristalli tuzilishga ega. Bu sho’r suvda keng qo’llaniladi.

Tartarik kislota: uzum tarkibida mavjud. Bu organik kislota turi. U shirinliklar va gazlangan ichimliklarda keng qo’llaniladi. Bu oziq-ovqat mahsulotlariga nordon ta’m beradi. Bundan tashqari, u junni bo’yash uchun ishlatiladi.

Borik kislota: kosmetika mahsulotlarida keng qo’llaniladi. Bu oq kristalli noorganik moddadir.

Sulfat kislota: Bu rangsiz va yog’ga o’xshash suyuqlik. Bu parfyumeriya, dorilar va plastmassalarning muhim tarkibiy qismidir.

Hidroxlorik kislota: bu tuz ruhi deb ataladigan kimyoviy birikma. U neft mahsulotlari, qog’oz ishlab chiqarish, to’qimachilik va kimyoviy jarayonlarda qo’llaniladi.

Asetilsalitsil kislota: Aspirin kabi og’riq qoldiruvchi vositalarda mavjud. Bu aslida dori. Bu tomirlarda qon ivishini oldini oladi.

Sorbin kislota: Oziq-ovqat mahsulotlarida konservant sifatida ishlatiladi. Bu bakteriyalar, mog’or va xamirturushlarga qarshi samaral.

Formik kislota: chumolilarda uchraydi. Bu bakteriyalar va zamburug’larga qarshi ta’sir ko’rsatadi. Bundan tashqari, po’lat ishlab chiqarishda ham qo’llaniladi. U sanoat va farmatsevtika sanoatida minglab mahsulotlarda keng qo’llaniladi.

Fosfor kislota: Bu ba’zi dorilarda ishlatiladigan kislota. Bu rangsiz, kristalli qattiq moddadir. U o’g’itlarda keng qo’llaniladi.

Karbonat kislota: Bu soda kabi gazlangan ichimliklar tarkibidagi kislota.

Nitrat kislota: Bu keng tarqalgan noorganik kislota bir turi. U mis, simob, qo’rg’oshin va kumush kabi metallarni eritishda ishlatiladi.

Oziq-ovqat va sanoatda ishlatiladigan ba’zi boshqa kislotalar: Akril kislota, butirik kislota, karboksilik kislotalar, nukleotid kislotalar, retionik kislota, siydik kislota, oksalat kislota, gidroflorik kislota, gialuron kislota, gidrobrom kislota, gidravlik kislota, alfa lipoik kislota, aminokislota, valproik kislota, nuklein kislota, palmitik kislota shu bilan birga, kislotalar orasida juda samarali va kuchli kislotalar quyidagilardir: sulfat kislota, fosfat kislota, gidroion kislota, nitrat kislota, xlorid kislota, vodorod xlorid va sirka kislota.

Oziq-ovqat mahsulotidagi kislota

Ko’p ovqatlarda kislotalar mavjud. Ushbu kislotalar inson tanasiga turli xil ta’sir ko’rsatadi. Engil, o’rtacha va yuqori kislotali oziq-ovqat mahsulotlarining bir qismi:

Neytral kislotali ovqatlar: nohut, buyrak loviyasi, tariq, soya, guruch, chuchuk suv baliqlari, kashtan, findiq, kungaboqar yog’i, o’simlik choy damlab, uzum, mandarin, mango, apelsin, o’rik, shaftoli, anjir, kivi ...

O‘rtacha kislotali ovqatlar: bug‘doy, kepak noni, javdar noni, oq non, jo‘xori, sariyog ‘, tabiiy mevali sharbat, baliq, behi, anor, nok, uzum, olma, o‘rik, banan, ananas, gulhamishabahor, quritilgan mevalar, yong‘oq, kaju, pista.

Kislotasi yuqori bo‘lgan ovqatlar: Qahvalar, qora choy, kakao, asal, murabbo, shirinliklar, xantal, soya sousi, sirka, xamirturush, qizil go‘sh, tovuq va kurka go‘sh, tuxum, madaniy baliq, qo‘zichoq go‘sh, qisqichbaqasimonlar, lobster, sakatat, kiyik va quyon go‘sh, pishloq, sigir suti, sut mahsulotlari, sun‘iy tatlandırıcılar, tozalangan shakar, pastal va muzqaymoq, pitssa, pechene, shokolad, mineral suv va h.k.

Kislotalik yuqori mahsulotlar: Spirtli ichimliklar, kolbasa, salam, chiplar, sigaretalar, ketchup, mayonez, kola, gazlangan ichimliklar, dorilar, konfetlar, tozalangan tuz, jele, fruktoza, makkajo‘xori siropi, cho‘chqa go‘sh, margarin, bir hil sut, qayta ishlangan ovqatlar, qadoqlangan mevalar sharbati, mevali yogurt, qaymoqli shokolad va h.k.

FOYDALANILGAN ADANIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kislota>
2. https://www.youtube.com/watch?v=_bEJcQNFEqw
3. <http://mylab.uz/elements/views?id=160>
4. <https://cheminfo.uz/kislotalar-haqida/>

DIFFERENCES IN AMERICAN AND ENGLISH VOCABULARY

Karimova Umida

*Teacher, the Department of English
History and Grammar,
Samarkand State Institute of Foreign Languages
mrs.karimova17@gmail.com*

Abstract: *This article is dedicated to the major difference in American and English pronunciation is in intonation and voice timbre. Americans speak with less variety of tone than the English. American voice timbre seems harsh or tinny to the English, theirs gurgling or throaty to Americans. English conclusion: Americans speak shrilly, monotonously, and like a schoolboy reciting. American conclusion: the English speak too low, theatrically, and swallow their syllables.*

Key words: *pronounce, miscellaneous, fantastically.*

It's easy to point out the differences between the American and the English vocabulary: the differences seem quaint and there are comparatively so few that Americans can easily spot them. Many of the differences are merely a matter of preference: Americans prefer railroad and store while the English prefer the synonyms railway and shop, but all four words are used in both England and America. In addition, Americans know or can easily guess what braces, fishmonger's, or pram means, just as the English know or can figure out what innerspring mattress, jump rope, and ice water mean. Finally, many of the words that once separated American English from English no longer do: American cocktail (1806), skyscraper (1833), and supermarket (1920s) are now heard around the world, and the English increasingly use radio, run (in a stocking), and Santa Claus instead of wireless, ladder, and Father Christmas. The following list gives some of the most interesting and typical differences between the American and English vocabulary, differences that may especially interest tourists and those who enjoy both American and English books and movies.

Examples:

airfield—aerodrome.

apartment; apartment house, apartment building ; block of flats (to an Englishman an apartment means a room). Our high-rise apartment (building) is the English tower block (of flats).

barbershop—barber's shop. The English frequently use the possessive -V or -s' where we do not, as in dolts house, ladies' room, and shop.

can opener—tin opener, candy—sweets

There are, of course, hundreds of more terms that differ in American English and British English. American use of prepositions sometimes also differs: Americans live on a street, the English live in it; Americans chat with people, the English chat to them; Americans speak of an increase in something, the English of an increase on it; Americans

get snowed in, they get snowed up; Americans say something is different/row something else, the English say it is different to it.

The more precise differences include:

Americans pronounce the a in such words as ask, brass, can't, dance, fast, grass, half, last, and path as a short, fiat [a]; the English pronounce it more as the broad [a:] in father. American shorter, flatter [a] is just a continuation of the way first colonists from Southern England pronounced it; the English dropped this pronunciation in the 18th century and began to use the broad [a:] (this same change took place in parts of New England and the South, giving some Americans the pronunciation of aunt as "ahnt" and vase as "vahz").

On the other hand, most Americans sound the short [o] in such words as box, hot, lot, not, pot, and top almost as the broad [a:] in father, while the English (and some New Englanders) give it a more open sound, with the lips rounded.

And some are just unique pronunciations of individual words. Such miscellaneous differences in pronunciations include:

ate, Americans say "eight"—"et" is an accepted English pronunciation.

been, Americans say "bin"—the English say "bean."

clerks- "dark."

either, neither, most Americans say, "e-ther, ne-ther"—"I-ther, ni-ther" is the English pronunciation.

issue, Americans say "ish-you"—the English say "is-sue."

leisure, most Americans say "le-sure"—the English say "laysure."

lieutenant, Americans say "lew-tenant"—the English say "lef-tenant."

nephew, Americans say "nef-hew"—the English say "nev-hew."

schedule, Americans say "sked-ule"—the English say "shed-ule."

Differences in American and English Spelling.

England, including its colonies, began to follow Johnson's spelling; but, in 1758, three years after Johnson's dictionary was published, Noah Webster was born, in Hartford, Connecticut, and 21 years after Johnson's dictionary the American Revolution began—two events that were to help separate English and American English. After graduating in law from Yale, Webster couldn't make a living doing legal work, so he became a teacher. He then found English schoolbooks hard to obtain, and unsatisfactory, so he compiled his own three-part Grammatical Institute of the English Language, including an elementary spelling book (in 1783), a grammar (in 1784) and a reader (in 1785). Part I became the fantastically successful The American Spelling Book, which went through edition after edition and sold 80 million copies in its first hundred years, 1783-1883. It was one of the most influential books ever published in America: from the time America became a nation, past the Civil War, and almost into the Gay 90s, generations of Americans learned to spell and pronounce from it, spelling and pronouncing each syllable in every word over and over again under stern teachers. It was known to millions as Webster's Speller, the Blue-Backed Spelling Book (1853) and the Blue-Backed Speller.

Americans are more scrupulous about clearly articulating certain unaccented syllables, especially -ary, -ery, and -ory, and certain ds, gs, hs, Ps, rs (following vowels) and t's than

the English. Thus the English say melanchy, monastery, necessary, preparatory, secretary, etc, when Americans fully articulate the final syllables. Also, except in parts of New England and the South, Americans articulate the first l in fulfill, the h in forehead, the r in lord and there, and the final t in trait, rather than pronounce them as the English do: fu'fill, for 'rid, laud, theh, and trai.

Written forms of American English are fairly well standardized across the United States. An unofficial standard for spoken American English has developed because of mass media and of geographic and social mobility. This standard is generally called a General American or Standard Midwestern accent and dialect, and it can typically be heard from network newscasters, although local newscasters tend toward more provincial forms of speech. Despite this unofficial standard, regional variations of American English have not only persisted, but have actually intensified, according to William Labov.

Regional dialects in the United States typically reflect the elements of the language of the main immigrant groups in any particular region of the country, especially in terms of pronunciation and vernacular vocabulary.

British and American English are the reference norms for English as spoken, written, and taught in the rest of the world. For instance, the English-speaking members of the Commonwealth often closely follow British English forms while many new American English forms quickly become familiar outside of the United States. Their structural peculiarities, especially morphology, syntax, and word-formation, as well as their word stock are essentially the same. The main lexical differences between the variant are caused by the lack of equivalent lexical units in one of them, divergences in the semantic structures of polysemantic words and peculiarities of usage some words in different territories.

LIST OF USED LITERATURE

1. A course in modern English lexicology R. S Ginzburg, S. S Khidekel, G. Y. Knyazeva, A. A Sankin (1979)

2. Alimardonov R. A “Pronunciation Theory of English” 2009.

3. **K Umida, H Shoxrux, Y Mahzuna, T Madinabonu**, “Main features of constructivism for teaching and learning”

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=adhXOhoAAAJ&citation_for_view=adhXOhoAAAJ:2osOgNQ5qMEC

MANZARALI O’SIMLIK MANGOSTIN DARAXTINI YETISHTIRILISHI

Davlatova Muhabbat O’rmonovna

*Namangan muhandislik texnologiya instituti Manzarali bog’ dorchilik va
ko’kalamzorlashtirish kafedrasasi assistenti*

Annotatsiya: *Maqolada Respublikamizda Mangostin daraxtini yetishtirishni zamonaviy va amaliy usullarini qo’llash ko’rsatilgan.*

Kalit so’zlar: *Mangostin, qurg’oqchilik, organik, sterillash, fenol.*

Mangostinlar balandlik, namlikni sinchkovlik bilan bilishadi va yiliga kamida 50 dyuym (1 m) qurg’oqchiliksiz, yog’ingarchilikni talab qiladi. Daraxtlar chuqur, boy organik tuproqda o’sadi, ammo tarkibida qumli yoki tuproq tarkibidagi loydan omon qoladi. Tik turgan suv ko’chatlarni o’ldirsa, kattalar mangostinlari yil davomida ildizlari suv bilan qoplangan mintaqalarda omon qolishlari va hatto rivojlanishi mumkin. Biroq, ular kuchli shamol va tuz purkagichidan saqlanishlari kerak. Mangostin mevali daraxtlarini o’stirishda, asosan, tarkibiy qismlarning mukammal bo’roni bo’lishi kerak.

Ko’paytirish urug’lar orqali amalga oshiriladi, ammo payvandlash tajribalari o’tkazilgan. Urug’lar haqiqatan ham haqiqiy urug’lar emas, balki gipokotil tubercles, chunki jinsiy urug’lanish bo’lmagan. Urug’larni ko’paytirish uchun mevdan olinganidan besh kun o’tgach foydalanish kerak va 20-22 kun ichida unib chiqadi. Olingan ko’chatni uzun va nozik bir ildiz tufayli ko’chirib o’tkazish qiyin, hatto imkonsiz bo’lsa ham, uni ko’chirib olishga urinishdan oldin kamida ikki yil qoladigan joyda boshlash kerak. Daraxt yetti-to’qqiz yil ichida meva berishi mumkin, lekin ko’pincha 10-20 yoshda bunday holat kuzatiladi.

Mangostinlar bir-biridan 35-40 fut (11-12 m.) oraliqda joylashtirilishi va ekishdan 30 kun oldin organik moddalar bilan boyitilgan. Chuqurlarga ekilgan bo’lishi kerak. Daraxt yaxshi sug’oriladigan maydonga muhtoj. Biroq, gullash vaqtidan oldin quruq ob-havo yaxshi mevalar hosil bo’lishiga yordam beradi. Daraxtlarni qisman soyada ekish va doimiy ravishda boqish kerak.

Ma’lumki, daraxtsimon o’simliklar, ayniqsa ninabarglar sekin o’sadi, ildiz otishi qiyin. Ular katta miqdorda ikkilamchi metabolit birikmalar (fenollar, terpenlar va boshqa moddalar) tutadi, bu ajratilgan to’qimalarda turli fenolazalar ta’sirida oksidlanadi. O’z navbatida fenoldan oksidlangan mahsulotlar odatda hujayraning bo’linishi va o’sishini to’xtatishi orqali birlamchi eksplantlarning nobud bo’lishiga, yoki daraxtsimon o’simliklarning advenetiv kurtaklar paydo qilish xususiyatini kamayishi bilan xarakterlanadi. Ammo, barcha qiyinchiliklarga qaramay, olimlar ilmiy tadqiqotlar manbai sifatida ko’pincha daraxtsimon o’simliklarni to’qima va organlaridan foydalanishadi. Hozirgi vaqtda 40 ta oilaga kiruvchi 200 ga yaqin daraxt turlari (kashtan, eman, qayin, zarang, tog’terak, terak va tog’terak duragaylari, qarag’ay, qoraqarag’ay) in vitro sharoitida kupaytirilmoqda.

Ajratilgan to‘qimalar kulturasi bilan ishlashning asosiy sharti sterillikka qat’iy rioya qilishdir. Ozuqa muhitining boy tarkibi mikroorganizmlar o‘shishi uchun ham yaxshi substrat hisoblanadi. Ozuqa muhitda kulturalanayotgan o‘simlik qismlarini (eksplantlar) mikroorganizmlar oson zararlaydi. Shuning uchun eksplant ham, oziqa muhiti ham sterillangan bo‘lishi shart. Ajratilgan to‘qimalar bilan olib boriladigan barcha ishlar (kulturaga o‘tkazish, yangi oziqa muhitiga ko‘chirish) steril xonalarda, (laminar bokslarda) steril asboblardan yordamida amalga oshiriladi, ajratilgan to‘qimalarni o‘stirish davrida ham sterillikni saqlash lozim, chunki harorat pasayganda, yoki namlik yuzaga kelganda idishning nam tiqini orqali probirka ichiga mikroorganizmlar kirishi mumkin.

Eksplant va urug‘lar 5-20 min sterillovchi eritmada sterillanib, so‘ng bir necha marta steril suvda yuviladi. Sterillash vaqti eksplantni tabiatiga va sterillovchi eritmaning faolligiga bog‘liq. Urug‘lar 10 –20 min, vegetativ qismlar esa 5-10 min sterillanadi. Kulturalash uchun olingan o‘simlik eksplantlari oldin sovunli suvda ishqalab yuviladi va distillangan suvda chayiladi, so‘ng bir necha sekundga 70 % li etanolga solinadi, urug‘lar esa 1-2 min.ga spirtga solib qo‘yiladi. Spirt to‘qimalarni sterillash bilan birga asosiy sterillovchi eritmaning sterillash samarasini ham oshiradi. Spirtidan so‘ng to‘qimalar steril suvda ham chayiladi.

Tashqi sterillash faqat tashqaridagi infeksiyalardan holi qiladi. Agar eksplantda ichki infeksiya mavjud bo‘lsa, u holda antibiotiklar bilan ishlov berish zarur. Asosan tropik va subtropik o‘simlik to‘qimalari ichki infeksiyalarga boy bo‘ladi. Zamburug‘ yoki bakteriyalar bilan zararlangan kulturani ekilganidan 1-14 kundan so‘ng aniqlash mumkin. Mikroorganizmlar bilan zararlangan kulturalarni xonaga tarqalib havoni ifloslantirmasdan ularning oldini olish zarur.

Ozuqa muhitlari avtoklavda 1200 C haroratda 0,75 –1 atm bosimda 20 minut davomida sterillanadi. Agar oziqa muhit tarkibiga yuqori haroratda parchalanib ketuvchi moddalar kiritilgan bo‘lsa, u holda bu moddalar maxsus bakterial filtrlardan o‘tkazib tozalanadi, so‘ng avtoklavlangan va 400S ga cha sovitilgan asosiy oziqa muhitga qo‘yiladi. Idishlarni oldindan zar qog‘ozga yoki oddiy qog‘ozga o‘rab, quritish shkaflarida 1600S haroratda 2 soat davomida sterillash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) Былов В.Н., Михайлов Н.Л., Сурина В.И. Мангостин. Итоги интродукции. М., «Наука», 1988. 4-7 с. 11.Вакуленко В.В., Зайцева Е.Н., Клевинская Т.М. и др. Справочник цветовода. М., «Колос», 1996. 33-36 с.
- 2) Арифханов К.Т., Славкина Т.И. Дендрология Узбекистана. Том.ХИ, Изд-во ФАН УзССР. Ташкент. 1981.-201с.
- 3) Русанов Ф.Н. Дендрология Узбекистана том ИИ. Изд-во ФАН УзССР.Ташкент, 1968.-495с.
- 4) Growing Mangosteen: How to Plant, Raise and Harvest the Queen of Tropical Fruit. <https://morningchores.com/growing-mangosteen>

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” VA “SAB’AI SAYYOR” DOSTONLARIDA SINONIM SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI”

Sobirjanova Shahrinsa Ahmadjon qizi
Namangan davlat universiteti lingvistika
(o‘zbek tili) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki tilshunos olim sifatida ham dovrug‘ taratgan. O‘zining asarlarida forsiy va arabiy so‘zlardan foydalanish bilan birga o‘zbek tilining ulardan aslo qolishmasligini isbotlab beradi. Hali o‘zbek tilining izohli, dialektik, imlo lug‘atlari yaratilmagan bir davrda Navoiy turkiyzabon xalqlar ummonida mohir g‘avvos kabi suzib, o‘zbekona xazina yarata oldi. Buning ifodasini allomaning nazmiy va nasriy asarlarida to‘laqonli ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda tadqiq etilayotgan “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida ham juda go‘zal va mohirona qo‘llangan so‘z san‘atini ko‘ramiz. Badiiy va tarixiy asarlar leksikasining eng ustuvor jihati ularda lingvistik omil hisoblangan sinonimik paradigma, omonimlar, antonimlar, sinonimlar va polisemantik so‘zlarning to‘g‘ri va o‘z o‘rnida ishlatilinishi bilan uzviy bog‘liq.

Sinonimlar haqida so‘z yuritganda uning mohiyati va mazmunini aniq-tiniq belgilab olish darkor. Sinonimlar– talaffuzi, yozilishi har xil, birlashtiruvchi ma‘nosi bir xil (umumiy) bo‘lgan, qo‘shimcha ma‘no nozikligi, emotsional bo‘yog‘i, qo‘llanishi kabi bir qator xususiyatlari bilan o‘zaro farqlanadigan so‘zlardir. Sinonimlar tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko‘rsatib turuvchi hodisalardan biri hisoblanadi. Sinonimlar yordamida nozik ma‘no qirralari anglatiladi, voqelikka turlicha baho, munosabat ifodalanadi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning ma‘lum bir qirradi bo‘rttirilib ko‘rsatiladi. Sinonimlarni ishlatishda har gal ular orasidagi ayirmalar bilan hisoblashishga to‘g‘ri keladi. O‘z fikrini anglatishda, voqelikka o‘z munosabatini ifodalashda yagona o‘rinli leksemani sinonimlari orasidan tanlab ola bilish kerak. Shu bilan bir qatorda sinonimlar so‘zlarning ma‘no jihatidan o‘zaro o‘xshashligini ta‘minlaydi. Ma‘lumki, so‘zlarning semantik munosabati sinonimiyani belgilovchi asosiy shart hisoblanadi. Ayni mana shu jihatdan sinonimlar tizimli taqsimlanadi. Bunda qatordagi so‘zlar ma‘nosining o‘zaro qanday aloqada bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Alisher Navoiyning badiiy matnda o‘ziga xos poetik aktuallashuv vositalaridan biri– sinonimlardan foydalanish mahorati buyuk ijodkor asarlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarda, monografik tatqiqotlarda o‘z aksini topgan. Darhaqiqat, Navoiy sinonimlarga juda ko‘p murojaat qilgani uning so‘z boyligi cheksizligidan dalolat beradi. Biz ko‘plab asarlarda, ayniqsa, tarixiy asarlar matnida *Xudo* so‘zining turli xil leksemalar orqali ifoda etilganligini ko‘ramiz. Asarning quyidagi baytlarida ham aynan mana shunday hodisa namoyon etilgan:

Xudoyo, musallam xudoliq sanga,

Birov shahki, da‘bi gadoliq sanga. (“Saddi Iskandariy” dostoni)

Ushbu baytda Navoiy Allohga murojaat etadi va keyingi baytlarda shu so‘zni qayta-qayta takroridan uzoqlashib, sinonim leksemalardan foydalanadi:

Anga aylagach nuri husnung zuhur,
O‘qubon malak hayli Alloh nur. (“Saddi Iskandariy” dostoni)
Chu sen Mukrim, ahli karamdur sabab,
Desam Akramul Akramin ne ajab. (“Saddi Iskandariy” dostoni)
Ki, ayni karamdin qachonkim Iloh,
Gunahkordin o‘tkarur bir gunoh. (“Saddi Iskandariy” dostoni)¹
Qodiro, ul zaifi osiyman
Ki, boshimdin-ayoq maosiyman. (“Sab’ai sayyor” dostoni)²
Ulki, sendek boshimda *xoliqdur*,
Men demoqlik, ne behayolikdur. (“Sab’ai sayyor” dostoni)
Yo Rab, oshuftamen fig‘onima yet,
Karam aylab xatolarim afv et. (“Sab’ai sayyor” dostoni)
Biz bu sinonim so‘zlarni daraja (graduonimiya) ko‘rsatkichida beradigan bo‘lsak,
mana bunday sxemada joylashadi.

Tangri	Qodir	Xoliq	Alloh	Xudo	Iloh	Yaratgan	Rab
--------	-------	-------	-------	------	------	----------	-----

Misollar orqali *Xudo* so‘zi baytlarda turlicha tarzda ifoda etilganligini ko‘rdik, Ya‘ni, *Yaratgan*, *Iloh*, *Qodir*, *Xoliq*, *Rab* so‘zlari Alloh ma‘nosida qo‘llanilib, leksik sinonimiyani tashkil etgan. Albatta, bu so‘zlarning hammasi ham turkiycha emas. Masalan: *Iloh*, *Qodir*, *Xoliq* so‘zlari arabcha, *Xudo* so‘zi esa forschadir. Yana shunga e‘tibor berish kerakki, mukrim leksemasi ham matn ichida shartli sinonim sifatida qo‘llangan. Mukrim so‘zi arabchada karam negizidan kelib chiqqan bo‘lib, “karam qiluvchi” degan ma‘noni anglatadi. Bu so‘zlar o‘zbek tiliga o‘z ma‘nosida kirib kelgan va she‘riyatda ham samarali qo‘llangan. Bu so‘zlarni to‘g‘ri tanlay bilish, o‘z navbatida shoirning iste‘dodidan darak berib, uning uslub jihatidan naqadar katta mahoratga ega ekanligiga ishora qiladi. Alisher Navoiy sinonimlarni qo‘llashda mislsiz kashfiyotlarni amalga oshiradi. Biz o‘rganayotgan so‘zlar esa dengizdan bir tomchi, xolos. Yuqorida aytilganidek, sinonimlar so‘z turkumlari doirasida sermahsullikka ega. Keyingi baytlar hamohangligida ot sinonimlarga murojaat etiladi:

Shohlar qullig‘in ko‘rub marg‘ub,
Anga darveshlik bo‘lub matlub. (“Sab’ai sayyor” dostoni)
Xonlar uzra etib atosi aning,
Xon bin xon ato anosi aning. (“Sab’ai sayyor” dostoni)

Bu ikki baytdagi “*shohlar*” va “*xonlar*” so‘zlari o‘zaro sinonimlikni hosil qilgan. Sinonimik mikrotuzilma ko‘pincha sinonimik qator deb nomlanadi. Bu til hodisasini sinonimik uya deb ham nomlash mumkin. Sinonimik uya til taraqqiyotiga bog‘liq holda

¹ Алишер Навоий. Садди Искандарий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 11–Тошкент : Фан, 1993. (Bundan keyingi misollar ham ushbu nashrdan olinadi).

² Алишер Навоий. Сабъаи сайёр. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т. 10–Тошкент : Фан, 1992. (Bundan keyingi misollar ham ushbu nashrdan olinadi).

o‘zgarishi mumkin, ayrim sinonim iste’moldan chiqib, uyadan ham chiqib ketadi, uyaga yangi sinonim qo‘shiladi. Mana shu qoidaga asosan, bugungi kun davr va siyosat jihatidan bu ikki so‘z ishlatilish darajasi yo‘qolib, uning o‘rniga *davlat rahbari*, *prezident* kabi yangi so‘zlarning kirib kelishi bilan bog‘liq hodisalar tilimizda aks etmoqda.

Demak, ijtimoiy tuzumning o‘zgarishi ham qaysidir ma’noda tilga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Sinonimlar tuzilishi jihatidan uchta asosiy guruhga ajraladi: 1)

Sodda sinonimlar, 2) murakkab sinonimlar, 3) birikmali sinonimlar.³

1) Sodda sinonimlar asosan o‘zakning o‘zidan tashkil topganligi bilan ajralib turadi.

Dostonda keltirilgan bu baytda aynan soda sinonimlar ishtirok etgan:

Chu *Haqdin* edi ul saodat manga,

Bu *dushvor* ish ichra jalodat manga.

Bu dam hamki, *mushkilrak* o‘lmish ishim,

Erur *Tengri* ollinda-o‘q nolishim. (“Saddi Iskandariy”) dostoni

Ushbu baytlarda biz Haq va Tengri leksemalarini, *dushvor* va *mushkil* leksemalarini soda sinonim sifatida keltirishimiz mumkin.

2) Murakkab sinonimlar. Bu xil sinonimlarning ayrimlari qo‘shma so‘zlardan tashkil topadi. Shuningdek, murakkab sinonimlarning ba’zilari juft holda ishlatiladi, ba’zilari esa nutqda paralleldir.

Gulga chun berdi tob *husnu-jamol*,

Anga bulbulni qildi sheftai hol.

Yuqoridagi baytda *husnu-jamol* so‘zlari juft holda aks ettirilgan. *Husnu-jamol* so‘zi uchun *chiroy* so‘zi dominanta hisoblanadi. Bundan tashqari asarda *qad-qomat*, *or-nomus*, *baxt-saodat*, *balo-ofat*, *kuchquvvat* kabi juft leksimalar qatnashgan.

3) Birikmali sinonimlar orasida so‘z birikmalari orqali ifodalangan sinonimlar ham uchraydi. Masalan:

Ota dunu o‘g‘ul *sharif o‘lmoq*,

Bu *latif o‘lmoq*, ul kasif o‘lmoq.

Bu ikki so‘z Alisher Navoiy asarlari lug‘atida *go‘zal o‘lim topmoq*, *sharafli o‘lim topmoq* degan ma’nolarni anglatadi. Mana shu jihatdan sinonimlar fikrni nutqda aniq, butun tafsilotlari bilan ifodalashda, ta’sirchan bayon qilishda uslubning xilma-xil, rangdor va ravon chiqishida katta ahamiyatga ega. Demak, sinonim so‘zlar ma’noda umumlashtiruvchi so‘z atrofida guruhlanishi bilan xarakterlanadi.

Alisher Navoiy ham “Sab’ai sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida sinonimlarning turli variantlaridan keng foydalangan.

Taniqli navoiyshunos olim Botirxon Akrom Navoiy to‘g‘risidagi juda qimmatli fikrlarni keltiradi: “Navoiydek sohir so‘z san’atkori uchun hatto adabiy iste’moldagi me’yor-mezonlar, an’anaviy usullar, vositalar kifoya qilmasa hech ajab emas. Zero, daho shoirlarning ijodiy xayoli eng yuksak avj darajalarda, samoviy mintaqalardagina o‘zining

³ Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Ф. К. Камолов.—Тошкент: Фан, 1966. 137-бет.

munosib, butun va yorqin obrazli ifodasini topishi mumkin.⁴ Navoiy ulug‘ tilshunos olim sifatida yozgan asarlari bilan ham adabiy tilimizning taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan.

⁴ Fasohat mulkinging sohibqironi. Botirxon Akrom.–Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 20-bet.
www.bestpublication.uz

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Saydulloyeva Mahliyo Rahmatjonovna

Ibragimova Zohida Maxamadovna

*Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 36-sonli o'rta maktab
boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangiliklarni kiritishdir.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, pedagogik jarayon, o'qitish uslubi, ijodiy fikrlash, axborot texnologiya, texnik vositalar, individual rivojlanish.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qish savodxonligi darslaridabolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar.

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar shunday bir davrdalarki, bu vaqtda ularda nafaqat jamiyatda yashash qobiliyati, balki ijodiy fikrlash ham shakllantiriladi.

Ayrim boshlang'ich sinf o'qituvchilari bolani o'qishga o'rgatish asosiy vazifa deb bilishadi. Albatta, o'quvchilarni birma-bir o'qish ko'nikmalarini shakllantirish o'qituvchidan katta mahorat va mas'uliyat talab etadi. Biroq, yuzaga chiqmagan bolalar iste'dodi muammosi bugungi kunningdolzarb masalalaridan biridir.

Bu masalani hal qilishda ya'ni o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradigan vositalardan biri o'qish savodxonligi **darslaridir**. Odatda, badiiy faoliyat bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yo'nalishi hisoblanadi. Bunga tasviriy san'at, texnologiya va musiqa darslari yordam beradi. Ammo, ona tili va o'qish savodxonligi, matematika va tabiatshunoslik kabi fanlar ham o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega.

Aslida, ijodiy qobiliyat qobiliyatlarning standart tushunchasidan tashqariga chiqish qobiliyatini anglatadi. O'qish savidxonli darslarida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga bog'liq ravishda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishning innovatsion usuli sifatida turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Shuni esda tutish kerakki, boshlang'ich sinf bolasi hali ham bunday o'yinlarga moyil bo'ladi. O'quvchilarining ichki imkoniyatlarini ochishda o'z isbotini topgan metodlarni berib o'tamiz.

O'qish savodxonligi darsining boshida soddalashtirilgan «Aqliy hujum»dan foydalanish. Bu esa o'quvchilar bilimlarini takrorlagan holda, o'tilgan materiallarni eslab qolishga, yangi bilimlar olishga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi.

«Men o'zimni namoyon qilaman». Yangi adabiy tushunchalar bilan tanishishdan oldin, o'quvchilar o'zlarini eng yaxshi tomondan ko'rsatish taklif qilinadi. Ushbu uslub ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdan tashqari, notiqlik mahoratini rivojlantirishga yordam

beradi. Yaxshi rivojlangan monologga ega bo‘lgan o‘quvchi mantiqiy, izchil va oqilona ravishda o‘z fikrlarini ifoda eta oladi, o‘quv dasturidagi murakkab savollarga batafsil javob bera oladi, darsliklar, badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodi matni ustida mustaqil ishlay oladi.

“So‘zlarni taqqoslash”. Bunda o‘quvchilarga har xil ma’noga ega bo‘lgan ikkita so‘zni (qazilma va ko‘pyoq) taqqoslash taklif qilinadi. O‘quvchilarning vazifasi ushbu so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligiga imkon qadar ko‘proq misollar keltirishdir.

«Nostandart vaziyatlarni taklif qilish». Bu matn bilan ishlashda o‘quvchilarni kutilmagansavollarga javob berish so‘raladi:

- Odamlar boshlarida yurishni boshlasalar nima bo‘ladi?
- Agar sut jo‘mrakdan oqib chiqsa nima bo‘ladi? va hakoza.

Matn bilan ishlashda savollarni tanlash ham nostandart bo‘lishi kerak. Asosiysi, bola savolda qanday xarakter qayd etilganligi haqida tasavvurga ega. Bu jarayonda mantiqiy bog‘liq bo‘lgan, kompozitsion va grammatik jihatdan ishlab chiqilgan, kengaytirilgan va to‘liq, hissiy va semantikbayon qilingan izchil nutq rivojlanadi.

«Ma’nodoshini top». Atamashunoslikka murojaat qilmasdan, o‘quvchilarni o‘xshash ma’noli so‘zlarni topish taklif qilinadi. Buni ommaviy ish shaklida, balki juftlikda ham amalga oshirish mumkin.

«She’rni davom ettir». Bunda o‘quvchilarga she’rdagi yo‘qolgan satrlarni davom ettirishso‘raladi: Qudrat Hikmatning «Bahor» she’ri misolida.

Bedapoya yam-yashil o‘tloq, Chinorlarda qushlar chug‘urlar. Ko‘klam ko‘rkin ko‘rdingmi, o‘rtoq,

«Taqlid». Bu metodni o‘tkazishda mavzu o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi va bolalar topshiriqni bajarish jarayonida asar qahramoniga mos harakatlar qilishi talab qilinadi. O‘quvchi obrazga kirishi bilan nutq va harakatlar hamohang bo‘lishi kerak.

«Yozuvchi». Ushbu yoshdagi bolalar xayol qilishni yaxshi ko‘radilar, uni har jihatdan rag‘batlantirish kerak. Dastlab, o‘quvchilar o‘qilgan matn uchun boshqa sarlavha taklif qilishadi. Barcha aytilgan variantlar ijobiy baholanib, ularning ichidan eng yaxshi g‘oyalar saralanadi. O‘qituvchi asar yakunini ochiq qoldiradi va o‘quvchilardan matnning oxirini «yozib tugatish» so‘raladi. Bu bolaga asar qahramonlarining tarixiga chuqur kirib borish uchun imkoniyat bo‘ladi. Asarni yangi talqinda ixtiro qilish juda yaxshi uslubdir.

«Teatr tomoshalari». Badiiy o‘qish darsining bir qismi sifatida, o‘quvchilar uchun kichkina «yulduzlar» va kelajakdagi haqiqiy iste’dodlarni topish mumkin. O‘quvchi asar qahramonni tasvirlashda o‘qituvchining samimiy maqtoviga sazovor bo‘lishi, ilgari «noma’lum» bo‘lgan o‘quvchining sinfdoshlari orasida obro‘sini oshiradi. Metodning muvaffaqiyati o‘quvchilarning kichik sahnalarda eng yaxshi tomonlarini ko‘rsatishga harakat qilishidadir.

Darsdagi dam olish daqiqalari ham bolaning ijodiy fikrlashiga ta’sir qiladi, olingan ma’lumotdan tanaffus olish imkoniyatini beradi. «Ijodiy yengillik mashqlari bolaning tanasiga ortiqcha kuchlanishdan xalos bo‘lishga, psixologik muvozanatni tiklashga va shu bilan ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi».

Xulosa qilganda, zamonaviy ta’lim barcha o’quvchilarga o’z qobiliyatlarini namoyish etish va barcha ijodiy qobiliyatlarini istisnosiz namoyish etish imkoniyatini beradi. Bugungi jamiyat quti tashqarisida o’ylaydigan, muammoli vaziyatdan chiqish yo’lini topa oladigan, nostandart qarorlar chiqaradigan va ijodiy fikrlay oladigan shaxslarga muhtoj. Buning uchun, boshlang’ich sinflardan boshlab bolalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Matchonov S. va boshqalar. O’qish kitobi 4-sinf. – Toshkent.: “Yangiyo‘l poligraf servis”,2020. 105-bet.
2. Vigotskiy L. S. Bola rivojlanishining psixologiyasi. – Moskva.: “Eksmo”, 2010. 512 b.

GIMNASTIKANING BA’ZI TURLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Raxmonov Dilmurod Nusratovich

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti

E-mail:dilmurodraxmonov194@gmail.com

Qosimov Bekzod Zoirovich

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat Universiteti

Annotatsiya: *Gimnastika turlari: badiiy, ritmik, trampolin, akrobatika va aerobika ajralib turadi. Ushbu sport jismoniy kuch, moslashuvchanlik, epchillik, muvofiqlashtirish, nafislik, muvozanat va boshqaruvni o'z ichiga olgan murakkab kombinatsiyadir.*

Kalit so'zlari: *badiiy, ritmik, trampolin, akrobatika, aerobika.*

Gimnastika musobaqalarining birinchi navbatda uchta turi mavjud: badiiy, badiiy va akrobatik; har biri alohida sport turi. Odatda, badiiy gimnastika oddiygina gimnastika deb ataladi.

Gimnastika tadbirlari erkaklar va ayollar uchun turlicha bo'ladi. Badiiy gimnastikada har kim o'ziga xos apparatga ega; boshqa tomondan, badiiy gimnastika faqat ayollar tomonidan amalga oshiriladi.

Gimnastikaning rasmiy ta'rifida ular jismoniy chaqqonlik va muvofiqlashtirishni rivojlantiradigan yoki namoyish etadigan mashqlar ekanligi ta'kidlangan. Ushbu sport turi, odatda, parallel barlarda, polda, notekis barlarda, tarozida va pommel otda va boshqalarda mashqlarni o'z ichiga oladi.

Gimnastikaning asosiy turlari

Ayollar badiiy gimnastikasi: ko'pincha oddiygina ayollar gimnastikasi deb nomlanadi. Odatda u eng ko'p ishtirokchilarni jalb qiladi va eng taniqli gimnastika hisoblanadi. Bu turli xil gimnastika jihozlarini yoki turli xil mashqlar uchun polni ishlatishdan iborat.

Ushbu turdagi gimnastika - bu boshqarish va qo'rqmaslikning ijodiy aralashmasi; u kuchli va nafis, ammo ayni paytda nafis va kuchli. Muvofiqlashtirish, muvozanat va chaqqonlikni yaxshilaydi, bu esa tanani yaxshiroq tushunishga olib keladi. Shuningdek, u egiluvchanlik va tana kuchini yaxshilaydi [3].

Ayollar badiiy gimnastikasida sportchilar to'rtta apparatda: otdan sakrash, muvozanat nurlari, polga mashq qilish va notekis panjara bo'yicha bellashadi. Qurilmada muvaffaqiyat qozonish uchun sizga muvozanat, tebranish, aravakashlik va tezlikni oshirish qobiliyatlari kerak [1].

Otga sakrash - ushbu uslubda gimnastikachi podium bo'ylab yugurib, batutga sakraydi va erdan 4 metr narida joylashgan sakrash stoli tomon harakatlanadi.

Balans nurlari - gimnastikachi xoreografiya tartibini 4 dyuymli keng nurda sakrash, aravakashlar va burilishlar bilan yakunlaydi.

Qavat mashqlari - gimnastikachi xoreografiya tartibida sakrab yurish, burilish va raqs harakatlarini to'ldirilgan gilamchada musiqa urishi ostida bajaradi.

Notekis panjaralar - gimnastikachi har xil balandlikdagi ikkita gorizontal chiziqda belanchak, piruet va uchish harakatlarini bajaradi.

Erkaklar badiiy gimnastikasi: Bu ayollarning badiiy gimnastikasi bilan bir xil ko'nikmalarni o'z ichiga oladi: u mushaklarning kuchi va boshqaruviga katta e'tibor beradi. Erkaklar gimnastikasi - gimnastikaning eng qadimgi turi yollardan farqli o'laroq, erkaklar oltita apparatda raqobatlashadilar: polda mashq bajarish, eshakka sakrash, parallel chiziqlar, gorizontal chiziq, pommel ot va halqalar [5].

Eng mashhur bo'lgan so'nggi ikkita rejimning xususiyatlari quyida keltirilgan:

Pommel oti - Ushbu jihozning kengligi taxminan 13,8 dyuym, unda erkaklar qo'llari bilan ushlab turiladigan ikkita kamon bor. Gimnastikachilar muntazam ravishda to'xtab turolmaydilar, shuning uchun ular ko'tarilgandan keyin harakatni davom ettirishlari kerak [3].

Kestirib doimiy harakatda bo'lishi kerak va u eng qiyin apparatlardan biri hisoblanadi, chunki barcha og'irlik qo'l va qo'llarga tushadi.

Uzuklar: ushbu apparat gimnastikachi qo'llari bilan muvozanatlashishi kerak bo'lgan havodagi ikkita halqadan iborat. Ushbu g'oya shundan iboratki, uzuklar muntazam ravishda iloji boricha harakatsiz turadi [4].

Uzuklar erdan 5,75 metr balandlikda osib qo'yilishi va bir-biridan 50 santimetr masofada joylashgan bo'lishi kerak.

Badiiy gimnastika: Ushbu turdagi gimnastikada sakrash, uloqtirish, qadam tashlash va boshqa harakatlar turli xil asboblar yordamida amalga oshiriladi. Olimpiadada ushbu sport turi faqat ayollardir.

Badiiy gimnastika to'shakda ijro etiladigan oqimli kompozitsiyalarda balet, raqs va gimnastikani birlashtiradi.

Ushbu gimnastikachilar juda moslashuvchan, kelishilgan va aniqlikka ega bo'lishi kerak. Ushbu sport turida go'zallik, o'ziga xoslik, nafislik va shaxsiy uslub juda muhimdir.

Ular asosan arqon, halqa, to'p va molga bilan raqobatlashadi.

Arqon - sintetik materialdan tayyorlangan va gimnastikachining o'lchamiga mutanosib. Gimnastikachi sakkizinchi figurali harakatlarni bajaradi, arqonni uloqtiradi va ushlaydi va egilgan arqon bo'ylab sakraydi [2].

Qo'ng'iroq - gimnastikachi 31 dyuymli halqani aylantiradi, uloqtiradi va ushlaydi.

To'p - Sportchilar pirouetlarni ijro etadilar, uloqtiradilar va ushlaydilar va tanasida 8 dyuymli diametrli rezina to'pni muvozanatlashtiradilar.

Batut gimnastikasi: Ushbu intizomda gimnastikachilar batutdan sakrab akrobatika mashqlarini bajaradilar. Harakat doirasi oddiy sakrashdan tortib to saltoga o'tishi mumkin. Ushbu g'oya gimnastikachilar havoda sakrab chiqqandan keyin yuqori burilishlarni amalga oshirishlari kerak.

Olimpiya o'yinlari bir xil batutda bajariladigan 10 ta mahoratdan iborat. Olimpiada ayollar o'rtasida individual, erkaklar uchun boshqa musobaqani o'z ichiga oladi.

Akrobatika gimnastikasi: Bu gimnastikachilar juftlikda (erkaklar va ayollar), trioslar (ayollar) va kvartetlarda (erkaklar) juftlik bilan qatnashadigan guruh usulidir. Unda badiiy

gimnastikada ko'rilgan salto va akrobatik sakrash elementlari mavjud bo'lib, musiqa ritmida polda ijro etiladi [1].

Guruh balansi pozitsiyalari ta'kidlangan; "inson me'morchiligi" ushbu sport turiga xosdir. Ularni ko'pincha tengdoshlari tutib olish uchun gimnastikachilarga tashlashadi. Ushbu fanda go'zallik va xoreografiya katta ahamiyatga ega.

Aerobik gimnastika: Bu to'xtamaydigan yuqori intensiv harakatlar bilan tavsiflanadi; bu raqs, gimnastika va akrobatika aralashmasi. U deyarli har doim baquvvat bo'lgan musiqa ritmida ijro etiladi.

Ushbu intizom ko'plab tadbirlarda amalga oshiriladi: erkaklar va ayollar singllari, aralash juftliklar, trioslar, guruhlar va sakkizta gimnastikachilarning aerobik raqslari.

Guruhlar xoreografiyaning murakkabligiga emas, balki aniqlik va vaqtga ahamiyat berishadi. Odatda xoreografiya badiiy gimnastikada mavjud bo'lganlarga qaraganda ancha robotik va ta'qib qilish ancha oson.

Gipopressiv gimnastika: Gipopressiv qorin gimnastikasi deb ham ataladigan bu sport 1980 yilda Marsel Kofriez tomonidan ishlab chiqilgan. Tos suyagi bo'yicha mutaxassis bo'lgan ushbu belgiyalik shifokor ayollarning tug'ruqdan keyingi rehabilitatsiyasiga yordam berish uchun qorin va tos gimnastikasi bilan shug'ullanishning yangi usulini qayta ishlab chiqdi.

Ushbu turdagi gimnastikaning mashqlari nafasingizni ushlab turganda bir qator harakatlarni bajarishga asoslangan. Bu bilan qorinni va tos suyagini an'anaviy mashqlarga xos bo'lgan muammolar (shtammlar, bo'yin va bel og'rig'i yoki bachadon bo'yni bilan bog'liq muammolar) tug'dirmasdan yordam beradi.

Estetika: Estetik gimnastika - bu ritm va raqsning aralashmasi. Bu badiiy gimnastikaga juda o'xshash (o'xshash kostyumlar, raqs harakatlari), lekin ular harakatlarni bajarish uchun apparatlardan foydalanmasliklari bilan ajralib turadi [2].

Umumiy: Olti va undan ortiq kishining xoreografiyasiga asoslangan gimnastika turi. Ular odatda tematik fonga ega bo'lib, unda gimnastikachilar bo'yanish va liboslar bilan ajralib turadi.

Bu ishtirokchilarning qobiliyatlari va mahoratlari ko'ra uch darajaga bo'lingan raqobatbardosh gimnastika bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. V.I.Filippovich. теория и методика ГИМНАСТИК. М.: 1971.
2. A.M. Shlyomin. “Gimnastika”. М.: FIS, 1978.
3. A.G. Bro'kin. Gimnasticheskaya terminologiya. М.: FIS. 1969.
4. Beller JM. The Relationship of competition and a christian liberal arts education on moral reasoning of college student athletes. Research on Christian Higher Education, 1995; 3, 99-114.
5. Arabacı ĞB. Ğlkokul dördüncü sınıf öĝrencilerinin yaĝamlarında sporun anlam ve önemi. Turkish Journal of Educational Studies, 2017; 4(1), 115-135.

O‘ZBEKISTONDA DORIVOR O‘SIMLIKLARNI RIVOJLANTIRISHDA ERISHILGAN NATIJALAR

Shomurotova X.B

Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Butun dunyoda sodir bo‘layotgan COVID-19 pandemiyasi natijasida insonlar sog‘lig‘iga alohida e‘tibor berilmoqda. Shu sababli Respublikamiz hududida ham bugungi kunda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, bu esa axoli salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko‘rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘ldi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarni rivojlantirishga, xususan tabiiy boyliklardan samarali va unumli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivori o‘simliklarni muxofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-son qarori, 2018 yil 20 martdagi “Respublikada kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xom ashyosini qayta ishlash hajmlarini ko‘paytirish xamda eksport qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohani tubdan rivojlanishining huquqiy asoslarini yaratib berdi. Ushbu qarorlardagi vazifalarni amalga oshirish natijasida dorivor o‘simliklarni nafaqat tabiatda yovvoyi holda terib olish, balki madaniy holda plantatsiya usulida ko‘paytirish va qayta ishlashni tashkil etish bilan shug‘ullanuvchi fermerlar va tadbirkorlar soni ham sezilarli darajada ortib bormoqda [1,2].

O‘tgan davr mobaynida 9 ta dorivor o‘simliklar yetishtirish klasterlari tashkil etilib, ular tomonidan moychechak, kovrak, limono‘t, qalampir yalpiz, qizilmiya, za‘faron va boshqa dorivor o‘simliklar yetishtirilmoqda. Ularning faoliyati natijasida o‘tgan 2021-yilda 4 ta xorijiy davlatga 1,7 mln AQSH dollar qiymatidagi dorivor o‘simliklar xomashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilinmoqda.

Shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda Ferula foetida va Ferula kuhistan o‘simliklarining ildizlaridan yelim (smola) olinib, har yili yuzlab tonna xomashyo tayyorlanib, chetga eksport qilinmoqda. Bu holat o‘simlik zaxiralarining kamayib ketishiga olib kelmoqda. Xomashyoni eksport qilmasdan ushbu smoladan o‘zimizda yangi preparatlar yaratish va o‘simlik zaxiralaridan oqilona foydalanish maqsadida yurtimizda tashkil etilgan davlat ekologik nazorati va profilaktika tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi tezkor guruh kavrak o‘sadigan hududlarda nazorat kuchaytirildi [4].

Bugun sohaga e‘tiborning ortishi hamda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida respublikamizda o‘sadigan 100 dan ortiq turdagi dorivor o‘simliklarga rasmiy tibbiyotda foydalanishga ruxsat berilgan bo‘lib, ushbu dorivor o‘simliklarning asosiy qismi tabiiy holda o‘sovchi o‘simliklarni tashkil etadi. Ushbu tabiiy holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarning xomashyo zahirasi chegaralangan bo‘lib, ularni muhofaza qilish,

bioekologik xususiyatlarini o‘rganish, xomashyo zahirasidan to‘g‘ri foydalanish va ko‘paytirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri bo‘lmoqda. Shuning uchun, O‘zbekistonda farmatsevtika sanoatining ehtiyojlarini dorivor o‘simliklar xomashyosi bilan ta‘minlash, mahalliy florani yangi introdutsent o‘simlik turlari bilan boyitish va ularni yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, 2020-yil boshida respublikaning barcha hududlarida jami 11,5 ming ga yer maydonida 27 turdagi dorivor o‘simliklar plantatsiyalari mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yil davomida dorivor o‘simliklar plantatsiyalari 162 ta subyektlar tomonidan 15,8 ming ga yetkazilib, ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir bo‘lgan 45 turdagi dorivor va ziravor o‘simliklarning 17,3 ming tonna xomashyosi yetishtirildi [2,3].

Dorivor o‘simliklar madaniy plantatsiyalarining kengayib borishi va ishlab chiqarish hajmlarining ortishi bilan bir qatorda sohaning eksport salohiyati kuchaytirilmoqda. 2020-yil yakunida 29 ta xorijiy davlatga 16,0 ming tonnadan ortiq 50,0 mln AQSH dollari qiymatidagi dorivor o‘simliklar xomashyosi va qayta ishlangan mahsulotlari eksport qilingan bo‘lsa, 2021-yil yakuni bilan bu ko‘rsatkichda o‘sish kuzatilib, dunyoning 37 ta davlatlariga 55 mln dollar qiymatidagi mahsulotlar eksporti amalga oshirildi. Eksport geografiyasining AQSH va Yevropa davlatlari hisobiga ortib borishi sohaning imkoniyati katta ekanligidan dalolatdir. Shunigdek, faol qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar madaniy plantatsiyalarini yaratish uchun birlamchi urug‘chilikni yo‘lga qo‘yish va onalik ko‘chatzorlarini tashkil etish sohaning tub ildizi bo‘lib, bugungi kunda 16 ta subyektlar tomonidan 22 turdagi dorivor va ziravor o‘simliklar urug‘ va ko‘chatlari yetishtirilmoqda [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20-martdagi “Respublikada kavrak plantatsiyalarini tashkil etish va ularning xomashyosini qayta ishlash hajmlarini ko‘paytirish xamda eksport qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3617 sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4901-sonli qarori.

3. Ahmedov O., Ergashev A., Abzalov A., Yulchiyeva M., Mustafakulov D.-“Dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiyasi”. «Tafakkur bo‘stoni», Toshkent 2018 yil.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4670-sonli qarori.

ABU RAYHON BERUNIYNING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARIDA OILA MASALALARI

Kuchkarov Samandar Nematovich
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: *Maqolada Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida oila va oilaviy tarbiya, odob-axloqi masalalari bayon qilingan hamda bugungi kunda barkamol inson tarbiyasidagi ahamiyati haqida to’xtalgan.*

Kalit so’zlar: *Abu Rayhon Beruniy, oila, odob-axloq, oilaviy tarbiya, inson kamoloti, bax-saodat, barkamol avlod.*

Abu Rayhon Beruniyning o’z davrining yetuk olimi, faylasufi olimi sifatida ko’plab asarlarini o’rganar ekanmiz, u mashhur yunon tabiatshunoslari va mutafakkirlari asarlarini chuqur egallab, arabchaga tarjima qilgan, asarlarni asl nusxasiga solishtirib ko’rgan va talaygina xatolar va chalkashliklarni topganini ko’ramiz. O’tkir aql egasi bo’lgan Beruniy qadimgi yunon falsafasini har taraflama bilish uchun, puxta bilim ham kerakligini alohida ta’kidlagan.

Abu Rayhon Beruniyning asarlarida inson baxt-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala hisoblanib, insonni tabiatning bir qismi, deb biladi. Uning falsafiy tafakkurida olam yaratilishi, ruh va jonning o’zaro munosabati masalalari muhim o’rin egallagan bo’lib, ayniqsa, bu “Mineralogiya” asarida yaqqol tasvirlangan. Olimning favqulodda o’tkir fahm-farosati, ziyrakligi, masalaga ilmiy yondashishi va tadqiqot metodikasining yuqori saviyadaligi, tushuncha va tasavvurlarning g’oyat darajada aniqligini asarda yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, olim ushbu asarda oila haqidagi fikrlarini keltirar ekan, insonlarning juft-jufti bilan yaratilganligiga ishora qiladi. Lekin ular o’z juftlarini hurmat qilishlari, bir umr birga yashashlari, o’zlaridan keyin zurriyot qoldirishlari va shu asnda avlodlarni davom ettirishlari aks etadi. Ularning ko’payishi o’z navbatida shahar va qishloqlarning barpo bo’lishi bilan izohlanadi. Bu borada Olloh taolo degan: «Sizlarni bir jondan yaratgan, unga osoyish topsin deb bir jonning o’zidan juftini yaratgan o’shadir». Olloh taolo yana degan: «Uning alomatlaridan (yana biri) sizlar (nafsni qondirish jihatidan) taskin topishingiz uchun o’zlaringizdan juftlar yaratgani va o’rtangizda inoqlik va mehribonlik paydo qilganidir. Albatta, bunda tafakkur qiladigan kishilar uchun alomatlar bordir»[1;-B.10]. Bunda yana yovuzlikdan himoya qo’shilsa, bu muvofiqlikni ikki bor oshiruvchi va buzilishni yo’qotuvchi kuchga aylanadi. Agar bunday birlashuvdan bir tomon yoki har ikkala tomonga foyda bo’lganda, bu istaklar muvofiqlashuvining nihoyasi bo’ladi. Bunday ahvol rivojlana borib, oxiri odamlar o’rtasidagi o’zaro yordamni keltirib chiqaradi, ularning birga yashamoqlariga, shahar va qishloqlarning yuzaga kelmog’iga sabab bo’ladi[2;-B.10].

Demak, mutafakkir oila qurish asoslarini tushuntirar ekan, ijtimoiy munosabatlar natijasida oilaviy munosabatlardan tortib jamoa bo’lib yashashni falsafiy nuqtai-nazardan izohlaydi: “Talablar esa shunchalar turli-tumanki, inson bir o’zi ularni qondirmoqqa imkoni yo’q, buning uchun unga bitta yordamchi ham kamlik qiladi. Faqat bir necha odam jam

bo’lsagina, ehtiyojlarni qondirmog’i mumkin. Buning uchun esa odamlar shaharlar (qo’rg’onlar, qishloqlar) qurmoqqa ehtiyoj sezadilar”. Beruniy fikricha, jamoa bo’lib yashash qulay bo’lib, barcha moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondiradi; “Odamlarning maqsad va niyatlari turlicha bo’ladi, san’at va hunarlar ham har xil bo’ladi. Bir kishi boshqa birovni o’ziga xodimlikka oladi. Ya’ni, boshqa birov unga adolatli kelishuv asosida har doim xizmat qiladigan va buning evaziga tegishli haq oladigan bo’ladi. Zo’ravonlik va yollov vositasida amalga oshiriladigan majburiy mehnat doimiy va barqaror emas[3;-B.11].

Beruniyning ko’pgina asarlari tabiiy-ilmiy xarakterda bo’lishiga qaramay, ularda inson odob-axloqi masalalari olimning nazaridan chetda qolgan emas. Xususan, axloqning shakllanishi jamiyat tizimining eng muhim instituti bo’lgan oilaning mukammalligiga bog’liq ekanligi ta’kidlanadi. “Mineralogiya” asarida o’zining falsafiy qarashlarini bayon etib, oilaviy munosabatlarga ham alohida e’tibor qaratadi. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi maslahatlarni ham keltiradi. Asarda oilaviy tarbiya va shaxsiy gigiena, suv odamlar hayotida muhim omil ekanligini ko’rsatuvchi bir necha rivoyatlar ham keltirgan.

Bir ona qiziga nasihat qilib aytgan: “Ering uchun sen ko’rpa-yostiqdek bo’lgin. U senga tirikchilik manbai bo’ladi. Sen unga to’shakdek bo’l, u senga yopinchiqdek bo’ladi. U xursand ekanida qayg’uli, u g’amgin ekanida sho’x bo’lmoqdan saqlan. U senda hech qanday betartiblikni ko’rmasin, sendan faqat eng yoqimli hidlar anqib turmog’inigina sezsin. Uning sirlarini ochma, chunki unda o’zingni uning qarshisida tubanlashtirgan bo’lasan. Hamisha suv va surma yoningda bo’lsin. Suv barcha hushbo’yliklarning eng yaxshisidir”. Bir ona qiziga debdi: “Tanangga xush hidlar bag’ishla, eringa bo’ysun. Eng ko’p yoqimli hidlar taratuvchi sifatida suvni ishlatgin” [4;-B.21].

Yuqoridagi fikrlardan ko’rinib turibdiki, nikoh va oila masalalarida zarur bo’lgan pokizalik, shaxsiy gigiena va suvga bo’lgan ehtiyoj, uning zarurligi ta’kidlanadi. Bu rivoyatlardan jamiyatda oilaviy munosabatlarning muhim qirralari o’z ifodasini topgan.

Darhaqiqat, bugun xalqimiz, davlatimizning buyuk kelajagiga, mustaqilligimiz umriboqiyiligiga ishonch - e’tiqod bilan islohotlarning barcha jabhalarida insonparvarlik, fidoyilik namunalarini namoyish qilmoqdalar. Olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish hamda fuqarolik jamiyati zaminlarini mustahkamlashda ma’naviy yuksalikka intilish, shaxs va jamiyatning ma’naviy yetukligi uyg’unligiga erishish va nihoyat, insonga bo’lgan e’tibor barcha sohalaridagi islohotlarimizning ustuvor maqsadini tashkil etib, inson va uning manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat darajasiga ko’tarildi. Barkamol inson tarbiyasi doimo e’tiborimizning diqqat markazida bo’lib kelmoqda. Bu shiddatli islohotlar ulkan bunyodkorlik, obodonchilik ishlari, inson manfaatlari ulug’langani va xalq bilan muloqotning yangi tizimi joriy etilgani bilan hayotda o’zining yorqin ifodasini topdi.

Aynan shu xususda, prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “..... agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo’lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir. Biz yangi O’zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va

umuminsoniy g’oyalarni mujassam etadigan kuchli ma’naviyatga tayanamiz. Shu maqsadda “Yangi O’zbekiston – ma’rifatli jamiyat” kontseptsiyasini amalga oshiramiz”[5;].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abu Rayhon Beruniy. Kitob al-jamohir fi-ma’rifat al-javohir (Mineralogiya). – T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017. -B.10
2. Abu Rayhon Beruniy. Kitob al-jamohir fi-ma’rifat al-javohir (Mineralogiya). – T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017.-B.10.
3. Abu Rayhon Beruniy. Kitob al-jamohir fi-ma’rifat al-javohir (Mineralogiya). – T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2017. -B.11.
4. Abu Rayhon Beruniy. Qimmatbaho javohirlar haqida bilimlar kitobi (Mineralogiya). //Tarjimon akademik A.Qayumov. – T.: O’zbekiston milliy entsiklopediyasi. –B.21.
5. Yangi saylangan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag’ishlangan Oliy Majlis palatalari qo’shma majlisidagi nutqi // https://uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi-asosida-demokratik-islohotlar-yolini-qatiy-davom-ettiramiz_318163
6. Haqqulov N.Q. Perfect generation - personality of private education and humanity facilities // "МИРОВАЯ НАУКА" международное электорнное научно-практическое периодическое издание. -2019.- №2(23). - С.62-63.
7. Ҳаққулов Н. Қ. Сиддикий-Ажзий маърифатпарварлик қарашларида миллий толерантлик масаласи //НамДУ илмий ахборотномаси-Научный вестник НамГУ. – 2020. – №. 10. – С. 296.
8. Alikulov, X., & Haqqulov, N. Q. (2020). Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development // ISJ Theoretical & Applied Science, 4(84), 164-167.
9. Сафаров А. И., Ҳаққулов Н. К. Свойственные качества совершенному человеку в суфизме //Современная наука как социально-политический фактор развития государства. – 2019. – С. 48-50.

INGLIZ TILIDA ANIQLOVCHINING IFODALANISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Eshniyazov Mansur
SamDCHTI magistranti.

Annotatsiya: *Aniqlovchi ot bilan ifodalangan, shuningdek, bo’lak yoki bo’lak bo’laklarining, undalma yoki kirish birikmalarining kengaytiruvchisidir. To’ldiruvchi kabi aniqlovchi ham so’z kengaytiruvchisi sifatida gap tarkibida qatnashayotgan otlarning lug’aviy valentligini to’ldiruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi va gap konstruktiv tuzilmasi o’rin egallamaydi. Uning lisoniy satrga aloqadorligi muayyanlashuvchi otning qanday valentligiga muvofiq kelishi va uni sintaktik aloqa bilan voqelantirishidir. Aniqlovchi gapda turlicha ifodalanishga ega. Aniqlashning o’ziga xosligiga ko’ra, aniqlovchining materiali ham, shunga muvofiq, uning kengayuvchi so’z bilan sintaktik aloqasi ham turlicha bo’ladi.*

Ushbu maqola ingliz tilida aniqlovchilar va ularning ifodalanishini tahlil qilishga bag’ishlangan.

СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Эшниязов Мансур
*Магистрант,
Самаркандского государственного
института иностранных языков.*

Аннотация: *Определение – второстепенный член предложения, который дает оценку существительным, местоимениям и другим частям речи в предложении, которые используются к качестве существительного. В предложении определение чаще всего зависит от подлежащего, дополнения, а также именной части сказуемого. Определение в английском предложении может выражаться разными способами, однако довольно часто оно выражается прилагательным или причастиями (а также причастными фразами). Данная статья посвящена исследованию способы выражения определения на английском языке*

WAYS OF EXPRESSING THE ATTRIBUTE IN ENGLISH

Eshniyazov Mansur
*Master’s student,
Samarkand State Institute of Foreign Languages.*

Annotation: *Attributive use is the use that a speaker makes of a definite noun phrase to say something about whatever fits the description of the noun phrase. In grammar, an attributive expression is a word or phrase within a noun phrase that modifies the head noun. It may be an attributive adjective; attributive noun; attributive verb or other part of speech, such as an attributive numeral. A grammatical term contrasting with predicative. The attributive position is in front of a noun. It may imply a permanent attribute, as a result of which some adjectives and most nouns can only be attributive. The article focuses on the analysis of the attribute in English. Theoretical data about the theme are discussed and analyzed with reasonable examples.*

KIRISH.

Ingliz tilida so'z tartibi o'zbek tiliga qaraganda biror muhimroqdir. Gapdagi har bir soz'ning vazifasini ma'lum darajada mustaqil tuslanib ko'rsatadi. O'zbek tili so'zga so'z tartibi tuslanishi katta hajmdaligi sababli ingliz tilida so'zlarning deyarli tuslanishi o'zgaradi va gapdagi joylashish o'rnini bir-biriga bog'lab ko'rsatadi va ingliz tilida belgilangan so'z tartibi shakli o'zgarmaydi. Buni namunali misollar bilan yaqqol ko'rsatiladigan bo'lsak, biz gap bo'laklarini, asosan ega va to'ldiruvchining o'rnini o'zgartira olmaymiz. Agar biz birinchi o'ringa vositali to'ldiruvchini qo'ysak va egani uchinchi o'ringa joylashtirsak gapning ma'nosi umuman o'zgaradi. Chunki ega bo'lib gapning boshida joylashtirilgan to'ldiruvchi va to'ldiruvchi bo'lib kelgan kesimdan keyin joylashtirilgan to'ldiruvchi va to'ldiruvchi bo'lib kelgan kesimdan keyin joylashtirilgan ega bo'lib keladi.

ASOSIY QISM.

Predmetning belgisini, sifatini, miqdorini, qarashlilikini va shu kabi xuxuxisiatlarini bildiradigan gap bo'lagi aniqlovchi deb ataladi. Belgisini aniqlayotgan bo'lak aniqlanmish deyiladi.

Aniqlovchi odatda, ot, olmosh yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalangan ega.

To'ldiruvchi va predikativning belgisini aniqlab keladi.

Masalan: There was a red pen on the table.

Aniqlovchining aniqlanmishdan oldin yoki keyin kelishiga ko'ra aniqlovchilar ikki guruhga bo'linadi.

1) aniqlanmishdan oldin turadigan aniqlovchilar.

2) aniqlanmishdan keyin turadigan aniqlovchilar.

Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin turgan bo'lsa u odatda belgi bildiruvchi so'zlar-sifat, sifatdosh va belgini ko'rsatuvchi so'zlar olmosh, son, bilan ifodalanadi. Bunday gapda aniqlovchi bilan aniqlanmish yahlit birlik hosil qiladi. Ya'ni pauzasiz talaffuz etilib, bir intonatsion birlik, sintaqmani tashkil qiladi.

Ingliz tilida aniqlovchi , aniqlanmish bilan shaxs, son va rodda moslashmaydi. Aniqlovchi-aniqlanmish birikmasi yagona artiklga ega bo'lib u asosan aniqlovchidan oldin ishlatiladi.

Masalan: The little tables round us began to fill.

Ba'zan aniqlovchi aniqlanmish bilan artikl orqali ham ajralish mumkin. Bunday hollarda noaniq artikl aniqlanmishdan oldin qo'llanadi.

Masalan: Such a creul, heartlees charge! Both the stories were interesting.

Aniqlanmisdan keyin turadigan aniqlovchilar (postpozitiv aniqlovchilar (The Postpositive Attribute) Aniqlovchi aniqlanmisdan keyin kelganda ko'proq mustaqillikka ega bo'ladi hatto u intonatsiya jihatdan ham mustaqillikka ega bo'lishi mumkin.

Masalan: "Dear me". What anouded remark to make".

Masalan: The man who is standing in the corner is my father.

Ingliz tilshunoslaridan K. N. Kachalova va E. E. Izrayelovichlar aniqlovchini quyidagicha tavsiflashadi: “Определение называется второстепенный член предложения, который обозначает признак предмета. Определение относится к существительному. Значительно реже оно относится к местоимениям-существительным” [3, 377]. Ta'rifda aniqlovchini faqatgina predmetning belgisini bildirish olishi va u otga bog'lanib kelishi aytilmoqda va bu ta'rif aniqlovchini to'liq tavsiflay olmayapdi (aniqlovchi nafaqat predmetni balki shaxsni ham belgisini bildirib kela oladi, masalan: a beautiful girl), lekin aynan Kachalova va Izrayelovichlar aniqlovchini olmoshning ham belgisini bildirib kela olishiga e'tibor qaratishgani diqqatga sazovar, chunki aniqlovchining bu jihatiga boshqa adabiyotlarda ko'p e'tibor qaratilmagan.

Ingliz tili tilshunoslaridan yana biri V. Kaushanskaya aniqlovchiga quyidagi ta'rifni beradi: “The attribute is a secondary part of the sentence which qualifies a noun, a pronoun, or any other part of speech that has a nominal character... It may be expressed by any part of speech.” [2, 252] Bu yerda olimaning aniqlovchini to'liq tasvirlay olganini ko'rish mumkin, chunki aniqlovchi ot va olmoshni aniqlab kela oladi va har qanday so'z turkumi bilan ifodalana olinadi. Shuni aytib o'tish kerakki, ko'pgina adabiyotlarda aniqlovchi ergash gaplar aniqlovchining bir turi sifatida qaralmoqda va aniqlovchi nafaqat ot, olmosh balki gaplarni ham aniqlab keladi deya ta'rif berish mumkin.

Tilshunos olim B. Ilish esa: “An attribute can either precede or follow the noun it modifies. Accordingly we use “prepositive” and “postpositive” attribute. The position of an attribute with respect to its head word depends on the morphological peculiarities of the attribute itself, and partly on stylistic factors” [5, 221] deb aniqlovchining gapdagi o'rniga e'tibor qaratadi.

Aniqlovchi (The attribute) Aniqlovchi shaxs yoki buyumning belgisini bildiruvchi gap bo'lagidir. Aniqlovchi odatda otni aniqlaydi, ba'zi hollarda olmoshni aniqlaydi (one olmoshi va some, any, every, no olmoshlaridan yasalgan olmoshlarni): 1. Aniqlovchi sifatdan yasaladi: I received an important letter yesterday. Men kecha muhim xat oldim.

2. Aniqlovchi sifatdoshdan yasaladi: I bought some illustrated magazines. Men bir nechta (bezakli) suratli jurnal sotib oldim.

3. Aniqlovchi sifatdoshli iboradan yasaladi: The student speaking to the teacher is my brother. O'qituvchi bilan gaplashayotgan talaba mening akam.

4. Aniqllovchi sondan yasaladi: Two thousand tons of sugar were loaded on the ship yesterday. Kecha kemaga ikki ming tonna shakar yuklandi. The second lesson begins at eleven o’clock. Ikkinchi dars soat o’n birda boshlanadi⁵.

5. Aniqllovchi olmoshdan yasaladi: Some magazines are lying on the table. Bir nechta jurnallar stol ustida yotib di.

6. Aniqllovchi bosh kelishikdagi otdan yasaladi: The town library is closed on Sundays. Yakshanba kunlari shahar kutubxonasi yopiq.

7. Aniqllovchi qaratqich kelishigidagi otdan yasaladi: The teacher corrected the student’s mistakes. O’qituvchi talabaning xato larini to’g’riladi.

8. Aniqllovchi predlogli otdan yasaladi.

9. Aniqllovchi infi nitivdan yasaladi.

10. Aniqllovchi predlogli gerundan yasaladi.

11. Ingliz tilida yana otdan yasalgan shunday aniqllovchilar borki, ular otga boshqa nom beradi. Bunday aniqllovchilar izohlovchilar debata ladi.

12. Aniqllovchining gapda doimiy o’rni yo’q. U otdan yasalgan, istalgan gap bo’lagini aniqlashi mumkin: The beautiful new bridges across the river were built before the war. Daryodagi chiroyli yangi ko’priklar urushdan oldin qurilgan⁶.

Aniqllovchi predmetning belgisini anglatadigan bo’lakdir. Bunda u belgi predikativlik yo’li bilan emas, balki atributivlik yo’li bilan aniqlanadi. Aniqllovchining belgi anglatishi predmetning biror sifatini, xususiyatini, miqdorini yoki qarashlilikni va shu kabi xususiyatlarni ifodalashdan iboratdir. Aniqllovchining predmet belgisini anglatishidan uning otga bog’lanishi kelib chiqadi. Bu ot gapning har qanday bo’lagi bo’lib kela oladi. Bu holat uning aniqllovchisiga ta’sir etmaydi.

Aniqllovchi predmetning belgisini anglatadigan bo’lakdir. Bunda belgi predikativ yo’l bilan emas, balki atributiv yo’l bilan aniqlanadi. Aniqllovchining belgi anglatishi miqdor yoki qarashlilik kabilarni ifodalashdan iborat. Aniqllovchining predmet (keng ma’noda) belgisini anglatishidan uning otga bog’lanishi kelib chiqadi. Bu ot gapning har qanday bo’lagi bo’lib kela oladi. Bu holat uning aniqllovchisiga ta’sir etmaydi. Aniqllovchi bo’lak aniqlanmish bilan zich bog’langan bo’ladi. Ularning ikkalasi birlikda aniqllovchili birikma sanaladi.

Aniqllovchilik hodisasi aniqlanmish bilan bo’lgan sintetik munosabat asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham aniqllovchining shakli va ma’no funksiyasi aniqlanmishning shakli va ma’nosi bilan munosabatda izohlanadi. Ularning sintaktik munosabatlari komponentlar o’rtasidagi bog’lovchi vositalari orqali ifodalanadi. Bu bog’lovchi vositalar asosan quyidagilardir: aniqllovchining aniqlanmish bilan ma’no munosabati, aniqllovchining aniqlanmishdan bevosita oldin kelishi, bog’lanayotgan bo’laklarning maxsus bog’lovchiga ega bo’lmasligi va ularning biri yo har ikkisi maxsus bog’lovchi formal bo’lishidir.

⁵ G’aprov M. Ingliz tili grammatikasi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma – T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2010 – 269 b.

⁶ G’aprov M. Ingliz tili grammatikasi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o’quv qo’llanma – T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2010 – 270 b.

Aniqlovchili birikmaga bo‘g‘langan aniqlovchilar sifatlovchi yoki qaratqich bo‘lishi mumkin. Aniqlovchi turli yo‘llar bilan ifodalanadi. Ya’ni aniqlashda semantik va grammatik xususiyatiga ko‘ra bu vazifadagi so‘zlar ham farq qiladi. Predmetning qandayligi, tusi, xususiyati, mazasi, shakli, xarakteri, harakatga ko‘ra belgisi anglatilganda (sifatlovchida), aniqlovchi sifat, sifatdosh kabi so‘zlar bilan ifodalanadi.

Sintaksis grammatikaning bir qismi bo‘lib, u so‘z birikmasi va gapni tekshiradi, uning asosi gap haqidagi ta’limotdir: gap qurish, so‘zlarni birlashtirish qoidalari, gapning strukturasi, funksiyasi, qo‘llanishi, gaplarning o‘zaro munosabati va boshqalar. Sintaksis tilshunoslikning boshqa bo‘limlari bilan uzviy bog‘liqdir. Masalan, morfologiyada so‘zlarning strukturasi o‘rganilsa, sintaksisda ularning aloqasi, bog‘lanishi, birlashtirish yo‘llari va vositalari tekshiriladi. So‘z leksik birlik sifatida leksikada ham o‘rganiladi, biroq uning haqiqiy ma’nosi gapda aniqlashadi. Shu bilan birga, gapni shakllantirishda ohang muhim ahamiyatga egaligi, bunda sintaksisning fonetik tizimga bog‘liqligi namoyon bo‘lishi ko‘rsatilgan.

Hozirgi vaqtda sintaktik tahlil ma’lum bosqichlarda gapning kommunikativ turlari, strukturasi va bo‘laklarida o‘tkazilayotgan bo‘lsa ham, bu masala nazariy jihatdan yetarlicha asoslanmaganligi uchun, ko‘proq maktab grammatikasi hajmidagina o‘rganilmoqda. Ya’ni faktik materiallarning qoidalashtirilgan ma’lum qismi yoki sodda shakllarigina sintaktik tahlilning ob’ekti bo‘lib qolmoqda. Gap bo‘laklarining tahlili esa, asosan, bir bosqichda funksional planda o‘rganilmoqda. Gap bo‘lagini bunday yo‘nalishda o‘rganish asosiy mezondir. Chunki bu bosqich gap bo‘laklari tahlilining nazariy va amaliy jihatdan to‘g‘ri o‘rganishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G‘aprov M. Ingliz tili grammatikasi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma – T.: «Turon-Iqbol» nashriyoti, 2010 – 269 b.
2. Каушанская В. Л. и др. “Грамматика английского языка” – Ленинград, 1971
3. Качалова К. Н., Израилович Е. Е. “Практическая грамматика английского языка” – Bishkek, 2008
4. Комиссаров В.Н. “Теория перевода (лингвистические аспекты)” – М., 1990, 190с.
5. Ильиш Б. А. “Строй современного английского языка” – Ленинград, 1971
6. Новый большой англо-русский словарь М.,1993
7. The American Century Dictionary-London, 1983/
8. The Concise Oxford Dictionary-Oxford Dictionary-Oxford, 1990.
9. Collinse Cobuild. Essential English Dictionary Turkey, 1995.
10. Hornby A.S. Oxford Students Dictionary of Current English- M.,1983

1- SINFLARDA “ONA TILI VA O’QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI TEATRLASHTIRISH”

**Faxriddinova Rahimaxon
Abdurasulova Gulnozaxon**

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining yangi asoslari va yo‘nalishlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, Respublikamizda ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini boyitish har tomonlama ta’lim va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan keng foydalanish va ishlab chiqarishga joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayonining mazmunini boyitish, ta’lim sifatini oshirish maqsadida mamlakatimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ta’lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, dars mashg‘ulotlarini qiziqarli va interafol tarzda tashkillashtirishga qaratilgan turli multimedia ilovalari, bolalarni darsga qiziqtirish uchun mobil o‘yinlar va shu kabi qator yangiliklar kiritildi. Bu kabi ta’lim resurslaridan o‘rinli foydalanish pedagogning o‘ziga xosligi hamda pedagogik mahoratiga bog‘liq. Bundan tashqari o‘qituvchi o‘zining kreativ g‘oyalari, interfaol metodlardan ham foydalanishi darsning yanada qiziqarli va mazmunli o‘tishiga xizmat qiladi. Xususan, boshlang‘ich sinflarda “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darslarini tashkil qilishda sahna ko‘rinishlaridan, turli teatr sahnalaridan foydalanish, dars mavzusiga mos ertaklarni teatrlashtirish ham bolalarga darsning mazmunini to‘laqonli yetkazib berishda o‘ziga xos metodik yordam bo‘lib xizmat qiladi. 1-sinflarda Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligining ikkinchi qismida “San‘at va madaniyat” bobining ikkinchi bo‘limi “Ertakdagi qahramon” deb nomlanadi. Bu bo‘limda o‘quvchilarga turli mavzularni yoritish uchun “Zumrad va Qimmat”, “To‘g‘rivoy bilan Egrivoy”, “Bo‘g‘irsoq”, “Qizil qzlpqcha”, “Serkaboboning hiylasi”, “Jonli savatcha” ertaklari berilgan. Bu bo‘limni o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda ertak syujeti va tiliga tahliliy yondashuvni rivojlantirish, ertak janri bilan bog‘liq lisoniy ifodalarni qo‘llash malakasini rivojlantirishdir. Bo‘limda mavzular, ya‘ni ertaklarning audiomatn shakli ham berilgan. Ushbu audiomatnlardan foydalanib, o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, ertaklar bo‘lib beriladi. Har bir guruhdagi o‘quvchilar o‘zaro kelishgan holda rollar, ya‘ni ertakdagi qahramonlarni bo‘lishib olib, ertak syujetini tushunib, tushunganlari bo‘yicha teatr (sahna ko‘rinishi) tashkil qilinishi darsning mazmunli o‘tishida, o‘quvchilarning yangi mavzuni yaxshi tushunishlarida, o‘zlari uchun kerakli xulosani chiqarishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida darsni teatrlashtirish (sahnalashtirish) orqali tashkil qilish yuzasidan bir qancha tavsiyalarni tayyorladim.

“Ertakdagi qahramon” bo‘limida birinchi darsning maqsadi bolalarning shu paytgacha o‘rgangan, ularda shu vaqtgacha shakllangan ertaklar mavzusi doirasida bilim va tajribani faollashtirish. Darsning boshida o‘qituvchi O‘zbekiston kontekstida ma‘lum va mashhur bo‘lgan ertak qahramonlari, ertak syujetini eslatishi, mazkur tushunchalar ustida umumiy-xususiy mabsublik aloqalariga oid mashqlar bajarishi o‘ziga xos ta’lim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilardan qanday ertaklarni eshitganlari va ularning

mazmuni yuzasidan suhbatlashadi. So`ng sinfni guruhlariga bo`lib, har bir guruhga bittadan ertakni sahnalashtirishni topshiriq qilib beradi. Albatta, bunda o`qituvchi o`zi ham birgalikda ularga yordam bergan holda dars tashkil qiladi. Bu bilan o`qituvchi o`zining “**zamonaviy o`qituvchi**” ekanligini namoyon qiladi. Ya`ni, avvallari ta`limda o`qituvchi – aktyor bo`lishi kerak edi. Ayni damda **zamonaviy o`qituvchi** nafaqat aktyor, balki **rejissor** bo`lishi davr talabiga aylandi. Chunki sinfda 32 ta o`quvchi bo`lsa, shu 32 ta o`quvchining hammasi to`laqonli matematikani 100 % o`zlashtirgan, deya olmaymiz. Bu – tabiiy hol. Lekin, sinfda kimdir matematika, hisob-kitobga qobiliyati yuqori bo`lsa, kimdir muhandislik, turli ixtirolar kashf qilishi bilan o`rtoqlaridan ajralib turadi. Yana kimdir jismoniy qobiliyati yaxshi rivojlangan bo`lsa, boshqasi rassomchilikka judayam qiziqadi. O`quvchilarning ayni shu qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun o`qituvchi **rejissor** bo`lishi zarur. Dars davomida o`qituvchi rejissorlik ham qiladi. Bolalarga rollarni bo`lib bergach, o`quvchilar parda ortiga o`tib o`ziga berilgan rolni ijro qiladilar. O`qituvchi audiomatni kompyuter yoki televizordan qo`yib beradi va ertakning kirish qismini o`zi boshlab beradi. “Bir bor ekan, bir yo`q ekan. Bir chol bo`lgan ekan. Uning Zumrad ismli qizi bor ekan...”. Va o`quvchilar o`zlariga bo`lib berilgan rollar bo`yicha ertak qahramonlarining so`zlarini aytib ijro qiladilar. Darsni bu tarzda tashkillashtirish o`quvchilarda hayotiy ko`nikmalarning shakllanishiga, yaxshi va yomonni farqlay olishlariga, yaxshini ko`rib ham, yomonni ko`rib ham o`zi uchun tegishli xulosa chiqarishga, foyda va ziyonni farqlab olishiga yaqindan yordam beradi.

“To`g`rivoy bilan Egrivoy” ertagining audio yoki videomatnini o`qituvchi kompyuter, televizor yoki boshqa axborot kommunikatsiya vositalari yordamida o`quvchilarga qo`yib beradi. So`ngra o`quvchilar orasidan mazkur ertakka tayyorgarlik ko`rganlarini doskaga chiqaradi. O`quvchilar parda ortiga o`tib audiomatndagi ketma-ketlik bo`yicha navbati bilan tegishli rollarning so`zlarini ijro qiladilar. Ertak sahnasini ijro qilish davomida o`quvchilar o`zaro hamkorlikda kelishib ishlashga, birdamlikda gap ko`p ekanligiga, sahna madaniyatiga, uning qoida va qonunlariga rioya qilishga, maktabda ham ichki tartib-intizom qoidalariga amal qilish kerak ekanligini bilib olishadi. Va eng muhimi, o`quvchilar o`z fikrini erkin bayon qilishga, og`zaki va yozma nutq malakalarining shakllanishiga erishadi.

2-darsda o`quvchilar “Serkaboboning hiylasi” ertagini o`rganadilar. Bu darsning maqsadi audiomatni tinglash jarayonida tafsilotlarga diqqat qilish, audiomatda ishlatilgan turli so`z va birikmalar, gaplarga e`tibor qilish ko`nikmasini shakllantirishdan iborat. Dars davomida o`quvchilar “Serkaboboning hiylasi” ertagini eshitadilar, ertakda ishtirok etgan qahramonlarni farqlaydilar, ertakda qo`llangan va notanish bo`lgan til birliklari ustida mashqlar bajaradilar. Bu darsda o`qituvchi o`tgan darsda nimalar o`tilganligini eslatib, o`tgan darsning davomi o`laroq bugun ham ertaklar haqida gaplashishini ma`lum qiladi. Audiomatni qo`yib beradi va o`quvchilar ertakni tinglaydilar. “Bor ekan-da yo`q ekan, och ekan-da to`q ekan, bir zamonda bir qari Serka bo`lib, uning mingdan ortiq bolalari bor ekan...”. Ertakni tinglab bo`lgach o`quvchilar o`zlariga bo`lingan qahramonlarning so`zlarini ijro qilib doskada teatr ko`rsatadi. Sahnada ijro tugagandan so`ng o`qituvchi o`quvchilar bilan birgalikda ertakdagi qahramonlar, ularning xarakter xususiyati, ertakda qanday qiyofada kelganligi, ertakning syujeti yuzasidan savol-javoblar o`tkazadi. Bu orqali

o`qituvchi o`quvchilarning dars mavzusini yaxshi o`zlashtirishlariga, ertakda kelgan tafsilotlarga o`quvchilarning diqqatini jalb qilishga, ertakda ishlatilgan so`z va birikmalarni, gaplarni tahlil qilib o`zi uchun tegishli xulosa chiqarib olishlariga erishadi.

Darslarni shu kabi interfaol usulda tashkil qilishda o`qituvchi ham, o`quvchi ham shak-shubhasiz qator yutuqlarga erishadi. Bundan tashqari darslikda “Jonli savatcha” she`riy ertagi ham keltirilgan bo`lib, bu ertakni o`rganishda bolada she`riy matni tushunish, ohang va ifodalash usulining nasrdan farqli ekanini anglash, tasavvurlarini yanada boyitishga erishadi. Shuningdek, o`quvchilarga o`zlari mustaqil ravishda ertak to`qib berishlari ham mavzuni, bo`limda organgan bilimlarini mustahkamlashiga juda katta yordam beradi. Bu bilan o`quvchilarda ijodkorlik, tashabbuskorlik, mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. To`qigan ertaklari asosida rasmlar ishlab, ertak kitobchalari ham yasashi mumkin bo`ladi. Bu bilan sinfda **jajji noshirlarning** yuzaga chiqishiga erishiladi.

MATEMATIKA FANINI O’QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

**Xolmatova Mahliyo Nazirjon qizi
Mamajonova Shohista Solijonovna**

*Farg'ona viloyati Farg'ona tumani 36-sonli o'rta maktab
matematika o'qituvchilari*

Annotatsiya: *Ushbu maqola matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *matematika, innovatsion, fan, texnologiya, o'yin, aqliy faoliyat.*

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishini o'zida jamlagan Harakatlar strategiyasida ham ta'lim sohasiga urg'u berilgan. Ta'lim jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarni fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko'p qirrali samara keltiradi. Shu sababdan ham maktab oldida innovatsion faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvlar va nazariyalar, yangiliklarni yaratish, tatbiq etish va ulardan foydalanishning yaxlit, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatga aylantirish talab etilmoqda. Xuddi shu kabi talim-tarbiya sohasida ham so'nggi yillarda pedagogik texnologiyaga amal qilina boshladi.

Men mehnat qilayotgan Norin tumanidagi 25-umumta'lim maktabida dars jarayonida keng qo'llayotgan samarali usullardan "Klaster", "Ishchanlik o'yini", "Zig-zag", "Kubik", "BBB", "Tarmoq", "Diagramma", "Topag'on", "Doiraviy misollar", "Sirli son", "O'yin topishmoq", "Tez javob", "Rebus", "Nima yo'qolib qoldi?" kabi didaktik o'yinlardan ko'proq foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi va shulardan foydalanib kelmoqdaman. Matematika fani o'rganilishi jihatdan boshqa sohalarga nisbatan biroz qiyinroq bo'lganligi uchun o'quvchilarda bu sohaga qiziqish, o'zlashtirish darajasi farq qiladi. Shuning uchun ham darslarda o'quvchilarga yaqinroq bo'lishga, qiziqarli misol, masalalar bilan boyitilishiga to'g'ri keladi. Ayniqsa, o'quvchilarda teorema, yoki qiyinroq masalalarni hal etish davomida miyaning qabul qilish darajasi susayib, ularda zerikish alomatlarini sodir bo'la boshlaydi. Agar o'qituvchi bu holatni o'z vaqtida sezib, ularni bu holatdan chiqarishga harakat qilmasa, bu darsdan kutilgan maqsadga erishib bo'lmaydi. "O'qituvchi- kishi ruhining muhandisidir" deb bejiz aytilmagan. Shunday ekan, o'qituvchi o'quvchilar aqliy faoliyatini vaqti bilan o'zgartirib turish xususiyatiga egadir. O'quvchilarning dars jarayonida toliqqanligi sezilgan vaqtda didaktik o'yinlar tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ish tajribalarimizda ko'p qo'llaydigan bunday o'yin turlaridan "Ishchanlik o'yinlari"ni misol qilib olishimiz mumkin. Bunday o'yin

turida o'quvchilar o'rtasida aqliy ish yuzasidan musobaqa tashkil qilinadi. Musobaqada tez, to'g'ri, chaqqon holda ishni yakunlagan guruh g'olib sanaladi. Haqiqatdan ham, bolalarda bilim olishdan ham birinchi bo'lish, o'qituvchining rag'batini eshitish ishtiyoqi ancha kuchli bo'ladi. Mohir o'qituvchilar mana shu vaziyatdan unumli foydalanadilar. "Ishchanlik o'yini" da arifmetik misollar, algebraik soddalashtirish, masala-misollar, geometrik masalalar, test savollari yoki viktorina savollaridan foydalanish mumkin. Hamma hollarda ham bu vazifalar qisqa muddatda hal etilishi lozim bo'lganligi uchun sarf etiladigan vaqt ham shunga mos bo'ladi. Tajribalarimizdan ma'lumki, matematikadan tashkil etiladigan didaktik o'yinlardan "Ishchanlik o'yinlari" ni o'tkazish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilar faolligini oshirishning muhim omili sifatida ta'sir etadi.

Agar o'quvchilar har bir fandan olgan bilimlarini hayotga tatbiq eta olmasa, amalda ulardan foydalanolmasa, quruq fan bo'lib qolaveradi, o'qituvchining mehnati zoye, o'quvchining vaqti behudaga sarflangan hisoblanadi. Jamiyatimizning hech bir a'zosi yo'qki, kundalik turmushida matematikadan foydalanmasa. Natural sonlar, o'nli kasrlar ustida bajariladigan u yoki bu amallarni o'rganishni olsak, kundalik turmushda bundan foydalanmaydigan kishini topish qiyin, yoki umuman mumkin emas. Geometriyadan to'g'ri chiziq, kesma, aylana, doira, uchburchak, ko'pburchak, shar, silindr tushunchalari bilan bog'liq mavzularni olsak, bular juda ko'p kasblarda, kundalik turmushda, boshqa fanlarni o'rganishda tez-tez qo'llaniladi. Matematikani o'rganish o'quvchilarda sanash, hisoblash, o'lchash, taqqoslash, tahlil qilish, isbotlash, mantiqiy fikrlash, fazoviy tasavvur qilish kabi juda ko'p ko'nikma va malakalardan tarkib topadiki, bularsiz hayotda biror ish qilish qiyin. Matematika fanida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash faqat shu mavzu oqali emas, balki har bir mavzusi ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan: Kongurent figuralar mavzusini o'tishda tikuvchilar kiyim andozasini olishda foydalanishlarini aytish mumkin. Sferaning hajmi mavzusini o'tishda sfera shaklida qurilgan binolarni (masalan sirk) tomlarini bo'yash uchun ketgan bo'yoq miqdorini aniqlashda qo'llanishini, hajmlar mavzusini o'tishda turmushda uchraydigan figuralarning hajmlarini topish, ularga ketadigan material miqdorini aniqlashda yordam berishni aytib o'tish lozim. Matematika darslarida hamma mavzularni turmush, o'quvchilarni kasbga yo'llash bilan bog'lash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida interfaol metodlardan samarali foydalanish o'quv materialini o'zlashtirishni osonlashtiradi. O'quvchilar matematika fanini puxta o'zlashtirishi uchun pedagog mustaqil yo'naltira oladigan materiallardan samarali foydalanishi, darsni qiziqarli o'tishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumayev M. Matematika. O'qituvchi kitobi. - Toshkent-2003.
2. Abduhamidov A., Nasimov H., Nosirov U., Husanov J. Algebra va

matematik analiz asoslari. 1-qism. - T.: O'qituvchi, 2008.

3.Hojiyev A., Faynleyb A. Algebra va sonlar nazariyasi. - T.: O'zbekiston,
2001.

ОҚОВА СУВЛАРНИ ТОЗАЛАШДА МЕХАНИК УСУЛ

Атаходжаев Абдубоситхожа Абдулахатхожа ўғли
ТошДТУ, Мухандислик технологиялари факультети
Э ва АММ йўналиши 3-босқич талабаси,

Жовлиев Мухриддин Норбой ўғли
ТошДТУ, Мухандислик технологиялари факультети
Э ва АММ йўналиши 3-босқич талабаси,

Атроф-муҳитни антропоген таъсирлардан химоя қилишга бугунги кунда дунё миқёсида катта эътибор берилмоқда. Саноатнинг, шу жумладан, кимё саноатининг жадал ривожланиши, хомашё казиб олишнинг кўпайиши, транспорт дан фойдаланишнинг ошиб бориши атроф-м уҳитга жуда кўплаб чиқиндилар ташланишига сабаб бўлмоқда.

Атроф-муҳит (сув, ҳаво, тупроқ)нинг ифлосланиши биосферанинг нормал ҳаёт фаолиятининг бузилишига, иқлим ўзгаришига, ўсимлик ва ҳайвонот турларининг йўқ бўлиб кетишига, аҳоли саломатлигининг ёмонлашишига олиб келмоқда

Бугун сайёрамиз экологик инқироз ёқасига келиб чучук сув захиралари соат сайин камайиб бораётган бир пайтда оқова сувларни тозалаб, табиатга зарар етказмаслик, уларни қишлоқ хўжалигига ишлатиш долзарб масаладир.

Оқова сувларни тозалаш махсус тозалаш иншоотларида амалга оширилади
Механик босқич

Ушбу босқичда тозалаш иншоотларига оқиб тушадиган оқова сувларни дастлабки тозалаш амалга оширилади. Бундай ҳолда, уларни нафақат биологик тозалашга тайёрлаш, балки турли хил эримайдиган аралашмаларни сақлаш ҳам содир бўлади.

Оқова сувларни механик тозалашда қўлланиладиган қурилмаларга қуйидагилар кирази:

- панжаралар ва элаклар;
- бирламчи чўқтиргичлар;
- кум қопқонлари;
- септик танклар;
- мембрана элементлари



Минерал ва органик келиб чиқадиган ҳар қандай катта ифлослантирувчи моддаларни ушлаб туриш учун, биринчи навбатда, панжаралар ишлатилади ва агар керак бўлса, элаклар ёрдамида турли хил кўпол аралашмаларни тўлиқроқ ажратиш қўлланилади. Панжара бўшлиқларининг ҳар бирининг максимал кенглиги 16 мм дан ошмайди[1]

Седиментация - марказдан қочма кучлар таъсирида қум қопқонларда, чўктиргичларда, нефт тутқичларда, нефт ва смола тутқичларда, шунингдек гидроциклонларда ва сентрифугаларда тортишиш кучи таъсирида оқова сувлардан тўхтатилган қаттиқ моддаларни (кейинги ўринларда портловчи моддалар) ажратиш.[2]

Қум тутқичлари ермаган минерал аралашмаларни ажратиш учун ишлатилади ва кунига 100 м³ дан ортиқ қувватга ега тозалаш иншоотларида тақдим етилади. Қум тузоқлари ёки бўлинмаларининг сони камида 2 та бўлиши керак ва уларнинг барчаси ишлайди. Тutilган чўкиндининг ҳажми билан кунига 0,1 м³ гача. чўкиндини қўлда олиб ташлашга рухсат берилади, каттароқ ҳажмда, чўкиндини тушириш механизациялашган.

Қумни ушлаб туриш самарадорлиги бирламчи чўкинди чўкиндидаги қум миқдори билан баҳоланади. Ишлашда қийинчилик туғдирмайдиган қум таркиби лойнинг қуруқ моддасининг 6% дан кўп емас (лойни сувсизлантириш учун юқори тезликда ишлайдиган сантрифугалардан фойдаланганда 3% дан кўп бўлмаган).

Сувни механик тозалаш босқичида вертикал, горизонтал радиал ва еғимли юпқа қатламли конструкцияли бирламчи чўктириш танклари қўлланилади. Технологик схемада бирламчи чўктиргичлар тўғридан-тўғри қум тутқичлардан кейин жойлашган бўлиб, чиқинди сувдан тўхтатилган қаттиқ моддаларни ажратиш учун мўлжалланган. Бирламчи тиниқлашгичлар ишининг асосий характеристикаси тиниқлаш (чўктириш) самарадорлигидир. Кўпгина ҳолларда тиниқлаш эффекти 40-60% ни ташкил қилади, бу ҳам тиниқланган оқова сувларда БОД қийматининг 20-40% га пасайишига олиб келади.

Оқова сувларни тозалаш - маиший ва саноат оқова сувлари таркибидаги ифлослантирувчи моддаларни сув ҳавзаларига юборишдан олдин олиб ташлаш бўйича чора-тадбирлар мажмуи.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ТЕХНОЛОГИЯ ОЧИСТКИ СТОЧНЫХ ВОД. Карманов А. П., Полина И. Н Сыктывкар 2015 год СТР 31
2. Рахимова Л.С. Эшонқулов Р.А Якубов К.А. Экология ва атроф-муҳит муҳофазаси (саноатда) таълим йўналишининг 2016/2017 ўқув йилида тасдиқланган ўқув режаси

THE PRAGMATIC FUNCTIONS OF MODAL VERBS

Turdiboyeva Dildora Bekmirza kizi

*Student of Master degree in English language and literature faculty
Jizzakh State Pedagogical Institute*

Abstract: *This article analyzes the epistemic use of modal verbs, as might, may, can, could, should, must. The scientists who spoke English as a native language were asked to indicate how much certainty they characterized to these modal verbs or non modal verbs as a concluding sentence.*

Key words: *modal verbs, pragmatics, education, English, native speakers, non native speakers.*

English language is often pointed out as being different from general English. The analysis of statistics of the results showed that there was no important difference between the convictions which the scientists had affected to may and might, though a lot of English grammar books for non native speakers exclaim that might is for expressing less certainty compared to may. The results indicate that ESL/EFL teachers should be aware of sociopragmatic functions of these modal verbs.

The language used in science is required to reflect the pinpoint and objective in nature of science, and the scientists are required to choose their words very carefully while using. They must pay attention to the words when they express their logical meaning. If scientists use such modal verbs as may, can, could, might, should in documents, the epistemic modality expressed with these auxiliary verbs play a significant role.

English grammatical books for scientists mostly advice that the use of modal verbs should be avoided in scientific documents since they are considered to be reflection of the scientist’s uncertainty about their findings or conclusions (Karada 1994, Yamamotoand Fukutake1995).

The use of modal verbs in general English has been studied by many linguists, for example, Jespersen, Palmer and Quirk. However, if the meaning of pragmatics of modal verbs can be found while the translator is translating intentionally, the function of modal verbs can be understood more easily by the language learners. So as to establish a light representation of the meaning of pragmatics learns in order to quantify the modals’ functions while using between English speakers and also the study must be conducted easily.

This article also represents that language teachers must be introduced of the uses of modals. The meaning of modals are very crucial to the language learner who wants to use English in a particular group. Nonetheless, some teachers are not familiar with sociopragmatic context. A teacher should not address the functions of modal verbs only from the norms of community, yet they ought to pay attention to the sociolinguistic competence when the language learners tends to use English language.

It is believable fact that non native speakers want to see the certainty of modal verbs while using. We believe that the results from this article can help non native subjects will look

through useful insights into the learning of modal verbs with their pragmatic functions. Actually, the overall results will show the identification of problems that language learners intend to make an experience in the usage of modals. Teaching modal verbs can be very effective while we consider its quantitative sides. The comparison will show more and more chances for the language teachers in order to get to know how the language learners can use the modals during their pragmatic contexts.

REFERENCES :

1. Cook, W (1978). Semantic structure of English modals. TESOL Quarterly, 12, 15, 16.
2. DeGarrico, J.I. (1980) Tense, aspect, and time in the English modality system. TESOL Quarterly, 20.
3. Hinkel, E. (1995). The use of modal verbs as a reflection of cultural values. TESOL, Quarterly, 29.
4. Harada, T. (1994). Introduction to writing English in science and technology. Tokyo, Agune Technology Center.
5. Atsuko K.Yamazaki The pragmatic function of modal verbs in scientific papers.

KONFESSIYALAR ARO MULOQOTNING IJTIMOY FALSAFIY AHAMIYATI

Normatov Sanjar Abdug’ani o’g’li

*Jizzax davlat pedagogika instituti “Falsafa, tarbiya va huquq ta’limi”
kafedrası o’qituvchisi*

Muloqot inson va jamiyat borlig’ining tub ildizi ularni shakllanish va rivojlanish usulidir. Muloqot ta’sirida inson o’z-o’zini va boshqalarni anglab yetadi. Inson o’z –o’zi va boshqalar bilan muloqotga kirishish jarayonida hayot qiyinchiliklarini yengib o’tish, turli kundalik-amaliy, ilmiy nazariy va hokazo muammolarni hal qilish yo’llarini topadi. Xuddi shundayin, turli ijtimoiy guruhlar, millatlar, xalqlar, davlatlar, jamiyatlar, konfessiyalar o’rtasidagi o’zaro samimiy muloqot asosida ular orasidagi munosabat yaxshilanadi va ular ravnaq topadi. Ayni paytda jamiyatda adolatning va inson huquqlarining qaror topishida, kishilarning o’rtasidagi muloqot jarayoni muhim o’rin tutadi.

Muloqot jarayonida haqiqat yoki ifoda yetishning yolg’onligini kafolatlaydigan ideal metod bo’lishi mumkin emas. Bu muloqotdagi nutq chinakam samimiylik va tasodifdir, shu sababdan ham muloqotni Gusserl o’zing fenomenologiya nuqtai nazaridan o’tkazgan turli tadqiqotlarida foydasiz ekanligini keltirgan, chunki, ideal qiymat maqomini kafolatlamochi bo’lgani sababli ham muloqot bundan mustasno bo’lishi lozim edi. Biroq keyinchalik u ideal qiymat nazariyasini o’zgartirdi. Gusserl yakka shaxsni o’zni kamol toptirishga intilishni sub’ektni anglashga bo’lgan harakat sifatida qo’llagan bo’lsada, vaqt o’tishi bilan monolog emas balki muloqot inson qadriyatlarini asosiy debochasi ekanligiga ishora qilgan. Shu jihatdan diniy konfessiyalar o’rtasida muloqotning to’g’ri yo’lga qo’yilishi jamiyatning mustaxkamligini ta’minlaydi.

Muloqot masalasida Xaydeger ta’limotida inson o’z menini anglashida monologik muloqotning ahamiyati mutlaqlashtirmagan holda inson bilan inson o’rtasidagi muloqotning ahamiyatiga ko’proq e’tibor beradi. Chunki, inson ijtimoiy jonivor sifatida doimo bir biri bilan muloqotda bo’lishni taqozo etadi. Xeydeger bu munosabatlar inson o’zligidagi kamchiliklarni aniqlashda yordam berishini va shu bilan birga o’z menini takomillashtirishi mumkinligini nazarda tutgan. Bir so’z bilan aytadigan bo’lsak, inson o’zidagi kamchiliklarni ko’ra boshlaydi ichidagi ichki imkoniyatlari haqida o’ylay boshlaydi, bu haqda tafakkur yuritadi shu asnoda o’z shaxsiy menini mukammallashtirishga imkoniyat vujudga keladi.

Faylasuf Karl Yaspersning ekzistentsializm falsafasida muloqot nazariyasi orqaga tarixan qaytadigan ijtimoiy shartnoma nazariyasiga qarshi kurash sifatida shakllandi, deya ta’kidlagan. Muloqot nazariyasi tarafdorlari (Yaspers, Emanuyel Muniyer,) ta’kidlagandek, ijtimoiy shartnoma bu bitim hisoblanib, bunda barcha ishtirokchilar kelishilgan holda o’zlari uchun ma’lum qonun-qoidalar tuzadi va uni bajarish barcha uchun majburiyat yukni yuklaydi. O’zaro muloqot qilgan holda qonun-qoidalarga bo’ysunib faoliyat olib borishni nazarda tutadi. Shu jixatdan ham diniy konfessiyalar o’rtasida o’zaro kelishuv shartnomasi asosida muloqot bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo’lgan axborot almashinuvida ularning o’zaro ta’sirlashuvi sifatida ta’riflanadi yana bir boshqa tarifda esa

muloqot – konfessiyalar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa guruh jamoa yoki konfessiyalarning idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni deyiladi.

Konfessiyalar o‘rtasida muloqot o‘zining maxsus masalalari hal etiladigan ma’lum bosqichlarga ega. Eng muhim bosqich – muloqotni rejalashtirish, konfessiya uchun muloqot natijalariga qaratilgan mayllarni aniqlab olish zarur. Muloqotning birinchi bosqichi – aloqaga kirishishdir. Bunda vaziyatga kirishish, hamkorlik qilmoqchi bo‘lgan konfessiyaning holati, kayfiyatini his etish, o‘zaro kirishib ketib, o‘zlari uchun maqul bo‘lgan yo‘nalishini belgilab olishga imkon yaratish muhimdir. Bu davr umumiy aloqa o‘rnatilishi bilan yakunlanadi. So‘ngra qandaydir muammo, tomonlarning vazifasi va mavzuni ishlab chiqishda diqqatni jamlash davri boshlanadi. Keyingi bosqich – motivatsion zondaj. Ularning maqsadi – bir-birlarining motivlari va qiziqishlarini anglash va shu orqali munosabatlarni tizimli o‘zaro ma’nafatlar asosida yo‘lga qo‘yish kelishiladi. Eng oxirgi daqiqalar, yakuniy so‘zlar, qarashlar, qo‘l siqishlar o‘ta muhimdir, ba’zida ular ko‘p vaqt davom etgan suhbat natijasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. Aynan muloqot yordamida insonlar umumiy jamiyat mafaatlari qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Muloqot jarayonida insonlarning xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular interiorizatsiyalanadi. Muloqot davomida ijtimoiy va shaxsiy munosabatlar amalga oshadi, uning vositasida hamkorlikdagi faoliyat ro‘yobga chiqariladi. Shu ma’noda aytadigan bo‘lsak, muloqot globallashtirgan dunyoda turli millat ijtimoiy guruh va konfessiyalar o‘rtasida doimiy axborot almashinuvini ta’minlashi bejiz emas, zero muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir.

Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni deyilsa ikkinchi jihatdan esa Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi deya ta’rif beriladi. Umuman olganda muloqot insonlarning psixologik ehtiyojini qondiruvchi ozuqa vazifasini ham bajaradi. Muloqot — odamlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir. Muloqot inson, millat, xalq va jamiyatning mavjudlik yashash usuli. Hozirgi kunda va kelajakda ularning qanday bo‘lishi ular o‘rtasidagi muloqotning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligiga bog‘liq. Shuning uchun bugungi kunda jahonda va xususan mamlakatimizda ham ushbu masalaga asosiy e’tibor berilmoqda. Shu asosda mamlakatimizda konfessiyalar o‘rtasida muloqotni o‘rnatish va uni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Баранов О.С. Идеографический словарь русского языка. – М.: Сбор соч. 1992-с-29
2. Ne’matov H. So‘z, uning til va nutqdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1988. -№ 6.
3. Gunnar S. Nils G. Falsafa tarixi. “Sharq” nashriyoti T -2002 y 77-bet

4. P. S. Ergashev. Muloqot psixologiyasi (ma’ruzalar to‘plami).T. 2003. ToshDPU.
5. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-ozbek-tili-xalqimiz-uchun-milliy-ozligimiz-va-mustaqil-davlatchilik-tim>
6. <http://www.sarahmei.com/blog/2014/07/15/programming-is-not-math/>
7. <https://www.scratchjr.org>

O’QUVCHI YOSHLARNING MAFKURAVIY XURUJLARGA QARSHI KURASHISHDA MILLIY GO’YA VA MAFKURALARNING O’RNI

Umurzakov Uyg'un Abdutalipovich

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Akademiyasi o'qituvchisi, O'zMU mustaqil izlanuvchisi*

Insoniyat tarixi mobaynida turli shakldagi juda ko'plab mafkuralar yaratilgan, behisob ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z g'oyalari va ta'limotlari bilan maydonga chiqqan, maqsad va niyatlariga yetishmoq uchun harakat qilgan. Biz o'quvchi yoshlarning mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashishda har qanday mafkurani g'oyalar tizimi sifatida talqin qilar ekanmiz, shuni unutmaslik kerakki, biror bir mafkuraning mohiyatini anglab yetish uchun faqat uning tarkibidagi g'oyalarni tahlil qilishning o'zi yetarli emas.

O'tmishda turli kuchlar va guruhlar o'z g'arazli niyatlariga erishish, asl maqsadlarini yashirish uchun yuksak va jozibali g'oyalardan foydalangan. Eng yovuz bosqinchi va eng razil guruhlar ham o'z kirdikorlarini ezgu g'oyalar bilan niqoblashga uringan.

Demak, mafkuraning mohiyati faqat uning asosiy g'oyalari vositasida emas, shu g'oyalarga erishish usullari va vositalari, umume'tirof etilgan tamoyillari, ularning aksariyat omma manfaatlariga mosligi orqali ham namoyon bo'ladi. O'zining mudhish talab-ehtiyojlari va yovuz niyatlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirishni ko'zlab harakat etuvchi mafkuralar halokatga mahkumdir.

Mafkuralar, ma'no-mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa turli ta'limotlar asosida yaratiladi. Xilma-xil ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z mafkuralarini yaratishda siyosiy g'oyalar bilan birga, diniy oqimlar va ilm-fan yutuqlariga tayanadi, ulardan nazariy asos sifatida foydalanadi.

Avvaalambor, o'quvchi yoshlarning mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashishda ularga birinchi navbatda mafkuraning falsafiy ildizlari haqida tushuncha berish maqsadga muvofiqdir. Mafkuraning falsafiy ildizlari falsafa ilmi xulosalariga asoslanishi nazarda tutiladi. Bunga g'arbdagi Uyg'onish davrini hamda o'rta asrlarda o'z milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Yevropa xalqlarining har biri o'ziga xos mafkurasini yaratganini misol keltirish mumkin. Mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalanganidan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalqlarning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteti zaminida vujudga kelgan milliy falsafalari asosida shakllandi. Shu bois o'sha davrdagi italyan, ingliz, fransuz falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyatni birlashtirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy qarashlar insoniyat madaniyati xazinasiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Kant, Gegel, Feyerbax kabi mutafakkirlar nomi bilan shuhrat topgan nemis falsafasi xususida ham shunday fikrni aytish mumkin. Jumladan, haqiqiy milliy xususiyatlarga ega bo'lgan Gegel falsafasi Avstriya imperiyasidan ajralib, mustaqillik yo'lini tutgan Pruss monarxiyasining davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilgan edi.

Bundan tashqari, o'quvchi yoshlarning mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashishda mafkuraning dunyoviy ildizlari to'g'risida ham tushuncha berishning ahamiyati kattadir.

Mafkuraning dunyoviy ildizlari ma’rifiy dunyoga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar majmuidan iboratdir. Insoniyat asrlar mobaynida bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume’tirof etilgan tamoyillar va qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag’rikenglik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil etadi. Bunday jamiyatda insonning haq-huquqlari va erkinliklari, jumladan, vijdon erkinligi ham qonun yo’li bilan kafolatlanadi. Ana shunday jamiyat mafkurasini «Dunyoviylik – dahriylik emas» degan tamoyil asosida rivojlanadi, ya’ni dinning jamiyat hayotida tutgan o’rni va ahamiyatini aslo inkor etmaydi.

Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g’oyalar muhim o`rin tutadi. Shu ma'noda, insoniyat tarixi - g`oyalar tarixidir.

Xo`sh, g`oya nima, nega unga bu qadar katta e'tibor va ahamiyat beriladi? Nima uchun biz o`quvchi yoshlarning mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashishda g`oyaga murojaat qilamiz?

Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o`z manfaatlarini, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko`zlab harakat qiladi. Ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi. Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g`oyalar va ta'limotlar yaratadi. G`oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir. Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza yoki nuqtai nazar g`oya bo`la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g`oya bo`la olishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o`quvchi yoshlarning mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashishda o`z oldiga qo`ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo`llar va vositalar bilan erishmoqchi bo`layotgani haqidagi bunyodkor g`oyalar tizimini singdirishimiz maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Alimardonov T. Siyosat va axloq muvozanati. –T.: Yangi asr avlodi, 2011.
2. Paxrutdinov Sh. Barqaror taraqqiyot va rahbar ma’suliyati. – Toshkent: Akademiya, 2011.
3. Jo’raev T., Paxrutdinov Sh. Dunyoviy davlatchilik va siyosiydashgan diniylik. – Toshkent: Akademiya, 2008.
4. Ravshanov F. Milliy rahbarshunoslik: tarix va tajriba. –T.: Akademiya, 2007.

YUZ-JAG’ SOHASI YALLIG’LANISH KASALLIKLARI HAQIDA NIMALARNI BILISH LOZIM

Eshmuminov Obidjon O’ktam o’g’li
Mardanov Abdulatif Abdulkarimovich

*Termiz Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi
stomatologiya yo’nalishi 20/02 guruh talabasi*

Annotatsiya: *Yuz-jag’ sohasi yaralanishlarining xususiyatlari orasida emotsional-ruhiy momentlar muayyan ahamiyatga ega. Depressive holatlar ko’pincha yaralanishning og’ir yengiligiga emas balki yuz qiyofasining xunuklashishiga bog’liq bo’ladi. Chunki nisbatan yengil yaralanish hollarida yuzning xunuklashib qolishi qayd etiladi.*

Kalit so’z: *Yuz-jag’, periostitlar, osteomiyelit, o’tkir bosqich, alveolyalar, odontogen.*

Kirish : Taqdim etilyotgan darslikda stomatologik kasalliklarning kelib chiqish sabablari, klinik belgilari, zamonaviy tekshirish usullari. Davolash va oldini olish va choratadbirlari atroflicha yoritilgan va rasmlar bilan yoritilgan. Hozirgi kunda dolzarb bo’lgan OITV kasalliklarning yuqishida stomatologlarning o’rni uni oldini olish va og’iz bo’shlig’ida namayon bo’lish belgilari haqida to’liq ma’lumot berilgan.

Asosiy qism: Periostitlar – tish va periodont xastaliklar asoratlari oqibatida kelib chiqadigan suyak usti pardasining yallig’lanishidir. O’tkir yiringlin periostit keskin kechadi va kun sayin yallig’lanishi ortib boradi. Bemorning umumiy ahvoli qoniqarli bo’lib tana harorati 37,5-38-C atrofida bo’ladi.

Osteomiyelit – suyak tuqimalarining infeksiyali yiringli nekrotik yallig’lanishidir. Kelib chiqishiga ko’ra gemotogen o’q tekkan yaralanishlar oqibatida va odontogen turlaridan iborat. Gemotogen osteomiyelit suyak tuqimasida qon bilan infeksiyaning kirib kelishi (gripp, skarlotina, difteriya....) oqibatida kelib chiqadi. O’tkir bosqich bemor organizmining umumiy holati va bakteriyalarning verulentligiga qarab kasallik sekin yoki kechishi mumkin. Kasallikning diffuz turida og’riq butun jag’ bo’ylab hosil bo’ladi. Bemor ishtahasi yuqoladi uyquasi buziladi, boshi og’riydi, tana harorati 38-C dan 40-C gacha ko’tarilishi mumkin.

Alveolyalar – engak nervlari innervatsiyasi sohasida ekssudat ta’siri ostida ezilish sodir bo’lganligi uchun sezish hususiyati pastki jag’ tanasi qallinlashadi. Odontogen osteomiyelitning o’tkir davrida jag’larning rentgen ta’sirida hech qanday suyak o’zgarishlari kuzatilmaydi. O’tkir bosqich o’tkir kasallik boshlanganidan 11-15 kundan so’ng boshlanib 4-8 hafta davom etadi. Yuz-jag’ sohasi absessi va flegmonalar.

Absses – bu yog’ tuqimasining chegaralangan yiringli yallig’lanish jarayoni flegmona yog’ tuqimasining tarqalgan yiringli yallig’lanish jarayonlaridir.

Yuz-jag’ sohasidagi shikastlanishlarda bemorni, ayniqsa birinchi hafta mobaynida qaddini baland vaziyatda yotqizish kerak. Bunday noilojlik holati qon oqish xavfini, qon, shilimshiq, yiring, ovqat qoldiqlaridan aspiratsiya yuz berish imkoniyatini kamaytiradi. Noilojlik holati va og’ir bemorlarni vaqti bilan u yonboshdan bu yonboshga yotqizish

o’pkadagi dimlanish hodisalarini va o’pkada yallig’lanish asoratlari xavfini yuz berish bartaraf etadi. Sulak oqishini kamaytirish uchun kuniga 3 marta 5-6 tomchidan belladonna nastoykasi 0,5-1 gramm atrofning 1%li eritmasi teri ostiga yuboriladi agar jarohat atrofidagi terida doimo namlanib turish ta’sirida bichilish bo’lsa, bu sohalarga rux mazzi yoki 2%li metilen ko’ki eritmasi so’rtiladi, shundan so’ng o’stidan yupqa vazilin qavati qoplanadi.

Og’iz bo’shlig’ini parvarish qilish yuz-jag’ sohasidagi yaralanishlarda chaynash akti buzilishi oqibatida og’iz bo’shlig’ining o’z-o’zini tozalashi ro’y bermaydi. Odatdagi parvarish qilishning esa (tishlarni tish chotkasi va pasta bilan yuvish) iloji bulmaydi. Shunga ko’ra og’iz bo’shlig’ida ovqat qoldiqlari, jarohat eksudati va boshqalar yig’ilib qoladi. Ularni tozalash uchun og’iz bo’shlig’ini muntazam yuvib turish (Esmarx krujkasidan va boshqa moslamalardan) kerak bo’ladi.

Og’iz bo’shlig’ini yuvishdan maqsad ovqat qoldiqlarini mexanik tozalashgina emas, balki yoqimsiz hidni bartaraf etish hamdir. Buning uchun odatda ma’lum darajada hid yo’qatuvchi xossalari bo’lgan pushti rangli kaliy permanganat eritmasi qo’llaniladi. Zarurat bo’lganda oqimni uzib qo’yish uchun rezina nay va mahsus zajim kiygiziladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda odontogen osteomiyelitlar barcha osteomiyelitlarning yarmini tashkil etadi. Yuqori jag’ga nisbatan pastki jag’ osteomiyelitlari ko’proq kuzatiladi. Stafilakoklar anaerob infeksiyalar va osporogen anoeroblen osteomiyelitning qo’zg’atuvchilaridir osteomiyelitda yallig’lanish jarayoni faqat suyak to’qimalarini emas balki uning ichidagi ko’magini suyak pardasini va atrofdagi yumshoq to’qimalarni ham o’z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sayyor Suyunova (Og’iz bo’shlig’I kasallilari) Toshkent 2007
2. Nigora Toshpulatova (Stomatologik kasalliklar) Toshkent 2017

O’ZBEK XALQINING MENTALITETIGA XOS QADIMGI UDUM VA AN’ANALAR VA BU BU BORADAGI ASOSIY MUOMMOLAR

Qurbonov Elyor Qurbonovich

*Sirdaryo viloyati Bayovut tumani 12-sonli maktabning
tarix fani o’qituvchisi.*

Bozorova Madina To’raboy qizi

*Guliston davlat universitetining tarix yonalishi
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *ushbu maqolada insonning dunyoga kelib ,yashab, umri payoniga yetib tuproqqa qo’yilguncha unga doimo hamroh bo’ladigan eng asosiy o’zbekona urf-odatlar, tamoillar,udumlar haqida qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so’zlar: *chilla saqlash, alla, beshik to’yi, xatna qilish, sunnat to’yi, muchal to’yi, sovchilik, fotiha to’yi, nikoh to’yi , xudoyi, ziyorat.*

Har bir avlod o’z xalqining ma’naviy idrokini ruhiga singdra olsagina o’zidan keying kelayotgan avlodlarga yetkazib bera oladi.O’zi o’z xalqining urf-odatlarini bilmasa keying avlodga qanday yetkazib bera oladi? Inson millatiga xos mentalitetiga xos rasm –rusumlarni o’rganmas ekan , bu urf-odatlar unitilishiga yuz tutadi. Ba’zilar udum nimaga kerak ,eskilik sarqiti emasmi bular ? deb aytishilari ham uchrab turishi mumkin. Udum nimaga kerak ekanini anglab olish kerak. Udum ham qonun ,udum ham mafkura .O’zbek udumlari yozilmagan qonunlar bo’lsada ular hamisha yashaydi va hamisha ishlaydi. Bu abadiy – mafkura ¹. Mafkura esa muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy , siyosiy, huquqiy, diniy, estetik qarashlarning butun bir tizmiga aytiladi.²Ism qo’yish tamoiliga tug’ilgan zahotiy ota o’tovdan chiqib ko’ziga birinchi ko’ringan narsa yoki jonivorning ismini qo’yish taomili mavjud bo’lgan.Shu sababli el orasida Arslon, Burgut,Qaldirg’och ,Ovulbek kabi ismlar mavjud. Ko’puncha xalqimizda bolaning qaysi kunda tug’ilgani hisobga olinib ism tanlangan. Bozorboy,Jumavoy,Chorshanbe kabi ismlar shundaylardan hisoblanadi³ Xalqimiz hayotidagi juda ko’p udum va an’analar aynan islom dinining tasiri ostida shakkillangan. Tavallud topgan bolaning qulog’iga ota – bobolarimiz birinchi navbatta bir mullo chaqirib azon aytirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog’i ochilgan. Odamlarni eshitish qobilyati ish boshlagan. Birinchi navbatta ismi qulog’iga singdirilgan. So’ngra kichik chilla yigirma kungacha , katta chilla qiriq kungacha bo’lib o’tgan. Bu orada bolani mevali daraxtning yog’ochidan yasalgan beshikka belangan.Chilla xonaga begona insonlarning kirishi qattiyani taqiqlab qo’yilgan.Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlardan yana biri xatna qilishdir. Xatna odati islom dinidan ancha oldin paydo bo’lgan. Axuramazda –Avesto davrida Eron va Turonda , so’ngra yahudolik iudizim aqidalarida ham mavjud bo’lgan.⁴Xatna – musulmon bolasining “qo’lini halolash” , ya’ni, jinsiy a’zosining bosh qismi po’stlog’ini chilqip tashlash. Gigiyenik tomondan tozalik va sog’lomlikka rioya qilishdir.Xatna qilish yoshi3,5,7,9 va kamdan- kam holatlarda 12 yoshni tashkil qiladi.⁵Xatna toyi bizgada “ sunnat toyi”nomi bilan ataladi. Bu nom asrlar davomida turli xildagi

nomlar bilan atalgan. Uning boshqacha nomlari ham mavjud. Masalan “imenina”, “maktabga borish to’yi”, “bog’chadan chiqish ”kabi nomlari ham mavjud.⁶Xalq ma’naviy jihatdan qanchalik qashshoqlashib borgani sayin u bo’lar-bo’lmas o’zini ko’rsatishlarga , pul-u boyliklari bilan maqtanishga shunchalik ruju qo’yadi. Xatna qilish odatining noto’g’ri talqin qilinishi tufayli keyingi paytlarda to’ylar kim o’zarchilik tusini olib ketdi. Muhammad Alayhissalomning hadislarida ham ko’rsatib o’tilishicha, o’g’il to’yida bir is chiqarish ham hisobga o’tar ekan. Bolaning xatna marosimida hamma narsasini sovurib, uning o’qishi, turmush sharoitini yaxshilash uchun hech narsa qilmaydigan ota-onalarning xatti-harakatlari maqbul hol emas . Ular go’yoki o’g’il ko’rsam falonchi artistni olib borib to’y qilaman, deya niyat qiladilar-u shu niyatlarini amalga oshirish uchun otarchilar qancha pul so’rashsa ayamay sochadilar.Oradan ko’p vaqt o’tmay farzand muchal yoshiga kiradi. 12 yoshga kirgan farzandi uchun muchal to’yini qilib berishadi.Har bir bazm dab-daba bilan bo’lib o’tadi. Bu bizning millatimiz hayotidagi asosiy momolardan biri . Biz bunga qarshi kurashmog’imiz kerak.,„Men sendan zo’r,men sendan o’taman ” kabi to’ylarni yig’ishtirmoqlik . Bizning Xalqimiz hayotida mavjud bo’lgan hozrgi kunga kelib yo’qolib ketish arafasida turgan udumlardan biri bu-beshikketdi. Bu nom xalq orasida- quloqtishlar odati deb aytiladi. Bu odat hozrgi kunga kelib Surxandaryo viloyatining ayrim tumanlarida saqlanib qolgan.⁷Bu udumda xalqimiz hayotidagi „Onasini ko’rib qizini ol”, maqolining ahamiyati yaqqol gavdalanadi.Hali chiroyi va tarbiyasi nomalum bo’lgan go’dakning onasiga va oilasining muhitiga qarab o’zining yangi oilasing a’zosini tanlaganini ko’rishimiz mumkin.Bu bilan yaxshi oilaning farzandi yomon bolib ulg’aymasligiga ishonch alohida kasb etadi. Bu udumdan ko’zlangan asosiy maqsad,yangi oilaning shakillanishini ancha oldindan rejalashtirish va bu orqali mustahkam oilani yaratish bo’lgan . Ulg’ayotgan qizaloq va bo’lajak kuyov o’zlaring bo’lajak turmush o’rtog’ini tanigan holda g’oibona iliqlik va hurmat bilan katta bo’lishi nazarda tutilgan bo’lsa ne ajab.Bizda balog’atga yetgan va oila qurishga tayyor bo’lgan yigit va qizlarimizning hayot yo’llarini bog’lash uchun sovchilardan foydalanishadilar. Odatda sovchilarni yuborgan mutasadilardan „bo’rimi yoki tulkimi ” deb sorashadi. Agar ish bitgan bo’lsa „bo’ri”, ish bitmagan va rozi bo’lishmagan bo’lsa „ tulki” deb javob berishadi. Bizda to’ylarning ham turi ko’p. Chaqaloq uchun – beshik to’y, xatnadan so’ng –sunnat to’y, balog’atga yetgandan so’ng yangi oila uchun fotiha to’y va nikoh to’y, yangi uy qurishsa – hovli to’y, turmushning birgalikda kechgan 25 yili uchun-kumush to’y, 50 yili uchun –oltin to’y, 75 yili uchun – brilliant to’y ,ota –ona va bobo buvilarimiz yubiley kunlari 50, 60, 70, 100 yoshga kirgani munosabati bilan to’ylar o’tqaziladi. Bu to’ylarda ichkilikbozliklar avj olishi ham malum .Biz to’ylarga ketadigan mablag’larni kamaytirishimiz kerak.Shu o’rinda xalqimiz hayotida ajoyib an’anaga aylanishga ulgurgan gap-gashtakka to’xtalib o’tmoqchiman.Bu ulfatchilik o’zbek, tojik hamda ularga yaqin joyda yashovchi qozoq ,qirg’iz, uyg’urlar orasida ham keng taeqalgan. Bizning hayotimizda asrlar davomida yashayotgan gap-gashtak Toshkent ,Sirdaryo viloyatlari,Farg’ona vodiysida „gap ”, „navbat”,O`zbekistonning janubida „gashtak”, Qashqadaryo hududida „xaftana”, Xorazim viloyatida „utirishma” , „gurung” kabi nomlari mavjud⁸. Mushkulkushod, Bibi Seshanba, Mavlud kabi odatlar ham o’zbek xalqini hayotida uzoq davrlardan beri yashab

kelayapti. Bibi Fotima payg’anbarimiz Muhamad Allayhissalomning qizllari bo’lgan. Bibi Mushkulkushod va Bibi Seshanbalar esa musulmon xotin – qizlar tasavvurida kishilarning mushkulini oson qila oladigan avliyo xotinlar sanalgan. Qadimda otinoyilar „ko’zi ochiq” ayollar mushkulkushod marosimi o’tkazganlar. Boshiga mushkul tushgan ayol mahallasining otinoyisiga ikkita issiq non , ikki hovuch qora mayiz, ikkita pilta chiroq (paxta chiroq) ,bir tanga keltirib shu oila himoyasi uchun Bibi Mushkulkushoddan madad sorashini so’raganlar. Bu marosim chorshanba kuni bo’lib o’tgan. Bibi Seshanba Bibi Mushkulkushoddan ishtirokchilarinig ko’pligi bilan ajralib turgan. Bu seshanba kuni amalga oshirilgan. Mavlud – tug’ilish degani bo’lib , Payg’anbarimiz Muhammad S.A.V.ning tug’ulgan kunlari sifatida nishonlanadi. Mavlud marosimi diniy izdihom –xudoyi shakilda bo’lib ,unda ko’pchilik qatnashadi. Marosimda Payg’anbarimiz Muhammad S.A.V.ning hayoti haqida Mavlud kitobi o’qiladi. Mavlud ,mavlid annabiy (arabcha tug’ilish) Payg’anbarimiz Muhammad S.A.V.ning tug’ulgan kunlari bilan bog’liq bo’gan bayram rabiulavval oyining 12-kuni nishonlanadi.⁹ Xalqimiz hayotiga oid yana bir eng uzoq o’tmishga ega udumlardan biri –xudoyi sanaladi. Xudoyi-Alloh yo’liga qilingan xayr- ehson bo’lib, Xudo yo’li qon chiqarish, qurbonlik deb ataladi. Qadimda bobolarimiz tabiat saxovati, serhosilligi , serne’matligini Allohning inoyati bilib, bunga shukrona aytib ,elga obi xudoyi osh ,shorva, non, nisholda tortilgan. Bu ne’matlar albatta davrga va mavsumga qarab tortilgan. Hozrgi kunga kelib xudoyi turli ko’rinishlarda o’tqazilib kelinadi. Birinchi galda bu odat vafot etgan kishining yodi-xotri uchun yetti, yigirma, qiriq va bir yildan so’ng o’tqazilgan . Bu kuni „Quroni karim” dan lozim suralarni yod biluvchi kishi ma’raka sababchisining yodiga va uni tashlik qilgan o’g’il va qiz ,aka-ukalar savobi sha’niga duoyi fotiha va suralar o’qishgan. Odatda o’zbek, tojik, qozoq va boshqa O’rta Osiyo xalqlarida bu kuni qurbonlik qilib osh damlanadi va elga tortiq qilinadi.¹⁰ Har bir urf-odat va an’anaga albatta zamonning tamg’asi qo’yiladi. Biz buni o’rganishimiz kerak. Biz bu urf –odatlarini shu millatning bir parchasi bo’lganimiz uchun o’rganishimiz kerak. Bu urf- odatlar bizni boshqa millatlardan ajratib turadi. Bu urf –odatlar yo’q bo’lishi kerak emas .Chunku bu bizning ya’ni o’zbek xalqining azaliy qadriyati. Lekin biz ortiqcha dab –dabalarga berilmasdan, o’zimizni „zo’rligimizni ko’rsatib qo’yish” uchun emas balki bu urf-odat va an’analarni tub mohiyatini anglagan holda amalga oshirsak maqsadga muvofiq bo’lgan bo’lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmud Sattorov .O’zbek udumlari.Cho’lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi TOSHKENT -2007.B.6.
2. Abduqaxxor Ibrohimov .Bizkim ,O’zbeklar...”Sharq” nashriyot –matbaa konserni bosh taxiriyati.Toshkent -1999.B.211.
3. Mahmud Sattorov .O’zbek udumlari.Cho’lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi TOSHKENT -2007.B.18.
4. Mahmud Sattorov .O’zbek udumlari.Cho’lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi TOSHKENT -2007.B.21.

5. <https://hozir.org/analar-va-urf-odatlar.html>

6. Mahmud Sattorov .O‘zbek udumlari. Cho‘lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi TOSHKENT -2007.B.22.

7. Mahmud Sattorov .O‘zbek udumlari. Cho‘lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi TOSHKENT -2007.B.24.

8. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Gap_\(ziyofat\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Gap_(ziyofat))

9. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/m/mavlud/>

10. Mahmud Sattorov .O‘zbek udumlari. Cho‘lpon nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi TOSHKENT -2007.B.163.

UZUMNING AYRIM TURLARI TAVSIFI

Qo'ziboyeva Aziza Quyli qizi

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o`simliklar dunyosida uzumchilikning o`ziga xosligi, undagi ayrim turlarning tarqalishi, ko`paytirish bosqichlari hamda o`ziga xosligi ko`rib chiqiladi.*

Kalit soʻzlar: *uzum, nav, tup, xo`raki, yuklama, hosildorlik, g`ujum, sharbat, qand mikdori.*

KIRISH

O`simlik rivojlanishining evolyusion jarayoni ko`plab qishloq xo`jalik ekinlarining mahalliy assortimentini shakllantirish va boyitishning barqaror ekotizimlarini yaratish va saqlab qolishga yordam berdi. Ularning aksariyati qimmatli iqtisodiy va biologik xususiyatlarga ega bo`lib, madaniyda ham, seleksiyada ham manba material sifatida foydalanish mumkin. Eng katta shakl xilma-xilligi katta miqdordagi suv harorat va yorug`lik rejimlari bilan tog`li hududlarda to`plangan. Tog oldi qishloq xo`jaligi sohalari tabiiy laboratoriyalarning bir turi bo`lib, u yerda ming yillardan buyon faoliyat ko`rsatib kelayotgan tabiiy va sun`iy tanlanish shakl xilma-xilligining paydo bo`lishiga olib keldi.

O`zbekistonning tabiiy va klimatik sharoiti (tuproq sharoiti, xilma- xil vertikal rayonlashtirish, uzoq vegetatsiya, muhim quyosh insolyatsiyasi, quruq subtropik zona) turli uzum navlari, ultra-erta dan kech pishadigan navlarga ham qishki saqlashga yaroqli.

ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda uzumchilikni jadal rivojlantirish imkonini beruvchi ikkinchi omil uzum madaniyatining uzoq tarixidir. Respublikada milliy seleksiyaning mashaqqatli ishlari natijasida xo`raki va kishmish mayiz uzumning noyob navlari - Katta-qo`rg`on, Andijon qora, Ketmon-sop, Xisorak qora, Chillaki, soxibi, Kora janjal, Bozori ko`paytirildi. Bir guruh navlari edi, ayniqsa ta`kidladi – Husayni oq, Husayni kelin barmok, Husayn begizi, Husayn Ayunda, Husayn murchamiyon, Husayn pushti, Husayn qora, qaysi yo`q raqobatchilar bozorda jihatidan ularning tijorat va ta`m sifatleri. Yangi navlarni joriy etishga Rizamat, Volga-Don, Guzal kara, kabi navlarni yo`naltirilgan seleksiya usuli bilan qo`lga kiritgan M.M.Mirzaev (Shryoder) institutlarining seleksionerlari katta hissa qo`shdilar. Kishmish navlari- Zaravshan, Batir, Sogdiana, Kishmish VIRa, taniqli Kishmish-qora va Kishmish-oq oval navlari bilan birga O`zbekistonning quritilgan mevalarini eksport qilish asosini tashkil yetadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O`zbekistondan yangi uzum, kishmish va mayiz import qilayotgan davlatlar yil bo`yi import davom etayotgani bois xarid qilishdan manfaatdor. Birinchi yangi uzum iyun oyida bozorlarga keladi va oktabr oyining o`rtalariga qadar doimiy ravishda sof holda istemol qilinadi. Eng qimmatli navlar bozorlarga iyun oyining o`rtalaridan oktabr oyigacha kira boshlaydi.

Respublikaning xo‘raki uzumchiligi sohasidagi salohiyati yuqori bo‘lishiga qaramay, ichki va tashqi bozorlarning yangi talablari yangi yuqori mahsuldor navlarni joriy yetishni talab qiladi. Ko‘p ekiladigan navlar qurg‘oqchilik va issiqqa, sovuqqa yetarli darajada chidamli emas, ularning hosildorligi beqaror. Ultra ertapishar va ertapishar navlar orasida ta‘m sifatleri yuqori bo‘lgan yirik navlar yo‘q

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda uzumning xo‘raki navlaridan yuqori va sifatli hosiletishtirishda maqbul agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunday bo‘lsada, uzumchilikda qo‘llanilayotgan agrotexnik tadbirlarni har bir viloyat tuproq- iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda takomillashtirish uzumchilik sohasining ishlab chiqarish unumdorligini yanada oshiradi. Uzunmi xo‘raki nav hosilni miqdori va sifatini belgilovchi barcha omillardan iloji boricha to‘liq foydalanish hisobiga yuqori samaradorlikka erishish mumkin. O‘simliklar genetik resursleri ilmiy tadqiqot institutining uzumning jaxon kolleksiyasidan foydalanib 50 ta xo‘raki O‘rta Osiyoda tarqalgan uzum navlarni o‘rganish va seleksioner olimlar uchun birlamchi manba sifatida taqdim etish tadqiqotning maqsadi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘rta Osiyo, xususan, O‘zbekistonda Uzumchilik uzok, tarixga ega. Mil. av. 4-a. larda ham tok ekilgani ma‘lum. Uzok, yillar davomida [O‘rta Osiyo](#) xalq seleksiyasida juda qimmatli [xo‘jalik](#) belgilariga ega bo‘lgan yuzlab navlar yaratilgan. O‘rta Osiyoning deyarli barcha dehqonlik mintaqalarida, ayniqsa, [Farg‘ona](#) va [Zarafshon](#) vodiylarida, Toshkent, Xorazm, [Qashqadaryo](#) vohalarida ko‘p ekilgan. Lekin [mo‘g‘ullar istilosi](#) davrida bogdorchilik tanazzulga yuz tutgan. Uzumchilik faqat 15-a. ga kelib qayta rivojlana boshladi.

O‘zbekistonda Uzumchilikning rivojlanishida [Rossiya bog‘dorchilik](#) jamiyatining [Turkiston](#) bo‘limi muhim [rol](#) o‘ynadi. [Bo‘lim](#) uzumning mahal- liy sharoitga mos keladigan eng yaxshi navlarini o‘rganib tavsiya etish, tegishli Kitabskiy va Yangi-yer Muskat yantarniydan birmuncha past (1.5). Zogak peshpazak juda kam xosililik berish koeffitsientiga yega (0.1). Surxak Kitabskiyning xosililik berish koeffitsientlari ancha past. Yangi-yer (0.7). Koroleva vinogradnika va Perlet (0.6).

Navlarni boshqa mintaqalar (Qrim, Moldova, [Zakavkaze](#)) dan olib kelish ishlarini tashkil qildi. Keyinchalik shu bo‘lim asosida Turkiston [uzumchilik](#) va vinochilik qo‘mitasi tashkil etildi. [Qo‘mita](#) uzumchilik va vinochilikni il- miy asosida rivojlantirish (kasalliklarga, zararkunandalarga [qarshi kurash](#)),uning agrotexnika usullarini ishlab chiqish bilan shugullandi.

20-asr boshlarida [O‘zbekiston](#) hududida 30,6 ming ga tokzor [bor](#) edi. 20-y. larning 2- yarmidan ixtisoslashtirilgan bog‘dorchilik va uzumchilik [davlat](#) xo‘jaliklari tashkil etila boshladi, tog va tog‘ etaklari mintaqalarida ham bu tarmoqqa jiddiy e‘tibor beriladigan bo‘ldi. 50-y. lar oxiri-60-y. lardan 2500-3000 ga bog va tokzorlarga ega bo‘lgan agrokombinatlar tashkil etildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Uzumchilik sohasidagi [ilmiy tadqiqot](#) va amaliyot ishlari 1948 y. da tashkil etilgan. Tadqiqotlar asosan bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik institutida olib borildi va uzumchilikning nazariy va amaliy masalalari, [kishmish](#) navlarining hosildorligi hamda

g’ujum ko’rinishi sifatini oshirishda [o’stiruvchi moddalar](#) ta’siri (mas, gibberellin) o’rganildi, tog va tog’ oldi shag’alli yerlarda, [Mirzacho’l](#) va Farg’ona vodiysida uzumzorlar barpo qilish uslubi ishlab chiqildi. Ilmiy tadqiqot institutining Samarqand filialida 100 ga maydonda uzumning 105 navi o’stiriladigan [tajriba](#) maydoni tashkil qilindi, O‘zbekistonda ekiladigan toklarning botanik kolleksiyasi yaratildi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirzaev A. Ровышennaya nagruzka kustov glazkami i pozdnyaya obrezka vinograda na nezasolennых pochвах s vysokim stoyaniem gruntovых vod // Selskoe khozyaystvo Uzbekistana. – T., 1960. – №4. – S. 73-76.

2. Serpuxovitina K.A., Russo D.E. Optimizatsiya pitaniya i nagruzok kustov pobegami pri proizvodstve stolovых sortov vinograda // Vinodelie i vinogradarstvo. – 2011. – № 3. – S.32-36.

3. Seropuxovitina K.A., Xudaberdov E.N. Problema vosproizvodstva plodordiya pochv vinogradnikov v obozrimom periode XXIstoletiya. Mejdunarodnoy nauchno-praktechiskoy konferensii «Sadovodstva i vinogradstva XXI veka» Krosnodor 1999.-S. 22-25.

4. Fayziev J.N. O‘zbekiston sharoitida uzumning urug’siz navlari hosildorligi va sifatini oshirish texnologiyasini ilmiy asoslash. Dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 5-10.

INFORMATIKA FANINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARASI

Ravshanova Firuza Minyasharovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari haqida ma’lumot keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *texnologiya, zamonaviy metodlar, interfaol usullar, didaktik tamoyillar.*

Keyingi vaqtlarda pedagogik texnologiya masalasi mutaxassislar tomonidan alohida tadqiqot ob’yekti sifatida o‘rganila boshlandi. Bunda pedagogik texnologiya ta’lim, o‘qitish jarayoni maqsadiga va shaxs barkamolligiga erishtirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat samardorligini oshirishning tizimlashtirilgan, loyihalashtirilgan vosita va usullari sifatida talqin qilinadi. Fanlarni o‘qitish o‘qituvchidan mantiqiy usullar asosida pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Chunki fan asoslarini o‘zlashtirish uchun talaba abstrakt tushuncha, (kategoriya)larning mazmun, mohiyatini teran anglab yetishi kerakligi, bunga esa o‘qituvchi, eng avvalo, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni mantiqiy usullardan mohirlik bilan foydalangani holda qo‘lly bilishi orqali erishadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar asosida o‘qituvchining yangi bilimlarning o‘quvchilar tomonidan muayyan o‘quv topshiriq, masalalarni yechishi bo‘yicha muammoviy vaziyatlarni tashkil qilishi va shu yo‘nalishda o‘quv jarayonini boshqarishi tamoyili yotadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqishini hosil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi. Chunki mazkur usullar o‘quvchilarning diqqatini qo‘yilgan muammolarning mohiyat-ahamiyatini anglab olishga va ularning yechimi ustida mustaqil, tanqidiy muhokama yuritishga yo‘naltiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun bir qator interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qaratilgan bo‘lib, bunda mantiqiy usullar, xususan, tushunchani ta’riflash va bo‘lish, umumlashtirish va chegaralash, savollar tuzish, baxs va boshqalar nazariy- metodologik mavqei egallaydi.

Pedagogik texnologiyalardan biror bir fanni o‘qitish jarayonida foydalanish o‘qituvchidan informatika va axborot texnologiyalari fani asoslarini yaxshi bilishni, uning qonun-qoidalari va usullarini amaliyotda qo‘lly bilish malakasiga ega bo‘lishini talab etadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fani didaktikasi va o‘qitish metodikasida asosiy o‘rinlardan yana birini o‘qitish usullari egallaydi.

O‘qitish metodlarining muammosini qisqacha “*qanday o‘qitish kerak?*” degan savol yordamida ifoda qilish mumkin. Lekin shuni e’tirof etish lozimki, ushbu savolga javob olish uchun “*Nima uchun o‘qitish kerak?*”, “*Nimalarni o‘qitish kerak?*” va “*Kimlarni o‘qitish kerak?*” kabi savollar bo‘yicha yetarlicha axborotga ega bo‘lish kerak. Ana shundagina o‘qitish maqsadi va mazmuniga, o‘quvchilarning fikrlash faoliyati darajasiga to‘liq javob bera oladigan o‘qitish metodlarini tanlash masalasi xal etilishi mumkin.

O‘qitishning maqsadi va vazifalari o‘qitish metodini yagona ravishda aniqlamaydi. Ma’lum bir mazmun bir necha metod bilan o‘rganilishi mumkin. Bunda albatta xar bir metod yordamida o‘qitish maqsadlariga erishiladi.

O‘qitish metodlari ko‘p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko‘plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo‘yicha jamlanadi.

Ma’lumki, “Informatika va axborot texnologiyalari” o‘quv predmetining asosiy vazifasi o‘quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba’zi bir umumiy g‘oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi ro‘lini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni xisobga olgan holda, o‘quvchilarga nafaqat faktlarning qat’iy ilmiy bayonini berish, balki o‘qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo‘llash lozim.

Masalan, ko‘pchilikka ma’lum va ommabop bo‘lgan krossvord o‘yini bolalarda qiziqish uyg‘otishi tabiiydir. Krossvord ko‘rinishidagi so‘rov shakli o‘quvchilar uchun har doim qiziqarli va o‘ziga tortadigan metoddir.

“Kadrlar tayyorlash milliy dastri”da o‘sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan. Ushbu masalani hal etilishi ko‘p jihatdan o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashga ham bog‘liq.

Interfaol o‘qitishning mohiyati o‘quv jarayonini shunday tashkil etadiki unda barcha o‘quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo‘lib, erkin fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy fikr yuritish imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Darslardagi interfaol faoliyat o‘zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin xar bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Interfaol usul bitta so‘zga chiquvchining, shuningdek bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini chiqarib tashlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- a. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun // Xalq ta’limi. 1997. №5. S.4-16.
- b. O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni. “Xalq so‘zi”. 11-fevral, 2004.
- c. “Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2005, 3-iyun.

MASHG’ULOT JARAYONIDA JISMONIY YUKLAMALARNI BELGILASH(VOLEYBOL SPORT TURI MISOLIDA)

Salimova Marg'uba Ne'matovna

Navoiy davlat pedagogika instituti,

jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *voleybol mashg'uloti jarayonida jismoniy yuklamalarni belgilash, bolalarning organizmi shu yuklamani ko'tara olish imkoniyati, charchash ish qobiliyati va organizmning tiklanish xususiyati o'rganilib tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *voleybol, jismoniy yuklamalar, ish qobiliyati, sport o'yinlar.*

Dars-mashg'ulotlarga o'quvchilarning qiziqishlarini ortirishda sport va harakatli o'yinlari uslublaridan mohirona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchining emotsional holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, charchash alomatlarini bartaraf etgan holda jismoniy qobiliyat va yangi harakat malakalari paydo bo'ladi.

Mashg'ulot jarayonida sport o'yinlariga mos harakatli o'yinlar orqali amalga oshirishda to'plar yordamida olib borilishi samarali va yanada yuksakroq bo'ladi. Harakatli o'yinlardan foydalanish, muntazam qo'llash natijasida o'quvchilarning maxsus jismoniy sifatlari va texnik tayyorgarligining taraqqiy etishi sezilarli darajada ancha oson kechadi. Ish qobiliyati – bu organizm va uning organlari funksional holati hamda imkoniyatlarini yuksak darajada amalga oshirish qobiliyatidir. Ish qobiliyati “odamni muayyan faoliyat jarayonida ma'lum vaqt davomida va samaradorlik darajasida ish bajarish qobiliyatidir”. Yuklama (nagruzka), organizmning shu yuklamani ko'tara olish imkoniyati, charchash, zo'riqish, ish qobiliyati va uning tiklanish xususiyati kabi tushunchalar bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan atamalar, charchash va zo'riqish atamalarning vujudga kelish muddatini uzaytirish yoki tiklash muddatini qisqartirish yo'llarini izlash va amalga joriy etish ish qobiliyatining shakillanishiga olib keladi.

Albatta, buning uchun qo'llaniladigan jismoniy va texnik-taktik mashqlar hajmi hamda shiddati sportchi organizmi shu yuklamani ko'tara olish darajasidan xiyol yuqoriroq bo'lib, ko'p yillik mashg'ulot jarayonida yuklamani oshira borish to'lqinsimon prinsipga asoslanishi kerak.

Yuklama deganda muayyan harakat faoliyatining mashg'ulot hajmi, shiddati, davom etishi va qaytarilish chastotasining organizmga bo'lgan ta'siri tushiniladi. Shu ta'sir natijasida organizmida yuz beradigan funksional o'zgarishlar esa, shu yuklamaning ta'sir etish darajasini belgilab beradi. Demak, yuklamaning “tashqi” (hajmi, shiddati va h.k.) va “ichki” ko'rsatkichlari mavjud bo'ladi.

Statik yuklama o'zining hajmi va shiddati jihatidan organizmning funksional faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Kichik hajmli, katta shiddatga beriladigan static yuklama, masalan, yurak faoliyatiga keskin ta'sir qiladi. Yurakning ritmik faoliyatini buzadi, uning mushaklarini zo'riqtiradi, plus va nafas olish tezlashadi.

O’rtacha yoki katta hajmli va kichik shiddatda ijro etiladigan statik yuklama esa yurak faoliyatining asta-sekin moslashishga zamin yaratadi. Sport amaliyotida “ish qobiliyati” sportchining yuksak jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligining uyg’unlashganligini anglatadi. Demak, sport musobaqalarida yuqori natijga erishish jismoniy sifatlar hamda texnik va taktik malakalarning shakillanganlik darajasiga bog’liq.

Ma’lumki, ish qobiliyati haqida gap ketganda, ayniqsa so’z uning sifati va samaradorligiga tegishli bo’lsa, masalaning mohiyati va pirovard “mag’izi” boshqa jismoniy sifatlarning shakillangan yoki shakillanmaganligiga borib taqaladi. Ya’ni, samarali natija mos umumiy va maxsus chidamkorlik kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik sifatlarini o’zida mujassam qilgan bo’ladi. Ushbu sifatlarning o’zaro uzviy bog’liqligi va ularning yuksak darajadali, integral natijasi sport mahoratining muayyan taqdirini belgilab beradi.

Umumiy jismoniy tayyorgarlik tushunchasi bu- o’quvchining harakat sifatlarini har tomonlama (garmonik ravishda) rivojlanganlik darajasini anglatadi. Masalaga shu tarzda yondashish oddiy inson sog’ligini (sportchini ham) shakillantirib nuqtayi nazardan maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy voleybolda samarali o’yin ko’rsatish va yuqori natijalarga erishish faqat o’ta shakllangan jismoniy tayyorgarlik evaziga amalga oshirilishi mumkin. Voleybolchilar uchun esa jismoniy sifatlar ichida eng e’tiborlisi sakrovchanlik va sakrash chidamkorligidir. Aynan shu sifatlar aksariyat o’yin malakalarining samarali ijro etilishiga ta’sir ko’rsatadi.

Lekin bunday xulosadan voleybolchilar uchun boshqa jismoniy sifatlarning ahamiyati kamroq degan fikr kelib chiqishi mumkin emas. Aksincha, tezkor harakatlanish, kuch bilan zarba berish, ish qobiliyatini tushirmasdan uzoq vaqt malakalarni samarali bajara olish qobiliyatlari ham yetakchi o’rin tutadi.

Shuning uchun sport tayyorgarligi jarayonida tezkorlik, kuch, chaqqonlik, chidamkorlik va egiluvchanlik sifatlariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu sifatlarning yetarli darajada rivojlangan bo’lishi sport mahoratining samarali shakllanishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, bu sifatlar sport mahoratining tez va mukammal o’sishi uchun eng zarur poydevordir.

Vertikal sakrash misolida malakali voleybolchilarning tezkorlik-kuchlilik sifatini “zarbdor” uslubda rivojlantirish imkoniyati afzal ekanligi ko’rsatib o’tilgan. “portlovchi” kuchni rivojlantirishda ushbu uslubdan foydalanish yaxshi natija beradi, lekin bunday mashg’ulotlarni musobaqadan 10-12 hafta avval – martadan o’tkazib turish lozim.

Biz quyidagilarni tavsiya qilamiz: Voleybol elementlari bilan qo’shib o’tiladigan jismoniy tarbiya darsini kichik sinf o’quvchilarining jismoniy tayyorgarligiga ta’sir etish darajasini o’rganish natijasida shunday xulosaga keldimki, aniq maqsadga yo’naltirilgan voleybol darslari nafaqat yosh o’quvchilarni tarbiyalashda samarali vosita bo’lib hisoblanadi, balki voleybol to’garagiga dastlabki tanlov asosida qabul qilish va ularning o’yin ixtisosligini bashorat yordamida belgilab olish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Mahkamjonov K, Salomov R, Ikramov I. “Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi”-Toshkent 2008
- 2.Abdullayeva H. “Mashg’ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish” FDU 2008.
- 3.Gancharova O.V. “Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish”. Toshkent 2005.

ШАРТНОМАГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.

Мухиддинов Нодир
ТДЮУ Ихтисослаштирилган
филиали Давлат-ҳуқуқий
фанлар кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақола орқали шартномага қўйиладиган талаблар унинг бажарилиши шартлари, усуллари, томонларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари, шартномаларнинг ҳақиқий деб топилиши учун қўйилган талаблар, шунингдек, шартномаларни тузиши мумкин бўлган субъектлар бўйича баъзи мулоҳазалар билдирилди.

Калит сўзлар: Шартнома, битим, шартномавий муносабат, ҳуқуқий ҳуқ-атвор қоидалари, муомала лаёқати, тарафлар, юридик шахс, нотижорат ташиклоти.

Шартнома тарафлар учун ўзига хос хусусий қонун сифатида тарафлар ўртасидаги ҳуқуқий муносабатларни тартибга солишга қаратилади. Албатта, бундай муносабатлар кишилар ўртасида вужудга келиши сабабли ижтимоий муносабат ҳисобланади. Ушбу ижтимоий муносабатларни тартибга солувчи асосий восита бўлган шартлари ҳуқуқ нормаларига аниқроғи, фуқаролик-ҳуқуқий нормаларга асослангани сабабли ҳам шартномавий муносабатлар фуқаролик ҳуқуқий муносабатлар ҳисобланади. Бинобарин, шартномавий муносабатлар ўз моҳиятига кўра, фуқаролик- ҳуқуқий ижтимоий муносабатлар ҳисобланади.

Шартномаларга қўйиладиган талаблар, албатта унинг ҳақиқий саналиши, муайян тарафларга ҳуқуқ ва мажбуриятларни белгилаши, маълум бир оқибатларни келтириб чиқариши билан боғлиқ бўлиб, унга нисбатан битимларнинг ҳақиқий саналиши шартлари билан бирга ўзига хос талаблари ҳам бор.

И.Б.Зокировнинг таъкидлашича, битимларнинг ҳақиқий саналаниши учун қуйидаги шартларга жавоб бериши:

биринчидан, битимларнинг мазмуни қонунга ва қонун асосида чиқарилган актларга, умуминсоний қоидаларга мувофиқ бўлиши;

иккинчидан, битимларни тузувчи шахслар муомала лаёқатига эга бўлишлари;

учинчидан, битимлар кўриниш учунгина тузилмай, балки чиндан ҳам юридик оқибат туғдириш мақсадида тузилган бўлиши;

тўртинчидан, нотариал гувоҳлантириши ёки давлат рўйхатидан ўтказилиши лозим бўлган битимлар ҳақиқий саналмаслиги хавфи остида қонун билан талаб қилинган шаклда расмийлаштирилиши керак[1].

Лекин шартномалар битимлардан фарқли равишда, у фақатгина тарафларнинг ҳаракати эмас, келишуви натижасида юзага келиши муносабати билан ҳақиқий саналиши учун қуйидаги шартлар муҳим ҳисобланади.

1. Шартномаларнинг мазмуни амалдаги Фуқаролик кодекси, «Хўжалик юритувчи субъектларнинг шартномавий ҳуқуқий базаси тўғрисида»ги қонун ва бошқа қонун ҳужжатлари, шунингдек халқаро қонун ҳужжатлари талабларига мос ҳолда тузилиши керак;
 2. Шартнома ҳуқуқий хулқ-атвор қоидалари ва умуминсоний қоидаларга мувофиқ бўлиши;
 3. Шартнома муносабатларига киришувчи тарафлар(субъектлар) шартнома тузиш ваколатига эга бўлиши керак;
 4. Қонун талаб қилган шаклда расмийлаштирилган бўлиши керак;
 5. Шартнома тузаётган шахс эрки-иродаси ички ва ташқи тазйиқдан ҳоли бўлиши керак;
 6. Чиндан ҳам юридик оқибат туғдириш мақсадида тузилган бўлиши керак;
- Юқоридагиларга қўшимча равишда айрим ҳолларда хўжалик шартномаларида юридик хизмат субъектларининг имзоси бўлиши ҳам талаб этилади.

ФКнинг 1-моддасида қонун ҳужжатларига зид бўлмаган ҳар қандай шартнома шартларини аниқлашда эркинлик ҳуқуқи белгиланган. Лекин бу эркинлик қонун ҳужжатларида белгиланган доирадагина амалга оширилиши мумкин. Агар қонун ҳужжатларига зид равишда тузиладиган бўлса, у ҳолда бу шартнома ўз- ўзидан ҳақиқий эмас деб топилади. Бу эрда қонун ҳужжатлари деганда Ўзбекистон Республикаси парламенти томонидан ратификация қилинган халқаро шартномалар, битимлар ва бошқа норматив ҳужжатлар (Масалан, 1980 йил 11 апрелда Венада тузилган 1996 йил 30 августда Ўзбекистон Республикаси Парламенти тамонидан ратификация қилинган Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг товарларнинг халқаро олди-сотди шартномалари тўғрисидаги Конвенцияси), мамлакатимиз ҳудудида амал қилувчи қонун ва қонун ости актлари назарда тутилмоқда. Бундан ташқари, фуқаролик ҳуқуқининг манбалари бўлган бошқа норматив ҳужжатлар ҳам «қонун» атамаси таркибига кириб кетади. Айнан тузилаётган шартнома мазмуни қонун талаб қилган доирада қабул қилиниши лозим.

Агар тарафлар киришаётган шартномавий муносабатлар мазмуни қонун ҳужжатларида назарда тутилмаган бўлса у ҳолда қонун ёхуд ҳуқуқ аналогияси қўлланилади ёки иш муомала одати нормалари қўлланилган ҳолда шартнома тузиш талаб этилади, Масалан, толлинг, консигнация, нотижорат ҳамкорлик шартномаларига нисбатан аналогия қўлланилмайди.

Шартномаларга қўйиладиган талаблардан бири у ҳуқуқий хулқ атвор ва умуминсоний қадриятларга мос ҳолда тузилишидир. Маълумки, ҳуқуқ ижтимоий муносабатларни тартибга солиб, ривожлантириб ва қўриқлаб турувчи восита шунингдек, у жамиятда кишиларнинг хулқи, юриш-туришлари, ҳаётий фаолиятларининг маҳсули ҳамдир. Жамиятда кишиларнинг хулқи турли хил шаклларда бўлиб, унинг ифодаланиши, самарадорлиги, мотив ва мақсади, оқибатларига қараб турларга ажратиш мумкин. Шу билан бирга хулқнинг барча қўринишлари маълум бир манфаатларни белгилайди. Шу сабаб ҳам хулқ-атвор, ахлоқ

хуқуқий баҳолашнинг объекти бўлиб юзага келади. Хуқуқ киши хулқини турлича баҳолайди. Хуқуқшуносликда хуқуқ нормалари билан тартибга солинадиган хуқуқий таъсир доирасидаги хулқ муҳим аҳамиятга эга. Шу сабаб ҳам хуқуқий тартибга солишда, албатта, шу муносабатга киришувчи субъектнинг хулқи эътиборга олинади.

Хуқуқий хулқ-атвор хуқуқ нормаларига мос келадиган юридик оқибат келтириб чиқарадиган ижтимоий фойдали аҳамиятга эга бўлган онгли хуқуқий хулқ бўлиб, у албатта, давлат томонидан ижобий баҳога сазовор бўлиши зарур. Хуқуқий хулқнинг моҳиятини юридик мажбуриятларни бажариш, хуқуққа амал қилиш ва бажариш ташкил этади. Хуқуқ нуқтаи назаридан хуқуқий хулқ хуқуқий ва унга зид бўлиши мумкин. Амалдаги қонун ҳужжатлари ва хуқуқий амалиёт ўз-ўзидан хуқуққа мос келадиган хулқнинг тарафдори бўлиб, хуқуққа зид хулққа табиийки салбий муносабатда бўлади ҳамда уни таъқиб қилади. Н.Сабуров хуқуқий хулқни фаол, одатдаги ва сушт хуқуқий хулқ-атворга бўлади[2]. Мазкур олимнинг фикридан келиб чиқадиган бўлсак, шартномавий муносабатга киришиш истагида бўлган шахсларнинг хулқ атвори одатдаги хулқ-атвор деб номланувчи турига мос келади.

Ушбу одатдаги хуқуқий хулқ-атвор кишиларнинг кундалик ҳаётидаги хуқуқ нормаларига мос келадиган хулқи бўлиб, бу хулқ доирасида фуқаро шахснинг хуқуқий мажбуриятларинигина бажарадиган, у ёки бу кўринишдаги юридик аҳамиятга эга бўлган ҳаракатларни амалга оширадилар. Хуқуқий хулқ-атвор фақатгина жисмоний шахсларга тегишли эмас, умумий олиб қараганимизда хуқуқий хулқ атвор барча субъектларга ҳам дахлдор.

Шахс шартномавий муносабатга киришган пайтда, албатта, унинг хуқуқий хулқ-атвори ҳам эътиборга олинади. Агар шарнома тузувчи юридик оқибат келтириб чиқарадиган ижтимоий фойдали аҳамиятга эга бўлган шартномалар тузмаса, у ўз-ўзидан ҳақиқий эмас деб топилиши мумкин. Шу сабаб ҳам ушбу критерий шартномага қўйиладиган талаб сифатида майдонга чиққан.

Шартнома ўз-ўзидан умуминсоний қадриятларга мос келиши керак. Жамият, давлатнинг мақсадлари негизини инсон, унинг ҳаётини яхшилашга қаратилган киришувчи муносабатларни хуқуқий негизини таъминлаш ва давлат томонидан кафолатлаш ташкил этади. Шу сабаб жамият ва давлат шахснинг манфаатларини ҳамиша эътиборга олади, уни ҳимоялайди. Айнан мазкур ҳимоя функцияси юзага келадиган муносабатларни умуминсоний қадриятларга мос келишини назорат қилишни талаб этади. Умуминсоний қадриятлар маҳаллий ва халқаро нормаларга мос келади, ундан келиб чиқиб белгиланади. Шу сабаб ҳам шартнома тузувчи ё шартномавий муносабатларга киришувчи шахслар аввало инсоний қадриятларга мос келадиган шартларни ўз шартномаларига сингдиришлари шарт.

Яна бир жиҳатга эътибор қаратиш лозим яни шартнома тузиш учун субъектларда албатта муомала лаёқати бўлиши лозим. С.Вагатсуманинг фикрича, муомала лаёқати бу - мустақил ва тўла равишда битимларни тузиш лаёқатидир. Ушбу ҳолатдан келиб чиқадиган бўлсак, шартнома тузиш лаёқати бу муомала лаёқатининг таркибий қисми ҳисобланади. Фуқароларнинг муомала лаёқатининг даражасига қараб, қонун ҳужжатлари фуқароларга турлича шартнома лаёқатини юклайди.

Муомала лаёқати деганда, фуқаронинг ўз ҳаракатлари билан фуқаролик ҳуқуқлари олиш ва ўзи учун фуқаролик мажбуриятлари туғдириш лаёқати тушунилади. Муомала лаёқати фуқаронинг фақатгина ҳуқуқий ҳаракатлари билан битимлар тузиш лаёқатини билдириб қолмасдан, балки унинг ҳуқуққа хилоф ҳаракатларини, яъни лаёқатни ҳам билдиради.

Россия ҳуқуқшунос олимларининг фикрича, муомала лаёқати – шахснинг ўз хатти-ҳаракатлари билан ўзига фуқаролик ҳуқуқларини вужудга келтириши ва амалга ошира олиши, ўзининг ҳаракатлари билан мажбуриятларни вужудга келтириш ва шу асосда фуқаролик жамиятининг тўлақонли аъзоси бўлишидир[3].

Башарти, фуқаро ўзининг ғайриқонуний ҳаракатлари, яъни лаёқати билан амалдаги ҳуқуқий тартибни бузса, бунинг оқибатида унга нисбатан бир қатор фуқаролик ҳуқуқ ва мажбуриятлари вужудга келади. Масалан, қонунда бу тўғрида мана бундай дейилади:

— ғайриқонуний ҳаракат (ҳаракатсизлик) туфайли фуқаронинг шахсига ёки мол-мулкига этказилган зарар, шунингдек юридик шахсга этказилган зарар зарарни этказган шахс томонидан тўлиқ ҳажмда қопланиши лозим (ФКнинг 985-моддаси).

Муомала лаёқати худди ҳуқуқ лаёқати, каби умумий характерга эга бўлиб, аниқ субъектив фуқаролик ҳуқуқ ва мажбуриятларидан келиб чиқади. Аммо шу билан бир қаторда муомала лаёқати ҳам ҳуқуқ лаёқати каби ўзига хос ҳуқуқдир. Баъзан юридик адабиётларда ҳуқуқ лаёқати ва муомала лаёқатини умумий бир ҳуқуқий субъектив тушунчага бирлаштирадilar. Муомала лаёқати ҳуқуқ лаёқатининг бўлишини эътироф этади ва тўлиқ ҳолда вояга этиш билан вужудга келади. Вояга этиш, одатда, 18 ёш ҳисобланади. Бу ёшга этиш билан киши фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларда, жумладан, мулкӣ муносабатларда тўла қатнашувчигина бўлиб қолмай, сиёсий ҳуқуқлар билан бирга, бошқа фуқаролик ҳуқуқлари ва мажбуриятларини ҳам олади[4].

Юридик шахсларнинг ҳуқуқ ва муомала лаёқати универсал ва махсус лаёқатдан иборат[5]. Нодавлат тижоратчи юридик шахсларнинг ҳуқуқ лаёқати нотижорат юридик шахсларнинг ҳуқуқ лаёқатидан кенгроқ бўлиб, умумий (универсал ҳуқуқ лаёқати) характерга эга ва улар, гарчи таъсис ҳужжатларида белгиланмаган бўлса-да, қонунда тақиқланмаган ҳар қандай фуқаролик муносабатига киришишлари мумкин. Нотижорат юридик шахсларнинг ҳуқуқ лаёқати ўз низомлари доирасида чекланганлиги боис, махсус ҳуқуқ лаёқати мос келади. Нодавлат тижоратчи юридик шахслар (хусусий корхоналар, хўжалик жамиятлари ва ширкатлари) универсал ҳуқуқ лаёқатига эга бўлиб, бу умумийлик сармояларни тез ва узлуксиз муомалага киришини таъминлайди ҳамда сармоядорни қонуний ҳаракат доирасида даромад олишга йўналтиришни кафолатлайди.

Фуқаролик ҳуқуқининг бошқа субъектлари - юридик шахслар ва фуқаролар каби давлат, унинг тузилмалари ва маъмурий-ҳудудий тузилмалари ҳам фуқаролик ҳуқуқ ва муомала лаёқатига эга бўлади.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, hozirgi kunda shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish turli davlat idoralari tomonidan amalga oshiriladi. Fuqarolik kodeksining 111-

moddasida nazarda tutilgan qoidalar to‘la-to‘kis va amaliyotda to‘g‘ri tadbiiq qilinishi uchun, shuningdek davlat manfaatlaridan xoli bo‘lgan respublikada shartnomalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazadigan yagona tizim tashkil qilinsa va bu haqda maxsus qonun qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Зокиров И.Б. Фуқаролик ҳуқуқи. –Т.: ТДЮИ. 2006. –Б.108
2. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. –Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси. 2000. –Б. 346.
3. www. 5 ballow. ru. Правоспособность и дееспособность гражданина. Обзор лекции.
4. Зокиров И. Фуқаролик ҳуқуқи. Дарслик. 1-қисм. -Т.: ТДЮИ нашриёти.2006 2006. –Б. 85.
5. Гражданское право. Учебник. Под. ред. А.П.Сергеева, Ю.К.Толстого. Т.1. – М.: Проспект. 2003. –С. 152.
6. Субъекты гражданского права. Под. ред. С.Н.Братуса. –М.: Юрлит. 1984.-Б. 270.

BO‘YOQDOR RO‘YAN-RUBIA TINCTORUM L.

Mahammatqulov Shaxzod Baxtiyor o‘g‘li

Xayrullayeva Odina Sayfiddin qizi

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Univesiteti
Jizzax filiali “Biotexnologiya” yo‘nalish talabasi.*

Anotatsiya: *Ildizpoya tarkibida 5-6% gacha antratsenunumlari (alizarin, ruberitrin kislota, galiozin, purpurin, ksantopurpurin, psevdopurpurin, rubiadin-glyukozid, unistin, lutsidin, iberitsin va boshqalar) bo‘ladi. Ruberitrin kislota glikozid bo‘lib, gidrolizlanganda va primveroza (o‘z navbatida ksiloza va glyukoza qandlardan tashkil topgan) disaxaridiga parchalanadi.[3] Ildizpoyada antratsen unumlaridan tashqari 15% gacha qandlar pektin modda hamda limon, olma, vino kislotalari bor.*

Kalit so‘zlar: *Bo‘yoqdor Ro‘yan, antratsen galiozin, purpurin, ksantopurpurin, spazmaletik, O‘rta Osiyo, Chechen-Ingushetiyada.*

O‘simlikni tarqalishi: Ro‘yanning vatani O‘rta Yer dengiz mamlakatlari Ukraina, Moldova, Rossiyaning Yevropa qismining janubida, janubi-sharqida, Kavkazda (Ozarbayjon, Gruzziya, Armaniston, Dog‘istonda) va O‘rta Osiyoda uchraydi. asosan ariq



bo‘ylarida, butalar orasida, kanallar bo‘yida, dalalarda va bog‘larda o‘sadi. Ro‘yan plantatsiyalarda o‘stiriladi. Mahsulot asosan Dog‘istonda, Ozarbayjonning shimoli- sharqiy qismida va Chechen-Ingushetiyada tayyorlanadi.[1] Bo‘yoqdor ro‘yan-Rubia tinctorum L Ro‘yandoshlar—Rubiceae oilasiga kiradi. Ro‘yan turlari ko‘p yillik, bo‘yi 30-150 sm gacha bo‘lgan o‘t o‘simlik. Ildizpoyasi uzun sudralib o‘sovchi, shoxlangan, silindrsimon, yo‘g‘on, bo‘g‘inli, ko‘pboshli. Poyasi bir nechta, to‘rt qirrali. bo‘g‘inli, sershox va ilmoqli dag‘al tuklar bilan qoplangan. Bargi lansetsimon-tuxumsimon, yaltiroq, pastki tomonidagi yo‘g‘on tomirlari ilmoqli dag‘al tuklar bilan qoplangan, juda ham qisqa bandi bilan poyada 4-6 tadan to‘p-to‘p bo‘lib joylashgan. Gullari mayda, yashil-sariq rangli, barg qo‘ltig‘idan o‘sib chiqqan yarim soyabonga to‘planib, ro‘vaksimon gul to‘plamini tashkil etadi. Gulkosachasi aniq bilinmaydi, toj bargi 5 ta, birlashgan, voronkasimon-g‘ildiraksimon, otaligi 5 ta onalik tuguni 2 xonali pastga joylashgan. Mevasi-1-2 urug‘li, sharsimon, oldin qizil, keyinchalik qora rangga aylanuvchi sershira ho‘l meva. Iyun-avgust oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentyabrda pishadi.[3]

Bo‘yoqdor ro‘yan o‘simligini o‘stirish texnologiyasi: Ro‘yanga ajratilgan dalalar erta kuzda shudgordan oldin har gektar yerga 15-20 tonna organik o‘g‘itlar, superfosfat berib 27-30 sm chuqurlikda haydaladi. Agar o‘simlik yog‘ingarchilik kam bo‘lgan avtomorf tuproqlarda ekilsa yer haydash bilan birga gektariga 20 kg azot va kaliy o‘g‘itini berish

maqsadga muvofiq .Ro'yan urug'idan va ildizpoya qalamchalaridan ham ko'payadi. Ekishdan oldin urug'ni stratifikatsiya qilmasa ham bo'ladi. Erta bahorda haydalgan yerlar borona, mola va kultivatsiya qilinadi. Tuproqning harorati 10-12°C bo'lganda mart oylarining o'rtalarida gektariga 13-15 kg urug' sarflanadi. Uning ekilish chuqurligi 4-5 sm dan kam bo'lmasligi lozim. Urug'ning unuvchanligi 75-80% dan kam bo'lmasligi kerak. Tuproqning harorati mo'tadil va namlik yetarli bo'lsa ekilgan urug'lar 10-12 kunda unib chiqadi. Agar ildizpoya qalamchalardan ko'paytiriladigan bo'lsa uning unuvchanlik darajasi 80-90% dan kam bo'lmasligi kerak. Ildizpoyalar erda bahorda 8-10 sm chuqurlikda ekilishi lozim. Gektariga o'rtacha 10-12 sentner ildizpoya sarflanadi. O'simlikning zichligi 1 metrda 10-15 dona. Urug' va qalamcha qator oralari 60 sm dan qilib ekilsa, o'simlik ikkinchi va keyingi yillarda ildizlari yaxshi rivojlanib tuproq yuzasini butunlay qoplanishga sharoit yaratiladi. Ro'yan o'simligi birinchi yili 7-8 marta sug'oriladi, keyingi yillarda sug'orish soni kamaytiriladi. Birinchi yili o'simlik oralari yumshatiladi, begona o'tlardan tozalanadi. Birinchi o'g'itlash may va iyun oylarida gektariga 30 kg azot, 20 kg kaliy o'g'iti berish bilan amalga oshiriladi. Ikkinchi oziqlantirish avgust oylarida 30 kg azot va 20 kg superfosfat o'g'iti berish bilan tamomlanadi. O'simlikni oziqlantirish sug'orishdan oldin amalga oshiriladi. Bo'yoqdor ro'yanning ikkinchi va uchinchi yillari, dastlabki mevalari qo'ng'ir tusga kirganda ularning to'qilib ketishiga yo'l qo'ymasdan yig'ib olinadi. Ildiz va ildizpoyasini kech kuzda yoki erda bahorda plig bilan yerni 30-35 sm ag'darib tuproqdan tozalab, suvda yuvib va 45-50°C da ildizini sushilkada quritib olinadi. Urug'lari qo'lda yoki mexanizmlarda yig'ib olinadi. Har gektar yerdan o'rtacha 80-100 kg urug' va 13-14 sentner quruq ildiz yig'ib olish mumkin.[2]

Tibbiyotda ishlatilishi: Ro'yan o'simligi spazmaletik va siydik haydash hamda buyrak toshlarini (fosfatlarni) yumshatish ta'siriga ega. Shuning uchun uni dorivor preparatlari siydik yo'llari tosh, buyrak tosh hamda o't pufagi tosh va podagra kasalliklarida qo'llaniladi.[1]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedov.O', Ergashev.A, Abzalov.A, Yo'lchiyeva.M, Mustafakulov.D, Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi Toshkent-2020 (104-106 betlar)
2. Axmedov.E.T, Berdiyev.E.T, Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi Toshkent 2017(85- bet)
3. Xolmatov.H.X, Ahmedov.O'.A, Musayeva.N.A, Farmakognoziya va botanika asoslari Toshkent 2017(264-265 betlar)

O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA YANGI TEXNOLOGIK USULLARDAN FOYDALANISH (MATEMATIKA FANI MISOLIDA)

SHomirzayeva Mavluda Sobirovna

Andijon viloyati Andijon tumani

24- umumiy o'rta talim maktabi matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Quyida berilgan maqolada matematika fanidan yangi texnologik usullardan foydalanish, ularning o'quvchilarda bilish ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ekanligi keltirib o'tilgan. Maqolada maktab o'quvchilarining bilim olishidagi ta'limiy o'yinlarning ahamiyati keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'limiy o'yinlar, usullar, aniq fanlarda ta'limiy usullardan foydalanish, kompetensiyaviy yondashuv, “kubik” o'yini.*

Bugungi tezkorlik bilan rivojlanayotgan axborot asri ta'lim sohasini deyarli qamrab oldi. Ta'limga innovatsion yondashuv ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiribgina qolmay, uzluksiz ravishda davom ettirishni talab qiladi.

Barcha fanlardagi singari —Matematika fanini o'qitishda ham o'quvchining individual xususiyatlari, imkoniyatlarini hisobga olish, fanni o'qitishda turli pedagogik texnologiyalardan, interfaol metodlardan foydalanish darslarni DTS talablariga muvofiq tashkil etishning maqbul yo'li hisoblanadi.

Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari:

norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

O'quvchilarda ta'limning qulay va turli interfaol usullardan foydalanilsa, kutilgan natija beradi. Darslarda ta'limiy o'yinlar, usullar, turli interfaol metodlar ishlab chiqilmoqdaki, bu o'quvchilarning egallashi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni qulay va tez tushunishlariga imkon yaratadi. Maktabda aniq fanlar tarkibiga kiruvchi matematika fani o'quvchilarga ta'limiy interaktiv metodlardan foydalanib o'qitilsa, qiziqarli fan sifatida o'quvchilar qiziqishini oshiradi. Bu ko'pincha pedagog o'qituvchining ijodiy yondashuviga bog'liqdir. O'quvchi egallashi lozim bo'lgan bilim ko'nikmalar kompetensiyaviy yondashuvda ham yaxshi natija beradi.

Buyuk alloma Mahmudxo'ja Behbudiyning “Maktab- taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasi. Har bir millat eng avvalo, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha taraqqiy yo'lga kirib, madaniyatdan foydalanmas”. Shunday ekan, muallim dars o'tishning ta'lim- tarbiya jarayoniga ta'sir

etishning turli usullari, har xil vositalaridan foydalanibgina qolmay, unda yotgan g’oyani ilg’ab olishda matematik o’yinlar, sahna ko’rinishlari, ham yordam beradi va o’quvchi xotirasida saqlanadi. Dars –oldin o’zlashtirilgan bilimlar bilan o’zlashtirilishi lozim bo’lgan bilimlarni eslab takrorlab, mustahkamlab olish orqali boshlanadi. Darsda o’quvchilarning faol yoki nafaoligi, o’qituvchining darsni qanday tashkil qilishiga bog’liq. Darsda o’quvchilarning bilim samaradorligini oshirish uchun yangi mavzuni maydalab bo’laklarga bo’lib o’tish tavsiya etiladi. Darsni qanchalik o’zlashtirishini turli xil masala va misollar berib, tekshirish orqali maqsadga erishiladi. Darsda o’quvchining faolligini oshiruvchi bir qancha usullar borki, bu usullardan foydalanib dars o’tils o’quvchida dars mavzusiga qiziqish yanada ortadi.”Kubik”o’yini: Qirralari 5 smdan bo’lgan 6 dona oddiy kublar yasaladi. Kublarning har bir yog’iga matematik formulalarning bir qismi yoki matematik tushunchalarning bir qismi, ta’rif, teorema, geometric shklning bir qismi yoziladi. Qolgan kublarning ham bir yog’iga shu tushunchalarning qolgan qismlari yozib chiqiladi. Gar kublar to’g’ri yig’ilsa, ma’lum matematik tushunch hosil bo’ladi. Shunday qilib, birinchi kubga matematik tushunchalarning birinchi qismi, qolganlariga uning davomlari yozilsa, jami bo’lib, 6 ta matematik tushuncha paydo bo’ladi. Bu usulni qo’llash uchun sinf o’quvchilari 5-6 nafardan qilib guruhlarga ajratiladi Har bir guruhga 6 tadan kubiklar tarqatiladi. O’quvchilar kubiklarni terib, bitta matematik tushunchalarni paydo qilishlari talab etiladi. Qaysi guruh birinchi bo’lib kubikni tersa, shu guruh g’olib deb e’lon qilinadi.

Bu usulni har xil shaklda qo’llasa bo’ladi. Birinchi kubikni istalgan yog’I bilan parta ustiga tashlab, kubikning tepa yog’idagi matematik tushunchaa davom ettirilishini talab qilish ham mumkin. Yoki kubikning 6ta yog’iga 6ta savol yozib, uni istalgan yog’I bilan parta ustiga tshlab, uning tep tomoni yog’idagi savolning javobini talab qilish ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ta’lim menejmenti 2018y3-son(19)
2. Matematikadan ma’ruzlaar matni Toshkent 2008y

TALABALARNING BILIMINI BAHOLASHDA INTELLEKTUAL TIZIMLARDAN FOYDALANISH.

Abdullayev Botir Baxtiyor o’g’li
Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Yangiyer filiali o’qituvchisi

Dunyoda ro’y berayotgan o’zgarishlarning asosiy ko’rsatkichlaridan biri sifatida ta’limni zamonaviylashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Texnologiyalarning taraqqiy etish jarayonida ta’limni axborotlashtirish, talabalarga zamonaviy usullar bilan samarali o’qitish metodlarini yaratish bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylangan. An’anaviy ta’lim berish shaklidan zamonaviy yondashuvlar asosida talabalarga ta’lim berishning noan’anaviy usullarini qo’llash, ta’lim jarayonida ilg’or texnologiyalarni joriy etish pedagogning o’z ustida yanada ko’proq ishlashiga, mutaxassislikka oid kompetensiyalarini shakllantirishga turtki bo’lmoqda. Bu borada talabalarga zamonaviy texnologiyalarga asoslangan elektron ta’lim muhitidan foydalangan holda darslarni tashkil etish samarali usullardan biri ekanligini alohida ta’kidlash mumkin.

Intellektual tizimlar bugungi kunda eng rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida barcha ishlab chiqarish korxonalarida, transportni boshqarish tizimida, ta’limda, tibbiyot sohaslarida va xalq xo’jaligidagi barcha sohalarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari ishlatilib kelinyapdi. Bu tizimlar shu sohalardagi intellektual vazifalarni bajarishga qaratilgan. Bunga misol sifatida rivojlangan davlatlardagi aqlli ko’chalar, haydovchisiz o’zi yurar transport vositalari hamda ishlab chiqarishda robotlar yordamida tayyorlanayotgan mahsulotlarni ko’rish mumkin. Bu esa intellektual tizimlarning keng faoliyat sohasida qo’llanilishini ko’rsatadi.

Intellektual tizimlar - bu ba’zi bir predmetli sohadagi murakkab vazifalarni yechish uchun bilimlarni tashkil qilish, jamlash va qo’llash usullari va vositalarini majmuasidir. Intellektual tizim mutaxassislar guruhining yuqori malakali tajribasiga suyangan holda qarorlarni tanlab olishda ko’p sonli muqobillarning oshiqchaligi hisobiga yuqoriroq samaradorlikka erishadi, yangi omillarning katta hajmining ta’sirini strategiyalarni qurishda ularni baholab, bashorat qilish imkoniyatlarini qo’shib tahlil qiladi. Intellektual tizimlarning asosi qarorlar qabul qilish jarayonini shakllantirish maqsadlarida tarkiblashtirilgan bilimlar (bilimlar bazasi)ning majmuasidan iborat.

Intellektual tizimlarning o’quv jarayonidagi ahamiyatli jihati shundaki u baholashni avtomatlashtiradi. Baholash o’quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqlarga baho qo’yish jarayonidir. Umumta’lim maktablari o’quvchilaridan tortib oliy ta’lim muassasalari talabalarigacha bajargan topshiriqlarini baholashga bo’lgan ehtiyoj juda katta. Baholash talabalarga topshirilgan ish sifatini tushunishga yordam beradi. An’anaviy baholash jarayoni har bir topshiriqni tekshirish va unga baho qo’yishni o’z ichiga oladi. Bajarilgan vazifalarning sifati va topshiriqning asosiy mavzusining asoslanishi baholash uchun muhim omillardan biridir. Intellektual tizimlar baholash kabi ta’limning asosiy faoliyatlaridan birini

avtomatlashtirishi mumkin. Ta’lim muassasalarida olib borilgan tajribalar shuni ko’rsatadi-ki uy vazifalari, ma’ruza, amaliy va laborotoriya mashg’ulotlar topshiriqlarini hamda testlarini baholash zerikarli ish bo’lishi mumkin. Hatto boshlang’ich sinflarda ham o’qituvchilar tez-tez baho qo’yish o’quvchilar bilan muloqot qilish, darsga tayyorgarlik ko’rish yoki kasbiy malakasini oshirish uchun ko’p vaqt talab qiladi. Intelektual tizimlardan foydalanib o’qitish, o’qituvchilar uchun baholash va nazorat qilishning deyarli barcha turlarini avtomatlashtiradi.

Baholashning bugungi kunda diagnostik, formativ va summativ turlari ta’lim jarayonida ko’p ishlatiladigan turlaridan biri hisoblanadi. Baholashning har bir turi ta’lim jarayonining ma’lum bir qismida ishlatiladi [5]. Misol uchun Diagnostik baholash bu talabalarning fanlarni o’qitishdan oldin ularning bilim salohiyati, fanga doir tushunchalarning qay darajada shakllanganligi, ularning fanga bo’lgan qiziqishlarini aniqlash uchun ishlatiladigan turi hisoblanadi. Bunday baholash turi asosan o’qituvchi tomonidan darslarni boshlashdan oldin talabalarning salohiyatini mavzu bo’yicha qanday bilimlarni bilishi va qanday bilimlarni egallashi lozimigini aniqlash uchun qo’llaniladi. Bu orqali o’qituvchi talabalarga mavzuga oid yangi tushunchalarni berib ularning bilimidagi bo’shliqlarni to’ldirishga erishadi.

Formativ baholash dars jarayonida talabaning egallagan bilimini baholash uchun qo’llaniladi. Bu o’z navbatida talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bunday baholash talaba dars vaqtida o’tilayotgan mavzu bo’yicha qay darajada o’zlashtirayotganini aniqlashga yordam beradi.

Summativ baholash umumiy yakuniy baholash turi hisoblanib, talabaning dars yakunida egallagan bilimining qiymati kelib chiqadi. Ya’ni talaba oldin nimalarni bilardi va endilikda nimalarni bilib oldi degan savollarga javob bo’ladi. Bu asosan dars yoki kurs yakunida qo’llaniladigan baholash shakli hisoblanadi.

Intellektual tizimlar talabalar qayerda o’qishini, kimlar ularni o’qitishini va asosiy ko’nikmalarni egallashini o’zgartirishi mumkin. Kelgusi bir necha yillar davomida katta o’zgarishlar yuz berishi mumkin bo’lsa-da, haqiqat shundaki, intellektual tizimlar biz bilgan hamma narsani tubdan o’zgartirishi mumkin. intellektual tizimlar, dasturiy ta’minotni qo’llab-quvvatlashdan foydalangan holda, talabalar dunyoning istalgan joyidan istalgan vaqtda o’rganishlari mumkin va bunday dasturlar auditoriyada o’qishning ma’lum turlarini almashtirish imkoni mavjud bo’ladi. Qolaversa bunday intellektual tizimlar asosida baholash talabaning bilimidagi bo’shliqlarni to’ldirishda, uning qiziqishlari, bilim salohiyatidan kelib chiqib ta’lim berishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гаврилова, Т.А., Хорошевский, С.В. Базы знаний интеллектуальных систем: учебное пособие. – СПб.: Питер, 2006. -344 с.
2. Козлов, А.Н. *Интеллектуальные информационные системы: учебник* Ф.А.Н. Козлов; Мин-во с-х. РФ, ФГБОУ ВПО Пермская ГСХА. – Перм, 2012.– 278 с.
3. Тихомиров Н.П. *Интеллектуальные системы в экономике: Учебное пособие.* –СПб. Питер, 2012.– 144 с.

MAKTABLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH

Jamoldinova Lutfiya Rahmonaliyevna

*Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar 26-umumta'lim maktabi
texnologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada Texnologiya fanini tashkil etishning usullari va muammolari tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar: *Texnologiya, ilmiy-pedagogik adabiyotlar, iroda va ahloqiy sifatlar, Mehnat ta'limi.*

Texnologiya fani va uni o'qitish metodikasi ta'lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beraladi. O'quvchilarni amaliy mehnatga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko'nikmalarini egallashlarini ta'minlaydi.

Texnologiya ta'limining tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarda mehnatsevarlik, mas'uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o'quvchilarning aqliy o'sishida eng muhim iroda va ahloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yilgan o'zaro yordam esa, ularda do'stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi.

Ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, ta'limni texnologiyalastirish, texnologik tayyorgarlik haqida so'z yuritilib, ularga turlicha talqin va ta'riflar beriladi. Avvalo «texnologiya» so'zining ma'nosini bilish maqsadga muvofiq. «Texnologiya» so'zining grek tilidan tarjimai tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zida uni «texno» - hunar yoki san'at, «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san'ati haqidagi fan sifatida e'tirof etishadi. Shu nuqtai nazarda, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta'limi» o'quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta'lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq.

O'quvchilarning fanni o'zlashtirish jarayonida darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalardan unumli foydalanish, uzatish qurilmalari yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik vositalardan foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, [interfaol usullarni](#), ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, o'quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va

malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari: materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma’lumotlarni o‘rganish; texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish; texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish; texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish; buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish; ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Texnologiya darslarida zamonaviy (innovatsion, pedagogik va axborot) texnologiyalarini qo‘llashning asosiy bo‘limlari «Texnologiya va dizayn», «Servis xizmati» hamda «Qishloq xo‘jalik asoslari» yo‘nalishlari berilgan. O‘quvchilar bu yo‘nalishlardan birini to‘liq o‘rganadi. Shuni e‘tiborga olish kerakki, «Texnologiya va dizayn» yo‘nalishi uchun darslikda «Elektrotexnika ishlari» hamda «Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ta‘mirlash» nomli boblar berilgan. Bu boblarni «Qishloq xo‘jalik asoslari» yo‘nalishlarini o‘rganayotgan o‘quvchilar ham o‘rganadilar. O‘quvchilar mashg‘ulotlar va uyushtiriladigan sayohatlar davomida ko‘plab sohalarga oid kasb-hunar turlari bilan tanishadilar. Kelajak hayot davomida shu kabi kasb-hunarlardan birini egallab, o‘z sohasining mohir ustasi bo‘lib yetishadi. Bu bilan jamiyat ravnaqi uchun o‘z hissasini qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Txorjevskiy Mehnat ta’lim metodikasi Toshkent “o‘qituvchi” 1987 y
2. P.Senemikin Maktab ustaxonalarida asboblar tayyorlash Toshkent “o‘qituvchi” 1990y
3. N.I. Makienko Slesarlikdan amaliy ishlar Toshkent “o‘qituvchi” 1992y
4. Baltabaev Kasb tanlashga yo‘nalish Toshkent 2000y
5. S. Mahkamov Uquv ustaxonalarida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlar Toshkent “o‘qituvchi” 1991y
6. K.Davlatov Mehnat va kasb ta’limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi Toshkent “o‘qituvchi” 1992y

7. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari “2004-2009” yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umumiy dasturi: asosiy tamoyillar va privord islohotlar” Nukus 2005y

U. STRAUSVA N. HOUVNING AVLODLAR NAZARIYASI MOHIYATI

N. Dalimova

JXU dotsenti

Avlodlar nazariyasi – amerikalik tarixchi olim Uilyam Straus hamda iqtisodchi Nil Houv tomonidan ishlab chiqilgan nazariya bo`lib, unda AQSH tarixida takrorlanuvchi avlodlar davri tasvirlanadi. Straus va Xouv birinchi marta ushbu nazariya haqida 1991-yilda gapira boshladilar, shu yilda ularning hamkorlikda yozgan “Avlod” nomli kitobi nashr etiladi. Ushbu kitobda AQSH tarixidagi turli nasllarning biografiyasi turkum sifatida berib boriladi. 1997-yilda mualliflar “To`rtinchi o`zgarish” nomli kitobini chop ettirdilar. Ushbu kitobda ular o`z nazariyalarini ishlab chiqib, Amerika tarixidagi 4 avlod davri hamda takrorlanuvchi yoshlar xulq-atvori haqida yozadilar.

U.Straus va N.Houv 1980-yildan hamkorlik qila boshlaydilar hamda birgalikda AQSH tarixida nasliy biografiyalar izchilligi masalasini ko`rib chiquvchi “Avlodlar” kitobi ustida ish olib boradilar. Ikkala muallif ham avlodlar haqida yozadilar: Straus - Vyetnam urushidagi harbiylar va “bebi-bum” (baby boom) avlodi haqida, Houv esa “Buyuk avlodlar” haqida. Tadqiqodchilarning avlodlar mavzusiga bo`lgan qiziqishi ularning Vashingtonda uchrashishi hamda o`zlari olib borgan ishlarini muhokama qilganlaridan keyin yangi bosqichga chiqadi. Ular, shuningdek, avlodlar shu tarzda o'zini tutishi masalasiga qiziqqanlar va ularning tadqiqotlari aslida o'tgan va hozirgi avlodlar o'rtasida tarixiy o'xshashliklar mavjudligini ko'rsatadi. Natijada, har ikkala muallif ham angliyo-amerika tarixida to'rtta avlodning takrorlanuvchi xulq-atvori modelini kashf etdi. Ularning har biri o'ziga xos ijtimoiy obro'ga va ruhiy holatga ega bo'lgan 4 turdagi turli davrlarga to'g'ri keladi. Ushbu nazariyaning asoslari "Avlodlar" (1991) kitobida keltirilgan. Avlodlar nazariyasi va ishlab chiqilgan atamalar haqidagi batafsil tahlil mualliflarning 1997-yilgi “To'rtinchi o`zgarish” kitobida berilgan.

"Avlodlar" kitobi ma`lum yosh guruhidagi odamlar muayyan e'tiqodlar to'plamiga egalik qilishi haqidagi go`yalarni ommalashtirishga yordam berdi. Aloqalar, qadriyatlar va yoshlarning xatti-harakatlar va boshqalar o'xshash tarixiy sharoitlarda rivojlanib boradi. 1990-yillarning o`rtalarida Straus va Houv nasliy xususiyatlar orqali strategic muammolarni qanday qilib yechish mumkinligiga qiziqish bildirgan bir qancha tashkilotlardan so`rovlar ola boshladi.

Straus va Houvning birinchi kitobi “Avlodlar”da (1997) AQSH tarixidagi 1584-yilda boshlangan hamda bugungi kungacha bo`lgan davrni qamrab olgan angliya-amerika avlodlarning biografiyasi haqida ma`lumot beradi hamda unda mamlakat tarida takrorlanuvchi avlodlar sikli masalasini ochib beradi. Mualliflar 4ta takrorlanuvchi bosqich modelini ishlab chiqadilar va ular Amerikada koloniyalarning vujudga kelishidan tortib bugungi kungacha, Uygo`nish davri hamda dunyoviy jamiyatning inqorozidagi davrlar va avlod turlarini qamrab oladi. 1992-yilda mualliflarning ikkinchi kitobi -“O'n uchinchi avlod” kitobi nashr etildi. Unda 1961-1981 yillarda tug`ilgan odamlar avlodi - X avlodni tadqiq etiladi. (Ushbu avlod AQShda 13-avlod deb nomladi, chunki u Amerika xalqining

paydo bo`lishidan hisoblaganda 13 o`ringa to`g`ri keladi). Kitobda ushbu avlod vakillari amalga oshirgan tarixiy hodisalar va o`zgarishlar qanday qilib ularning ongli pragmatizmini – ongli inqilobini shakllantirgani tasvirlanadi. 1997-yilda Straus va Houv “To`rtinchi o`zgarish: Amerika bashorati”ni nashr etadilar, unda “Avlodlar” kitobida berilgan g`oyalar batafsil yoritiladi. Mualliflar avlodlar arxitiplarini nomlash uchun turli nomlardan foydalana boshlaydilar, masalan, Fuqarolar nomi Qahramonga, Ikkiyuzlamachilar nomi Rassomlarga almashtiriladi. Shuningdek, avlodning o`zgarish siklini ham nomlay boshlaydilar. Birinchi kitobda nazarda tutilgan sarlavha, mualliflarning fikriga ko`ra, ming yilliklar almashganida boshlanishi kerak bo`lgan inqiroz davrini bildiradi. 2000-yilda mualliflar “Millenium avlodining yuksalishi: keying Buyuk avlod” nomli ishlarini e`lon qildilar. Unda 2000-yilda o`rta maktabni bitirgan katta yoshli hamda balog`atga yetgan avlod vakillarining xarakter xususiyatlari tadqiq etiladi. Straus va Houv o`smirlar va yoshlar yoshlik tushunchasiga qanday qarashini ko`rsatib beradi: pessimizm va ota-onalaridan uzoqlashish o`rnini optimizm va faol hayot tarzi egallaydi. Tadqiqotchilarning ta`kidlashicha, Millineum avlodi vakillari dunyoga juda katta talablar qo`yadi; ular kattalar tomonidan yaratilgan o`smirlar madaniyatiga qaraganda kam darajada qattiqqo`l, beadab hamda jinsiy moyillikka berilgan bo`ladilar. Keyingi o`n yil davomida ular yoshlik tushunchasini o`zgartirdilar. Mualliflar fikriga ko`ra, Millineum avlodi yangi Buyuk avlod bo`lishi mumkin.

Avlod: Strausva Houvning tasnifiga 20 yil oralig`ida tug`ilgan yoki hayotning biror bosqichiga (bolalik, yoshlik, o`rta yosh yoki qarilik) mansub barcha odamlarni avlod sifatida belgilaydi. Agar avlod uchta mezondan biriga mos kelsa, uni aniqlash mumkin. Birinchidan, bir avlod vakillari yagona tarixiy davrga tegishli bo`ladilar: ular bir hayot bosqichi davrida sodir bo`lgan ijtimoiy davr hamda bir xil tarixiy hodisalar jarayonida to`qnashadilar.

Ikkinchidan, alohida ajratilgan umumiy e`tiqod va xatti-harakatlar modeliga ega hisoblanadilar.

Uchinchidan, tengdoshlari bilan baham ko`rayotgan tajriba va xususiyatlar haqida bilish orqali bir avlod vakillari ushbu avlodga tegishli bo`lish hissiga ega bo`ladilar. Straus va Houv avlodlarni tasniflashda turli mualliflar va mutafakkirlarning ishlaridan bir avlod vakillari ijodlaridan foydalanganliklarini ta`kidlaydilar: ular qatoriga qadimgi yozuvchilar Polibiy, Ibn Xaldundan tortib zamonaviy sotsial nazariyachilar Xose Ortega-i-Gasset, Karl Manngem, Jon Styuart Mill, Oygust Kont kabilar kiradi. Dunyoning o`zgarish hodisasi takrorlanish, dastlabki bosqichga qaytish qonuniga bo`ysunishi to`g`risidagi tasavvurning o`zi ham qadimiy hisoblanadi. Davriy takrorlanish – biologik mavjudodlarning qonuni bo`lib, unga dunyoning bir qismi sifatida butun tabiat dunyosi va insoniyat bo`ysinadi. Tabiatda moddalar aylanishi, fasllarning almashishi, kun va tunning almashishiga o`xshash tarzda arxaik madaniyatlarning ham davriy tarzda aylanishi insonning xulq-atvorining ustun tomoni hisoblanadi, bu esa ijtimoiy- dinamik jarayonlarning davriy davom etishini qabul qilish imkonini beradi.

MAMLAKATIMIZDA DUALISTIK TIZIMNI TASHKIL QILISHNI AHAMIYATI

Adxamjonov Shoxbozbek Bobirjon o’g’li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

So`nggi yillarda islom moliyasiga qiziqish ortib bormoqda. Bu qiziqish nafaqat musulmon aholisi ko`p bo`lgan mamlakatlarda balki no musulmon bo`lgan mamlakatlarda ham qiziqish uyg`onmoqda. Juda ko`p mamlakatlarda an`anaviy moliyaga parallel ravishda o`zining moliya tizimiga islom moliyasini tadbiiq qilmoqda. Bunga qo`shimcha qilish joizki, Islomiy moliya tarmog`i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o`zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, musulmon davlatlaridagi faoliyati islomiy moliyalashtirishga asoslangan mavjud banklar, investitsiya fondlari va kompaniyalar mablag`larini O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va xususiy sektorni qo`llab-quvvatlash maqsadida jalb etish ayni muddaodir. Buning uchun albatta moliya tizimiga yangicha yondashuv bilan nazar solmoq lozim, ya`ni an`anaviy moliyalashtirish mexanizmlari bilan bir qatorda sherikchilikka asoslangan moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish masalasi tadqiq etilishi muhim va dolzarb hisoblanadi.

Bizning mamlaktimizda bu sohaga qiziqsh ortib bormoqda bunga misol qilib, Muhtaram yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev Islom moliyasi haqida shunaday fikr bildirganlar «Islom olami ulkan iqtisodiy, investision salohiyat, energetika resurslariga ega. Ulardan to`g`ri foydalanish, Islom hamkorlik tashkilotiga a`zo davlatlarning xalqaro savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investision hamkorligini kengaytirish, mamlakatlarimizni birlashtiradigan transport yo`llarini tashkil etish yuksak iqtisodiy taraqqiyot ko`rsatkichlariga erishish imkonini beradi va bu pirovard natijada boshqa barcha sohalarning rivojlanishida asos bo`lib xizmat qiladi» (Baydaulet 2021) deya takidlaganlar va bunga isbot sifatida Islom moliyasi mexanizmlarini O`zbekiston iqtisodiyotiga joriy qilish harakatlari boshlangan deb hisoblash mumkin. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg`armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son qarori ham qabul qilindi. Bu qaror bilan asosiy yo`nalish hamda vazifalar belgilab olingan edi, ular: energetika, yo`l-transport, kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, uy-joy qurilishi, bank-moliya tizimini hamda kichik va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirish, sog`liqni saqlash va ta`lim tizimlarini takomillashtirish hamda respublika tarmoqlari va hududlarini kompleks rivojlantirishning boshqa yo`nalishlari bo`yicha loyihalarni amalga oshirishga ITB guruhining, shu jumladan Xususiy sektorni rivojlantirish bo`yicha islom korporatsiyasi, Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi, Investitsiyalar va eksport kreditlarini sug`urtalash islom korporatsiyasi, Islom tadqiqot va ta`lim instituti, shuningdek, Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg`armalarining moliyaviy mablag`larini jalb etish; bank sektorida islomiy moliyalashtirish asoslarini joriy etish, davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini, jumladan vaqf-jamg`armalarni tashkil etish yo`li bilan qo`llab-quvvatlash dasturlarini birgalikda ishlab chiqish va O`zbekistonda tatbiq qilish; respublika tijorat

banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarining investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning eksport imkoniyatlarini mustahkamlash uchun islomiy moliyaviy resurslari va mahsulotlarini faol jalb etish kabi vazifalar belgilab berilgan.

Bunga yana qo‘shimcha qilish mumkin quyidagi qonuni: 2020-yil 29-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning parlamentga qilgan murojatnomasida Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etilishini ta’kidlab o‘tgan edi. Shuningdek Markaziy bankka moliya bozorida raqobatni kuchaytirish, shuningdek, islomiy moliya mexanizmlarini joriy etish maqsadida huquqiy asos yaratish uchun 2021-yil 1-fevralgacha nobank kredit tashkilotlari to‘g‘risidagi qonun loyihasini ko‘rib chiqish topshirig‘ini berilgan edi.⁷

Islom moliyasi haqida asosan yaqin sharq olimlari o‘zlarini ilmiy izlanishlarida bir qancha qiziqarli tadqiqotlar olib borganlar va o‘z fikrlarini izoh qilgan.

Ines Ben va boshqalar Islom bank ishi so‘nggi o‘ttiz yil ichida keng miqyosda rivojlanmoqda. Biz banklar, filiallar soni va investitsiya qilingan kapital miqdori tobora ortib borayotganini ko‘rmoqdamiz Buni ko‘plab xalqaro an’anaviy moliya institutlari o‘zlarining islomiy derazalari (Citigroup, Bank of America, Standard Chartered, HSBC, ...) orqali islomiy moliya xizmatlarini taklif qilayotgani yaxshi tasdiqlaydi. Keyinchalik, islom moliya institutlari, xususan, islom banklari jahon moliya sanoatining muhim elementiga aylandi.⁸ Fikrlarni ilgari surishgan.

Ruslan Nagayev va boshqalar o‘zlarining izlanishlari natijasida Islomiy qimmatli qog‘ozlar bozorlari islom qonunlari va qoidalariga rioya qilish va sudxo‘rlik, chayqovchilik va foizga asoslangan operatsiyalarni taqiqlash uchun mo‘ljallangan. Shariatga mos keladigan islom aksiyalari endi an’anaviy kapital va qat’iy daromad bozorlari uchun muhim raqobatchi hisoblanadi. Islom bozori indekslari 2008 yilgi global moliyaviy inqirozdan keyin investorlar orasida ayniqsa qiziqish va mashhurlikka erishdi.⁹ fikrlarni ilgari surishgan.

Nejib Xadicha va boshqalar O‘zlarini tadqiqot ishlarida: Biz islomiy va an’anaviy fond bozori portfelleri rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat, xom ashyo, telekommunikatsiya va sog‘liqni saqlash sohalarining CDS indekslari uchun samarali himoya bo‘lishi mumkinligini aniqlaymiz. Shu nuqtai nazardan, bizning empirik topilmalarimiz diversifikatsiya qilish uchun aralash aktivlar portfeliga ega bo‘lish muhimligini ta’kidlaydi, garchi daromad kiritilgan aktivlar va portfel tarkibi bo‘yicha farq qilishi mumkin. Shunday qilib, bizning topilmalarimizga asoslanib, biz CDS muqobil aktivlar sifatida Dow Jones Islomiy va an’anaviy rivojlanayotgan bozor birja indekslarida

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojatnomasi (<https://president.uz/uz/lists/view/2228>)

⁸ [Research in International Business and Finance](https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2017.07.113) 45 (2018) 588-596
<https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2017.07.113>

⁹ Energy Economics jurnali 58 (2016) 125-140
<https://doi.org/10.1016/j.eneco.2016.06.011>

optimal samarali hedjlash strategiyasining bir qismi sifatida eng yaxshi ko'rsatkichga ega degan xulosaga keldik.¹⁰ Shu kabi fikrlarni berishgan.

Andrea Paltrinieri va boshqalar o'zlarining maqolasida Bizning tahlilimiz shuni ko'rsatadiki, diversifikatsiya islom banklari uchun an'anaviy banklarga qaraganda kamroq mukofot beradi va buxgalteriya hisobiga asoslangan chora-tadbirlar bilan bog'liq kuchliroq natijalar beradi. Foiz bo'lmagan daromadlar ulushlari biznes modelidan qat'i nazar, rentabellikka ijobiy hissa qo'shgan bo'lsa-da, daromadlarni diversifikatsiya qilish islom banklarining tavakkalchilik asosidagi rentabelligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Bundan tashqari, biz an'anaviy va islom banklari uchun daromadlarni diversifikatsiya qilish va barqarorlik o'rtasida hech qanday aloqani topmadik.¹¹ Dep bayon qilishgan.

Islom moliyasini amaliyotga yo'lga qo'yiladigan bo'lsa bizning moliya tizimimizda katta o'zgarish yuzaga kelishi mumkin yani an'anaviy moliya bilan parallel ravishda bu tizim teng ishlasa mamlakatda ikki moliyaviy tizimni raqobatlashuvi yuzaga keladi va iqtisodiyotda o'ziga xos imkoniyatlar ochiladi.

Hozirgi kunda xalqimiz diniy qarashlari sabab an'anaviy moliyaviy instrumentlarga mablag'larini kiritmayapti. Buning natijasida iqtisodiyot rivojlanishi sekinlashadi. Agarda islom moliyasi mamlakatimizda faoliyatini boshlasa, o'ylaymanki aholimiz bo'sh turgan pul mablag'larini shunday islomiy banklarga qo'yishlari yoki islomiy qimmatli qog'ozlarini xarid qilishlari yuqori suratlarda rivojlanadi. Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlarini o'rgan holda shuni ham aytish mumkinki islom banklar ham risklardan holi emas va bu o'z navbatida baribir jahon tajribasini o'rgangan holda mamlakatimizga kerakli qismlarini olishimiz kerak ekanligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojatnomasi (<https://president.uz/uz/lists/view/2228>)
- 2.[Research in International Business and Finance](https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2017.07.113) 45 (2018) 588-596
<https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2017.07.113>

¹⁰ Borsa Istanbul Review 22-2(2022) 209-225
<https://doi.org/10.1016/j.bir.2021.04.002>

¹¹ Global moliya jurnali <https://doi.org/10.1016/j.gfj.2020.100517>

ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH

Tohirova Munira Bobojonovna

Nurata district of Navoi region

27th general secondary school

English teacher

Annotation: *This article discusses the advantages of using innovative methods in teaching English.*

Key words: *English, modern teaching, innovative methods, foreign language, information technology, methodology.*

Today, foreign language skills are becoming an integral part of vocational education. Due to the high level of cooperation with foreign partners in various fields, the demand for language learning is high. In modern society, foreign languages are becoming an important part of vocational education. People learn this knowledge first in school, then in institutes, training courses, or by getting acquainted with the basic information sets that help them learn a foreign language independently.

Today, there are many collections of study materials for people with different levels of language skills. Success in achieving this goal depends on the practical methods and skills of teachers. The ability to use information technology and modern teaching methods helps to quickly understand new material. By combining different methods, the teacher will be able to solve specific curricula. In this regard, teachers and students should get acquainted with modern methods of teaching foreign languages. As a result, they develop the skills to choose the most effective ways to achieve their goals. Using a variety of teaching and learning methods can be effective.

Teaching is done in small steps and is based on the student's existing knowledge system. As time goes on, there is more and more innovation in every field. There are many different styles of language teaching. When it comes to teaching English, the learner's ability and level, depending on their age, gives good results in a step-by-step way. Students are divided into groups based on elementary education, intermediate education and advanced education. A special program will be developed by the teacher for each stage.

In the beginning, pronunciation is important. According to Harmer, the first requirement for those who know the native language during the conversation is pronunciation. At the beginning of the learning process, the teacher should focus on the student's pronunciation. Although grammar and vocabulary are important, it is useless if the speaker mispronounces them. Native speakers can also understand speech with grammatical errors if the speaker pronounces the words correctly. Therefore, in teaching, the main focus is on pronunciation. In this case, the use of different audios of native speakers gives good results.

The teacher should teach the correct pronunciation of letters and words during the lesson. There is also a strong emphasis on oral and reading skills in the early stages. In this

case, if we look at the types of speech activities in foreign language teaching, it is necessary to perform the following tasks in their teaching:

- a) Establish a reading mechanism;
- b) Improving oral reading techniques;
- c) Teach them to understand what they are reading.

In the early stages, the emphasis is on reading aloud. Reading texts are also simpler and easier to read. However, it should be noted that although the work in the early stages is mainly focused on the development of oral skills, it does not solve the problem of developing oral communication in English. She is only preparing to work on a real speech. In addition, reading words beautifully and fluently increases a student's love of learning the language.

In the middle stage of teaching English, the focus should be on using techniques that help to increase thinking, speaking and initiative in reading and understanding larger texts. Students will be given homework assignments. Exercises to check comprehension of the text are given and can be expressed as follows.

In conclusion, modern language teaching is aimed at shaping a more cultured individual who has the skills to self-analyze and systematize new knowledge. Innovative methods are an integral part of modernizing the entire system. In this way, teachers can become acquainted with the most advanced approaches and then combine them and use them in their work to achieve significant growth in the education system. Many organizations are moving to a new level, using multimedia capabilities to send and receive information. The use of computers and other devices determines the success of the whole educational process.

Adequate attention should be paid to the development of speaking skills and social resilience in training. In addition, the success of any lesson in education depends in many ways on the proper organization of the lesson. The lesson should be based on the creative collaboration of teacher and student. Only then will students be able to think independently and develop their will. In today's fast-paced world, science and technology are also growing rapidly. Development in every field is moving forward. In particular, great changes are taking place in science. Delivering each subject to students using new innovative pedagogical technologies is one of the main requirements of today's education.

In short, the use of innovative methods in English lessons develops students' logical thinking skills, fluency, quick and accurate response the ability to give is formed. Such methods and games stimulate the student's interest in knowledge. The student tries to prepare well for the lessons. This makes students the subjects of the educational process.

REFERENCES:

1. Passov E. I. Sociable method of teaching foreign conversation. - Moscow., 1985: - 10 p.
2. Johnson, K. E. The Sociocultural Turn and Its Challenges for Second Language Teacher Education. // TESOL Quarterly., – London., 2006: – 235 p.

3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – London., 2001: – 64-bet.
4. Jalolov J. Methods of teaching a foreign language. - Tashkent., 2012: - 48 pages.

MUSTAQIL O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIYAT MASALALARINING DAVLAT SIYOSATI DARAJASIGA KO‘TARILISHI SABABLARI

Vaxobov Ulug‘bek Bahodir o‘g‘li

*JDPI Tarix fakulteti “Falsafa, tartbiya va huquq ta’limi”
kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Maqolada ma’naviyat masalalarining davlat siyosati darajasida ko‘rilishi va shu sohada olib borilgan ishlar yoritilgan.*

Kalit so‘z: *Mustaqillik, ma’naviyat, milliy meros, qadriyat, erkin fikr, ma’naviy-
ma’rifiy olam, ajdodlar merosi.*

Abstract: *The article describes the issues of spirituality at the level of public policy
and the work done in this area.*

Keywords: *Independence, spirituality, national heritage, values, free thought,
spiritual and enlightenment world, ancestral heritage.*

Mustaqillik yillarida ajdodlarimiz qoldirgan falsafiy merosni o‘rganish, uni chuqur tadqiq qilish, ma’naviy-ma’rifiy tarixni o‘rganish jamiyat taraqqiyotining ajralmas sharti ekani tadqiq qilingan. Ushbu boy milliy merosni o‘rganmasdan turib, jamiyat ma’naviyatini boyitish, insonlar tafakkurini yangilash, yashash tarzidagi eski tuzumdan qolgan sarqitlarni bartaraf etish, erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish mumkin emas.

Inson ma’naviyatining tarkibiy qismi mana shu omillarning ta’sir etish, qabul qilinish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Insoniyatning ilk ma’naviy me’rosi namunalari, inson ma’naviyatning ilk bosqichdagi eng qadimgi ildizlari, ajdodlarimizning buyuk ma’naviy merosi bo‘lgan “Avesto” [1] dan boshlab odil jamiyat qurish, ezgulikni ulug‘lash va qabohatni qoralovchi falsafiy, mafkuraviy mushohadalar, poklik va yaxshilikdan saboq beruvchi g‘oyalar tahlil qilinadi.

Mustaqillik O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy olamini yaratish uchun sharq mutafakkirlari al-Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojiblarning qarashlarida odil jamiyat qurish haqidagi g‘oyalarning ilmiy-falsafiy mazmuni talqin etildi.

Jamiyat oldida turgan ezgu maqsadlarga erishish, milliy o‘zlikni qayta anglash, unga rahna soluvchi turli “madaniyat”lar xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan avlodni voyaga yetkazish zarurati zamon talablariga mos yangi milliy g‘oyani shakllantirishni taqozo etdi.

Jamiyatning tarixiy ma’naviy ildizlari, urf-odat, an’analariga asoslangan ma’naviy hayotning asosiy tamoyillarini tiklamay turib, kelajak hayotni qurib bo‘lmasligi anglab yetildi. Xalqning milliy mentaliteti, milliy fazilatlarini, o‘zligidan chekinmagan holda umuminsoniy qadriyatlar, dunyo taraqqiyoti tendentsiyalari bilan uyg‘unlashgan holda o‘z manfaatlari, ehtiyojlari, maqsad va intilishlarini ta’minlashga xizmat qiladigan ilg‘or, pragmatik milliy g‘oyani tanlash, uni shakllantirish va rivojlantirish naqadar muhimligi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ajdodlar qoldirgan ma’naviy-ma’rifiy, falsafiy merosni o’rganish, uni chuqur tadqiq qilish muhimdir. Ushbu boy milliy merosni o’rganmasdan turib, insonlar tafakkurini yangilash, mustaqil, erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ma’naviy shakllanish, takomil topish, yuksalish formulasini yaratish mumkin emas.

Mutafakkir Abu Nasr Forobiy inson va jamiyat hayotida mafkura hamda g’oyaning naqadar muhim o’rin tutganligi haqida shunday deb yozgan edi: “Inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo’lsa-yu, unga erishishni maqsad qilib olmasa, g’oyani o’z xohishiga aylantirmagan bo’lsa, unga nisbatan ozgina bo’lsa-da, zavq va shavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa, qilmishlari yomon va noo’rindir” [2].

Milliy ma’naviyat, mafkura, milliy g’oyaning shakllanishi mamlakatimiz xalqi uchun mayoq vazifasini o’taydi. Bu mayoq 74 yil totalitar tuzumga asoslangan sovetlar tarkibida sinfiy g’oyalar ta’sirida yashagan bizning xalqimiz uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda milliy g’oyaning zarurligi yana bir muhim holat, ya’ni tarixiy o’zgarishlar davrida totalitar tuzumdan erkin demokratik, bozor munosabatlariga asoslangan tuzumga o’tish sharoitida yashayotganligimizdan kelib chiqmoqda.

Zero, milliy g’oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo’lishi, o’z yo’lini yo’qotib qo’yishi muqarrar. Ta’kidlash lozimki, “ma’naviy tiklanish” tushunchasi quyidagi jihatlarni qamrab olishi va ifodalashi lozim:

- milliy o’zlikni, an’analarni, xalqning orzu-umidlarini, jamiyat oldida turgan maqsad va vazifalarini qamrab olishi;
- jamiyatda istiqomat qiluvchi barcha kishilarning yagona milliy bayroq atrofida birlashtirib, ularni buyuk maqsadlar sari chorlaydigan g’oyani yaratishni;
- millatchilik, boshqa xalqlarni mensimaslik kayfiyatidan xoli bo’lib, jahon hamjamiyatida o’zimizga munosib o’rin, hurmat va izzat qozonishida poydevor va rahnamo bo’lishini;
- vatanning o’tmishi, bugungi kun va kelajagini bog’laydigan, jahon hamjamiyatiga, umumbashariy yutuqlarga yetaklab boradigan g’oyani bayroq qilib ko’tarishi kerak.

Bu muammoni hal qilishning asosiy omillaridan biri sifatida ma’naviy tiklanish vazifasi qo’yildi va mamlakatda milliy g’urur, inson qadr-qimmatini baland ko’tarish, milliy qadriyatlar, fazilatlar va milliy fe’l-atvor, milliy axloq, hayot tarzi, ota-bobo kindik qoni to’kilgan tuproqni sevisish va e’zozlash, ulug’larga, ota-bobolar ruhiga hurmat, kichikka izzat, yetim-yesirga, nogironlarga xayr-saxovat tuyg’ularini tiklash, mehr-oqibat, bir-biriga muhabbat tuyg’ularini e’zozlash singari azaliy ma’naviy kategoriyalar oldinga surildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avesto. A. Mahkamov tarjimasi –T.: Sharq, 2001. –B. 248
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: G’.G’ulom nashriyoti, 1993, B. 188.

XITOIY VA O‘ZBEK TILLARI FREZELOGIZMLARINING O‘RGANILISHI TARIXIDAN

Irgasheva Umida Asqarjon qizi
*O‘zDJTU Xitoy tili nazariyasi va
amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *ushbu tezisda xitoy va o‘zbek tillari frezeologizmlarining kelib chiqish tarixi bosqichma-bosqich qisqacha yoritilib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *frezeologizm, tarixiy davr, frezeologizmlarning xususiyati, til tizimi.*

Hech qanday shubha yo‘qki, frezeologizmlar hoh u Xitoyda bo‘lsin, hoh O‘zbekistonda bo‘lsin, bir xil kosepsiyaga egadir. Biroq, til, tarix va madaniyatdagi farqlar tufayli olimlar frezeologizmlar tushunchasini turlicha talqin etadilar. Quyida biz bu boradagi mulohazalarimizni batafsil tushuntirib o‘tamiz.

Frezeologizmlar til tizimining muhim qismidir. Ular keng ko‘lamli, uzoq tarix va turli xil kontent bilan ajralib turadi. Ular ko‘pincha kundalik hayotda ishlatiladi. Xitoy va O‘zbek tillari turli til oilalariga tegishli bo‘lganligi uchun, tarix va madaniyat, geografik joylashuv, urf-odatlar va diniy e‘tiqodlardagi farqlar bilan bir qatorda, Xitoy va o‘zbek olimlari “frezeologizmlar” tushunchasini boshqacha tushunishadi, ammo farqlar kichikdir.

Xitoy tiliga oid bo‘lgan frezeologizmlar uzoq tarixga ega. “Bahor va kuz” “Urushayotgan davlatlar” davrida turli yo‘nalishlarda ijod qiluvchi olimlar va davlat arboblari “Yuzta oilaviy nizolar” (“百家争鸣”) ta’siri ostida allaqachon o‘z risolalarida frezeologizmlarga misollar keltirgan. Ushbu frezeologizmlarning aksariyati bugungi kungacha og‘izdan og‘izga o‘tib kelmoqda va bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bunday frezeologizmlarning mazmuni boy va murakkab, va bugungi kunda frezeologizmlarga bag‘ishlangan son-sanoqsiz ilmiy ishlar mavjud. Biroq, frezeologizmlarning ta’rifi bo‘yicha yakuniy xulosa har doim ham mavjud emas.

Qadimgi xitoy tilida yozilgan “国语-越语” asarida shunday deyiladi: “frezeologizmlar bu yaxshi so‘zlar ham qo‘pol so‘lardir”. Bu ta’rif faqat frezeologizmlarning umumiy ishlatilishini ko‘rsatmaydi. Shaxsiy va ommalashtirish kabi rasmiy xususiyatlar, shuningdek, frezeologizmlarning mazmunan xususiyatlarini ko‘rsatib, frezeologizmlar, ota - bobolaridan berilgan donolik va hayot donoligi ekanligini ta’kidlaydi. Aslida ham bu xuddi shunday. Qadimgi va zamonaviy frezeologizmlar - bu ishlab chiqarish va hayot haqida keng tarqalgan donolikning yaqqol ko‘rinishidir, masalan, “agar inson qat’iyatli bo‘lsa, hamma narsa paydo bo‘ladi, lekin inson qat’iyatsiz bo‘lsa, hamma narsa qulaydi” (人有恒心万事成, 人无恒心万事崩). Bu insonning martaba muvaffaqiyati uchun qat’iyatlilikning muhimligini ko‘rsatadi. “Yaxshi dori achchiq og‘iz kasalligi uchun yaxshi va to‘g‘ri so‘zlar harakatlar uchun yaxshi” (良药苦口利于病, 忠言逆耳利于行) - bu frezeologizm boshqalarning maslahatini yaxshi tinglash muhimligini ta’kidlaydi. “Lou Yao ot kuchini biladi va u uzoq vaqt davomida odamlarning qalbini ko‘ra oldi”

(路遥知马力，日久见人心) - bu shuni anglatadiki, biz uzoq muddatli kuzatuv va sinovdan o'tmoqdamiz, biz keyingi odamning haqiqatini, yolg'onlarini, yaxshi va yomonni topamiz.

Yuqoridagi frezeologizmlarning ta'riflari frezeologizmlarning shakli va mazmuni xususiyatlariga asoslangan bo'lib, ularning barchasi ma'lum haqiqatlarni o'z ichiga oladi, ammo ularning aksariyati frezeologizmlarning muayyan xarakteristikasiga qaratilgan va mohiyatini umumiy ifodalashni o'z ichiga olmaydi. Xitoyda tarixning rivojlanishi bilan, frezeologizmlarni o'rganish olimlarning ko'proq e'tiborini tortdi va chuqur tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Frezeologizmlarning tadqiqotlari tez rivojlanish davriga kirdi va ayni paytda, ularning ta'rifini tushunish ham yanada keng qamrovli bo'ldi. Zamonaviy frezeologizmlar va Xitoy normativ lug'atlari yangi g'oyalarni ilgari surmoqda. Misol uchun, “Sinhua lug'ati”da frezeologizmga quyidagicha ta'rif berilgan: “odamlar orasida keng tarqalgan mashhur, qisqa va mazmunli qat'iy bayonot”. Frezeologizmlar nutqda nozik ekanligini ko'rsatadi, jummalarda ehtiyotkorlik bilan tuzilgan va sobit tuzilishga ega va ularning tarkibi o'zgarishi mumkin emas. “Xitoy tili lug'ati”da: frezeologizmlar – “oddiy va ommabop so'zlarda ijtimoiy haqiqatlarni aks ettiruvchi ommaga tarqatiladigan qat'iy bayonotlar”dir deb ta'riflangan.

Xitoy frezeologizmlarining uzoq yillik tadqiqot tarixi bilan taqqoslaganda, O'zbekistonning tadqiqot vaqti nisbatan qisqa. Ular orasida Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, Aminxo'ja Muqimiy, N. Ostraurov kabi bir qancha olimlarning o'z tadqiqotlaridagi mavqei juda muhimdir. O'zbek frezeologizmlarini o'rganishni quyidagi uch bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich (1530-yillar va undan oldin): ushbu bosqichning asosiy tadqiqot mazmuni og'zaki frezeologizmlarni to'plash va tartibga solishdir. 1266 yilda olim Ahmad Yassaviy xalq orasida aylanib yurgan og'zaki frezeologizmlarni to'plash, umumlashtirilgan frezeologizmlarini esa kitoblarda o'rganishga harakat qila boshladi. Shu bilan birga, u dars berish uchun o'zining adabiy maktabini tashkil etdi. Talabalarga adabiy asarlar, frezeologizmlar va boshqa tarkibni o'rgatishda hikmatlar asosida yaratilgan “Devoni hikmat” kitobini tahrir qildi. Bu kitobda u hikmatlar, frezeologimlar bilan bog'liq ba'zi rivoyatlar va hikoyalarni ham to'pladi. Ammo, afsuski, uning o'sha paytdagi ko'plab yozuvlari bugungi kungacha yetib kelmagan.

Bundan tashqari, olim Mahmud Koshg'ariy 55 yil davomida O'zbekiston va unga yaqin o'lkalarda yurib, “Devonu lug'atut turk” asarining 3ta kitobini yozgan. Bu kitoblarda u 400 dan ortiq frezeologizmlarni to'pladi, ularlarning tarkibiy grammatikasini umumlashtirishga harakat qildi, ba'zi tushunarsiz jihatlariga oydinlik kiritdi va barcha frezeologizmlarni boshqa mamlakatlarning frezeologizmlari bilan qiyosiy o'rgandi.

Ikkinchi bosqich (1840-1870 yillar): shoir, yozuvchi va tilshunos Alisher Navoiy (1441-1501) adabiy asarlarida frezeologizmlardan keng foydalangan va ularning ma'nosini izohlagan. Uning asarlari “Xayratul-abror”, “Hotami toy”, “Sher Bilan Durroj”, “Iskandar”. “Xayratul-abror” - hayotning besh falsafasini hikoya qiluvchi hikoya kitobidir. Har bir hikoyada muallif ko'plab frezeologizmlarni qo'llaydi.

Uchinchi bosqich (1880-yillardan to hozirgi kungacha): bu davrning asosiy tadqiqot mazmuni: chet el olimlari o'zbek frezeologizmlarini o'rganishga kirishdilar, ularni tasnif

qilib, boshqa tillarga tarjima qildilar. Ular o‘zbek olimlarining frezeologizmlar ustida olib borgan izlanishlari asosida o‘zbek frezeologizmlari grammatikasini o‘rganib, ular orasida grammatik taqqoslashlar qilganlar. Germaniyalik olim H. Vamberi o‘zining “Chig‘atoy tili darsi” kitobida o‘zbek frezeologizmlari grammatikasini tushuntirgan. Bu kitobda u 112 ta frezeologizmlarning grammatik shakllarini qiyoslagan holda ularni nemis tiliga tarjima qilgan. Rus olimi N. Ostroumovning “Этимология сартовского языка” (1910) asarida o‘zbek frezeologizmlari orqali o‘zbek tilining grammatikasi o‘rganilgan.

O‘zbekistonda frezeologizmlarni o‘rganish bo‘yicha qilingan ishlar qatoriga B. Sarimsoqov, R. Zarifov, I. Haqqulovlarning hammualliflikdagi “O‘zbek folklori ocherklari 1-kitob” (1978), O. Safarov, K. Imomov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov hammuallifligidagi “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” kabi asarlarni aytib o‘tish mumkin. Ushbu asarlarda o‘zbek frezeologizmlari ish, oila, kundalik hayot, ob-havo, mamlakat, til obyektini kabi jihatlariga ko‘ra tasniflanganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 中国谚语集成 [M] , 中国民间文学集成全国编辑委员会, 1999.
2. 陈成. 谚语研究综述 [J] , .现代语文, 2013.
3. 楚风. 中国谚语集萃 [M] , 中国纺织出版社, 2000.
4. Sarimsoqov B., Haqqulov I., Musoqulov A., Zarifov R. O‘zbek folklori ocherklari 1-jild, T: Fan, 1978.
5. Остроумов Н, Пословицы и поговорки сартов, Т.,1895.
6. Остроумов Н, Этимология сартовского языка, Т: Fan, 1910.

XX ASR BOSHLARIDA JADID ADABIYOTDAGI YANGILANISHLAR.

Madina Egamova

O'zJOKU magistri

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Jadid adabiyoti – an’ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyot haqida so’z boradi. XX asr adabiyotidagi yangilanish nafaqat mazmunda, balki shaklda ham yaqqol nomoyon bo’lganligi tahlil qilinadi. XX asr boshlarida yashab ijod etgan Ibrat, A.Avloniy, Hamza, A.Cho’lpon kabi ma’rifatparvarlar ijodini ma’rifatparvarlik va milliyatparvarlik ruhida rivoj topishi haqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so’zlar: *jadid, yangilik, ma’rifatparvarlik, Turkiston.*

O’tgan asr boshlarida maydonga chiqqan jadid adabiyoti milliy madaniyat tarixida “Qutadg’u bilik” dan boshlab to XIX asr ohiri – XX asr boshlarigacha davom etgan adabiyotdan so’ng Yangi bir davrni boshlab berdi. Bu yangi davrda milliy adabiyotimizda yangi ruhdagi she’riyat, proza, drama vujudga keldi.

Jadidchilik harakati tasodifiy tarzda shakllangan emas. Uning vujudga kelishi uchun ma’lum bir sharoit va sabablar bor edi. U XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi ijtimoiy- tarixiy taraqqiyot natijasi sifatida bir tomondan, ijtimoiy hayot silsilalarining natijasi, ikkinchi tomondan, ilg’or rus va tatar mutafakkirlarining ta’siri natijasida asta-sekin Turkiston ma’rifatparvarlari orasida ildiz otdi va ma’lum g’oyaviy-falsafiy yo’nalish tarzida tashkil topdi. Bu davrda jamiyatni ma’naviy jihatdan yangilash zarurati tug’ildi.

Jadidchilik harakati keng ijtimoiy masalalar va ma’rifatparvarlik g’oyalarini ilgari surish maqsadida shakllangan ijtimoiy-falsafiy yo’nalish bo’lgan. Afsuski, uzoq yillar davomida jadidchilikka va uning ayrim yirik namoyondalariga bo’lgan munosabat o’zgacha edi. Ularning harakatlaridan xato va kamchiliklar izlangan.

Turkiston jadidlariga o’nlab milliy ziyolilar rahnamolik qildilar. Ular, avvalo, maorifni isloh qilish yo’lidan bordilar. «Usuli jadid» maktablari ochdilar va tez orada bu tarmoq kengayib bordi, ularda diniy ta’limot bilan bir qatorda tibbiyot, hikmat, kimyo, handasa kabi dunyoviy bilimlar o’rgatildi, o’quvchilar savodini chiqarish tezlashtirildi.

Jadid adabiyoti – an’ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyot. XX asr adabiyotidagi yangilanish nafaqat mazmunda, balki shaklda ham yaqqol nomoyon bo’ldi. XX asr boshlarida adabiyotdagi yangilanishlar eng avvalo, mazmunda ko’zga tashlanadi. Jadid adabiyoti – mazmunan butkul yangi adabiyot bo’ldi. Vafzmunning bu yangiligi mavzuning o’zgarganligi, kengayganligi; adabiyotni tashviqot vositasi sifatida tushunish; real hayotga yaqinlashish; an’anaviy obrazlar mazmunining o’zgarishi; umuman, obrazlar sistemasining kengayishi; [alq jonli tiliga yaqinlashish, soddalashish kabilar bilan xarakterlanadi. Yangilangan mazmun bu janrlarning shakliy jihatlarini ham asta sekinlik bilan o’zgartira boshladi. Shu jarayonda o’tkan asr boshlarida janrlarning evolyutsion tarzdagi yangilanish jarayoni kuzatiladi.

Har qanday taraqqiyot u yoki bu darajada o’zigacha bo’lgan adabiyot bilan vorislik aloqalari asosida shakllanadi. Bu jihatni bir til yoki biror hudud hamda mintaqa adabiyoti misolida ham ko’rish mumkin. Bundan tashqari, ayrim ulug’ daholar tajribalari, ularning ijodiy tamoyillari biror millat yoki mintaqa va adabiy muhit hududidan toshib chiqib, butun dunyo madaniyatiga o’z ta’sirini o’tkazishi ham mumkin. Olmon olimi Maks Verli yozishicha, «umumjahon madaniy jarayoniga o’z an’analari, ifoda tarzi, taraqqiyot yo’llari bilan kirib kelgan Yevropa adabiyoti nafaqat an’ana va vorislikning bog’lovchi vositasi sifatida qatnashgan, balki badiiy adabiyotdagi poetik mohiyat (substantsiya)lar kristallashuviga ham ta’sir ko’rsatgan»¹² Ayni holatni Markaziy Osiyo adabiyotiga, ya’ni islom madaniyati ta’sirida rivojlangan adabiyotlarga nisbatan ham kuzatish mumkin. Bu jihatdan an’ana va yangilik, madaniy merosga vorislik va adabiy ta’sir masalalari «ichki aloqalar» zanjirini tashkil qilib, adabiyotshunoslikda bevosita va bilvosita ta’sirlanish hollari sifatida qaraladi. Bevosita ta’sirlanishda ikki ob’ekt: ta’sir qiluvchi va ta’sirlanuvchi ishtirok etsa, bilvosita ta’sirda uchinchi ob’ektga ehtiyoj tug’iladi va bu birinchi va ikkinchi ob’ektlarni bog’lovchi vosita vazifasini bajaradi.

O’zbek jadid adabiyoti yangilangan sharoitda milliy adabiyotning ko’rki bo’lgan, boqiy qadriyatlar sifatida jahon adabiy-badiiy xazinasini boyitgan Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi buyuk shoirlar ijodidan oziqlangan, ular ijodida barqaror bo’lgan g’oyalar, timsollar, poetik usul va vositalarni o’z asarlarida muvaffaqiyatli qo’llab, o’tmish va zamonaviy she’riyat o’rtasida muhim tayanch vazifasini bajargan. Jadid she’riyati mumtoz adabiyotdan olgan adabiy saboq va tajribalar ularni o’ziga xos tarzda yangilash va takomillashtirish yo’li orqali badiiy yangilikka aylanishi mumkinligini isbotlab berdi.

Jadid adabiyotining buyuk namoyandalardan Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho’lpon, Vadud Mahmud o’zlarining badiiy yuksaklikka erishuv sabablarini mumtoz adabiyotdan o’rganganliklari boisidan deb bildilar. O’zbek jadid adabiyoti ham yangilangan sharoitda taraqqiy etishga yuz tutgan ekan, u milliy adabiyotimizning ko’rki bo’lgan, boqiy qadriyatlar sifatida avlodlardan avlodga o’tib kelgan, jahon adabiy, badiiy xazinasini boyitgan Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi buyuk shoir va mutafakkirlar ijodidan ma’naviy oziqlangan, ular ijodida barqaror bo’lgan ma’rifiy g’oyalar, an’anaviy timsollar, badiiy vositalardan unumli foydalangan. An’anaga aylangan g’oyalar va adabiy tajribalar mohiyatini dunyoqarash jihatidan o’zaro yaqin bo’lgan adiblar ijodi misolidagina olib qaraydigan bo’lsak, masala mohiyatini cheklab qo’ygan bo’lamiz. «Tarixiy an’analarga vorislik, – deb yozadi A.Bushmin, – jamiyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida qonuniy hol sanaladi. Bu qonuniyatlarning ilmiy to’g’ri yoritilishi badiiy ijod jarayoniga ongli ravishda ta’sir etishning zarur shartidir»¹³ Shu kabi «Adabiyot entsiklopediyasi»da «Olamni badiiy idrok etishda avlodlardan o’tib kelgan tajribalarga izdoshlik, sobitlik bilan bir qatorda uni yangilash, o’ziga xoslik asosida takomillashtirilgandagina har qanday badiiy topilma an’anaga aylanishi mumkin»ligi¹⁴ ko’rsatilgan

¹² Верли М. Единство литературной традиции / Общее литературоведение. – М.: Инстр. литер., 1957. – С. 218

¹³ Бушмин А. Преемственность литературного развития. – М.: Наука, 1975. – С. 5

¹⁴ Adabiyot entsiklopediyasi. Tuzuvchi: H.Boltaboev. – Toshkent: MUMTOZ SO’Z, 2015. – B. 218.

Jadid shoirlari ijodida mumtoz she’riyatda qo’llanilgan o’n yetti janrdan o’n birini kuzatamiz. Shunday ekan, bu holning o’ziyiq jadid shoirlari ijodida mumtoz an’analar ishtirok etish bilan birga ular jadid adabiyoti vakillarini yangi barmoq tizimidagi janrlarda ijod qilishga muayyan tayyorgarlik vazifasini o’tagan. Mumtoz she’riyat bilan yangi she’riyat o’rtasida robita bo’lib, bu ikki she’riyatni bir-biriga tutashtirib turgan. Biz mana shu ko’prik vositasida jadid she’riyatining ma’naviy ildizlarini aniqlaymiz, yangi she’riyatdagi takomil topgan janrlarning shakllanishida mumtoz janrlar o’ziga xos tayyorgarlik bosqichi bo’lib xizmat qilganini kuzatamiz.

Jadid shoirlari ijodidagi mumtoz timsollar va she’riy san’atlar barmoq vaznidagi she’rlarda ham faol qo’llanilgan, bu bilan badiiy tasviriy vositalarining mumtoz she’riyatdagi umrini uzaytirishga urinish bo’lganligi ko’rinadi. Yangi davrda aruzda yozilgan she’rlarda ramal va hazaj bahridan ko’proq foydalanilganini kuzatish mumkin. Ibrat, Avloniy, Hamza va Cho’lponning aruzda yozilgan g’azallari tuzilishi, ohangi, timsollar ifodasi bilan mumtoz she’riy vaznlarni to’laligicha saqlagan.

Davr nafasi aniq sezilgan nazm namunalarida aruzning qat’iy talablarining yangilanishi natijasida barmoq vazniga yaqinlashish hollari sodir bo’ldi. Hijolarning cho’ziq va qisqaligi yangi vaznga to’la mos kelmasada, biroq bu yaqinlik baytdagi hijolar soni o’zaro teng kelishi barmoq vaznidagi kabi hisobiga amalga oshdi. Shayx Ahmad Taroziy qofiyani «she’rning ustuni» deb hisoblaydi: «Va zurafo baytni xaymag’a nisbat qilibturlar va qofiyani stung’a, ya’ni (she’r) stun birla barpodur»¹⁵. Mumtoz qofiya nazariyasidagi harf va harakatlar jihatidan ham Ibrat, Avloniy, Hamza, Cho’lpon va boshqa shoirlarning she’rlari talab darajasida, ya’ni nafaqat qofiyadosh so’zlar, balki ulardagi raviiy va ridf harflari ham o’z o’rnida qo’llanilgan.

Mumtoz adabiyotda adabiy tur tushunchasi mavjud bo’lsa ham u G’arbiy Yevropadagi kabi epos, lirika, drama tarzida emas, balki ifoda shakliga ko’ra nazm va nasr yo’nalishida tasniflangan. Nasriy asarlar ham barcha epik janrlarni to’la ravishda qamrab olmagan. Shunga qaramay, jadid adabiyotida shakllanish davriga kirgan hikoya, qissa, roman kabi epik janrlarning ildizlari mumtoz janrlar hisoblangan qissa va hikoyatlarga borib ulanadi. Shu jihatdan Sa’diy «Guliston»i bilan Avloniyning «Turkiy guliston yoki axloq» asari, Xojaning «Gulzor» hikoyatlar majmuasi bilan Qodiriyning hikoyalari o’rtasidagi janriy rishtalar mavjud. Bular: mumtoz nasrda qo’llanilgan hikoyatlarga yangicha mazmun berib syujetning qayta ishlanishi, hikoya strukturasi o’ziga xos boshlanma, hikoyat bayoni va qissadan hissa tarzida she’r keltirilishi tarzida davom ettiriladi. Lekin Avloniy hikoyalari mazmunidan kelib chiqib, «Riyozat», «Shijoat», «Qanoat» tarzida insondagi axloqiy sifatlar tarzida nomlanadi. Adib o’z asarini o’quvchining yoshi, didi va saviyasini nazarda tutib, o’quvchiga saboq berish niyati bilan an’anani davom ettirganini ilg’ash mumkin. Sh.Ahmedovning «Hamza lirikasining xususiyatlari» dissertatsiyasida mazkur g’azalda

¹⁵ Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog’a / Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. – B. 290.

«radif sifatida qo’llangan juft so’zlarning xalqona» ekaniga e’tibor qaratgan holda, uning vazn va qofiya jihatlarini tahlilga tortilmagan.¹⁶

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov Sh. Hamza lirikasining xususiyatlari (devon misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1992. – B. 150–151.
2. Adabiyot entsiklopediyasi. Tuzuvchi: H.Boltaboev. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – B. 218.
3. Shayx Ahmad Taroziy. Fununu-l-balog’a / Sharq mumtoz poetikasi. – Toshkent: O’zbekiston Milliy kutubxonasi, 2008. – B. 290.

¹⁶ Ahmedov Sh. Hamza lirikasining xususiyatlari (devon misolida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1992. – B. 150–151.

БОЛА ТУҒИЛИШИ БИЛАН БОҒЛИҚ, ЧАҚАЛОҚ ВА ОНАГА АЙТИЛАДИГАН ТИЛАК/ОЛҚИШ/ДУОЛАР СЕМАНТИКАСИ

Aripov Maxamadjon Pulatbaevich

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Turkshunoslik fakulteti

Turk filologiyasi kafedrasida o’qituvchisi.

Аннотация: Туркча тилак/олқиш/дуоларни миллатнинг урф-одати, анъаналари ва қундалик ҳаёти билан боғлиқликда ўрганиш уларнинг маъно-мазмуну-семантикаси муҳим. Бу лингвомаданий бирликларда миллатнинг этнографияси ҳамда бой маданий меросини очиб беришда муҳимдир.

Калит сўзлар: «Кўрмагандай бўлиб кетинг», «Пойқадами қутлуғ келсин», «Чириган тиш сенга, темир тиш менга».

Ота ёки она бўлиш туркий халқлар маданияти ва тафаккурида катта бахт ҳисобланади. Бола дунёга келгандан сўнг ота-она учун айтиладиган олқиш/тилак/дуолар мавжуддир. Ота-онани табриклаш учун яқин қариндош ва дўстлар келганда болани дунёга келишига сабабчига тилаклар айтилади. Қуйида шундай тилакларнинг семантикасини ёритамиз.

Allah bağışlasın. – «Аллоҳ бағишласин». Ушбу тилак сўзма-сўз таржимасидан, асл маъносидан тубдан фарқ қилади. У кишилар томонидан фарзандли бўлган ота-онага энг кўп айтиладиган тилакдир. Унинг *Allah kurtardı sana bağışlasın. Allah sana (size) bağışlasın.* – «Аллоҳ асради, сенга муборак қилсин», *Geçmiş olsun.* – «Кўрмагандай бўлиб кетинг» каби вариантлари ҳам бор. Аслида ушбу тилак бирор машаққат чеккан инсонга нисбатан айтилади. *Gözünüz aydın olsun/Gözünüz aydın.* – «Кўзингиз ёруғ бўлсин» тилаги бола туғилиши муносабати билан айтиладиган, кенг тарқалган тилаклардан биридир. *Güle güle besleyesin.* – «Хурсандчилик билан боқиб катта қилинг», *Güle güle büyüyesin/büyüyesiniz.* – «Хурсандчилик билан катта қилинг/катта бўлинг»лар деган маънода айтилади. *Hayırlı evlad olsun.* – «Хайрли авлод бўлсин», *Hayırlı olsun.* – «Хайрли бўлсин», *Hayırlı uğurlu olsun* – «Хайрли умр берсин» деб таржима қилинди. Аслида ҳозирги турк тилида *uğur* сўзи эзгу маъносида қўлланади. Лекин қадимги турки тилда бу сўз *умр* маъносида қўлланилган. Шунинг учун ушбу тилак таржимасида ана шу жиҳат ҳисобга олган. (сўзма-сўз: хайрли умрли бўлсин), *Hayrını göresin.* – «Хайрини кўринг». *Mürüvvetini göresin.* – «Мурувватини кўринг». *Südü bol olsun.* – «Сутинг мўл бўлсин»; бу тилак онага нисбатан айтилиб, чақалоқнинг соғлом бўлиши она сутининг кўплигига боғлиқлиги таъкидланган. Шунинг учун ҳам она сути мўл бўлсин деб дуо қилинмоқда. *Şükür sağlığa.* – «Икки жоннинг саломатлигига шукур» дейиш билан она ва боланинг соғлом эканлигига шукрона келтирилган бўлса, *Uğurlu kademli olsun.* – «Пойқадами қутлуғ келсин», дейиш билан чақалоқ билан бирга хонадонга қут-барака келиши сўралмоқда.

Чақалоқ ҳам, онаси ҳам маълум муддат давомида касалликка тез чалинувчи бўлиб туради. Бундай кунлардан эсон-омон ўтиб олишини тилаб, турклар *Güle güle kırklanasın.* – «Чилласи яхшилик билан, хурсанчиликда чиқсин» тилагини айтади. Бу билан она ва чақалоқни турли ёмонликлардан асраш, инс-жинслардан ҳимоя қилиш мақсад қилинади. Чақалоқнинг 20 ва 40 кунлик муддатида ташқарига чиқармай бегона кўзлардан сақланади. 40 кунлик чилладан сўнг чақалоқнинг *Ömrü üzün olsun.* – «Умриниг узун бўлсин» деб узоқ жойларга олиб бориб зиёрат қилдирилади.¹⁷ Ўзбекистонда ҳам янги туғилган чақалоқларни 40 кун чиллада сақлаш удуми мавжуд. Худди шунга ўхшаш «қирқи чиқди» маросими туркларда ҳам бўлиб, бундай маросимга келганлар *Analı babalı büyüsun, ömrü üzün bahtı açık olsun.* – «Оталик-оналик бўлиб катта бўлсин, умри узун, бахти очик бўлсин» тилагини айтадилар. Маросим давомида болага нон, туз, шакар ва бошқа совға-саломлар берилади. Айрим худудларда ўғил чақалоқларнинг қўлига «ўқимишли бўлсин» деб ручка, қиз чақалоқларнинг қўлига «келажакда яхши уй бекаси бўлсин» деб игна, ип бериш одати ҳам мавжуд.

*Yakası yağlı olsun/Eteği boklu olsun/Önce eteğine çocuk bassın/Sonra eteğini mal bassın/ İyesi yüce olsun;*¹⁸ «Ёқаси ёғли бўлсин/этаги бўқли бўлсин/Аввал этагини бола боссин/сўнг этагини мол боссин/Яратгани буюк бўлсин» сингари дуолар эса бола биринчи марта кийинтириладиганда айтилади.

Боланинг тиши чиқиши вақти келганда кўпинча инжиқ ва беҳаловат бўлиб қолади. Турк лингвомаданиятида бу давр учун ҳам ўзига хос тилаклар бор. Масалан, боланинг тиши бақувват чиқишини тилаб «тиши тошдан бўлсин» дейилади. Тиши чиқиши қийин кечаётган болалар учун турли маросимлар қилинади. Шулардан бири буғдой, маккажўхорини қозонда қайнатиб қўйиб *Dişlerin de böyle çıksınlar.* – «Тишларнинг ҳам шундай чиқсин» деб тилак айтадилар.

Бола тиши бир тушиб яна чиқар пайтида эса *Kötü dişi kendine al, iyi dişi bana ver.* – «Ёмон тишни ўзинга ол, яхши тишни менга бер», *Al sana kemik diş, ver bana demir diş.* – «Ол сенга суяк тиш, бер менга темир тиш»; *Çürük dişi alın, demir dişi verin.* – «Чириган тиш сенга, темир тиш менга» каби тилак айтилади.

Çocuğun dişleri kolay ve çabuk çıksın. – «Боланинг тиши осон ва тез чиқсин», *Çocuğun dişleri daha sağlam olsun.* – «Боланинг тишлари янада бақувват бўлсин», *Dişleri hedik gibi bitsin.* – «Тишларинг (қайнаган буғдой ва маккажўхорига ўхшаб) ёриб чиқсин» деб айтиладиган тилаклар мавжуд. *Hedik-* қанатилгани дейилади. Бунда тишларни буғдой ва маккажўхорига ўхшатиш бежиз эмас, чунки буғдой ва маккажўхори донлари бир текис, жипс бўлади. Тишларнинг бундай чиқиши болага чирой ҳам бахш этади. Маккажўхори кавурилиб бодроқ қилиб кўни-кўшнига улашилади.

¹⁷ K. Ahmet Türk kültüründe alkışlar (dualar/iyi dilekler) ve kargışlar (beddualar/kötü dilekler): metin va bağlam merkezli bir inceleme. Doktora tezi. İzmir -2018.-294 б.

¹⁸ K. Ahmet Türk kültüründe alkışlar (dualar/iyi dilekler) ve kargışlar (beddualar/kötü dilekler): metin va bağlam merkezli bir inceleme. Doktora tezi. İzmir -2018. -293 s.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. K.Ahmet Türk kültüründe alkışlar (dualar/iyi dilekler) ve kargışlar (beddualar/kötü dilekler): metin va bağlam merkezli bir inceleme. Doktora tezi. İzmir - 2018.
2. Akalın L.Sami, Türk Dilek sözlerinde Alkışlar Kargışlar, Ankara, Kültür Bakanlığı Yay., 1990.
3. Турк тилининг изоҳли луғати (9 нашр) Анқара. 1998 й.(ТДК) Туркия тил қуруми нашри.

UZLUKSIZ TA’LIMNI AMALGA OSHIRISHDA UZVIYLIK PRINCIPIN QO’LLASHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Z.J.Jaksimuratova

Ajiniyoz nomidagi NDPI aniq va tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi (fizika va astronomiya) mutaxassisligi magistranti

G.Y.Matqurbanova


Ajiniyoz nomidagi NDPI aniq va tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi (fizika va astronomiya) mutaxassisligi magistranti

Kalit so’zlar: *fizika, metodika, uzluksiz, didaktika, ta’moyil, interfaol, metod, innovasiya.*

Ключевые слова: *физика, методология, преемственность, дидактика, тренд, интерактив, метод, инновация.*

Key words: *physics, methodology, continuity, didactics, trend, interactive, method, innovation.*

Bugungi kunda respublikamızda “Ta’lim to’g’risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi” ta’moyillari bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqta. Bu qonunlarning mohiyati bolajak kadrlarni yetuk shaxs sifatida takomillashtirishga qaratilgan. Mamlakatimiz mustaqillik davrida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, manaviy sohalar va xalqaro munosabatlarda katta yutuqlarga erishmoqda. Ta’limning uzluksizligini va uzviyligini ta’minlashda umumta’lim maktablari, akademik litseylar va oliy o’quv yurtlariga alohida etibor qaratish lozim. Sababi yuqori ma’lumotli, bilimi bor ko’pchilik shaxslar innovator va ishbilarmon bo’ladi, jamiyat resurslarni tejaydi, ekologiyani saqlashga ko’maklashadi va o’zlari faol bo’lib, qonunlarni toliq o’rganib, o’zini-o’zi ta’minlaydi, farzandlarini, oilasini ilm-fan o’rganishga undaydi, tadbirkorlikni o’rgatadi [1]. Oliy oquv yurtlari akademik litsey va umumta’lim maktablarining ta’lim tizimi islohot etilayotgan hozirgi davrda yangi innovacion g’oyalar yaratilmoqda, raqobatga bardoshli mutaxassislar tayorlash ularning xalqaro tizimda ishlay oladigan yetuk kadr bo’lib shakllanishiga barchamiz mas’ul ekanligimizdi vatanimiz prezidenti takror va takror ta’kidlamogda.



Jamiyatimizning a'lo darajada rivoji, ilmiy-texnikaviy yutuqlarini e'tiborga olgan holda, ta'lim tizimini uzluksiz ravishda takomillashtirishni va mutaxassislarning umumiy bilim sifatini keskin oshirish lozimligi ma'lum bo'ladi.

Ta'limning mazmunini yangilash, ilmiylik darajisini oshirish, o'qitish metodlarini uzluksiz takomillashtirish, o'quvchilar bilimining sifatiga bo'lgan talablarning ortib borishi-o'qituvchidan o'z bilimini uzluksiz ravishda yangilab borishini, malaka va metodik mahoratini rivojlantirishni taqazo etadi [2].

Ko'pchilik talabalar yuqori o'quv yurtlarida fizika kursidan olgan bilimlarini maktablarda qo'llanishga qiynaladi. Ularning fizik dunyo qarashida asosiy o'rinni dinamik qonuniyatlar egallab, statistik qonuniyatlarga deyarli o'rin qolmagan.

Bu kamchiliklarning paydo bo'lishiga sabab, pedagogik oliy o'quv yurtlarida umumiy va nazariy fizika, fizika o'qitish metodikasi kurslarini o'qitishda didaktikaning muhim prinsiplaridan bo'lgan-uzviylik principining e'tiborga olinmaganidan darak beradi. Oliy o'quv yurtlarida o'qitish talabalarining zamonaviy bilimlarini teran bilishligini gina taqazo

etmay, asosiy fizik tushunchalarni mustahkam o’zlashtirishni va o’qitishning turli bosqichlarida ular orasidagi uzviylikni ongida hosil qilishi ham mumkin. Bu holat oliy o’quv yurtlarida fizika o’qituvchilarini tayyorlash saviyasini takomillashtirish lozimligini bildiradi.

Bu vazifalarni yechish yo’llaridan biri bo’lajak o’qituvchilarni maktabga tayyorlashda eng muhim didaktik tamoyillardan biri bo’lgan uzviylik principin amaliyotda qo’llay olishga o’rgatishdir. Sababi bu ta’moyil o’zining ahamiyatiga kora ta’limning har xil bosqichlarida o’qitish orasidagi zaruriy aloqalarni amalga oshirishlikni va o’qitish materialini o’qitish bosqichlari bo’yicha tog’ri taqsimlanishini nazarda tutadi [3]. Yuqori malakaga ega fizika o’qituvchilarini tayyorlash, talabalar tomonidan maktab fizika kursining ilmiy asoslarini teran o’zlashtirishda fizika fani va uni turli bosqichlarda o’qitishdagi uzviylikni ta’minlashi lozim. Lekin, amalda, pedagogika oliy o’quv yurtlarida fizika o’qitish jarayonida bu masala yetarli darajada yechimini topgan deyishimiz juda qiyin. Nazariya va amaliyot aloqadorligi principi ilmiy bilishlik jarayonida nazariya va amaliyotning birligiga asoslanadi. Pedagogika institutlarida fizikani o’qitish jarayonida uni amalga oshirishlik, fizika o’qitish metodikasining muhim vositasidir.

Oliy o’quv yurtlarida fizikani o’qitish, talabalar tomonidan zamonaviy bilimlarni teran tushinishini, asosiy fizik tushincha va tamoyillarni tez fursatlarda o’zlashtirishini va ularning turli bosqichlaridagi uzviylikni ta’minlashi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: “ Sharq ” ,1997.-32-61v.
2. M.Djoraev. Fizika o’qitish metodikasi. – T.: “Abu matbuot – konsalt”, 2015.-280v.
3. M.Djoraev. Fizika o’qitishda statistik g’oyalar. – T.: “Óqituvchi”, 1996.-5-7v.

THE ROLE OF APPROACHES AND METHODS OF TEACHING PROCESS

Zilola Hasanova

*German teacher of academic lyceum of Internal Affairs
Andizhan, Uzbekistan*

Annotation: *the given article deals with the main or primary role of approaches and methods of teaching process and effectiveness of methods in various levels of pupils. In addition to this, it concerns with importance of understanding the various approaches, methods and techniques so that teachers and learners are able to make educated choices, and boost their enjoyment of learning a language and it also shows teaching method is based on a particular vision of understanding the language and the learning process.*

Key words: *reconstructionism, progressivism, approach, method, technique, metacognitive skills, traditions and innovations, types of information processing.*

The effectiveness of the pedagogical activity depends on using appropriate methods. As a language learner, or a teacher, it is important to understand the various approaches, methods and techniques so that you are able to make educated choices, and boost your enjoyment of learning a language. Each teaching method is based on a particular vision of understanding the language and the learning process.

Each method has a different focus or priority, so let's look at what this means in practical terms in the classroom.

Under CLT the following approaches can be pointed out:

- Interactive Learning: This concept goes right to the heart of communication itself, stressing the dual roles of "receiver" and "sender" in any communicative situation. Learning through interaction is proposed as alternative to learning through repetition and habit formation. Interaction and negotiation of meaning are seen as central of learning through tasks that require attention to meaning, transfer of information, and pushed output. The concept of interactive learning entails to be a lot of pair and group work in the classroom, as well as genuine language input from the "real world" for meaningful communication.

- Cooperative/Collaborative learning essentially involves students learning from each other in groups. It has been comprised as a way of encouraging communicative instruction in the classroom and is seen as a stretch of the procedures of CLT. It is viewed as a learner-centered approach offering the advantages over teacher-fronted classroom methods, fostered competition rather than cooperation and favored majority of students.

- Content-based learning as an instruction in which teaching is arranged around the content of information that students will acquire. It joins language learning to content/subject matter and engages them both concurrently. Special information provides natural content for language instruction. Language is seen as a tool or medium for acquiring knowledge about other things, instantly proving its usefulness.

- Task-based learning: This type of learning proposes tasks as useful vehicles and instruction in LT. This concept equates the idea of a "learning task" to a language learning

technique in itself. This could be a problem solving activity or a project, but the task should have a clear objective, appropriate content, a working/application procedure, and a set range of outcomes.

As with content-based instruction, a task-based approach aims to provide learners with a natural context for language use. One way of attaining the focus on meaning is through content- or theme-based instruction, and contemporary teaching approaches such as content-based and task-based ones which are all applications of the communicative approach at vocational colleges.

Content and language integrated learning presupposes to enhance learners’ linguistic competence thanks to a higher amount of a target language exposure. Among most favorably influenced by this kind of learning is the learner’s lexicon. Through receiving FL input in different content subjects learners acquire more profound knowledge and specialized terminology for their future profession.

Any method can be described as “result-oriented” or “process-oriented” with some teaching methods occupying an intermediate position. A result-oriented method advocates the idea of a final goal with the emphasis on its quickest achievement and on equal results being achieved by all the learners. A process-oriented method focuses on the teaching/learning procedure with the individual pace of learning and the final results varying according to individual learner differences.

Form-focused methods concentrate teachers’ and learners’ attention on the grammar forms of the target language. Form-defocused methods focus on speech patterns rather than on grammar structures.

In our conditions the deductive way of teaching is more used. A teacher first introduces new elements of the language knowledge then gives students an opportunity to have practice using the obtained knowledge in the classroom. Inductive teaching and learning is an umbrella term that encompasses a range of instructional methods, including inquiry learning, problem-based learning, project-based learning, case-based teaching, discovery learning, and just-in-time teaching. These methods have many features in common, besides the fact that they all are qualified as inductive. They are all *learner-centered*, meaning that they impose more responsibility on students for their own learning than the traditional lecture-based deductive approach does. They are all supported by research findings that students learn by fitting new information into existing cognitive structures and are unlikely to learn if the information has few apparent connections to what they already know and believe. They can all be characterized as *constructivist* methods, creating a widely accepted principle that students construct their own versions of reality rather than simply absorbing versions presented by their teachers. The methods almost always involve students discussing questions and solving problems in class (*active learning*), with much of the work in and out of class being done by students working in groups (*collaborative or cooperative learning*).

Information processing in listening and reading is viewed as encoding-decoding or construction and reconstruction processes. Students actively construct the knowledge that they hear or read.

For successful organization of teaching listening and reading you should identify the information processing as bottom-up and top-down. Think about features of information processing related to listening and reading. Why is top-down processing given as general for receptive types of speech activity? In the English classrooms teachers use both bottom-up and top-down approaches in teaching language skills. Think about reasons for incorporating them in the teaching process.

In FLT the Interactive model of information processing is also described, which involves both bottom-up and top-down processing so called parallel processing. In the instructional point of view it is a possibility of individual variation in linguistic processing and sensitive to learning styles of students and flexible to learners needs.

REFERENCES:

1. Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English language Teaching Methodology. Tashkent:Fan va texnologiya, 2015.
2. Richards J.C., Rodgers Th.S. Approaches and methods. CUP: On-line Publication, 2010. <http://dx.doi.org/10/1017/CBO9780511667305>
3. <http://blog.tjtaylor.net/teaching-methods/>
4. <http://www.slideshare.net/maviscinal/direct-method-5550563?related=1>
- 5 Pham Hoa Hiep. “Imported” Communicative Language Teaching Implications for Local Teaching. // English Teaching Forum Journal. V.43, No4, 2005. p.2-9.

БОЛАЛАРДА ОБСТРУКТИВ БРОНХИТ ВА УНИ ОЛДИНИ ОЛИШ ЙЎЛЛАРИ

Гофуров Жавлонбек Абдувахобович

Фарғона вилояти Болалар кўп тармоқли тиббиёт маркази Педиатри

Худойбердиева Хамро Тиллаевна

АДТИ педиатрия кафедраси мудири

Сурункали бронхит – бир ёки бир неча йил давомида йўталнинг давомийлиги 3 ойдан кўпроқ бўлишидир. Ахолининг 10-20% ида сурункали бронхит мавжуд бўлиб, булар асосан ифлосланган ҳаво зоналарида яшовчилар ёки кўп чекадиганлар ҳисобланади. Сурункали бронхит билан хасталанган беморлар йўтални ўзининг доимий ҳамроҳи дейди ва даволанишни ўйлаб ҳам кўрмайди. Ўз вақтида даволанмаслик кейинчалик нафас йўлини обструктив касалликлари (астма, обструктив бронхит), эмфизема (ўпкада ҳаво тўпланиши) ва нафас етишмовчилиги каби асоратларни келтириб чиқаради.

Бронхитлар болалар ўртасида кенг тарқалган касаллик булиб, педиатрлар амалиётида доимо учраб туради. Бронхитлар-нафас органлари зарарланиши билан кечувчи касалликларнинг асосини ташкил қилади.

Обструктив бронхитлар- ўткир бронхитларнинг кўп учрайдиган шакли булиб, барча бронхитларнинг 20-25% ини ташкил қилади.

Обструктив бронхит вирусли инфекциялардан кейин ривожланганда кўпинча бронхлардаги ўзгаришлар катарал характерга эга бўлади. Бронхлар шиллик каватининг зарарланиши эпителий хужайраларининг дистрофияси, хужайралар бир-бири билан боғланишининг бузулиши, эпителий каватининг кўчиб тушиши кузатилади. РС-инфекцияларда бронх бўшлиғида кўп микдорда балғам бўлади.

Аденовируслардан кейин ривожланадиган бронхитларда бронх шиллик кавати шиллик билан қопланган бўлади. Бактериялардан кейин ривожланадиган бронхитларда экссудат йирингли характерга эга булади, шиллик қаватли фибриноз парда ҳосил бўлади.

Болаларда обструктив бронхитлар ривожланишида юқори нафас йулларининг респиратор вирусли инфекциялар билан зарарланиши натижасида яллигланиш жараенининг нафас йулларининг пастки қисмларида тарқалиши-бронхларга ўтиши ҳам асосий ўринни эгаллайди.

Обструктив бронхитлар бирор-бир касалликнинг асорати сифатида, кўпинча вирусли инфекциялардан кейин ривожланади. Шу боис бу касалликларнинг болалар ўртасида кенг тарқалишига сабаб нафас органларининг зарарланиши билан кечувчи респиратор касалликларнинг кенг тарқалганлиги, эпидемия, пандемия кўринишида учраб туриши, етарлича даво усулларининг йуклиги ҳамдир.

Қишлоқ жойларда бронхитларнинг ўз вақтида тўлиқ даволамаслик кейинчалик бронхитларнинг оғир кечишига, сурункали давом этишига олиб келади.

Мамлакатимизда ишлаб чиқариш саноатининг ривожланганлиги, бронхларнинг зарарланишига олиб келувчи аллергиялик компонентларнинг ҳосил бўлиши ҳам аллергиялик характердаги бронхитларнинг ривожланишига олиб келмоқда

Бундан ташқари, ота-онаси чекувчи болаларда бронхитлар нисбатан кўп учрамоқда. Охириги йилларда бронхитлар ривожланишида индивидуал мойиллик ҳам муҳим аҳамиятга эгаллиги аниқланган.

Обструктив бронхит патогенези асосида касалликни келтириб чиқарувчи факторлар таъсирида бронхлар утказувчанлигининг бузулиши-обструкцияси етади, яъни этиологиялик омиллар таъсирига жавобан бронхларда яллигланиш реакцияси ривожланади. Бронх шиллик қаватининг шиши, ундаги безларнинг гиперсекрецияси кузатилади. Бронх бўшлигида экссудат тупланиб, обструкция ривожланади. Булар натижасида нафас орқали олинган ҳавонинг бир қисми нафас чиқариш давоми ўпкада ушланиб қолади ва функционал эмфизема ривожланади.

Болалар обструктив бронхит билан касалланмаслигини олдини олиш учун УРВИ билан оғриган болаларни ўз вақтида тўғри даволаш керак. УРВИ билан оғриган болалар соғлом болалар билан контактда бўлмаслиги керак. Шу билан бир вақтда болалардаги сурункали инфекция ўчоқларини уз вақ-тида санация қилиш керак.

Диспансеризацияси.

1. Мутахасислар куриги:

Педиатр – хуруждан сўнг ёки даволаниб чиққандан сўнг биринчи 6 ой давомида кварталда 2 марта, иккинчи 6 ойликда 1 марта кўради. ЛОР, Стоматолог, Пульмонолог кўрсатма асосида кўради. Умумий сийдик, қон, ахлат таҳлили, термометрия қилинади.

2. Кушимча текшириш усуллари:

Кукрак қафаси рентгенографияси кўрсатма буйича қилинади.

3. Спазмолитиклар:

Эуфиллин 2мг/кг, эфедрин 0,025×2 марта кунига, 10 кун давомида булар билан антигистамин препаратлар ҳам қилинади. Витаминлар С, А, В гуруҳлар қилинади. 6 ойда 1 марта 10 кун давомида. Физиотерапевтик муолажалар ҳам шулар жумласидандир.

4. Даволаш физкультураси:

Профилактик эмлашлар хуруждан 3-6 ойдан кейин қилинади. Диспансер кузатув хуруждан сўнг 1 йилгача давом этади.

Вақтида мурожаат қилмаслик, ўз бошимчалик билан даволаниш ёки давони охиригача олиб бормаслик натижасида сурункали бронхит ривожланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Шабалова Н.П. Обструктив бронхит Москва 2006
2. С.В. Рачинский, В.К.Тотаченко Обструктив бронхит Москва 1978
3. Вотмач Б.Е. Обструктив бронхит Москва 1973й
4. <https://xasta.uz/>
5. <https://www.gerbion.uz/>

БОЛАЛАРГА ПНЕВМОНИЯНИНГ ЮҚИШИ САБАБЛАРИ

Гофуров Жавлонбек Абдувахобович

Фарғона вилояти Болалар кўп тармоқли тиббиёт маркази Педиатри

Худойбердиева Хамро Тиллаевна

АДТИ педиатрия кафедраси мудири

Пневмония – халқ тилида шамоллашнинг ўпкага ўтишидир ёки соддароқ қилиб айтганда, ўпкани яллиғланиши. Унинг сабабчилари жуда ҳам турли-тумандир (микроб, вирус, содда бир хужайралилар, замбуруғ ва б.). Бундан ташқари, захарли моддалар, химиявий моддалар ва газлардан нафас олиш ҳам сабаб бўлади. Касаллик ривожланиш хавфи юқори бўлган гуруҳлар қуйидагилардир:

- Қариялар;
- Сурункали касаллиги мавжудлар: [кандли диабет](#), алкоголизм, юрак қон томир касалликлар ва б.
- Операциядан кейинги даврдаги беморлар;
- Туғма нафас йўли нуқсони мавжудлар;

Пневмониянинг белгилари:

- Бирданига тана ҳароратини ошиши ва безгак тутиши;
- Хўл (балғамли) [йўтал](#);
- Тинч ҳолатда ҳам нафас етишмовчилик хисси, хансираш;
- [Йўтал](#) ва нафасда кўкрак қафасида оғриқ бўлиши.

Бемор юқоридаги белгилар пайдо бўлса, зудлик билан терапевтга ёки пульмонологга мурожаат қилиши зарур. Шифокор шикоятлар ва касаллик келиб чиқишини яхшилаб сўраб-суриштиргандан сўнг, аускультация (эшитиб кўриш) ва перкуссия (туккилатиб кўриш) қилади. Сўнгра кўкрак қафасини рентген текширувидан ўтказди, керакли бошқа таҳлиллар ва текширувларни қилгандан сўнг даволаниш бошланади.

Пневмония катталарга нисбатан болаларда бир мунча оғирроқ кечади. Сабаби, уларда иммун тизими яхши ривожланмаган, шу боис ҳам болаларда тана ҳарорати кўтарилмаслиги мумкин. Бундай ҳолатларда ота-онадан зийраклик талаб этилади.

Шунингдек, болаларда мукоцилиар клиренс яхши ривожланмагани ҳисобига, унда дастлаб қуруқ йўтал, сўнгра, инфекциянинг тезда ўпкага ўтиш ҳолатлари кузатилади. Ўпка аускультациясида қуруқ ва нам хириллашлар эшитилади.

Болада ушбу касаллик аломатлари аниқланганда албатта шифокорга мурожаат этиш шарт. Чунки пневмония касаллиги ЎРВИга нисбатан узоқ давом этадиган касалликдир.

Ўпкадаги яллиғланиш жараёнини аниқлаш мақсадида турли хил текширувлар олиб борилади: қон, сийдик таҳлили, қонда С-реактив оксил, прокальцитонинни аниқлаш, кўкрак қафасининг рентгенографияси шулар жумласидандир.

Пневмония касаллигида қўлланиладиган дори воситалари турли ва мураккаб характерга эга бўлиб, хасталикнинг сабабларини енгишга (этиотроп терапия),

касаллик аломатларини йўқотишга (симптоматик терапия), шунингдек, тана аъзолари тизимини тиклашга (ёрдам берувчи терапия) қўлланилади.

Шу билан бирга, касалликни даволаш учун гипоаллерген парҳез, кислород терапия, ҳавони намлантириш ва хонани шамоллатиш, витамин Д, иммуноцинк, вирусга қарши, муколитик ва балғам ажратувчи дори воситалари, кўрсатмага биноан антибактериал даво, периферик қон айланишни яхшиловчи дорилар, оғир ҳолатларда иммуноглобулин G каби муложалар олиб борилади.

Муайян касалликни даволаш учун дори воситалари индивидуал танланади ва беморнинг ташхисига, умумий аҳволига қараб фақат шифокор томонидан белгиланади. Дастур болалардаги шифохонадан ташқарида юзага келган зотилжамни ташхислаш учун мўлжалланган.

Юқорида таъкидлаб ўтганимиздек пневманияни турли бактериялар (пневмококк, стрептококк, стафилококклар) ва вируслар кўзғатади. Бу бактерия ва вируслар болалар ўпка тўқимасига ўтиб яллиғланиш ўчоқларини пайдо қилади, альвеоларда суюқлик тўпланиши ўз навбатида ҳаво ўтувчи йўللارни торайишига - ҳамда қондаги кислород миқдорини камайишига (гипоксемияга) олиб келади. Қонда кислород миқдори камайган сари қондаги карбонат ангидрид миқдори кўпайиб, марказий нерв системасига салбий таъсир кўрсатиб, клиник хансирашни – тез-тез нафас олишни келтириб чиқариш билан намоён бўлади.

Дарҳақиқат, 2019-2020 йиллар юртимизда ёш болалар ўртасида пневмонияга чалиниш ҳолатлари сони бирмунча ортди. Буни эса бутун дунёдаги пандемия ҳолати, қолаверса, “COVID-19” инфекциясининг янги штаммларининг пайдо бўлиши ва бу штаммлар бевосита болаларда ҳам кўп учраётгани билан боғлаш мумкин.

Бундан ташқари, болаларда ўпка касалликларининг ортишига яна бир қанча омиллар сабаб бўлмоқда. Жумладан, ҳаво-томчи йўли орқали юқадиган вирусли инфекциялар кўпайган вақтда болани шахсий гигиена қоидаларига риоя қилмаслиги, ҳимояловчи воситаларни тўғри ишлатмаслиги уларнинг ушбу хасталиклар билан касалланишига олиб келмоқда.

Шу билан бирга, ота-оналар томонидан фарзандини уй шароитида грипп ва ўткир респиратор касалликлардан ўзбошимчалик билан даволаши, бемор бўлса-да ўғил-қизларини боғча ёки мактабга юбориши ва бу орқали бошқа соғлом болаларга инфекцияни юқтиришга шароит яратиши, болада сурункали инфекция ўчоқларини вақтида бартараф этилмаслиги, нотўғри овқатлантириш, боланинг рухий зўриқиши, жисмонан чиниқмаганлиги, кам ҳаракатлиги, узоқ вақт ёпиқ хоналарда ўтириши ҳамда вирусли касалликлар эпидемияси вақтида вакцинация қилинмаслиги ҳам касалланишлар сони ортишига сабаб бўлмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. <https://darakchi.uz/>
2. <https://davolash.ru/>
3. <http://pediatriya.uz/>
4. <https://ima.uz/>

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ТИЛ МАДАНИЯТИ ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

Ф.Ф.Болтаев

*Самарқанд давлат чет тиллар институти
стажер-тадқиқотчи*

Аннотация: Ушбу мақолада тил тизими ва коммуникатив фаолият ўртасидаги муносабатлар, бошқа томондан эса, тил тизимида ижтимоий ва нутқий фаолиятнинг индивидуал хусусиятларининг ўзаро алоқадорлиги тил маданиятида намоён бўлиши ўрганилган. “Тил маданияти” тушунчаси ва маданиятнинг бошқа соҳалари билан биргаликда ўрганиши муҳим аҳамият касб этиши ёритилган.

Калит сўзлар: Тил маданияти, мулоқот, миллат, тил субъекти, транскрипция.

Ҳозирги даврда бутун дунё халқларининг ижтимоий-сиёсий ва маданий алоқаларига глобаллашув жараёни катта таъсир кўрсатаётганлиги одатий ҳол бўлиб қолди. Турли миллат ва элатларга мансуб халқларнинг маданий бойликлардан баҳраманд бўлиш бу алоқалар тизимида муҳим аҳамиятга эгаллигини эътироф этиш зарур. Ўзбекистон мустақил давлат суверенитетини қўлга киритгач, маданий қадриятларининг нуфузига ҳам жиддий эътибор қаратилмоқда. Албатта, энг муҳим алоқа воситаси ҳисобланган тилнинг турли жамият аъзоларини маданий-маърифий жиҳатдан бирлаштиришдаги роли беқиёсдир. И.А.Каримов “миллий туйғулар тил муаммолари билан боғлиқ бўлиб, жамиятнинг гуллаб-яшнаши тилнинг мукамаллиги ва бойлигига боғлиқдир” [4, 83], деб эътироф этади.

Маданиятнинг бирор-бир соҳаси тилсиз мавжуд бўла олмайди. Тил қурилишини таҳлил қилиш орқали турли тарихий давр, халқларнинг маданиятини ўрганиш имконияти туғилади. Тилнинг жамият, миллат, элат ҳамда турли қатламларнинг тарихи ва маданиятини акс эттириши унинг муҳим хусусияти ҳисобланади. Дунё халқлари турли тилларда мулоқот қилишларига қарамадан, у маданиятнинг муҳим атрибутлардан бири сифатида ўз аҳамиятини сақлаб қолади. Н.И.Толстойнинг фикрича тил ва маданият муносабатини маданият кўп жиҳатли ҳодиса эканлигини ҳисобга олиб ўрганиш зарур [5, 10]. Шунини эътироф этиш жоизки, тил мураккаб тизим сифатида маданиятнинг турли жиҳатларига бир хил муносабатда бўлмайди. Тил ижтимоий тизим ва унинг таркибига кирувчи маданиятга ҳал қилувчи таъсир кўрсата олмайди. Тил ва маданиятнинг ўзаро боғлиқлиги ва таъсири масаласига макон ва замон нуқтаи назаридан ёндашиш мақсадга мувофиқдир.

“Тил маданияти” тушунчасини маданиятнинг бошқа соҳалари билан биргаликда ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Олимларнинг фикрича “тил маданияти” тушунчасини унда сўзловчи шахслар маданияти билан боғлаб ўрганиш зарур. Чунки “тил маданияти” тушунчасида бир томондан тил тизими ва нутқ фаолиятининг, иккинчи томондан, тил ва нутқ орқали юз берадиган ижтимоий ва индивидуал фаолиятнинг диалектик муносабатлари ўз аксини топади. Тил маданиятининг бу

томонлари алоҳида шахс фазилярларининг мажмуасини ташкил қилади. Шу сабабли, тил маданиятини шакллантириш шахсга таълим ва тарбия бериш жараёнида муҳим босқичлардан бири ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан қуйидаги масалалар муҳокамаси муҳимдир: шахснинг таълим ва тарбия жараёнида тил маданияти қандай роль ўйнайди? Таълимнинг турли босқичларида тил маданиятини ўргатиш борасида қандай вазифалар илгари сурилади?

Тил маданияти инсоннинг маънавий оламида муҳим ўрин тутади. Ўтган тарихий давр, сиёсий ва ижтимоий-иқтисодий ҳодисаларнинг муҳим хусусиятлари унда ўз аксини топади. Жамият тараққиёти давомида тил тузилишида ҳам муайян ўзгаришлар содир бўлиши мумкин. Тил маданияти- бу авваламбор тилнинг ижтимоий амалиёт туфайли пайдо бўлган ва қатъий тартибга келтирилган қонун - қоидалари, унинг луғат бойлигидир. Худди шу луғат бойлиги лисоний тафаккурнинг аниқлиги ва мантикий зиддиятсизлигини таъминлаши мумкин. Тил қонун-қоидаларининг қўлланилиши, муқомлигини таъминлашда орфография, орфоэпия, фонетика, морфология, синтаксис, семантика каби соҳалар муҳим аҳамият касб этади [3, 50-51].

Тил маданияти-социолингвистик ҳодисадир. Бир томондан, тил тизими ва коммуникатив фаолият ўртасидаги муносабатлар, бошқа томондан эса, тил тизимида ижтимоий ва нутқий фаолиятнинг индивидуал хусусиятларининг ўзаро алоқадорлиги тил маданиятида намоён бўлади. Тилшунос олимлар Т.Бушуй, Ш.Сафаров “Тилнинг маданий мазмунини ифодаловчи муҳим хусусиятлари қаторига унинг эркин ишлатилишини (ўзи ифодалайдиган нарсага нисбатан ҳеч қандай физик ва биологик размиликнинг йўқлиги), маҳсулдорлигини (жумладан тузиш имкониятининг чекланмаганлигини), семантик универсалликни (ифодалайдиган фикрнинг мавзуси чекланмаганлиги), қатламларнинг силжишини киритиш мумкин”, деган фикрни билдирадилар [3, 52].

Маълумки, тил одамларнинг ўз замондошлари, олдинги ва келажак авлодлар билан ўзаро алоқалари, ижтимоий тараққиётда ворисийликни таъминлаш воситасидир. Инсоннинг тажрибаси, билими, ижодининг натижалари тил белгилари ва рамзлар ёрдамида шахсий мулкдан ижтимоий мулкка, яъни бутун жамият мулкига айланади. Машҳур файласуф Гадамер тил инсон борлигининг марказида туради, деган фикрга келди. Бу олимнинг эътироф этишича “Оламни тил нуқтаи назаридан талқин қилиш ҳар қандай фикр, ҳар қандай билишдан устун туради” [1,51]. Айрим олинган «Мен» тилнинг субъекти бўла олмайди. Тил бу-инсоний мулоқот, сўзлашув ва диалогдир.

Женева университетининг профессори Ж.Стайнер Европа халқларининг анъанавий маданияти шаклланиши жараёнини ўрганиб, улар маданиятининг хусусиятлари типологиясини ишлаб чиқди. Бу концепцияга биноан, Европа маданияти ва цивилизацияси қадимий Ўрта Ер денгизи маданияти намуналаридан “транскрипция” қилиб олинган меросдир. Ж.Стайнернинг бу соҳада шундай илмий хулосага келади. Унинг нуқтаи назарича, эҳтимол, маданий анъаналар бизнинг синтаксисимизда тахмин қилганимиздан мустаҳкамроқ ўрнашиб қолгандир ва

бизнинг ҳаётимиз, биз буни хоҳлаймизми ёки йўқми, шахсий ва ижтимоий ўтмишимизнинг таржимаси бўлиб қолаверади [2, 22].

Қиёсий-тарихий ва типологик тилшунослик назариясининг асосчиси Вилгельм фон Гумбольдт (1767-1895 й.й.) тилни миллат характерини (хусусиятларини) белгиловчи ҳодисалар сирасига киритади. Гумбольдт концепциясида тилнинг моҳиятини инсон онги ва тафаккури, унинг маданияти ва маънавий ҳаёти билан боғлаб ўрганиш керак”, деган ғоя муҳим аҳамиятга эгадир [6, 123].

Жамиятда бошқа одамлар билан ҳамкорликда ҳаёт кечириш, фаолият кўрсатиш, қонун-қоидаларга амал қилиш, маданият ва қадриятларни ўзлаштириш ижтимоийлашув жараёни маҳсулидир. Социолог олим Э.Гидденснинг фикрича “Тилни ва бошқа мураккаб кўникмаларни эгаллашда шундай бир “чегара давр” борга ўхшайдики, ундан кейин буларни мукамал ўрганиб бўлмайди” [9, 84]. Шу асосда, инсонинг ижтимоийлашувига болаликда бошқа одамлар билан узоқ муддатли алоқалари ҳал қилувчи таъсир ўтказади, деган хулоса қилиш мумкин.

Т.А.Бушуй илмий адабиётларни таҳлил қилиш асосида тил қонун-қоидаларини аниқлаш ва фарқлашда қўйидаги ҳолатларга асосланиш зарурлигини кўрсатади: тил кўп қатламли, кўп қисмли қурилмадир, бироқ у яхлит воқелик сифатида доимий ривожланишда бўлади ва ҳар доим мулоқот жараёнининг қийинчиликсиз рўй беришини таъминлаш қобилиятига эга; тил қонун-қоидалари тил тизимида мавжуд бўлган имкониятлар ичидан танлаб олинган бирликлар мажмуасидир; тил қонун-қоидаси муайян узусга асосланади; тил қонун-қоидаларидаги ўзгаришлар мазкур тилда сўзловчи жамият аъзоларининг комуникатив эҳтиёжлари ўзгариши туфайлигини юзага келиши мумкин; тил воқелигида мулоқот муҳитига мос ҳолда фарқланадиган қонун-қоида қатор ўзига хос белгиларга эга бўлган ўлчамдир; тил қонун-қоидасини фарқлаш ва унинг хусусиятларини тушуниш учун фарқловчи белгилар икки асосий турда бўлишини унутмаслик зарур: соҳалардаги фарқлаш бўйича (диалект қонун-қоидаси, сўзлашув нутқи қонун-қоидаси, адабий тил қонун-қоидаси); хусусиятига кўра фарқлаш (вариантли ва вариантсиз қонун-қоидалар, зарурий ва факультатив қонун-қоидалар ва ҳоказо) [2, 23].

Тил маданиятининг юқорида қайд этилган тамойилларига шахс умумий хусусиятларининг таркибий қисмлари деб ҳам қараш мумкин. Сўзловчи шахснинг тил маданияти мақомини ўрганишда эса, унинг ижтимоий-маданий қоидаларга қандай риоя қилиши ҳисобга олинади. Бу қоидаларни белгилашда шахснинг ёши, жинси, маълумоти, ижтимоий келиб чиқиши, ижтимоий ва иқтисодий ҳолати кабилар инобатга олинади [7, 8-10].

Тил маданиятига жиддий эътибор қаратган инглиз файласуфи Фрэнсис Бэкон (1561-1626 й.й.) кўпинча одамлар томонидан англалмаган ҳолда тилдан эҳтиётсизлик билан фойдаланишга ундайдиган сабабаларни “Бозор идоли” (ёки “Бозор майдони”) деб атайди. Тилга эҳтиётсизлик билан муносабатда бўлиш, тилнинг тўғрилиги ва аниқлигига эътибор бермаслик, одамлар ўртасидаги муносабатларда тушунмовчиликларга олиб келиши мумкин. Бундай ҳолатни бозор куни савдо майдонида кузатиш мумкин [8, 43].

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш жоизки, жамият тизимида муҳим компонент ҳисобланадиган маданият ва тилнинг ривожланиши диалектик алоқадорликда бўлиб, улар ҳар бир тарихий даврда инсон турмуш тарзи, тафаккури ҳамда дунёқарашига ўзининг муайян таъсирини кўрсатади. Тил маданиятининг такомиллашуви жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий соҳаларининг барқарорлигига ижобий таъсир кўрсатади.

БИБЛИОГРАФИЯ:

1. Gadamer. H. G. Rozum, slow, dzie.Szkice wubranawa.Warszawa. 1979. 51-бет.
2. Бушуй Т.А. Язык в истории развития человеческой мысли. Издательство. «Фан». Ташкент-2011. С.-22.
3. Бушуй Т.А. , Сафаров Ш.С. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. Тошкент. Фан нашриёти. 2007. 50-51-бетлар.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. “Маънавият”. 2008. 83-бет.
5. Толстой Н.И. Язык и народная культура. Очерки по славянской мифологии и этнолингвистике.-М.: Индрик. 1995. 10-бет.
6. Рамишвили Т.В. Гумбольдианство //Лингвистический энциклопедический словарь М.: СЭ, 1990, с.123
7. Розанов В.В.Религия и культура. – М.: Республика, 1995. С.-8-10.
8. Шаповалов В.Ф.Основы философии современности к итогам XX века.Курс лекции. Флинта. Наука. 1998.стр.43.
9. Энтони Гидденс.Социология. “Шарқ” нашриёти. Тошкет-2002. 84-бет.

ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННЫЙ МИР И ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ПРИЕМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЧИНГИЗ АЙТМАТОВА " ПЛАХА".

Абдумуминова Рухаё

Магистр Термезского государственного университета

Аннотация: *Нравственно-этическая проблематика творчества Ч. Айтматова чрезвычайно близка русской литературе XIX-XX веков и, одновременно, многим литературам народов России и стран СНГ. Сам писатель неоднократно подчеркивал определяющее влияние русской литературы на развитие национальных литератур: «Лично я считаю, что многие национальные литературы происходят от самой русской литературы, от ее плоти и духа.*

Ключевые слова: *Писатель, литература, приём, мир.*

Скажем прямо: не было бы русской литературы - не было бы и современной казахской, киргизской, каракалпакской и многих других литератур. Никакая другая литература - ни английская, ни американская, ни немецкая - не смогла выполнить такую благородную историческую миссию, не смогла «породить» по своему образу и подобию родные ей национальные литературы»¹. Продолжая развивать эту мысль, можно по аналогии утверждать, что без Ч. Айтматова отечественная литература второй половины XX в., особенно северокавказская, была бы иной. Самобытный его талант давно стал школой для многих авторов и в России, и за рубежом — и в этом тоже актуальность поставленных нами проблем. Актуализация духовно-нравственного императива, предложенного творчеством Айтматова, обусловлена в определенной степени и социально-политическими сдвигами, произошедшими на постсоветском пространстве за последние два десятилетия. Этим объясняется особенно сильное воздействие, которое оказал художественно-философский мир Ч. Айтматова на северо.

Попытки раскрыть нравственно-этический мир Ч. Айтматова предприняты и в целом ряде монографических исследований, содержащих, порой, совершенно противоположные точки зрения и суждения³. Разносторонний анализ творчества Ч. Айтматова содержится в труде А. Акматалиева⁴, основное внимание которого обращено на выявление роли произведений Ч. Айтматова во взаимообогащении национальных литератур, но при этом автор исследует и комплекс их нравственно-этических проблем.

Чингиз Айтматов в своих произведениях выступил как мастер создания «многоголосия жизни». Из-под его пера выходили произведения, исполненные необычайной жизненной силы, а его даже самые романтические образы никогда не воспринимались как оторванные от реальной жизни. Вместе с тем, нравственно-этическая проблематика, возникнув на страницах его первого произведения, прошла затем через все творчество великого киргизского писателя. Подход Ч. Айтматова к

этой проблематике расширялся от произведения к произведению, поднявшись в его последних романах до поистине космических высот.

Если окинуть мысленным взором весь творческий путь Ч. Айтматова, то можно определить его главное жизненное кредо - человек только тогда человек, когда он строит свою жизнь на принципах высокой морали и нравственности, а человеческая цивилизация не может успешно развиваться, если она одновременно с техническим прогрессом не совершенствуется в нравственном отношении. Сам Ч. Айтматов недвусмысленно подчеркивал это: «Нравственный прогресс немислим без умения вопрошать себя и без умения отыскивать на эти вопросы ответы, которые должны носить характер высочайшего морального максимализма»¹. Все творческое наследие писателя свидетельствует

о том, что он всегда строго следовал данному высказыванию.

Постоянные обращения Ч. Айтматова к прошлому, к опыту далеких предков (в том числе нравственному), могут создать ложное впечатление, что он занят поисками нравственного идеала в далеком прошлом. Однако на самом деле его отсылки читателя к прошлому призваны придать поискам Добра глобальный, общечеловеческий масштаб и одновременно раскрыть вневременной характер этой задачи. Произведения и таких современных северокавказских авторов, как А. Евтых, Х. Ашинов, И. Машбаш, П. Кошубаев,

ЛИТЕРАТУРА:

1. Абакиров, А.А. Киргизской книге 50 лет / А.А. Абакиров. Фрунзе, 1976. -112 с.
2. Аббас, М. Об ответственности за судьбы человека, планеты и Вселенной. Роман Ч. Айтматова «Буранный полустанок» / М. Аббас // Вестник Московского Университета. Сер. 9. Филология. 1986. - № 2. - С. 16-20.
3. Абитова, С. Герой литературы Октября: становление и развитие героя адыгских литератур / С. Абитова. Черкесск: Карачаево-Черкес. отд-ние Ставроп. кн. изд-ва, 1971. - 182 с.
4. Абу-Бакар, А. Даргинские девушки. Чегери. Снежные люди. Браслет с камнями: повести / А. Абу-Бакар. М., 1971. - 480 с.

ДУХОВНО-ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ В ШКОЛЕ

Эргашов Мамур Моминович

старший преподаватель русского языка и литературы, Специализированная школа-интернат при МВД Республики Узбекистан. Учтепинский район, город Ташкент.

Аннотация: *Вопросы духовно-патриотического воспитания являются наиболее актуальными в настоящее время. Обучение в общеобразовательной школе занимает достаточно большой промежуток времени. Именно в школе ребенок проходит путь становления как личности, из детства переходит в этап зрелости. В связи с этим перед современной школой стоит задача духовно-патриотического воспитания учащихся, формировать гармоничную и нравственную личность. В представленной статье рассмотрены основные программы по духовно-патриотическому воспитанию в школах Ташкентской области, проанализированы основные мероприятия, проводимые в школах с целью развития в учащихся патриотизма.*

Ключевые слова: *общеобразовательная школа, духовно-патриотическое воспитание, мероприятие, программа, проект.*

SPIRITUAL AND PATRIOTIC EDUCATION AT SCHOOL

Ergashev Mamur Mominovich

is a senior teacher of Russian language and literature, a specialized boarding school under the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Uchtepa district, Tashkent city.

Abstract: *The issues of spiritual and patriotic education are the most relevant at the present time. Education in a comprehensive school takes a fairly long period of time. It is at school that the child goes through the path of becoming a person, from childhood passes into the stage of maturity. In this regard, the modern school is faced with the task of spiritual and patriotic education of students, to form a harmonious and moral personality. The article describes the main programs for spiritual and patriotic education in schools of the Tashkent region, analyzes the main activities carried out in schools with the aim of developing patriotism in students.*

Keywords: *general education school, spiritual and patriotic education, event, program, project.*

Духовно-патриотическое воспитание всегда было и есть одной из приоритетной задачей политики государства в сфере образования и воспитания молодого поколения [2].

Целью духовно-патриотического воспитания в общеобразовательной школе является привитие молодому поколению любви к своей Отчизне, формирования готовности и желания защищать страну при необходимости, способствовать формированию ценностных ориентиров и стремления процветанию Отечества [1].

Основные задачи духовно-патриотического воспитания в школе представлены на рисунке 1.



Рисунок 1- Основные задачи духовно-патриотического воспитания в школе

Для анализа работы по духовно-патриотическому воспитанию нами были проанализированы некоторые программы и мероприятия, проводимые в общеобразовательных учреждениях Ташкентской области, в частности в среднем звене.

1. Программа духовно-патриотического воспитания «Мы – патриоты своей страны», ориентированная на среднее звено учащихся. Программа включает в себя ряд исследовательских проектов, создание своего документального видеоролика, связанных с Великой Отечественной Войной. На завершающем этапе Программы проводится представление созданных проектов и видеофильмов.

2. Программа «Я горжусь землей отцов и дедов», ориентированная на обучающихся с 5 по 11 классов. В программу входят экскурсии по памятным местам, проекты, связанные с памятниками культуры и краеведением. Заключительный этап представляется показом презентации.

3. Программа «Нам их не забыть!». Данная программа ориентирована на среднее звено учащихся и предполагает совместный сбор материалов, встречи с ветеранами, проведение интервью с ветеранами, организация круглого стола, акции по благоустройству памятников ВОВ и тимуровская помощь ветеранам.

Педагогами образовательных учреждений Ташкентской области в настоящее время широко реализуются формы, ставшие традиционными в сфере духовно-патриотического воспитания. Такие, как встреча с ветераном и Вахта Памяти, Урок Мужества и торжественная линейка, различные поисковые, исследовательские, добровольческие акции и проекты и т.д.

Однако с модернизацией образования стали применяться и инновационные мероприятия по духовно-патриотическому воспитанию.

1. Дебаты. Дебаты представляют собой современную педагогическую технологию, которая проводится по определенным, строгим формальным правилам [3]. В школах Ташкентской области такие дебаты проводятся на исторические темы, а также на актуальные темы XXI века (отношение молодого поколения к исполнению воинской обязанности, желание жить и самореализоваться в других странах и т.д.).

2. Разработка видеofilmа документального или художественного характера. Такие продукты показываются как в рамках общеобразовательной школы Ташкентской области, как и вне ее пределов. Такая работа предполагает коллективный характер, является добровольческим и поисковым проектом. Создание контекста, работа с материалом. Обсуждение результатов и просмотр самого продукта исследовательской работы инициирует переживание патриотических чувств школьниками.

3. Создание виртуального музея. Данное мероприятие проводится в школах с использованием ресурсов Интернета. В этом аспекте также организуются формы для тематического обсуждения, проводятся тематические и авторские выставки, различные презентации, конкурсы и т.д. В школах Ташкентской области созданы виртуальные музеи под названиями «Они прошли сложный путь», «Поколение», «Все о Великой Отечественной Войне».

4. Городской фотокросс - это соревнование, которое совмещает в себя городское ориентирование и фотоконкурс. Задача участников городского фотокросса – за определенный промежуток времени сделать несколько фотографий, исходя из задания (например, «Звуки Войны») [4]. Школьникам можно передвигаться либо только пешком, либо на велосипеде, либо на общественном транспорте. В завершении жюри оценивает результаты работы.

5. Организация флешмоба. В аспекте духовно-патриотического воспитания школьники среднего звена участвуют в организации акций, используя символику. Чаще всего школьники Московской области делятся на несколько групп, надевают одежду (в основном однотонную) и таким образом выстраивают изображение в соответствии с идеей флешмоба. Например, День Победы на 9 Мая выстраивают флаг страны. В рамках данного мероприятия педагоги школ предлагают самые разные творческие подходы.

В заключении отметим, что подходы к формированию духовно-патриотического воспитания в школах многогранные и разносторонние. Задача общеобразовательных учреждений – грамотно и эффективно проводить мероприятия, способствующие к воспитанию патриота своей страны, разрабатывать программы, ориентированные на

повышение статуса патриотического воспитания в школьной системе воспитательной работы

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ :

1. Бондарев, А. Личное отношение к Родине. К вопросу о знакомстве школьников с песенной культурой Великой Отечественной войны / А. Бондарев // Искусство в школе. – 2018. – № 2. – С. 14-16.
2. Буковшина, О. Н. Школа – центр патриотического воспитания / О. Н. Буковшина // Воспитание школьников. – 2016. – № 1. – С. 40-42.
3. Мещанова, Л. Н. Особенности патриотического воспитания школьников [Электронный ресурс] : учебное пособие / Л. Н. Мещанова ; ФГБОУ ВО «Саратовский национальный исследовательский государственный университет им. Н. Г. Чернышевского», Ин-т искусств. – Саратов : [б. и.], 2016. – 59 с. – Библиогр.: с. 56-57 (36 назв.). – Режим доступа: для зарегистрир. пользователей.
4. Тисленкова И. А. Гражданско-патриотическое воспитание в 6-7 классах. Российская государственность. Беседы, классные часы, вечера, праздники, игры; Учитель - М., 2015. - 176 с.

DEVELOPMENT OF COMPLEX TECHNOLOGY FOR RECOVERY OF NOBLE AND PRECIOUS METALS ON THE BASIS OF PROCESSING OF WASTE ASH-SLAG OF ANGRENSKOYE AND NOVO-ANGRENSKOYE TPP.

Vohidov Bahriddin Rahmidinovich
Murtozayeva Mohinabonu Mansur qizi
Utkirova Shakhzoda Ixtiyor qizi
Navoi state mining institute

Annotation: *Ash-slag wastes are one of the most common wastes of modern civilization, they are valuable mineral raw materials that can be used in construction, road construction, agriculture and raw materials for the complex extraction of noble and rare metals. Ash-slag wastes - products of combustion of Angren brown coal at the Angren and Novo-Angren thermal power plants - on the territory of our Republic exist only in the Angren mining region, which are distributed over four dumps. The total volume of ash-slag is over 15 million t this regard, it becomes necessary to solve problems aimed at developing a technology for the extraction of noble and rare-earth metals from ash and slag.*

Keywords: *Ash-slag, washing, enrichment, leaching, concentrate, cake, solution, agitation vat, aqua regia dissolution, drying oven, mineralogical composition, pure metal.*

At present, there is no complex technology for processing ash and slag in Uzbekistan. only a small part of them is used in the construction industry and cement production, when they can also be used as raw materials for the production of iron, alumina, noble, rare and rare earth elements, heat-insulating materials, resistant concrete to aggressive environments, etc. Ash-slag waste can serve as an unconventional source of a number of valuable metals and other elements.

In fact, natural sorbents, coals contain impurities of many noble and rare metals, the concentrations of which increase by 5-6 times during their combustion and may be of industrial interest. Angren brown coals are especially distinguished by such characteristics, containing a complex of valuable components in increased quantities. the development of an effective technology for the enrichment of ash-slag and the complex extraction of noble and precious metals is one of the urgent scientific and technical problems today [1].

Thus, the complex processing of ash-slag from thermal power plants will allow disposal of hazardous waste with the improvement of the ecology of the area with the simultaneous production of a number of noble and rare metals with low cost, in demand in many industries. utilization of ash and slag waste from thermal power plants is relevant and occupies a priority place among the promising problems in many countries of the world. At present, only 10-15% of waste from thermal power plants is used in various industries, but the potential for their use is much wider. therefore, these wastes require complex processing [1].

We have studied the material composition of the Novo-Angren TPP waste sample. The sample was prepared for research according to the standard method. in the process of

sample preparation, an average sample was taken from it for spectral and chemical analysis. The results of the semi-quantitative spectral analysis of the average sample are shown in Table 1.

Table 1. Results of spectral analysis of an average ore sample

Elements	Content, 10-3%	Elements	Content, 10-3%
Ba	1000,0	Ni	<1,0
Be	<1,0	Sn	<1,0
V	20,0	Pb	20,0
Bi	<0,2	Ag	0,07
W	<10,0	Sb	3,0
Ga	3,0	Ti	500,0
Ge	<1,0	Cr	5,0
Cd	<0,1	Zn	30,0
Co	2,0	Au	<0,03
Mn	200,0	Nb	<10,0
Cu	<1,0	Ta	<10,0
Mo	3,0	Li	<20,0
As	<10,0		

The results of chemical analysis of the average ore sample are shown in Table 2.

Components	Content, %	Components	Content, %
SiO ₂	42,0	Na ₂ O	0,36
Fe ₂ O ₃	24,2	K ₂ O	0,74
FeO	7,3	S _{com.}	5,3
Fe _{com.}	22,61	S _{sulphide.}	4,67
TiO ₂	0,63	SO ₃	1,58
MnO	0,11	P ₂ O ₅	0,06
Al ₂ O ₃	13,5	CO ₂	0,66
CaO	2,8	H ₂ O	1,0
MgO	0,8		

Table 2. Results of chemical analysis of an average ore sample.

As a result of studying the material composition of the Novo-Angrenskaya TPP waste sample, it was established that iron and aluminum oxides are valuable components of the waste sample. The content of total iron in the sample is 22.61%, alumina 13.5%. Associated useful components of the sample include noble metals and rare earth elements. The main minerals of the sample are magnetite, alumina and pyrite. Based on the study of the material composition, methods of gravity, magnetic separation and hydrometallurgy are recommended for processing waste from the Novo-Angrenskaya TPP.

REFERENCES:

1. С.Б.Леонов, К.Ф.Федотов, А.Е.Сенченко «Промышленная добыча золота из золошлаковых отвалов тепловых электростанций», Горный журнал, №5, 1998г, стр. 67-68.
2. Янчев В.К. Гидрохимические особенности использования золошлаков тепловых электростанций // Проблемы сбора, переработки и утилизации отходов: Сб. научн. статей. – Одесса: ОЦНТЭИ, 2000. – С.233-235.

ЖИНОЯТЛАР МАЖМУИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ

К.Ф.Умарова

*Ўзбекистон Республикаси ИИБ
Академияси III босқич 319 гуруҳ курсанти*

Жамият тараққиёти қонун устуворлиги ва суд ҳокимиятининг мустақиллиги билан чамбарчас боғлиқдир. Бинобарин Президентимизнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида бугунги кунда ислохотларимиз самараси кўп жихатдан тўртта муҳим омилга – яъни қонун устуворлигини таъминлаш, коррупцияга қарши қабътий курашиш, институционал салоҳиятни юксалтириш ва кучли демократик институтларни шакллантиришга боғлиқлиги кўрсатиб ўтилди. Бугунги кунда содир этилаётган жиноятларнинг барвақт олдини олиш унга қарши курашиш нафақат соҳа ходимларининг балки халқимизнинг ҳам олий бурчига айланмоғи лозим.

Маълумки, жиноят ҳуқуқи бўйича шахснинг қилмишида жиноят қонунда белгиланган аниқ жиноят таркиби барча белгиларининг мавжудлиги жиноий жавобгарликнинг ягона асоси бўлиб ҳисобланади. Шу боис, шахснинг содир этган қилмиши жиноят қонунининг моддасида назарда тутилган бўлсагина, у жиноий жавобгарликка тортилиши мумкин. Шахснинг муайян жиноятни содир этишда айбдорлиги масаласини ҳал қилишда тергов органлари, прокурор ёки суд у содир этган қилмишнинг барча белгиларини қамраб олувчи жиноий-ҳуқуқий нормани танлашлари, яъни унинг қилмишини квалификация қилишлари керак. Жиноятларни квалификация қилиш давлатнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари жиноят қонунини қўллаш жараёнида ҳал қиладиган марказий масалалардан биридир унинг моҳиятини қилмишни жиноят ҳуқуқи нуқтаи назаридан баҳолаш ташкил этади. Илмий адабиётларда жиноятларни квалификация қилиш назарияси билан амалда жиноятларни квалификация қилиш ўртасидаги фарқ тўғри кўрсатилган. Бунда таъкидланишича, “назарий қоидаларда жиноятларнинг турларини квалификация қилиш жиноий-ҳуқуқий нормаларни тавсифлаш доирасида ҳамда уларнинг содир этилишига хос типик вазиятларда умумлашаган ҳолда акс эттирилади. Жиноятларни амалиётда квалификация қилишда эса индивидуал кўринишда намоён бўладиган қилмишнинг истисносиз барча аниқланган ва исботланган ҳақиқий ҳолатлари, ушбу ҳолатларга хос хусусиятлар ва нозик жихатлар ҳисобга олинади.”

Ушбу қоида жиноятлар мажмуи учун ҳам тўлиғлигича таалукдир, зеро у қаттироқ ҳуқуқий оқибатлар келиб чиқиши мумкинлигини белгилаб берганлиги боис, тўғри квалификациянинг ахамияти назарий даражада ҳам амалий фаолиятда ҳам кучайиб боради. Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Пленуми деярли ҳар бир раҳбарий тушунтиришида жиноятлар мажмуи бўйича квалификация қилиш масалаларига тўхталиши тасодиф эмас. Бу билан унинг ҳуқуқни қўллаш амалиётидаги ва фуқароларнинг ижтимоий ҳуқуқий кафолатларини таъминлаш масалаларидаги ўрни таъкидланади. Жиноятлар мажмуи тузилиши жихатдан мураккаб бўлиб, икки ёки ундан ортиқ жиноий қилмишларни ўз ичига олади. Шунинг

учун ҳам оддий, ягона жиноятларни тавсиф қилишга қараганда буларга ҳуқуқий баҳо бериш анча мушкул масала ҳисобланади.

Жиноятлар мамуи, бир шахс томонидан икки ёки бир неча жиноий қилмишнинг содир этилиши жиноятлар мажмуининг асосий ҳуқуқий белгисидир. Бу эса қилмишни квалификация қилиб, жазо тайинлашда муҳим рол уйнайди. Мажмуага кирувчи жиноятларни тўғри квалификация қилиш ички ишлар органлари фаолиятига катта таъсир кўрсатиб, унинг статистик ҳисобларида ўз аксини топади.

Хулоса қилиб айтганда, шахсининг қилмишини жиноятлар мажмуи сифатида квалификация қилиб жавобгарликка тортиш учун жиноятлар мажмуини ташкил қилувчи ҳар бир қилмиш юзасидан жиноий жавобгарлик асослари мавжуд бўлиши ва жавобгарликка тортиш учун монелик қилувчи ҳолатлар бўлмаслиги керак. Ҳар бир жиноий қилмиши содир этган шахс аввало инсон шундай экан жавобгарликка тортишда одиллик, инсонпарварлик принципларига тайанмоқ лозим зероки, биз инсон ҳуқуқлари ва манфаатлари биринчи ўринга қўйилган юртда яшамоқдамиз.

БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Axmedova Matlubaxon Raxmanovna
Андижон вилояти Избоскан тумани
13-мактаб бошлангич синф ўқитувчиси

Ҳозирги кунда таълим жараёнида интерактив методлар, инновацион технологиялар, педагогик ва ахборот технологияларнинг ўқув жараёнида қўллашга бўлган қизиқиш, эътибор кундан-кунга кучайиб бормоқда, бундай бўлишининг сабабларидан бири, шу вақтгача анъанавий таълимда ўқувчи-талабаларни фақат тайёр билимларни эгаллашга ўргатилган бўлса, замонавий технологиялар уларни эгаллаётган билимларини ўзлари қидириб топишларига, мустақил ўрганиб, таҳлил қилишларига, ҳатто хулосаларни ҳам ўзлари келтириб чиқаришларига ўргатади.

Интерфаол (“Интер” – бу ўзаро, “аст” – ҳаракат қилмоқ) – ўзаро ҳаракат қилмоқ ёки ким биландир суҳбат, мулоқот тартибида бўлишни англатади. Бошқача сўз билан айтганда, ўқишнинг интерфаол методлари–билиш ва коммуникатив фаолиятни ташкил этишнинг махсус шакли бўлиб, унда таълим оловчилар билиш жараёнига жалб қилинган бўладилар, улар биладиган ва ўйлайдиган нарсаларини тушиниш ва фикрлаш имкониятига эга бўладиар. Бу улулларнинг ўзига хослиги шундаки, улар фақат педагог ва ўқувчиларнинг биргаликда фаолият кўрсатиши орқали амалга оширилади.

Хусусан, америкалик психолог олимлар Р.Карникау ва Ф.Макэлроунинг ўрганишларига кўра, шахснинг табиий физиологик-психологик имкониятлари муайян шаклларда ўзлаштирилган билимларни турли даражада сақлаб қолиш имконини беради. Яъни: шахс манбани ўзи ўқиганида 10 %; маълумотни эшитганида 20 %; содир бўлган воқеа, ҳодиса ёки жараённи кўрганида 30 %; содир бўлган воқеа, ҳодиса ёки жараённи кўриб, улар тўғрисидаги маълумотларни эшитганида 50 %; маълумот (ахборот)ларни ўзи узатганида (сўзлаганида, билимларини намойиш этганида) 80 %; ўзлаштирилган билим (маълумот, ахборот)ларни ўз фаолиятига татбиқ этганида 90 % ҳажмдаги маълумотларни ёдда сақлаш имкониятига эга экан. Анъанавий таълим беришдан фарқли ўларок, интерфаол ўқитиш “таълим жараёнининг асосий иштирокчилари – ўқитувчи, ўқувчи ва ўқувчилар гуруҳи ўртасида юзага келадиган ҳамкорлик, қизғин баҳс-мунозара, ўзаро фикр алмашиш имкониятига эгалик асосида ташкил этилади, уларда эркин фикрлаш, шахсий қарашларини иккиланмай баён этиш, муаммоли вазиятларда ечимларни биргаликда излаш, ўқув материалларини ўзлаштиришда ўқувчиларнинг ўзаро яқинликларини юзага келтириш, “ўқитувчи – ўқувчи – ўқувчилар гуруҳи”нинг ўзаро бир-бирларини ҳурмат қилишлари, тушунишлари ва қўллаб-қувватлашлари, самимий муносабатда бўлишлари, руҳий бирликка эришишлари кабилар билан тавсифланади.

“Ассесмент” методи.

Методнинг мақсади: мазкур метод таълим олувчиларнинг билим даражасини баҳолаш, назорат қилиш, ўзлаштириш кўрсаткичи ва амалий кўникмаларини текширишга йўналтирилган. Мазкур техника орқали таълим олувчиларнинг билиш фаолияти турли йўналишлар (тест, амалий кўникмалар, муаммоли вазиятлар машқи, қиёсий таҳлил, симптомларни аниқлаш) бўйича ташҳис қилинади ва баҳоланади.

Методни амалга ошириш тартиби: “Ассесмент”лардан маъруза машғулотларида тингловчиларнинг ёки қатнашчиларнинг мавжуд билим даражасини ўрганишда, янги маълумотларни баён қилишда, семинар, амалий машғулотларда эса мавзу ёки маълумотларни ўзлаштириш даражасини баҳолаш, шунингдек, ўз-ўзини баҳолаш мақсадида индивидуал шаклда фойдаланиш тавсия этилади. Шунингдек, ўқитувчининг ижодий ёндашуви ҳамда ўқув мақсадларидан келиб чиқиб, ассесментга кўшимча топшириқларни киритиш мумкин.

Намуна: “От сўз туркуми” мавзусида ассесмент намунаси. Ҳар бир катакдаги тўғри жавоб 5 балл ёки 1-5 балгача баҳоланиши мумкин.


<p align="center">Тест</p> <p>Отларда нечта келишк бор?</p> <p>A) 2 B) 3 B) 4 Г) 6</p>	<p align="center">Вазият</p> <p>Маълум бир фан бўйича дарс бошида ҳар бир ўқувчи 20 дақиқа мобайнида ўқитувчи раҳбарлигида ўқув материални эгаллайдилар.</p> <p>Дарс охиригача эса, барча ўқувчилар галма галдан жуфтларини алмашиб ишлайдилар, яъни улар роллар билан алмашмадилар, ўқитувчи сифатида ва ўқитувчи сифатида.</p> <p>Савол ва тоъшириқлар:</p> <p>1. От сўз туркумига қос сўзлар қайси келишкларини олганда белгисиз қўллавади?</p> <p>2. Ҳай номларига мисоллар келтиринг?</p>
<p>Белгилари (симптом)</p> <p>Нарса ва шахснинг номини билдирган сўзлар бу.....</p>	<p align="center">Амалий кўникма</p> <p>Атоқли отлар иштирокида гаплар тузинг...</p>

Бунда 1-машқ аудио ёзувдан эшитиб тингланадиган машқ ҳисобланади:

Сўзларни ўқинг. Қайси товуш сўз ма`носини ўзгартиряпти?

Ака – ука,ота – она – опа, бола – хола, бува – буви

Бунда тарқатма материаллардан фойдаланиш керак. Ўқитувчи машқ ичидаги сўзларни эшиттиргандан сўнг, уларнинг ёзма шакллари ёзилган қоғозларни 16та (синфдаги ўқувчилар сонига қараб) ўқувчига тарқатиб беради:




Ўқувчилар юқоридаги тарқатма материаллар ичидан ўзаро ўхшаш сўзларни топиб, уларни таҳлил қилишлари керак(камсонли ўқувчидан ташкил топган гуруҳларда қўшимча равишда қуйидаги саволларга ҳам ўқувчилар томонидан жавоб берилади):

- Сўз нечта ҳарф ёки товушдан иборат?
- Сўз ма`носини ўзгартираётган товуш қайси товуш?
- Ҳарфлар нега икки хил рангда?
- Сўзлар нечта бўғиндан иборат?

Дидактик ўйин технологияси. Дидактик ўйин технологияси- бу таълим жараёнида ўқувчиларнинг билим олиш фаолиятини ўйин фаолияти билан уйғунлашишидир.

Дарсларда ўйин фаолияти ўзининг қуйидаги хусусиятлари билан тавсифланади: -ўқувчи вазибаларни танлаши натижасида ривожлантирувчи фаолият вужудга келади; -ижодий муҳит таркиб топади; мусобақа, рақобат, ҳамкорлик вужудга келади. Ўйин усуллари: “7x7” , “Ким топқир?”, “Фикрни давом эттиринг” каби “Тўғри юра оласанми” дидактик ўйини. “Давом эттир” ўйини. “Тез жавоб” ўйини. Топишмоқ. “Кластер” методи орқали ўқувчилар ҳар бир қаҳрамонларни таърифлайдилар.





“Т” чизмаси” ёки “Венн диаграммаси” методлари муаммони кўйиш ва ҳал қилишнинг бир қатор жиҳатларини таърифлаш ва ечишга имкон беради.

Иштирокчилар кичик гуруҳларга бўлинишади ҳамда куйида тавсия этилган “Т” чизмаси ёки “Венн диаграммаси” асосида асар қаҳрамонларининг тасвири ёки тавсифини очиб бериш баробарида уларгагина хос бўлган у ёки бу хусусиятларни ажратадилар. Она тили дарсларида мавзудаги ҳикоя қаҳрамони ёки сўз туркумлари таҳлил қилинганда ушбу методдан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Бунда образнинг кучли

томонлари, характеридаги заифлик жиҳатларини ўқувчилар таҳлил қилар экан, қаҳрамоннинг имкониятлари ҳамда унинг ожизлигига таъсир қилувчи хавф-хатар ва оқибатларини ўрганиб чиқадиладар. **“Тушунчалар таҳлили”** методи. Методнинг мақсади: мазкур метод ўқувчиларни мавзу бўйича таянч тушунчаларни ўзлаштириш даражасини аниқлаш, ўз билимларини мустақил равишда текшириш, баҳолаш, шунингдек, янги мавзу бўйича дастлабки билимлар даражасини ташҳис қилиш мақсадида қўлланилади. Она тили дарсларида қоидаларни ва уларнинг таърифларини жадвал кўринишида ёзса бўлади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Иноятлов У.И., Муслимов Н.А., Усмонбоева М., Иноғомова Д. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб: Методик қўлланма. – Тошкент: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2012. – Б.122.
2. Ерназаров Ғ. “Бошланғич синфларда она тили ўқитиш методикаси”. Тошкент-“Илм Зиё” – 2013.
3. Сафарова Р.Ғ. ва бошқалар. Бошланғич таълим концепсияси. Тошкент-2014.
4. Қосимова К., Матчонов С., Ғуломова Х.ва бошқалар. “Она тили ўқитиш методикаси”. Тошкент – 2009.

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Daniyarova Yulduzxon Raximovna

Andijon viloyati Izboskan tumani

13-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Бошланғич математика курсининг энг муҳим хусусияти унинг амалий йўналганлигидир. Агар юқори синфларда математика дастурининг баъзи масалалари назарий ҳарактерда бўлса, бошланғич мактабда ҳар бир янги тушунча, қонун амалий фаолият натижасида ва амалий фаолият учун киритилади. Ўқувчиларнинг тўғри тўртбурчак тушунчасини ўзлаштиришлари, улар эндиликда тўғри тўртбурчак таърифини билишларини, унинг аломатларини мантиқий келтириб чиқаришни ва баъзи хоссаларини исботлашни билишларини, таърифи, аломатлари ва хоссаларидан амалий масалаларни ечиш учун фойдалана билишларини билдиради. Маълумки, ўқитиш услублари, уларни тизимли равишда бойитиб ва янгилаб бориш масаласи ўқитиш ва умуман, таълим тизимида юқори натижаларга эришишда энг муҳим жиҳатлардан биридир. Ўқиш ва ўқитиш методлари ўқитувчи ва ўқувчиларнинг биргаликдаги фаолият усуллари бўлиб, бу фаолият ёрдамида янги билимлар, малакалар ва кўникмаларга эришилади. Ўқитувчиларнинг қобилияти, тафаккури ривожланади. Шунинг учун замонавий фан-техника ва ахборот технологияларининг илғор ютуқлари асосида бойитиб борилган ўқитиш методлари тарбиялаш самарадорлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади. Бугунги кунда амалиётда мавжуд бўлган ўқитиш методларидан таълимнинг янги мазмунига ва янги вазифаларига мос келадиганларини онгли танлаб олиш учун даставвал ҳамма ўқитиш методлари ва мавжуд ўқитиш методлари классификациясини қараб чиқиш лозим бўлади.

Ўқитиш методлари ўқитувчи ва ўқувчиларнинг биргаликдаги фаолиятини ташкил қилиш, рағбатлантириш ва назорат қилишни назарда тутати. Шунинг учун улар уч гуруҳга бўлинади:

- ўқув-билиш фаолиятини ташкил қилиш методлари;
- ўқув-билиш фаолиятини рағбатлантириш методлари;
- ўқув-билиш фаолияти самадорлигини назорат қилиш методлари.

Бошланғич синфларда ўқувчилар тўғри тўртбурчакнинг қарама-қарши томонлари тенглигини ўлчаш йўли билан аниқлайдилар ва тўғри тўртбурчакни яшаш, унинг периметри ва юзини ўлчаш ва ҳисоблаш ўқувини эгаллайдилар. Шуни унутмаслигимиз керакки, келажакимиз пойдевори билим даргоҳларида яратилади, бошқача айтганда, халқимизнинг эртанги куни қандай бўлиши фарзандларимизнинг бугун қандай таълим ва тарбия олишига боғлиқ. Давлат таълим стандартида ўқувчиларнинг ҳар бирига таълим олишда тенг имкониятларни яратиб бериш, ҳар бирининг юқори натижага эришишларини рағбатлантириш ва шу орқали ўқув-билим жараёнининг фарқли ташкил этилишини таъминлаш учун даъват этилган. Давлат

таълим стандарларининг ўқув фани бўйича, таълим соҳалари бўйича ишлаб чиқарилиши ўқув фанларининг вариантыни танлаш асосида ўқув методик мажмуалар, жумладан, бошланғич синфларда математика ўқитишни такомиллаштиришни назарда тутди. Бошланғич синфларда арифметик амаллар бажаришни боғланиш ва билимларни мувофиқлаштириш тамойили асосида ўқув фанларининг ички боғлиқлиги ва ўқув фанлари аро узвийликни таъминлашга хизмат қилади. Бошланғич синфларда арифметик амаллар бажариш талабларининг ўқувчилар томонидан бажарилиши уларнинг теварак зарур билим, малака ва коникмаларни эгаллашларига ёрдам беради.

Шунингдек арифметик бошланғич ўрганиш услуги ҳам мукаммаллаштирилган. Кичик ёшдаги ўқувчиларни ўқитишнинг барча босқичларидан уларнинг тиклаш фаолиятини активлаштиришга таянч фактлар ва кузатишларни ўз вақтида умумлаштиришга, айрим масалалар орасидаги ўзаро боғланишни тайинлашда, болаларда мустақил ишлаш ўқувларини пайдо қилишда қаратилган янги илмий асосланган усул ва услубдаги мактаб дастурига киритилган.

Бошланғич математика курсида, аввалдагига ўхшаш, арифметика асосий ўринни эгаллайди. 1-4- синфларнинг янги дастурида арифметик материал мазмуни унчалик кўп ўзгармаган: арифметика назарияси (амалларнинг хоссалари, натижалар ва компонентлар орасидаги ўзаро боғланиш, компонентлардан бири ўзгарганда; амаллар натижаларининг ўзгариши) камроқ ёритилган, назариянинг амалий масалалар (саноқ, ўлчашлар, ҳисоблашлар, масалалар эчиш) билан боғланиши янада мустаҳкамланган: энг муҳим тушунчалар (сон, саноқ системаси, арифметик амаллар)ни шакллантиришнинг бирмунча мукаммал системаси кўзда тутилган.

Дарсни ўтиш жараёнида биз кўп холларда амалий, тушунтириш ва кўрсатмали методлардан фойдаланишимиз яхши самара беришини биламиз.

Шу методлар бир нечтасини кўриб ўтамиз.

0 ва 1 катакчаларини тўлдириш методи. Ўқувчиларга уйга вазифа сифатида 10 та мисол ишлаш берилади ёки янги дарсни мустаҳкамлаш учун тез осон ишланадиган топшириқлардан берилади. Жадвалдаги катакчаларига стикерга жавобларини ёпиштириб қўйилади. Масалан, 1) $90:9 \times 10 = ?$ 2) $1 \text{ sm} = ? \dots \text{ mm}$ 3) $36:4 = ?$ 4) $28:4 + 2 = ?$ 5) $56:7 \times 8 = ?$ 6) $80:8 \times 14 - 0 = ?$ 7) $8 \times 9 + 118 \times 0 = ?$

Ўқувчилар тезкорлик билан мисолларни ишлаши ва стикерга ёпиштирилган жавобларни топиб ўчириши керак бўлади. Стикерни ўрнига катакчаларга 0 ёки 1 шаклида жавобларни хосил қилган ғолиб саналади.

Бундай интерфаол методларни дарсларимизда доимо қўлланилиб туриши керак. Шулардан яна бири “Зинама-зина” технологияси. Технологиянинг тавсифи. Ушбу машғулот ўқувчиларни ўтилган ёки ўтилиши керак бўлган мавзу бўйича якка ва кичик жамоа бўлиб фикрлаш ҳамда хотирлаш, ўзлаштирилган билимларни ёдга тушириб, тўпланган фикрларни умумлаштира олиш ва уларни ёзма, расм, чизма кўринишида ифодадай олишга ўргатади. Бу технология талаба (ёки ўқувчи)лар билан якка ҳолда ёки гуруҳларга ажратилган ҳолда ёзма равишда ўтказилади ва тақдимот қилинади. Бу метод орқали ўқувчиларга тарқатма материаллар берилади. Шу

саволларга жавоб топганлар эса олдинги сафга силжиб кетади. Қадам ва қадам тарзида. «Блиц-сўров» (инглизча «блиц» – тезкор, бир зумда) методи берилган саволларга қисқа, аниқ ва лўнда жавоб қайтарилишини тақозо этадиган метод саналади. Таълим муассасаларида ушбу методга мувофиқ саволлар, асосан, ўқитувчи томонидан берилади. Берилган саволларга жавоблар жамоавий, гуруҳли, жуфтлик ёки индивидуал тарзда қайтарилиши мумкин. Жавоб қайтариш шакли машғулот тури, ўрганилаётган мавзунинг мураккаблиги, ўқувчиларнинг қамраб олинишига кўра белгиланади.

“33 машқи” Иштирокчилар доира шаклида йиғилишади. Ўқитувчи вазифа беради. Ҳамма 1 дан 33 рақамигача кетма-кетлик, ҳар бир иштирокчи биттадан рақамни санашади. 3 рақами келганда, 3 рақами бор (масалан, 13, 23, 30) рақамларда ва 3 га бўлинадиган (3, 6, 9 ва б.қ.) рақамда овоз чиқармай қарсак чалади. Агар ҳисобда қайсидир иштирокчи адашиб қолса ўйин бошидан бошланади. Машқ 18 рақамигача етиши мумкин, 20 рақамидан кейин иштирокчилар адашишни бошлайди. Биринчи бор машқни бажаришида 33 рақамигача етмаслиги мумкин. 30 қарсак, 31 қарсак, 33 қарсак. Шу билан машқ якунланади. Хуллас ютказган чиқади. Ўйин шу тарзида кетади.

Бундай методлар 45 дақиқали дарсда болани чарчаб қолишини олдини олади. Дарсга кизиқтиради. Ўзлаштириш самарадорлиги юқори бўлади. Энг муҳими кейинги дарсга кувноқ мотивация билан киради.

АДАБИЁТЛАР:

1. Н. У. Бикбаева, Р. И. Сидельникова, Г. А. Адамбекова. Бошланғич синфларда математика ўқитиш методикаси. Т.: “ Ўқитувчи” 1996-й.
2. Абдуллаева Ҳ.А., Бикбоева Н.У. ва бошқалар. Бошланғич таълим концепцияси. Т.: «Бошланғич таълим», 1998.
3. Ғаффорова Т. Бошланғич таълимда замонавий педагогик технологиялар. - Т.: «Тафаккур», 2011.
4. Ахмедова Н., Иноятова М., Матназарова К. Бошланғич таълимдаги муаммоларни бартараф этиш йўллари. Методик тавсиялар. Т.: library.ziyounet.ru/book/download/16233, 2015.
5. Бикбоева Н.У. Янгибоева Е.Ю. Иккинчи синф математика дарслиги. Т., - Ўқитувчи 2009
6. Жумаев М.Э. Математика ўқитиш методикаси. Т., — Илм Зиё. 2003й

MAKTABGACHA YOSHDAKI BOLALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLAR

Egamberdiyeva Ziyodaxon Xolmatovna

Andijon viloyati Izboskan tumanidagi 13-MTM tarbiyachisi

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy kamolotida oila va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o’rganiladigan topishmoq, topishmoqli ertaklarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xalq og’zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviyaxloqiy tarbiyalashning samarali shakl va metodlari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va maktabgacha ta’lim tashkilotining hamkorligi yoritib beriladi. Maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo’g’ini hisoblanib, u har tomonlama sog’lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g’oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat - yengilmaskuch” asarida “Ma’naviyat- insonni ruhan poklaydigan, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, imon, e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir” - deb ta’kidlagan.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida jismonan sog’lom, ma’naviy yetuk, aqlan teran, jamiyatimizda yuz berayotgan yangilik va o’zgarishlarni o’z vaqtida anglay oladigan, barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Chunki kelajagi buyuk davlatni yuqorida ko’rsatilgan sifatlarga ega bo’lgan shaxslargina barpo eta oladi.

Bugungi kunda Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ta’lim-tarbiyasi masalasi davlatimiz, hamda yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev e’tiborida turgan dolzarb masalalaridan biridir. Har qanday taraqqiyotning asosi axloqdir. Har qanday tanazzulning sababi esa axloqsizlik, ma’naviy qadriyatlarning unutilishi va oyoq-osti qilinishidir. Axloqiy me’yorlar, ma’naviy chegaralar, inson xatti-harakatini tartibga solib turadigan talablar buzilgan, uning o’rnida cheksiz erkinlik berilgan joyda parokandalik yuzaga kelaveradi. Bugungi kunda ta’lim tizimining har bir bo’g’inida ta’lim muassasalarini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqilib, hayotga tadbiiq etilayotgan bir davrda intellektual jihatdan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada Maktabgacha tarbiya muassasalari xalqimizning milliy qadriyatlari, ularning urf-odat va an’analarini o’rganish muhim ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Yosh avlodda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish dastlab oilada keyinchalik uzviylik va uzluksizlik asosida ta’limning keying bosqichlarida tizimli ravishda amalga oshiriladi. Jumladan, maktabgacha ta’lim bolalarda ma’naviy- axloqiy sifatlarni shakllantirishning dastlabki bo’g’inidir. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning maktabgacha ta’lim sohasida zamonaviy tizim yaratishga oid 2016-yil 29- dekabrda “2017-2021- yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirishning chora- tadbirlari to’g’risida”gi Qarorida, 2017- yil 30- sentyabrda “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari

to‘g‘risida”gi Farmonida, 2017-yil 19-oktabr kuni maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda viloyatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ham maktabgacha ta’limga alohida e’tibor qaratilayotganligi bejiz emas. Ma’lumki, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inidir. Mutaxassislarining fikricha, inson umrida oladigan axborot va ma’lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan. “Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasiga bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”-dedi,- Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. SHularni nazarda tutib, biz yurtimizda ilk bor Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etdik. Ushbu dalilning o‘zi bolalarning barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda bog‘cha tarbiyasini olgan bola bilan bog‘cha tarbiyasini olmagan bola o‘rtasida sezilarli darajada farq bo‘lishi ko‘pchilikka ayon. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tizimi qaytadan ko‘rib chiqilib ushbu yo‘nalishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. **Biz maktabgacha ta’lim tizimini yangi Uyg‘onish davrining ilk tayanch ustuni, deb hisoblaymiz**”.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada axloqiy sifatlarni va madaniyatni shakllantirish vazifasi va mazmuni uning ma’naviy dunyosini, ongini, axloqiy xislatlarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalashni taqozo etadi. Afsuski, axloqiy sifatlarni va madaniyatni tarkib toptirish uchun an‘analarimiz, udumlarimiz, urf -odatlarimizni bolalar ongiga singdirishda hali to‘liq tasavvurlarga ega emasmiz. Chunki asrlar davomida rivojlanib kelayotgan milliy qadriyatlarga, an‘ana, udum va urf-odatlarga, xulq madaniyati haqidagi g‘oyalarga haligacha to‘liq e’tibor berilmayapti. Kuzatishlar, ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarimiz milliy qadriyatlarimiz bo‘lgan an‘analar, udumlar va urf-odatlarimiz haqida to‘liq tasavvur va tushunchaga ega emaslar. Maktabgacha tarbiya muassasalarida milliy qadriyatlar vositasida xalq madaniyatini shakllantirishning asosiy maqsadi yosh avlodda milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lish, xalqimizning ma’naviy merosini o‘rganish, mustaqil O‘zbekistonning barcha udumlarini, urf-odatlarini, tarixini asrovchi fuqarosi bo‘lish, butun jahonga tariximiz va millatimizning qudratini namoyon etuvchi shaxsni tarbiyalashdir. Axloq-odob o‘zbek xalqi hayotining mag‘zi hisoblanadi. Insonning insoniyligi birinchi navbatda uning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi, xulq-atvori bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy barkamol inson ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, mahalla-ko‘yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat farovonligi haqida qayg‘uradi.

Tarbiyachining hikoyasi. Hikoyaning qimmatini shu bilan aniqlanadiki, u ma’lum ta’limiy vazifani hal etar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi hamda ma’lum yoshdagi gruppaga bolalariga muljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o‘qishga nisbatan afzalligi ana shundadir. Bola kattalarning nutqini yoshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi, og‘zaki tasvir asosida etarlicha jonli obrazlarni aktiv tasavvur qilishi, tarbiyachi hikoyasidagi voqea –

hodisalarning bir – biriga bog‘liqligi hamda munosabatlarni aniqlashi hamda tushunishi, hikoya mazmunidagi yangilikni o‘zining avvalgi bilimi bilan qiyoslab ko‘rishi lozim. Bularning hammasi tarbiyachining tabiat haqidagi hikoyasiga bo‘lgan talablarni belgilaydi. Hikoyada ma‘lum qilinayotgan bilimlar ishonchlilik, ilmiylik talablariga javob berishi lozim. Tarbiyachi biror narsani bolalarga aytishdan oldin faktlarning to‘g‘riligini tekshiradi.

Maktabgacha ta‘limga qamrab olingan 3-7 yoshdagi bolalarni manaviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxslar qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir. Shuningdek, “Bolajon”, “Bilimdon”, “Ilk qadam” tayanch dasturlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish masalalari o‘z ifodasini topgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni mashg‘ulotlar jarayonida o‘yin faoliyati orqali sayohatlar, suhbatlar, kitob o‘qishga qiziqtirish orqali, ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda ham shakllantirish mumkin. Bog‘chada bolalarning o‘zaro do‘stlashishi, birgalikda o‘yinlar tashkil qilishi, dastlabki mehnat ko‘nikmalarini tarbiyalash orqali, bolalarni bir-birlariga yordam berishga o‘rgatish ularga berilgan topshiriqlarni vijdonan bajarishni tarbiyalash orqali bolalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatlari mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko‘p jihatdan tarbiyachining bilimiga, mahoratiga, saviyasiga, kompetentlik darajasiga bog‘liq. Masalan, tarbiyachi yiqilib qolgan bolani joyidan turg‘azib qo‘yishi, uning kiyim boshlarini tuzatishga yordam berishi, o‘yinchoqlardan foydalanishda o‘zaro hamkorlikka o‘rgatish, bolalarga ovqatlanishdan oldin qo‘l yuvish, sochiqdan foydalangandan keyin uni belgilangan joyga ilib qo‘yishni o‘rgatish, dilbandlarimizga qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salomlashish ko‘nikmalarini shakllantirishimiz lozim.

Hulosa o‘rnida aytish mumkinki, tarbiyalanayotgan kelajak avlodlarimizni ona tabiatimizga, muqaddas Vatanimizga boy o‘tmishimizga, milliy qadriyatlarimizga, mehr-muhabbatni shakllantirish kelgusida shaxsiy manfaatlari bilan Vatan va umumxalq manfaatlarini uyg‘unlikda his qiladigan farzandlar etib voyaga yetkazish uchun asos bo‘ladi.

ПОДГОТОВКА И ТРАНСПОРТИРОВКА СМЕШАННОГО БЕТОНА

Тешабоева Нодира Джураевна

*старший преподаватель кафедры «Гедезия картография и кадастр»,
Ферганский политехнический институт, Узбекистан.*

Аннотация: В статье рассматриваются операции, выполняемые в процессе приготовления бетона. Первый - это сборка и подготовка опалубки, взвешивание материалов и приготовление бетонной смеси, транспортировка для укладки смеси в опалубку и увлажнение бетона во время твердения. Эти операции выполняются на специальных устройствах, оборудованных конвейерами, элеваторами, бункерами, дозаторами и бетономешалками.

Ключевые слова: конвейеры, бункеры, дозаторы и бетономешалки.

Строительство зданий промышленным способом основано на сборке сборного железобетона и некоторых конструктивных элементов, изготовленных на заводах. Однако в некоторых конструкциях целесообразно использовать монолитный бетон и железобетон. Бетонная смесь для крупномасштабных строительных работ готовится на крупных центральных бетонных заводах. Для небольших работ используются переносные бетономешалки с перевернутыми барабанами. В процессе приготовления бетона выполняются следующие операции: сборка и подготовка опалубки, взвешивание материалов и приготовление бетонной смеси, транспортировка смеси для укладки в опалубку и смачивание бетона при затвердевании.

Эти операции выполняются на специальных устройствах, оборудованных конвейерами, элеваторами, бункерами, дозаторами и бетономешалками. Стационарные бетономешалки предназначены для подачи бетона на несколько строительных площадок в течение года. Централизованные бетонные заводы должны иметь склад материалов, устройства, разделяющие агрегаты на часы в зависимости от их размеров, специальные испарительные камеры и транспортно-подъемные механизмы. Если в крупных и мелких заполнителях содержится много пыли и грязи, они смываются до тех пор, пока не попадут в бетономешалку. Заполнители обычно доставляются на строительные или бетонные заводы, промытые и сортированные в самом карьере. В противном случае наполнители нужно будет промыть и рассортировать на стройплощадке. Бетономешалки делятся на бетоносмесители, которые готовятся циклически и непрерывно в зависимости от режима работы. При циклическом методе материалы заливаются в бетономешалки по очереди. В бетоносмесителях непрерывного действия процесс получения готовой смеси путем смешивания материалов является непрерывным. После расчета содержания бетона материалы для приготовления смеси распределяются по вместимости барабана и переливаются в ведро. Из ковша он попадает в загрузочное отверстие барабана. Бетономешалка в смесительном барабане перемешивается до подходящего удобного распределения и расположения, затем через

распределительный бункер помещается на транспортные машины. Продолжительность перемешивания материалов в смесительном барабане зависит, прежде всего, от свойств бетонной смеси, типа цемента и производительности смесительного барабана. Если время перемешивания меньше значений в таблице, прочность бетона будет меньше, если слишком много, прочность бетона увеличится, но при этом снизится производительность бетономешалки. Объем бетонной смеси будет немного меньше суммы абсолютных объемов материалов в сухом состоянии. Поскольку зазоры между крупными заполнителями после добавления воды заполняются мелкими заполнителями, качество бетонной смеси определяется ее растекаемостью, составом, насыпной плотностью и коэффициентом текучести бетона после уплотнения. Время транспортировки бетонной смеси не должно превышать 45 минут, иначе начнется процесс загустевания. Во время транспортировки бетонная смесь должна сохранять свои пластические свойства. Если смесь является основным распределителем и легко отделяет воду от себя во время транспортировки, ее начальная растекаемость значительно снижается (более 30%). Укладка и уплотнение бетонной смеси. При приготовлении бетонных и железобетонных конструкций бетонная смесь укладывается слоями в сборной опалубке или в месте, разделенном деревянной доской, причем каждый слой хорошо уплотняется по отдельности. Плотность и прочность бетона зависит от способа укладки и уплотнения смеси в форме. Основными методами являются: вибрация, вибрационная штамповка, вакуумирование и вибрационное вакуумирование. Вибрационная сила, действующая на бетонную смесь, снижает трение между заполнителями в бетоне, и, наконец, смесь немного разжижается, а затем хорошо конденсируется в форму. Для правильного позиционирования бетонной смеси используются различные типы вибраторов (вибраторы). Вибраторы, применяемые в строительстве, делятся на поверхностные, внешние и внутренние по строению конструкции. Наружные и внешние вибраторы используются для бетонирования фундаментов, уплотнения стеновых блоков и панелей, плит перекрытий, бетонных полов. Дозировка компонентов. При приготовлении бетонная смесь дозируется по массе материалов. Соответствие фактического состава бетона заданному зависит от точности дозирования его состава. Цемент, вода и добавки дозируются с точностью $\pm 1\%$, заполнители - $\pm 2\%$. При использовании дозаторов с автоматическим управлением все операции выполняются по заданной программе; полуавтоматические диспенсеры автоматически заполняются и разгружаются по команде оператора, подаваемой с центральной панели управления. Дозаторы цемента и заполнителя устанавливаются под потоком разгрузочных бункеров, а для воды и примесей - над смесителями. Дозаторы проверяются один раз в месяц сотрудниками строительной лаборатории. На основании данных, полученных после 10 взвешиваний, отличие от фактического веса, приведенного для дозирования, для цемента и порошка - не более 20%, для крупных и мелких заполнителей - 2,5%; для воды и жидких дозирующих добавок - 2%. Погрешности непрерывно работающих ТРК определяются на основании данных, полученных за 30 секунд работы технологической линии в заданном режиме.

Смешивание бетонных смесей. Для приготовления бетонных смесей используются бетоносмесители, в которых два разных материала свободно и принудительно смешиваются. Бетономешалка, свободно перемешивающая материалы, состоит из наклонного барабана с приваренными по окружности к внутренним стенкам перьями. Материалы широко используются в бетоносмесителях для приготовления мобильных бетонных смесей.

Для приготовления бетонных смесей желательно использовать смесители с принудительным перемешиванием. Смешивание материалов, входящих в состав бетона, происходит следующим образом: лопасти, приваренные к внутренней стенке барабана, захватывают материал при вращении барабана и поднимают его, откуда материал рассыпается вниз. Этот процесс повторяется на протяжении всего времени вращения барабана, в результате чего бетонные компоненты смешиваются друг с другом. В смесителях с принудительным перемешиванием компоненты, из которых состоит бетон, вращаются внутри смесительной чаши, и расширение осуществляется с помощью лопат или лопат, направляемых в вертикальные или горизонтальные валы. В этом случае смесительные лопасти вращаются как вокруг оси емкости, так и вокруг собственной оси. Промышленность выпускает бетоносмесители типа С-949, С-773, С-951 объемом 250, 500 и 1200 литров соответственно. Материалы загружаются в смеситель в следующем порядке: сначала заливается 15-20% воды, затем одновременно с заливкой оставшейся воды добавляются цемент и раствор. Одновременно с подачей нагретой воды засыпается крупный наполнитель: мелкий наполнитель и цементный барабан или чаша для смешивания бетона, которая принудительно перемешивается, заполняются через несколько оборотов.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Джураевна Т. Н. Методы идентификации поверхностей, используемые в землеустройстве и земельном кадастре // АCADEMICIA: Международный междисциплинарный исследовательский журнал. - 2020. - Т. 10. - №. 8. - С. 98-103.
2. Тешабоева Н. Д. Способ определения капиллярной проницаемости бетона в условиях сухого жаркого климата // ЕВРАЗИЙСКИЙ СОЮЗ УЧЕНЫХ (ЕСУ). - 2019. - С. 70.
4. Мамажонов А.У., Тешабоева Н.Д. ВЛИЯНИЕ ДИСПЕРСНОСТИ И КОЛИЧЕСТВА МИНЕРАЛЬНОГО НАПОЛНИТЕЛЯ НА АУТОГЕЗИЮ ЧАСТИЦ ЦЕМЕНТА // Евразийский Союз Ученых. - 2019. - №. 12-4 (69).
5. Мамажонов А. У., Тешабоева Н. Д. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МИНЕРАЛЬНЫХ НАПОЛНИТЕЛЕЙ И ХИМИЧЕСКОЙ ДОБАВКИ АЦФ, ПАВ ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНОГО НАЗНАЧЕНИЯ, ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ ЦЕМЕНТА, МОНОЛИТНЫХ И СБОРНЫХ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ // Евразийский Союз Ученых. - 2020. - №. 3-2 (72).

6. Джураевна Т. Н. и др. Влияние поверхностных добавок на показатели прочности цементных систем // Американский журнал прикладных наук. - 2020. - Т. 2. - №. 12. - С. 81-85.

7. Джураевна Т. Н. и др. Строительные материалы, определяемые в архитектурных памятниках Центральной Азии // Американский журнал прикладных наук. - 2020. - Т. 2. - №. 12. - С. 77-80.

8. Джураевна Т. Н. Установка коллекторов при ремонте эффективных зданий // ACADEMICIA: Международный междисциплинарный исследовательский журнал. - 2020. - Т. 10. - №. 5. - С. 823-826.

9. 2. Тешабоева Н.Д. Метод определения капиллярной проницаемости бетона в сухом жарком климате // ЕВРАЗИЙСКИЙ СОЮЗ УЧЕНЫХ (ЕСУ). - 2019. - С. 70.

10. Мамажонов А.У., Тешабоева Н.Д. ВЛИЯНИЕ ДИСПЕРСНОСТИ И КОЛИЧЕСТВА МИНЕРАЛЬНОГО НАПОЛНИТЕЛЯ НА АУТОГЕЗНОСТЬ ЧАСТИЦ ЦЕМЕНТА // Евразийский союз ученых. - 2019. - №12-4 (69).

11.Мамажонов А.У., Тешабоева Н.Д. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МИНЕРАЛЬНЫХ НАПОЛНИТЕЛЕЙ И ХИМИЧЕСКИХ ДОБАВОК АКФ, ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОВЕРХНОСТЕЙ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ ЦЕМЕНТНЫХ, МОНОЛИТНЫХ И МОНТАЖНЫХ УСИЛЕНИЙ СОЮЗ РООЦЕТОН. - 2020. - №3-2 (72).

12.Тешабоева Н. Д. Органическое вещество в получении аглопорита из сырьевого значения // МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ДИСКУРСА ПО ИННОВАЦИЯМ, ИНТЕГРАЦИИ И ОБРАЗОВАНИЮ. - 2021. - Т. 2. - №. 2. - С. 63-66.

13. Джураевна Т. Н. Показатели прочности цементных систем с добавками поверхностно-активных веществ // Американский журнал прикладных наук. - 2021. - Т. 3. - №. 05. - С. 203-209.

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДИЙ ФАОЛЛИККА ЙЎНАЛТИРИШ

Шарофутдинова Раънохон Шавкатовна

*Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси ўқитувчиси,
Фарғона давлат университети*

Бошланғич таълим жараёнида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ривожлантириш учун ўқувчиларни илмий дидактик, психофизиологик ва турли шарт-шароитларларни яратиш муҳим аҳамият касб этади. Бунинг учун биринчи навбатда талаблар асосида унинг устувор йўналишларини изланувчи таълим, муаммоли вазиятлар яратиш ва таълимга технологик ёндашув асосида ташкил этилиши ўқувчилар ижодий фаолиятни ривожлантиришнинг самарадорлигига замин тайёрлайди. Бошланғич таълим ўқувчиларида ижодий фаолиятни ривожлантириш ўзига хос психологик-педагогик хусусиятга эга бўлиб, булар ўқувчиларнинг ақлий фаолиятни ривожлантириш билан боғлиқ ҳолда муаммоли вазиятлар яратиш, машғулотларга мақсадли ёндашув, ўқувчиларнинг қобилияти, қизиқиши, хоҳиш ва истакларини ҳисобга олиш, ахлоқий эстетик ҳиссиётини тарбиялаш, билимлар тизими, малака ва кўникмаларини фаолиятнинг турли шакл ва методларини эгаллаб олишга йўналтирилади. Ижодий фаолият таълимнинг уч тури орқали шахснинг ижодий фаолияти, билишга доир фаолияти, ташкилий фаолият каби сифатларнинг шаклланиши асосида ривожланади ва булар таълимнинг ноанъанавий шакл ва методлари воситасида самарали натижаларга олиб келади.

Ҳозирда анъанавий ўқитиш ўрнини шахсга йўналтирилган ёндашувлар эгалламоқда. Шу нуқтаи назардан, бошланғич синф ўқувчиларининг эгаллаган билим, кўникма ва малакаларини мунтазам назорат қилиб бориш, ўқувчиларнинг олаётган билимларидаги бўшлиқларни ўз вақтида тўлдириб бориш, иқтидорли ўқувчилардаги интеллектуал қобилиятни иқтидорни мунтазам ривожлантиришга шарт-шароит яратиш, ўқувчиларни катталар билан ҳамкорликда фаолият кўрсатишга қизиқтириш, уларнинг қизиқтирган фанларга инновацион педагогик ёндашувлар орқали тажрибаларни бойитиш, синфдан ташқари педагогик тадбирлар режасини ишлаб чиқиш, ўқув-тарбия жараёнида замонавий педагогик технологиялардан ҳамда педагогика фанининг хорижий ҳамда илғор ютуқларидан мунтазам фойдаланиш, таълим жараёнига ахборот-коммуникацион технологияларини кенг татбиқ этиш, ўқитувчиларнинг ота-оналар билан ҳамкорликда фаолият юритишларини йўлга қўйиш, бошланғич синф ўқитувчиларини қайта тайёрлаш ва малакаларини мунтазам ошириб боришда инновацион усулларни чуқур жорий этиш каби вазифаларни амалга ошириш ишлари олиб борилмоқда. Бундан келиб чиқиб бошланғич таълимнинг асосий мақсадига эришиш, яъни ўқувчида ўқишга ижобий муносабатни шакллантириш, ўқиш саводхонлигини таркиб топтириш, ўқувчиларни турли маълумотлар билан ишлашга ўргатиш, йўналтириш асосий математик амалларни пухта билишларига ва кундалик ҳаётда қўллай олишларига эришиш, уларда мантиқий

ва ижодий фикрлашни шакллантириш, уларни ёзма ва оғзаки мулоқот меъёрларини эгаллашга ҳамда ўз-ўзини бошқариш ва тута билишга ўргатиш учун бошланғич синфларда сифатли таълимий фаолиятни ташкил этишга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади. Бизга маълумки, бошланғич таълим концепциясининг асосини бошланғич таълим сифати ва самарадорлигини оширишга қаратилган ёндашувлар ва ғоялар ташкил этади. Шунингдек, бошланғич таълим концепциясида бошланғич таълимни модернизациялаш, бошланғич синфларда ўқув-тарбия жараёнини ташкил этиш, унинг сифати ва самарадорлигини таъминлаш илмий асосланган ғоялар асосида амалга оширишга қаратилган. Бошланғич таълимни модернизациялаш орқали ўқув-тарбия жараёни сифатини ошириш масаласи концепцияда илгари сурилган бошланғич таълимни ривожлантиришнинг назарий-амалий ғоялари педагогика фанининг ютуқларига таянган ҳолда белгилаб берилган. Бошланғич таълимнинг асосини шахс камолоти, унинг баркамол шаклланиб, ривожланиши ҳақидаги ғоялар белгилайди. Бошланғич таълимни модернизациялаш орқали ўқув-тарбия жараёни сифатини ошириш бўйича қарашлар ва ғоялар тизими амалдаги фанларни ўқитишга асосланган бошланғич таълимдан интеграллашган, шахсга йўналтирилган ҳамда компетенциявий ёндашувга асосланган бошланғич таълимнинг истиқболлигини ифодалайди. Мактабга илк қадам қўйган болалар ўз ёш хусусиятлари ҳамда тафаккур ва руҳий тараққиёт даражаларига мувофиқ келадиган таълимий фаолиятга киришадилар. Бошланғич синф ўқувчиларида ўқиш ҳамда ўрганишга қаратилган фаолиятнинг шаклланишида, ҳар бир ўқув предмети бўйича билимларни эгаллаш жараёнида уларнинг онги, тафаккури жадал тарзда ривожланади. Бу онг ва тафаккур ўз характериға кўра назарий ҳамда илмий тушунчаларни ўзлаштириш натижасида вужудга келган онг ва тафаккур бўлиб, боланинг жадал тарзда тараққий этишини, дунёқарашининг ривожланишини таъминлайди. Бундан ташқари, бошланғич таълимнинг мазмунини такомиллаштиришга доир инновацион технологияларни татбиқ этиш, дарсликлар мазмун-моҳиятиға компетенциявий ёндашув асосидаги мақсадларни сингдиришга, яъни билим бериш билан бир қаторда, ўқувчиларда амалий, ҳаётий компетенциялар (кўникмалар)ни шакллантиришга алоҳида аҳамият берилмоқда.

Хусусан, мустақиллик йилларида юртимизда бир қатор олим ва тадқиқотчилар томонидан бошланғич синф ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтиришнинг турли жиҳатлари бўйича илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

MAMLKATIMIZ TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI OSHIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Muratov R.S

TDIU, “Xalqaro turizm” fakulteti,

“Biznesni boshqarish va logistika” kaf. dotsenti, i.f.n.

Ergashev S.Z

TDIU, “Magistratura” bo’limi, 2-bosqich magistanti.

Mamlakatimizning barcha hududlarida sanoat korxonalarini tashkil etish, ularni qo‘llab-quvvatlash, mahsulotlarini eksportga yo‘naltirish va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotning barqaror sur‘atlar bilan o‘shishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz joriy o‘tgan 2021yil 15-16 iyulda Toshkent konferentsiyasida – O‘zbekistonning ikki mintaqaga chaqirig‘ida o‘z nutqida Markaziy Osiyoda transport-logistika yo‘nalishida amalga oshirilayotgan va bajarilgan bir nechta loyihalarga to‘xtalib, chegara va bojxona sohasida yaqindan hamkorlik zarurligini e‘tirof etdi.

SHunday ekan, transport xizmatlari bozori mintaqalararo hamkorlik aloqalarini taraqqiy ettirib, yangi biznes muhitini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirilishini alohida ta’kidlab o‘tdi.

O‘z navbatida, Respublikada transport xizmatlari eksportini kuchaytirishga ustuvorlik berish lozimligiga ham alohida e‘tibor berildi.

Umuman, transport xizmatlari bozorining respublikamizda kelgusidagi izchil taraqqiyoti Harakatlar strategiyasida belgilab berilganidek xizmat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida bozor talab va taklifi, raqobatchilik muhiti asosida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar darajasiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Prezidentimiz bu borada, quyidagi asosiy yo‘nalishlarda o‘z takliflarini ilgari surdi. Jumladan:

-Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi savdo, tranzit va chegaralardan o‘tish jarayonlarini raqamlashtirish;

-ikki mintaqadagi oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha dastur qabul qilish;

-ikki mintaqaning ulkan sayyohlik salohiyatini to‘liq ishga solish;

-“yashil” iqtisodiyotni rag‘batlantirish;

-xavfsizlikka nisbatan tahdidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish.

Markaziy va Janubiy Osiyoda zamonaviy, samarador va xavfsiz transport-logistika infratuzilmasini yaratish.

Bunda «Termiz – Mozori SHarif – Kobul – Peshovar» temir yo‘l tarmog‘i mintaqalarimiz o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik arxitekturasi asosiy bo‘g‘iniga aylanishi kerak;

- Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlantirish maqsadida istiqbolli raqamli platformalarni joriy etish».¹⁹

Ta’kidlash joizki, mazkur temir yo’lni qurish bo’yicha “yo’l xaritasi” shu yil fevralda O’zbekiston, Afg’oniston va Pokiston tomonidan tasdiqlangan edi.

Buning uchun savdo, tranzit, chegaralardan o’tish borasida raqamli hamkorlikni kuchaytirish bo’yicha aniq choralarni ishlab chiqish va bu jarayonga BMTning ixtisoslashgan tuzilmalari ekspertlarini jalb etish» hozirgi kundagi xalqaro transport logistik tizimini rivojlantirishdagi dolzarb masalalardan ekanligi ta’kidlab o’tildi.

Albatta, bunday natijalarga erishishda Prezidentimizning oxirgi paytlardagi eksportni yanada rag’batlantirishga, tashqi bozorlarda mahalliy tovarlar raqobatbardoshligini ta’minlashga, eksportyor tashkilotlarni yanada qo’llab-quvvatlashga va tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga oid farmon va qarorlarimuhim omil vazifasini o’tamoqda. Bu hujjatlar, avvalo, eksportchilarimiz mushkulini osonlashtirishga yo’naltirilgan. CHunonchi, 1 iyundan e’tiboran ularga o’zlari ishlab chiqargan tovarlarni umumiy miqdori 100 ming AQSH dollari ekvivalentidan oshmagan shartnomalar asosida chet el valyutasida oldindan to’lovsiz, akkreditiv ochmasdan, bank kafolatini rasmiylashtirmasdan hamda eksport shartnomalarini siyosiy va tijoriy xavflardan sug’urta polisisiz eksportga chiqarishga ruxsat berildi (yangi meva-sabzavotlar, poliz va uzum mahsulotlari, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktyabrdagi 1871-sonli Farmoni 2-ilovasida ko’rsatilgan xomashyo tovarlar bundan mustasno). SHu shart bilan eksport qilingan tovarlar bo’yicha valyuta tushumini ta’minlash muddati 90 kun qilib belgilandi.

Xo’jalik sub’ektlari sohiblarini behad quvontirgan navbatdagi yangilik shundan iboratki, muqaddam ular eksport qilishdan tushgan valyuta mablag’larining 50 foizini davlatga sotishga majbur edilar. Joriy yil fevralida bu miqdor 25 foizga qisqartirildi, 1 avgustdan e’tiboran esa batamom bekor qilindi. Demak, endilikda eksportchi korxonatashkilotlar o’z valyuta tushumlarini to’liq va emin-erkin istifoda qila oladilar.

Respublikada tashqi savdoni qo’llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo’yicha olib borilaётgan chora-tadbirlar natijasida 2018 yil yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi o’tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 % oshdi va 38,6 %ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 66,3 %ni tashkil qilgan bo’lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,4 %ga tushdi.²⁰

Bu o’zgarishlar bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, eksport hajmini oshirish, mahalliy eksportchilarning raqobatdoshligi va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ortiqcha va eskirgan ruxsat berish tartibotlarini bekor qilish orqali

¹⁹ Toshkent konferentsiyasi – O’zbekistonning ikki mintaqaga chaqirig’i (2021 й.15-16 июль)

²⁰ <https://stat.uz/uz> ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

ishbilarmonlik muhitini takomillashtirish va mamlakatimizning eksport salohiyatini yuksaltirishdek ezgu maqsadlarga xizmat qila boshladi.

Eksport siyosatini amalga oshirish keyingi yillarda eksport hajmini ikki barobar o‘stirish imkonini berdi. Lekin keyingi yilddagi o‘shirish juda ham past kechdi. Eksportning kamayishi Sharqiy Osiyo va MDH mamalaktlarida yuz bergan iqtisodiy va moliyaviy tanglik sababli Dunyo bozorida talabning pasayishi tufayli yuz berdi. Shu bilan birga ichki siyost shartlari va tabiiy omillar ham ma’lum rol o‘ynaydi.

Eksportdagi ichki etakchi bandning ulushi yuqoriligicha qolayotgan bo‘lsa ham, eksport tuzilmasini diversifikatsiyalashda muayyan ijobiy siljishga erishildi.

Mamlakatimizda eksportni rivojlantirishni sekinlashtirayotgan muammolar quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- Tashqi bozorga ishlaydigan korxonalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlovchi moliya-kredit sektorining etarli rivojlanmaganligi;
- Narxlar erkin bo‘lgan bir sharoitda ko‘pgina mahsulotlar ishlab chiqarish monopoliyasining saqlanib qolinishi korxonalariga istagancha narx qo‘yish imkonini bermoqda. Ular bunday sharoitda o‘z mahsulotlarini ichki bozorda sotishdan ko‘proq manfaatdordirlar;
- Xususiy sektorning sust rivojlanganligi va uning eksportdagi ulushining kamligi;
- Eksport qilinadigan mahsulotlar narxining qimmatlashishiga sabab bo‘layotgan hamda uning iqtisodiy jihatdan foydasiz qilib qo‘yayotgan aksariyat qismi tariflar juda yuqori bo‘lgan mavjud yuk tashish tizimi;
- Ko‘pgina korxonalarining faol tashqi iqtisodiy siyosatga ega emasligi: bu marketing tadqiqotlari va reklama ishlarini juda zaif ravishda tashkil etilganligida ko‘zga tashlanmoqda;
- Eksport mahsulotlarini ko‘paytirish uchun yaxshi imkoniyatga ega bo‘lgan ayrim korxonalarda zarur aylanma mablag‘lar va sarmoyalarning yo‘qligi;
- Eksportdan tushadigan valyuta tushumining davlatga majburiy sotish stavkasining yuqoriligi, milliy valyuta rasmiy kursining yuqori qilib belgilanganligi;
- Ko‘pgina tayyor mahsulot turlarini ishlab chiqarishning almisoqdan qolgan texnologiyalaridir. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning serxarajatliligini, ko‘p material va energiya talab qilinishi bilan ajralib turadi. Natijada, ko‘pgina mahsulot turlari tannarxining jahondagi shunday mahsulotlar tannarxidan ancha yuqoriligi ularni raqobatga bardoshsiz qilib qo‘ymoqda;
- Eksport qiluvchilarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va eksportga ko‘maklashish tizimining etarli emasligi.

Ushbu sanab o‘tilgan, eksportning rivojlanishiga salbiy ta’sir etayotgan omillarni tartibga solishda va bartaraf etishda, shubhasiz davlatning asosiy roli iqtisodiyotning rivojlanishini jadallashtirish hamda eksportni tartibga soluvchi, rag‘batlantiruvchi yagona davlat tizimi va eksportga ko‘maklashish aniq chora-tadbirlari mexanizmini barpo etishda namoyon bo‘lishi kerak.

2022 yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so‘mlik yoki 2020 yilga nisbatan 16 foiz ko‘p investitsiyalarni o‘zlashtirish mo‘ljallanmoqda.

Bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori joriy yilga nisbatan qariyb 1,5 barobar oshirilib, 4,2 milliard dollarga etkaziladi. Natijada 142 ta zamonaviy korxonalar ishga tushiriladi.²¹

Respublikadan eksport qilinaётgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 37,1 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinaётgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimё mahsulotlari va undan tayёрlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin

Bu siyosatning muhim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, eksport tarkibini diversifikatsiyalash va xomashyo mahsulotlari hamda materiallarini eksport qilishdan qochib, qo‘shimcha qiymat ulushi ko‘proq bo‘lgan tayyor mahsulotlar chiqarishga urg‘u berish;

Ikkinchidan, tegishli infratuzilmani rivojlantirish orqali erishiladigan eksport mahsulotini faol yo‘naltirish;

Uchinchidan, yangi texnologiyalar olib kelish va mamlakat eksport salohiyatini orttirishga ko‘maklashadigan chet el investorlari ishtirokida qo‘shma korxonalar qurish;

To‘rtinchidan, import o‘rnini bosadigan tovarlar siyosatini tovarlar import qilish o‘rniga mashinalar va sanoat hamda qishloq xo‘jaligiga uchun uskunalarni import qilishga qaratishni nazarda tutib qo‘llash.

O‘zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha yaqin kelajakka mo‘ljalgan strategiyasining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar :

-**birinchidan,** eksportni rag‘batlantirish uchun, avvalo, barqaror makroiqtisodiy sharoit yaratish lozim. Bu inflyasiyaning sur‘atlari barkkror va bashorat qiladigan tarzda bo‘lishi , valyuta almashtirish kursi bir xil bo‘lishini anglatadi. Bunday sharoit ekportyorlarga tashqi savdo shartnomalari tuzish, akkreditivlar ochish, valyutani erkin almashtirishga ishonch va olajak daromadlari haqida aniq tasavurlarga ega bo‘lish imkonini beradi;

- **ikkinchidan,** eksport salohiyatnig rivojlanishiga mikroiqtisodiy omillar ham ko‘maklashishi lozim. Xo‘jalik yurituvchi barcha sub’ektlarning mulk shaklidan qat’iy nazar, import kilinayotgan ishlab chiqarish vositalarni olish uchun bir xil imkoniyatga ega bo‘lishlarini taminlash bu omillar ichida eng muhim o‘rin tutadi;

-**uchinchidan,** inson omilini rivojlantirish eksport salohiyatini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa turli bo‘g‘inlardagi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash vazifasini o‘z zimmasiga olishi lozimligini bildiradi. Buning uchun ishchilarning bilimlari va kasb malakalarini takomillashtirish , ishchilarini tayyorlash zamonaviy texnika va texnologiyalarda amalga oshirilishi kerak;

-**to‘rtinchidan,** eksport salohiyatini rag‘batlantirish maqsadida turli murvatlardan foydalanish zarur. Birinchi navbatda, uncha o‘zoq bo‘lmagan muddatga eksport

²¹ <https://stat.uz/uz/- ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi>

subsidyalari kiritish lozim. Ammo bunday subsidiyalar ularni amalga oshirish uchun qilingan byudjet xarajatlarini ko‘paytirmasligi kerak. Eksportni rag‘batlantirishning eng qulay shakli erkin iqtisodiy zonalar hisoblanadi;

-beshinchidan, qulay iqlim sharoitlari va aholining an’anaviy malakalaridan mamlakat eksport salohiyatini rivojlantirishda keng foydalanish zarur. Bunda aholining meva va sabzavot etishtirish bo‘yicha malakalari nazarda tutilmoqda. Bizningcha, O‘zbekiston Evropa Ittifoqi uchun sabzavotlarni etkazib beruvchi asosiy mamlakat bo‘lgan Portugaliyaning tajribasini o‘rganishi kerak. Bu tajribani qo‘llash O‘zbekistonda ham eksportga yil davomida sabzavot etkazib beruvchi butun bir sohani yaratish imkonini beradi.

Etishtirilgan mahsulot O‘zbekiston meva va sabzavotlarining an’anaviy iste’molchilari bo‘lgan Qozog‘iston, Rossiyaning Sibir, Ural va boshqa mintaqalariga etkazib berilishi kerak. Meva va sabzavot ishlab chiqarish mamlakat eksport salohiyatini oldinga tortuvchi lokomotivga aylanishi kerak. Shuning uchun ishlab chiqarishning bu turiga juda katta e’tibor berish va davlat yordamini ko‘rsatish hozirgi kundagi va istiqboldagi asosiy bosh yo‘nalishlarimizdan biri bo‘lib hisoblanadi.

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilaётgan keng qamrovli islohotlar va dunё mamlakatlari bilan olib borilaётgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda. Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o‘rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoniga asosan “2023-2025 yillarda – 11 ta, shu jumladan neft mahsulotlarini saqlash, temir yo‘llarida tashishda qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatish, aerovokzal va vokzal oldi komplekslarini yuritish xizmatlari, qattiq maishiy chiqindilarni yig‘ish, tashish va utilizatsiya qilish hamda qayta ishlash xizmati, temir yo‘lda ekspeditorlik xizmatlari faoliyat turi bo‘yicha monopoliyalar tugatish...”²² borasidagi ko‘rsatmalari mamlakatimizning xizmatlar ko‘rsatish va eksport salohiyatini oshirishdagi dolzarb va muhim yo‘nalishlaridan bo‘lib hisoblanadi.

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrda “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni

IQTISODIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT KOMMUNIKATSIYALARI LOGISTIKA INFRATUZILMALARINING XUSUSIYATLARI

Muratov R.S

*TDIU, “Xalqaro turizm” fakulteti,
“Biznesni boshqarish va logistika” kaf.dotsenti, i.f.n.*

Ergashev S.Z

*TDIU, “Magistratura” bo’limi,
2-bosqich magistanti.*

O‘zbekiston Respublikasi xizmatlar bozorida transport kommunikatsiyalari xizmatlari yrni va ahamiyatining oshib borishi tizim bozori kon'yunkturasida turli xil transport xizmatlari, jumladan, avtomobil transporti o‘rning yuqoriligi bilan izohlanadi. Transport xizmatlari bozorida iste'molchilarning o‘z ehtiyojlarini to‘la qondirishi uchun transport xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi raqobat muhitini kengaytirish, xizmat turlarini diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash lozim.

Hozirgi iktisodiyotda transport kommunikatsiyalari va logistika infratuzilmalari tizimida materiallar oqimini tashkil etish imkonini beruvchi texnik vositalar yig‘indisi va unga nisbatan omborlarning va ishlab chiqarish uchastkalarining joylashuvi moddiy oqimlarning harakatini tashkil etish shakllarini hosil qilish ushbu yunalishdagi muxim omillardan bulib xisoblanadi.

Transport kommunikatsiyalari tizimida moddiy oqimlar harakatini tashkil etishni bu shaklining afzalligi tizimga kirish va chiqishda materiallarni katta hajmda yig‘ish imkonining mavjudligi, bu esa bir tarafdin, zarur detallar, yarim tayyor mahsulotlar, yig‘uvchi qismlarning ishlab chiqarishga vaqtida etkazib berilishini ta‘minlasa, ikkinchi tarafdin mahsulot iste‘molchilarining muhim buyurtmalarining bajarilishini kafolatlaydi.

Bu borada Prezidentimiz Sh. Sh.Mirziyoevning joriy o‘tgan 2021yil 15-16 iyulda Toshkent konferentsiyasida – O‘zbekistonning ikki mintaqaga chaqirig‘ida quyidagi yo‘nalishlarda o‘z takliflarini ilgari surdi:

Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarini iqtisodiy rivojlantirish maqsadida istiqbolli raqamli platformalarni joriy etish. Buning uchun savdo, tranzit, chegaralardan o‘tish borasida raqamli hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha aniq choralarni ishlab chiqish va bu jarayonga BMTning ixtisoslashgan tuzilmalari ekspertlarini jalb etish...

Markaziy va Janubiy Osiyoda zamonaviy, samarador va xavfsiz transport-logistika infratuzilmasini yaratish. Bunda «Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar» temir yo‘l tarmog‘i mintaqalarimiz o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik arxitekturasining asosiy bo‘g‘iniga aylanishi kerak.

Mazkur yo’nalishlarda transport yo’laklarini rivojlantirish va yirik logistika infratuzilma loyihalarini birgalikda amalga oshirish umumiy manfaatlarimizga to’liq javob beradi.”²³ - deb alohida ta’kidlab o’tdilar.

Bu o’z navbatida, transport kommunikatsiyalari tizimida moddiy oqimlar harakatini tashkil etish – **yig’uvchi shakli aralash transport-ombor tizimini (TOT)** mavjudligini nazarda tutadi, bu tizim ma’lum ish joylar (uchastkalar) sonini, har bir ish joyini (uchastkani) boshqasi bilan axborot va moddiy oqimlar orqali aloqalar o’rnatish yo’li bilan birlashtiriladi.

Ta’kidlash joizki “...importni keskin kamaytirish va asbob-uskunalar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hajmini oshirish uchun qo’shma korxonalar tashkil etish bo’yicha puxta ishlab chiqilgan aniq chora-tadbirlar kompleksini taqdim etish zarur.”²⁴

Bunda mexanik qayta ishlash (yig’ish), nazorat, ishlab chiqarishni tayyorlash, materiallarni omborga joylashtirish va nazorat qilish jarayonlari moddiy oqim harakatini boshqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: zarur yarim tayyor mahsulotni ombordan qidirish – ish joyiga tashish – qayta ishlash – detalni omborga qaytarish.

Moddiy oqimlarni tashkil etishni bu shaklining qulayliklari quyidagilardan iborat: TOTni tashkil etish hisobiga ish joylarida zahira hajmining kamayishi; ishlab chiqarish siklining tashkil etuvchilari o’rtasidagi to’xtashlarni yo’qotish orqali ishlab chiqarish jarayonining davomiyligini qisqartirish; zahiralar ustidan doimiy nazorat; materiallar harakatini boshqarishning yaxshi tashkil etilgan tizimining mavjudligi.

Yuklarni tashishda transport kommunikatsiyalari va logistika infratuzilmalari transport-ekspeditorlik xizmatlarining o’ziga xos xususiyatlari quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- ✓ Tashqi savdo opretsiyalari bitimlari bo’yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish;
- ✓ YUklarni bojxona deklaratsiyasini amalga oshirish;
- ✓ YUklash-tushirish ishlari;
- ✓ Avtomobil tashuvlari;
- ✓ Mahsulot hujjatlarini rasmiylashtirish;
- ✓ To’g’ri tashkil etilgan tashish ishining amaliy boshqaruvi, to’g’ri tashkil etilgan hujjatlashtirish va hujjat aylanmasi hamda barcha transport jarayonlarini axborotlashtirish va kompyuterlashtirish yordamida amalga oshiriladi. Xalqaro yuk tashuvlarida mahsulotning transport hujjatlari tanlangan transport vositasi turiga qarab, xalqaro muomalada qo’llaniladigan tilda tayyorlanadi.

Ma’lum transport turida tashish ishini tartibga soluvchi amaldagi umumiy kodeks va nizomlar bilan bir qatorda har bir aniq holda ham tashish shartnomasi tuziladi. Bu hujjatda yuk tashuvchi aytilgan yukni belgilangan muddatda berilgan manzilgacha tashib berish, jo’natuvchi esa belgilangan tartibda yuk tashuvchi ishiga xaq to’lash majburiyatlarini oladilar. “Yo’l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha,

²³ Sh.M.Mirziyoev. “Toshkent konferentsiyasi – O’zbekistonning ikki mintaqaga chaqirig’I” (2021 й.15-16 июль)

²⁴ Sh.M.Mirziyoev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik–har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. <http://kun.uz/news/2017/14/01/>

boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.”²⁵ ni taqozo etadi.

Transportning har xil turlari uchun yuk tashish ishlarini hujjatlashtirishga doir o‘z atamalari mavjud, hamda tuzilayotgan yuklash hujjatlari o‘z xususiyatlariga ega. Har xil transport turlari uchun yuk tashish hujjatlarining klassifikatsiyasi quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

Respublikada o‘tkazilayotgan yirik miqyosli iqtisodiy islohotlar nuqtai nazaridan transport tor yo‘llari muammosi O‘zbekiston uchun hal etilishi zarur masalalardan biri hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 16 aprelda Vazirlik va idoralarning BMT, EI va boshqa xalqaro tashabbuslar bo‘yicha transport tor yo‘llari, mintaqaviy loyihalarni shakllantirish bo‘yicha vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish uchun bosh vazir o‘rinbosari boshchiligida idoralararo ishchi guruhini tashkil etish bo‘yicha farmoyish qabul qilindi.

Unda ishchi guruhining birinchi navbatdagi vazifalari belgilandi.

O‘zbekiston-Qirg‘iziston-Xitoy- ushbu transport tor yo‘li tarixiy mavjud bo‘lgan Andijon-O‘sh-Sariqtosh-Ergashtom-Qashg‘ar avtomobil yo‘li yo‘nalishidan iborat bo‘lib, uzunligi 315 km, shundan 40 km (A-373 yo‘li) O‘zbekiston hududidan o‘tadi, yo‘lning qolgan qismi M41 yo‘lining qismi hisoblanadi. O‘sh-Sariqtosh yo‘nalishining bir qismi ikki dovon (CHig‘irchi-2406km va Taldiq - 3615km) orqali o‘tishni ta’kidlash lozim;

Sariqtosh - Ergashtom (80km) qismi esa qayta tiklashni talab etilayotganligi sababli avtomobil harakati uchun yaroqsizdir. Tor yo‘l murakkab tog‘ relefli joy bo‘yicha o‘tadi va katta investitsiyalarni talab qiladi. Ushbu transport tor yo‘li iqtisodiy jihatdan eng qulay ekanligini ta’kidlash lozim, negaki u nafaqat masofani sezilarli qisqartiradi, balki eng kam transport xarajatlari bilan Xitoy ichkarisiga tashishlarni amalga oshirish imkonini beradi.²⁶

Xalqaro transport huquqi, eng avvalo, suv yo‘llaridagi tashuvlar uchun ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda xalqaro transport huquqi konvension tusga ega bo‘lib, xalqaro savdo huquqi bilan chamcharchas bog‘langan. Xalqaro miqyosda transport faoliyatini tartibga solish ikki turdagi konvensiyalar yordamida amalga oshiriladi:

1. Birinchidan, cheklangan sonli davlatlar orasida tuzilgan lokal darajadagi konvensiyalar (masalan, ikki tomonlama konvensiyalar, MDH davlatlari orasidagi konvensiyalar va hokazo.)

2. Ikkinchidan, global ahamiyatga ega bo‘lgan, xalqaro tashkilotlar, eng avvalo BMT rahnamoligida tuziladigan konvensiyalar. Bunday konvensiyalar ta’sir doirasi qatnashchilarning katta doirasini (deyarli barcha davlatlarni) o‘z ichiga oladi.

Transport tizimida logistik marketing xizmatlarini turli davlatlarning qonunchiligi va savdo sohasidagi an‘analarining har xilligi tufayli barcha portlarda yukka javobgarlik, hujjatlashtirish, sug‘urta qilish turlicha bo‘ladi. Ana shu munosabatlarni unifikatsiyalash uchun 1936 yili birinchi bor xalqaro savdodagi tijorat terminlarining ma’nosi to‘g‘risida

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 07 fevraldagi ”O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947 sonli Farmoni.

²⁶ O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi . www.uzaart.uz
www.bestpublication.uz

to‘plam nashr etilgan. Xalqaro tijorat terminlarining zamonaviy nashri “Inkoterm-2010” bo‘lib, ingliz va fransuz tillarida chop etilgan va 2010 yildan buyon amal qiladi. “...bu borada xomashyo import qilish 1,3 barobar ko‘paygan. Yirik va hayotiy muhim loyihalarni amalga oshirish muddatlari doimo barbod qilinmoqda.”²⁷

Transport tizimida logistik marketing xizmatlarini sohasidagi xalqaro kelishuvlar quyidagi turdagi huquqiy, tashkiliy, texnik va tijorat masalalarini qamrab oladi:

- alohida turdagi transport faoliyatining umumiy prinsiplari;
- xalqaro tashish vositalarini tashkillash;
- yo‘lovchilar va yuklarni tashishning tijorat shartlari;
- yuklarni tashishga tariflar, fraxst stavkalari;
- davlatlararo transport aloqalarini rivojlantirish;
- ma‘lum rejimdagi yuklarni qayta ortish, saqlash va tashish shartlari;
- xalqaro tashuvlarda yuk egalarining egalik huquqlarini himoya qilish masalalari;
- atrof-muhitni ifloslantirishning oldini olish.

O‘zbekiston uchun yangi muqobil yo‘nalishlar ochish, barcha mavjud yo‘nalishlarda monopoliyani yo‘q qilish va raqobatni rivojlantirish, transport infratuzilmasi va xizmat ko‘rsatish ishlari sifati va samaradorligini oshirish yo‘llari bilan transport xarajatlarini kamaytirish bo‘yicha choralar krishi juda ham zarurdir.

Mavjud muqobil temir yo‘l yo‘llarini ko‘rib chiqamiz. Rossiya orqali: transsibir magistralining uchta bosh parallel shaxobchalari SHimoliy Qozog‘istonni kesib o‘tadi (Petrovsk, Kokchetov va Akmola orqali). Ushbu magistral (G‘arbiga - Moskva, Boltiq bo‘yi, Evropaga, SHarqqa - Tinch ummoni mintaqasiga) Qozog‘istonning janubidan shimoliga qarab uchta yirik yo‘nalish bilan qo‘shiladi: birinchisi Rossiya hududiga Orenburg yonidan kiradi va g‘arbiga ketadi, ikkinchisi - Semipalatinsk yonidan va sharqqa ketadi, uchinchisi - Toshkentdan to‘g‘ri shimolga qarab Almata va Akmoladan o‘tadi. SHimolni Janub bilan birlashtiruvchi to‘rtinchi yirik yo‘nalish Markaziy Osiyo mamlakatlarining g‘arbiy chegaralari bo‘ylab o‘tadi, CHorjovdan Turkmanistonga, O‘zbekiston va Qozog‘iston orqali Rossiyaning Astraxan yonidagi chegarasiga, keyin Kaspiy dengizining shimoliy qirg‘oqlari bo‘ylab ketadi va g‘arbdagi yo‘l tarmoqlariga qo‘shilib. Qora dengizgacha boradi.

Ishlab chiqilgan Transkaspiy temir yo‘l - parom yo‘nalishi: Turkmanboshi - Boku - Poti. O‘zbekistondan ummon portlariga eng qisqa yo‘l temir yo‘l yo‘li bo‘yicha Turkmaniston orqali Turmanboshi portiga, keyin temir yo‘l paromi bo‘yicha Boku portiga (Ozarbayjon), so‘ngra - temir yo‘l bo‘yicha Qora dengiz portlari-Batumi yoki Suxumiga boriladi. 90-yillar boshida Kavkazdagi siyosiy beqarorlik MDH mamlakatlarida temir yo‘l orqali tashishning umumiy qisqarishi bilan bir qatorda ushbu yo‘nalishni sezilmas darajadagi qisqarishga olib keldi.²⁸

²⁷ Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 34 b.

²⁸ Международные транспортные операции. [http://abc.vvsu.ru/ Books/u trans op/page 0020.asp](http://abc.vvsu.ru/Books/transportation/0020.asp)
www.bestpublication.uz

“Inkoterms 2010” ning yangi tahriri va avvalgi “Inkoterms 2000” dagi farqlar:²⁹

DAP va DAT shartlari: “Inkoterms 2010” da terminlar soni 13 tadan 11taga qisqartirildi. Biroq shunga qaramasdan multimodal tashuvlarda ishlatilishi mumkin bo‘lgan 2 ta yangi atamalar (DAP – delivered at place – punktgacha etkazish va DAT – delivered at terminal – terminalgacha etkazib berish) qabul qilindi. Amaliyotda nisbatan kam ishlatiladigan 4ta holat olib tashlandi.(DAF, DES, DEQ va DDU)

- DAT termini DEQ ni o‘rnini bosadi
- DAP sharti DAF, DES, va DDU shartlarining o‘rniga qo‘llaniladi.

FOB, CFR, CIF shartlarida javobgarlik yangicha yuklanadi, ya’ni, avval tavakkalchilik kema bortiga etkazilgandan keyin o‘tgan bo‘lsa, Inkoterms-2010 da tavakkalchilik yuk kema bortiga butkul yuklanib bo‘lganidan so‘ng o‘tadi.

O‘z navbatida, ta’kidlash joizki O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar tomonidan milliy transport kommunikatsiyalarini takomillashtirish va xalqaro transport tizimlariga integratsiyalash bo‘yicha ishlab iqlayotgan bir qator dasturlarning faol ishtirokchisidir.

Yuqori darajada taraqqiy etgan transport magistrallari va kommunikatsiyalari O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish bilan birgalikda, mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini ham belgilaydigan mustahkam iqtisodiy o‘sish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga molikdir.

Mazkur yo‘nalishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda PQ – 1446-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan “2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida”gi dasturni misol qilib keltirish mumkin.

Ushbu dasturdan ko‘zlangan asosiy maqsad - ishlab chiqarish, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi tarmoqlarining respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlarini istiqbolda rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan dasturlar bilan uzviy bog‘liq holda ildam rivojlanishini ta’minlash hamda buning negizida yangi ish joylarini yaratish, aholining bandligi va turmush darajasini uzluksiz o‘sib borishiga erishishdir.

Yuqorida ta’kidlangan fikrlarga uzviy bog‘liq holda dasturda quyidagilar joriy yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan:³⁰

- xorijiy va ichki moliyalashtirish manbalarini, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish ko‘lamini kengaytirish, qurilish va industriya ishlab chiqarish komplekslarini yangilash asosida transport kommunikatsiyalari, zamonaviy telekommunikatsiya tizimlari, muhandislik infratuzilmasi ob’ektlarini kompleks ravishda va ildam rivojlantirish hamda qurish;

²⁹ Manba: www.gs1.org/transportlogistics.

³⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda PQ–1446-sonli Qaroriga muvofiq tasdiqlangan “2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida”gi Dasturi.

- respublikaning barcha mintaqalarini puxta birlashtiradigan yagona milliy avtomobil transport tizimini yaratish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish, O'zbekiston milliy magistrali tarkibiga kiradigan, xalqaro standartlarning yuksak talablariga javob beradigan, zamonaviy sement-beton va asfalt-beton qoplamalar bilan ta'minlangan to'rt polosali yo'l uchastkalarini qurish va rekonstruksiya qilishni kengaytirish, Qamchiq dovonidan o'tadigan avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish;

- respublikamizning temir yo'l transportini jadal rivojlantirish va modernizatsiya qilish, temir yo'llar rekonstruksiyasini amalga oshirish, Toshkent – Samarqand yuqori tezlikdagi temir yo'l liniyasini jihozlash hamda ishga tushirish, Buxoro va Qarshi shaharlarigacha bo'lgan temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, harakatdagi temir yo'l tarkibini zamonaviy yuqori unumli lokomotivlar, yuk tashuvchi va yo'lovchilarga mo'ljallangan vagonlar bilan yangilash;

- havo kemalari parkini dunyoning etakchi Boeing va Aerbas aviakompaniyalarining zamonaviy, har jihatdan qulay va tejamli samolyotlari bilan tubdan yangilash hisobidan aviatsiyada tashishning moddiy-texnik bazasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, ularga servis xizmati ko'rsatishni tashkil etish, Toshkent shahri va respublikaning viloyat markazlarida aeroportlar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish hamda shu asosda, tranzitni hisobga olgan holda, yuk tashish hajmini ko'paytirish, aviatsiyada yo'lovchilar tashish darajasi hamda sifatini oshirish, eng asosiysi esa – ularning xavfsizligini ta'minlash;

- zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlari va inshootlarini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, uyali aloqa hamda ma'lumotlarni keng ko'lamda uzatish tarmoqlarini kengaytirish, respublika mintaqalarini raqamli televideniaga bosqichma-bosqich o'tkazish maqsadga molikdir.

Mazkur dasturdan umumiy qiymati 8 milliard 504 million dollarlik jami 85 ta loyiha o'rin olgan bo'lib, ularning bajarilishi natijasida jami 14394 ta yangi ish o'ri yaratiladi (1-jadval):

1-jadval

2015-2022 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari

Yo'nalish nomi	Loyiha qiymati (mln. dollar)	Loyiha soni
Dasturning umumiy qiymati	8504,0	85 ta
<i>shu jumladan:</i>		
Avtotransport sistemasi	3544,0	11 ta
Temir yo'l transporti sistemasi	2146,6	14 ta
Havo yo'l transporti sistemasi	993,7	14 ta

Muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va telekommunikatsiya sistemasi	1794,7	44 ta
SHahar elektrotransporti parkini yangilash	24	2 ta

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 21 dekabrda PQ–1446-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan “2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish to‘g‘risida”gi Dasturi.

Dastur doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar mamlakatimizning asosiy transport shakllari: havo, temir yo‘l va avtomobil transport tizimini, shuningdek, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirishga, mavjud ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish salohiyatidan to‘liq va keng miqyosda foydalanishga qaratilgan.

Logistikaning, xususan, transport tizimida logistik marketing xizmatlarining asosiy maqsadlaridan biri – moddiy oqimning birlamchi xom ashyodan to oxirgi iste‘molchigacha etkazib berishga ketadigan harajatlarni boshqarishdir. Lekin tovar harakati jarayonida harajatlarni boshqarish faqatgina chuqur hisobot amalga oshirilsagina mumkin bo‘ladi.

Logistik jarayonlar va ishlab chiqarish harajatlarini hisobga olish tizimi, logistik funksiyalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan harajatlarni ajratishi, eng muhim harajatlar haqida, hamda ularning o‘zaro ta’siri haqida ma’lumotlarni shakllantirishi zarur.

Bu shart bajarilsa, logistik tizimning optimal shaklining asosiy mezonini ishlatish imkoniyati vujudga keladi – butun logistik zanjir qismlarida eng kam harajatlar yig‘indisi hosil bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki mazkur yo‘nalishda o‘z navbatida Transport vazirligi va uning tomonidan tashkil etiladigan yangi maxsus korxonalar asoslash ehtiyoji mavjud bo‘lganda texnik-iqtisodiy asoslash asosida 2023 yilning 1 yanvarigacha bo‘lgan muddatga:

barcha turdagi soliqlardan va maqsadli davlat jamg‘armalariga o‘tkaziladigan majburiy to‘lovlardan ozod qilinsin, bunda bo‘shagan mablag‘lar yangidan tashkil etiladigan maxsus tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun maqsadli ishlatilishi;

O‘zbekiston Respublikasiga belgilangan tartibda tasdiqlangan ro‘yxatlar bo‘yicha olib kiriladigan transport vositalari, butlovchi anjomlar va ehtiyot qismlar, uskunalar, asboblar va priborlar, mashinalar va mexanizmlar, kompyuter va diagnostika texnikasi uchun bojxona to‘lovlaridan ozod etilishi belgilab qo‘yildi (bojxonada rasmiylashtiruvlar uchun yig‘imlar bundan mustasno);

O‘z navbatida, Transport vazirligi va uning tomonidan tashkil etilayotgan yangi maxsus tashkilotlar o‘rtasida, shuningdek, tashkilotlarning o‘zlari o‘rtasida qaytarmaslik sharti bilan topshirilayotgan va qabul qilinayotgan mol-mulk yuridik shaxslarning qo‘shimcha qiymat va daromad solig‘i bo‘yicha soliqqa tortish ob’ekti hisoblanmaydi.

ИЗУЧЕНИЕ ФОСФОРИТОВ И ГЛАУКОНИТОВ КАРАКАЛПАКСТАНА

Худойбердиев Ф.И

Жапаков Т

Нукусский государственный горный институт

Общие прогнозные запасы фосфоритов Каракалпакстана оценивается 70-80 млн. т. [<http://old.uzgeolcom.uz>]. По расположению на территории Республики Каракалпакстан имеется 7 зон месторождений фосфоритов. Содержание P_2O_5 в пробах фосфоритов сравнительно невысокое и находится в пределах 6,19-22,84%. Наибольшее содержание P_2O_5 отмечается в руде Ходжакульского, Борлытауского и Султануиздагского проявлений, особенно во фракции менее 3 мм. Около 2,5-5,5% пятиоксида фосфора (P_2O_5) от общего его количества связано в цитратно-растворимое соединение. Фосфориты Султан-Уиздага содержат 16-19,9% P_2O_5 , 15,5-21% CaO, 10-11% н.о. и до 7,70% CO_2 , карбонатные минералы в руде в пересчете на кальцит достигают 26-45%. Отношение $Fe_2O_3: Al_2O_3 < 2$. Образцы из Бештюбе, Уштаган, Борлытау наиболее бедны по содержанию P_2O_5 и в них колеблются в пределах от 5,8 до 7,78%. В них кальцит достигают 55-58% от массы руды. Во всех образцах содержание натрия в два и более раз выше, чем калия; среднее соотношение F: P_2O_5 в образцах находятся в пределах 0,025-0,049.

Глауконит - ценное промышленное сырье многоцелевого назначения. Глауконит (от греческого «glaucos» - голубовато-зеленый) - минерал группы гидрослюд класса слоистых силикатов, широко распространен в осадочных породах. Представляет собой водный алюмосиликат калия, магния и железа. Они встречаются в виде мелких округленных зеленых зерен размером 0,1-0,9 мм в фосфоритных рудах, песках и глинах, которые при большом содержании его называются глауконитовыми. Содержание его в руде может достигать 70-80%.

Основные мировые запасы глауконита размещены: Северная Америка штат Нью Джерси (компания Inversand, Clayton, N. J.); Великобритания район Devon (компания Hanson Aggregates – South, E & J W Glendinning Ltd) и Wiltshire (Bardon Aggregates South West, Hills Minerals and Waste Ltd); Австралия – месторождение Dandaragan-Gingin, Россия – месторождения Саратовской и Челябинской областей; Эксперты прогнозируют развитие рынка глауконита, особенно в отраслях экологии и сельском хозяйстве [5; <http://www.glakukos.ru>].

Глауконитовые пески следует рассматривать как многофакторное удобрение, позволяющее не только обогащать почву калием, фосфором, магнием и микроэлементами: марганец, медь, цинк, бор и др., но и улучшать ее структуру, препятствовать выносу питательных веществ, сохранять влагу, стимулировать рост, снижать заболеваемость растений. Кроме того, глаукониты оказывают влияние на миграцию и распределение токсичных элементов между почвой и растениями, заметно снижая тем самым их концентрацию в продуктах питания.

На территории Узбекистана геологоразведочные работы по изысканию глауконита начали проводиться с 50-х годов. Более подробные сведения о глауконитах на территории Каракалпакстана, их характеристика даны в многолетних трудах А.Г.Бабаева. В пределах территории Каракалпакстана было определено 7 перспективных месторождений глауконита: Кызылжарская, Крантауская, Ходжейлийская, Кетменчинская, Чукайтугайская, Бештюбинская и Ходжакульская. Наиболее перспективной из них является Крантауская, с общей площадью распространения 4,5 км², при средней мощности 4,7 м, со средним содержанием глауконита 37% [<http://old.uzgeolcom.uz>].

Глауконит имеет очень изменчивый химический состав, обычно в составе имеется окись калия (K₂O) 4,4-9,4%, окись натрия (Na₂O) 0-3,5%, окись алюминия (Al₂O₃) 5,5-22,6%, окись железа (Fe₂O₃) 6,1-27,9%, закись железа (FeO) 0,8-8,6%, окись магния (MgO) 2,4-4,5%, двуокись кремния (SiO₂) 47,6-52,9%, вода (H₂O) 4,9-13,5%. Глауконит обладает способностью к поглощению влаги и катионному обмену, улучшает структуру почвы, уменьшает жесткость воды, в нем присутствуют биологически активные микроэлементы; из-за наличия калия и магния.

Во всём мире глауконит чаще всего используется как калийное или калийно-фосфорное удобрение. Применение глауконита в сельском хозяйстве позволяет:

- быстро восстанавливать естественное плодородие почвы, улучшает ее структуру и минерализацию полезными веществами;
- существенно сократить сроки прорастания семян, ускорить рост и цветение растений, сократить сроки созревания плодов на две-три недели;
- обеспечить высокую приживаемость саженцев и рассады;
- значительно повысить урожайность выращиваемой продукции;
- связывать в почве тяжелые металлы, радионуклиды, вредные органические соединения, выводить их из пищевой цепочки обеспечивая стабильным высоким экологически безопасным урожаем.

ЛИТЕРАТУРА:

1. <http://www.glaukos.ru/site/index/product/pesok/>,http://sotki.ru/obmen_opito_m/article/glaukonit-novoe-horoshho-zabytoe-staroe-4025.
2. [Бабаев А.Г. Глауконит в меловых отложениях Средней Азии.Изд.АНУССР,1953,№3,36-42с.](#)
3. [Эгамбердиев М.О. Глаукониты в меловых отложениях Южного и Западного Узбекистана //узб.геол.журнал№1.1972 30-32 с.](#)
4. [Жураев И. и др. О комплексном использовании Крантауского месторождения глауконита Каракалпакии.// Всесоюз. конф.научно-технич.проблем. Комплекс.использования месторождений полезных ископаемых .Вып.111.М.1977.206-2016 с.](#)

5. [Яковлева Е.А., Бакалов А.Н. Глауконит как потенциальное местное удобрение на Кубани//Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета, 2012. 82, -С.622-631](#)

6. Эмер Н.Р. Структурно-функциональные особенности микроорганизмов цикла азота в почвах с длительным применением минеральных удобрений . Дис. канд. биол. наук. М. 2016

7. Khudoyberdiev F.I., Tadjiev S.M., Taxirova N.B. Development of Mineral Fertilizers From Agricultural Resources of Karakalpakstan for use in the Creation of the Forests on the Dried Bottom of the Aral sea // International Journal of Advanced Science and Technology. Vol/ 29. No. 9s. (2020), pp. 2092

ХОРАЗМДАГИ ДАСТЛАБКИ КОЛХОЗЛАР ВА УЛАРДАГИ ВАЗИЯТ

Умиджон Бекиметов

Хоразм Маъмун академияси таянч докторанти .

УДК. 94(575.171)“1929/1959”

1927 йил декабрда бўлиб ўтган ВКП(б)нинг XV съезди коллектив-лаштириш сиёсатини партиянинг қишлоқдаги асосий вазифаси деб белгилаган эди. Яъни, Совет давлати ўз мафқураси бўйича коллектив-лаштиришни социализм қуриш йўлидаги стратегик мақсад қилиб қўйди. Бу мафқуранинг асосини жамиятда хусусий мулк ва ер эгаллигини бутунлай тугатиш ва шу йўл билан ҳам сиёсий, ҳамда иқтисодий соҳада хукмронликни тўлиқ ўз қўлига олиб, давлат монополиясини ўрнатиш ғояси ташкил қиларди. Шунга кўра, совет иқтисодчилари томонидан ишлаб чиқилган биринчи беш йиллик (1928 йил октябр-1932 йил декабр) режасида, мамлакатни индустрлаштириш учун бор бўлган ресурслардан фойдаланиш, бунинг учун яқка, хусусий деҳқон хўжалиқларини йирик коллектив ва давлат хўжалиқларига бирлаштириш орқали, майда товар деҳқон хўжалигини социалистик йўлга ўтказиш ва тузумнинг моддий техника базасини яратиш танланган эди. Социализм қуриш умумий режасининг қисми бўлган кооперациялаш коллективлаштириш сиёсатининг назарий асосини ва мазмун моҳиятини белгилаб берганди. Аграр соҳани социалистик йўлга ўтказишда қишлоқда ишлаб чиқариш муносабатларини шакллантириш тузумни қуришнинг муҳим элементи сифатида белгиланди. Бу борада иккита жиҳатга алоҳида эътибор қаратиш кўзда тутилди. Биринчи жиҳат сифатида қишлоқ хўжалиги давлат корхоналарини тузиш, иккинчи томондан майда деҳқон хўжалиқларини йирик социалистик коллектив хўжалиқларга бирлаштириш йўли танланди. Шунингдек, ушбу биринчи беш йиллик режасида колхоз ва совхозлар қурилиши шароитида кооперациянинг ролини кучайтириш учун аграр соҳани социалистик қайта қуриш, механизациялаш орқали пахтачиликни ривожлантириш кўзда тутилганди. Ана шу тарзда Ўзбекистондаги колхоз қурилиши билан боғлиқ жараёнлар бошланди.

Хоразмда коллективлаштиришнинг ўтказилишида бошқа ҳудудлардан ажралиб турувчи жиҳатлар бўлиб булар қуйидагилардан иборат эди:

1. Марказдан узоқда жойлашган Хоразм округига борувчи темир йўл бўлмаганлиги туфайли нафақат районларда, балки Хива, Урганч шаҳарларида ҳам саноатнинг ривожланмаганлиги;

2. Тошкент округи ёки Фарғона водийсидаги каби воҳага капиталистик муносабатлар кириб бормаган, Хива районининг Оқмачит қишлоғида яшовчи 323 нафар немис миллатидан бошқа барча қишлоқларда асосан маҳаллий ўзбек, туркман, козок, қорақалпоқ, форсий аҳоли истиқомат қиларди.

Бу даврда қишлоқ хўжалик ишлаб чиқариш кооперативлари ҳам асосан 3 хил шаклда (ТОЗ, ва қишлоқ хўжалик артели, Коммуна) фаолият кўрсатиши режалаштирилганди. Яъни қишлоқ хўжалигида ТОЗ28 (Товарищество по совместной обработке земли)-ерни биргалашиб ишлаш ширкати), “Қўшчи” иттифоқи, “Қарз”

ширкати, “Камбағаллар уюшмаси”, “Дехқонлар банки”, “Пахта” кооперативи, давлат машина трактор станцияси ва унинг жойлардаги бўлимлари ҳам фаолият олиб борган. Буларнинг барчаси коллективлаштиришга замин тайёрлаш учун ташкил этилганди.

ТОЗни Хоразм округида ўша вақтда қисқача ширкат дея аташган. Кооперациянинг ширкат шаклида асосан ер, ишлаб чиқариш қуроллари, иш ҳайвонлари, чорва моллари, уруғлик, етиштирилган ҳосил, уй-жой ва бошқа мулклар хусусийлигича қолгани ҳолда, фақат меҳнат умумлашган, яъни биргалашиб ишлаш ташкил қилинган эди. Бироқ ширкатларда меҳнатнинг умумлашганлиги яхши бўлганлиги билан, кимнинг ерида олдин ҳамда сифатли ишлаш кераклиги масаласида муаммолар, зиддиятлар келиб чиқар ва бу ҳолат ишнинг унумдорлигига ҳам салбий таъсир қиларди.

Кооперациянинг “Коммуна” шаклида эса барча ишлаб чиқариш воситалари, меҳнат, етиштирилган ҳосил умумлаштирилди. “Коммуна”лар партия ва давлат раҳбарларининг “инқилобий” ташаббуслари асосида ташкил этилиши режалаштирилиб, ўша даврдаги вазиятда ҳали деҳқонлар оммаси бунга тайёр эмасди.

Кооперациянинг “қишлоқ хўжалик артели” (колхоз) шаклида асосан ишлаб чиқариш воситалари, ер, меҳнат қуроллари, иш ҳайвонлари, меҳнат умумлаштирилиб, етиштирилган маҳсулотлар аъзоларнинг қилган меҳнатиغا яраша тақсимланар эди. Артелларда меҳнатни ташкил қилиш ва тақсимот муносабатлари такомиллаштирилиб борилиши бу тузилманинг даврийлигини узайтириш имкониятини берди.

Хоразм округида қишлоқ хўжалик артеллари (колхоз), ТОЗлар 1927 йилдан бошлаб ташкил қилина бошлаганди. Биринчи колхоз эса 1927 йилнинг 20 октябрида Хива районининг Саёт қишлоғида ташкил этилиб, унга “Тоza ҳаёт” дея ном берилган. Ушбу колхоз ташкил этилган дастлабки пайтда 15 таноб29 ер, 1 та трактор, 2 та плуг, 2 та борона, 2 та культиватор, 3 та сеялка, 5 та от, 8 туя, 3 сигир мавжуд эди. (1)

Хоразм округ “Колхозбюро” ташкилоти раиси Маныло, агроном Новиков ва котиб Аҳмеджановларнинг таҳлилий маълумотномасига кўра, коллектив асосида деҳқончилик қилиш мақсадида, Хива районида яна 3 та колхозга асос солинган. Бироқ ушбу колхозлар деҳқончиликга умуман алоқаси бўлмаган қишлоқ табақасидан ташкил топгани боис, 1927 йилнинг охиригача сусткашлик билан фаолият олиб борган ва натижада тарқалиб кетган.(2)

Округда мавжуд 10 район ичида илк бор Хива районида дастлабки колхоз ташкил этилишининг сабаби, 1930 йилгача бўлган даврда округ маркази Хива шаҳри бўлган. Қолаверса Хоразмга биринчи бора-1924 йил баҳорида “Фордзон” типли трактор олиб келинган ва тракторчилар тайёрлаш курси, машина трактор станцияси ҳам дастлаб Хивада ташкил қилинган эди.(3)

1928 йилда эса Манғит районида 2 та (Ленин номли ва “Куч”), Гурланда 1 та (Охунбобоев номли), Янги Урганчда 1 та (“Шарқ”), Боғотда 1 та (“Бирлик”), Хонқада 1 та (“Давлат”), Ҳазораспда 1 та (“Янгиобод”), Ғозовотда 1 та (“Янгилик”) колхозлар ташкил қилинган. Янги Урганч районидаги Қоровул қишлоғида ташкил этилган 40 гектардан иборат “Батрак” номли колхоз эса 2 ой ичида тарқалиб кетган.33Яъни, 1928

йилда округдаги колхозлар сони фақат 8 тадан иборат эди. Шовот, Янгиариқ район партия комитети секретарларининг аграр соҳадаги ташкилий ишларни ғоявий-сиёсий жиҳатдан яхши йўлга қўя олмагани сабабли умуман колхоз ташкил қилинмаганди. Шу боис округ раҳбарияти 1929 йил бошидан айнан ўтган йили колхозлар ташкил этилмаган районларда янги колхозлар ташкил қилишга эътибор қаратган.

Натижада 1929 йил 16 январ куни Шовот районининг Арбоблар қишлоғида “Олға”, 30 январ куни Янгиариқ районининг Тажан қишлоғида Охунбобоев, 31 январ куни Чиқирчи қишлоғида Нариманов номли колхозларга асос солинади. Шунингдек, бошқа районларда ҳам колхозлар сонини кўпайтириш ишлари олиб борилади. Ана шу тариқа 1929 йилда Гурлан районида яна 1 та (Калинин номли), Боғот районида 1 та (“Ғайрат”), Ҳазораспда 2 та (“Ленин йўли” ва “Байналминал”), Хонқада 2 та (“Инқилоб” ва “Намуна”) ва Янгиариқ районида яна битта (“Қизил Октябрь”) колхоз ташкил қилинади. Натижада Хоразм округида 1929 йил мартагача бўлган муддатда бор йўғи 16 та колхоз ташкил этилган бўлиб, улар ихтиёрида 586 гектар ер бор эди. Ўша йил июн ойида колхозлар сони атиги 20 тага етган ва уларнинг ихтиёридаги ер майдони эса 637,5 гектарни ташкил қиларди.

1929 йил апрел ойида округ ижроия комитетининг раиси Бакиев ташкил этилган колхозлардаги вазиятни ўрганиш мақсадида, “Колхозбюро” агрономи В.Новиковни районларга юборади. В.Новиков вазиятни ўрганишни округда ташкил этилган “Тоза ҳаёт” колхозидан бошлади.

Агроном Новиковнинг маълумотномасида шундай тафсилотлар бор: “Колхозлардаги вазиятни ўрганиш мақсадида Хива районида бордим. “Тоза Ҳаёт” колхозидаги 27 киши аъзо бўлган колхозчиларнинг озиқ овқати, яшаш шароити, ерининг ҳолатини ўргандим. Афсуски, колхознинг ишлаб чиқариш ва агротехника борасидаги хизмат кўрсатиши яхши эмас. Шунингдек, колхоз аъзолари орасида аграр соҳани яхши биладиган раҳбар йўқлиги натижасида иш яхши ташкил этилмаган. Колхоз аъзолари ўртасида ташкилотчилик, ички тартиб интизом йўқ. Табиийки савол туғилади: Бу ниманинг натижасида?

Албатта, ақлий меҳнатни ташкил қилишнинг йўқлиги сабаблидир. Бундан ташқари, колхоздаги инвентарлар, иш ҳайвонлари тўғри тақсимлаб иш яхши ташкил этилмаган. Колхозни инвентарлар билан таъминлаш вазифаси юклатилган “Агроцентр” ташкилоти ҳам ишга масъулиятсиз ёндошмоқда.

“Хорокрик” колхозидаги маъсулиятсизлик оқибатида эса 2 та от умуман ишга ярамайдиган аҳволга келган. Шу каби чиғирлар ҳам эгасизлик ҳолатида ишга яроқсиз ҳолатда.

Округ Колхозбюро ташкилотидан Боғот районида бориш тўғрисида телеграмма келгани боис, 20 апрелда Хивадан Боғот районида жўнадим. Ишни Бешариқ қишлоғидаги колхозни таҳлил этишдан бошладим. Колхозда 53 гектар ер бор бўлиб, аъзолар сони 9 кишини ташкил қилади. Афсуски, нафақат трактор, балки оддий иш ҳайвонлари ҳам етишмайди. Шунингдек, колхоз аъзолари Агромарказ мудури ва агрономга ёмон муносабатда. Чунки, агроном раис бўлмасада ўзини хўжайиндай, бой феодаллардек тутуди. Агроном колхозда кассир вазифасини ҳам бажариб келмоқда.

Бундан ташқари у колхозга ажратилган кредитни ҳам тўғри тақсимламаган. Колхозда чиғир мавжуд бўлмаганлиги учун ерлар ҳозиргача суғорилмаган ва экишга тайёр эмас. Атрофдаги қишлоқлар аҳолиси колхоз келажагига ишонишмайди. Чунки колхоз олдин тарқалиб кетган ва энди учинчи маротаба ташкил этилган. Аввалги колхоз ташкилотчилари турлича ваъдалар беришган. Бироқ бу бажарилмай қолиб кетган. Партия ячейкаси колхозчилар орасида тушунтириш ишлари олиб бормаган. Қийинчиликлар билан 3 дона чиғир ўрнатилган бўлсада ишга тайёр ҳолатда эмас. Колхозга яқинда 4 нафар батрак ва ерсиз камбағал аъзо бўлиб кирган. Район партия комитети бюроси раисга колхоз аъзоларини қисқа фурсат ичида 15 кишига етказишни, шунингдек, колхоз аъзолари билан муҳокама қилиб ишчи ҳайвони сотиб олиш масаласини ҳам қўйган.

Хонқа районидаги колхозларда эса қишлоқ хўжалик инвентарлари сони кам. Учала райондаги вазиятдан келиб чиқиб шуни таъкидлайманки, район раҳбарлари колхозлардаги ҳар кунги иш жараёнини кузатиб таҳлил қилмайди. Колхозларни ўз вақтида зарур анжомлар билан таъминлаш учун чора тадбирлар ҳам қилинмаган. Масалан, Боғот районидаги “Ғайрат” колхозига масъул район ташкилотлари улардаги муаммоларни ўрганмаган, колхозга эса умуман бормаган. Шунингдек, партия қарорлари ҳаётга тадбиқ қилинмаган.

Шу боисдан агрономлар колхозларга бориб, вазиятни ўрганишлари лозим деб ҳисоблайман. Бироқ жойларга борган агрономлар ўзини округ “Колхозбюро” агрономи каби тутмаслиги керак. Яъни, Боғот районидаги бир неча колхозларга борган агроном ўзини диктатор сингари тутиб, колхоз аъзоларига дағдаға, пўписа қилиши одатий бўлиб қолган. (4)

“Колхозбюро” агрономи Новиковнинг ушбу ҳисоботидан ҳам кўриниб турибдики, 1929 йил апрел ойида вазият юқоридаги каби аянчли бўлиб, кам ерли, ёки ерсиз ижтимоий қатламдан таркиб топган колхоз аъзоларининг ўзида, шунингдек бошқа тоифадаги аҳолининг ҳам колхозлар истиқболига ишонч йўқ эди. Натижада эгасизлик, раис ва агрономларнинг колхозчилар олдида ўзларини бюрократлардек тутиши сингари ижтимоий иллатлар шакллана бошлагани. Шу сабабли ҳам колхозлар ташкил қилиш сусткашлик билан давом этган.

Ана шу тарзда коллективлаштириш ғоятда суст ҳолатда кечиб, 1927 йил октябридан то 1929 йил охиригача бўлган даврда округдаги 10 та районда ташкил этилган колхозлар сони бор-йўғи 21 тага етганди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Хоразм вилоят давлат архиви, 19- фонд, 1-рўйхат, 4- иш, 303- варақ.
2. Хоразм вилоят давлат архиви, 19- фонд, 1-рўйхат, 4- иш, 213-216 варақлар.
3. Хоразм вилоят давлат архиви, 138 -фонд, 1- рўйхат ,10- иш, 16 -варақ.
4. Хоразм вилоят давлат архиви, 19-фонд, 1-рўйхат, 4- иш, 199-200 варақлар.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA SINTAKSISGA OID BERILADIGAN BILIMLAR MAJMUI

Feruza Nabijonova Valijon qizi

o`qituvchi,

FarDU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi

Ma’lumki, boshlang’ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko’nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Boshlang’ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar:1) amaliy o’rganiladigan; 2) nazariy o’rganiladigan turlarga bo’linadi. Sintaksis bilimlarni amaliy o’rganish savod o’rgatish davridayoq boshlanadi va to’rtinchi sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang’ich sinfda “Bog’lovsiz”, “Gap”, “Darak gap”, o’quvchilarda “His-hayajon gap”, “Sodda gap”, “Qo’shma gap”, “Gap bo’laklari”, “Gapning uyushiq bo’laklari”, “Undalma” mavzulari nazariy o’rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar o’rgatiladi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o’zlashtirilgani uchun tilni o’rganishda gap ustida ishlash markaziy o’rin egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo’lib, boshlang’ich sinf o’quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ularning muhim kategoriyalarning tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O’quvchilar ona tili leksikasi ham gap negizida egallaydilar. So’zning leksik ma’nosi va uning qo’llanish xususiyatlari so’z birikmasi yoki gapda ma’lum bo’ladi. So’z gapda bir ma’noli bo’ladi (gapdan tashqari bir necha ma’no ifodalash mumkin).

Metodist olimi T. G. Ramzayeva boshlang’ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo’nalishga bo’ladi:

1.Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo’lgan napning muhim belgilarini o’rgatish).

2.Gap strukturasi o’rgatish (so’z birikmasida so’zlarning bog’lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo’laklarining xususiyatlari, yopiq va yig’iq gaplar ustida ishlash).

3. O’quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko’ra turlaridan foydalanish ko’nikmasini shakllantirish.

4.Gapda so’zlarni aniq qo’llash ko’nikmasini o’stirish.

5. Yozma nutqda gapni to’g’ri tuzib yozish, (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo’yish) ko’nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yo’nalishi bir-biriga o’zaro ta’sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o’rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi.

Gapni o’rganish va nutqda undan foydalanish ko’nikmasini shakllantirish o’quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi.

O’quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug’iladi. U o’z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi.

“Gap“ mavzusi barcha sinflarda o‘rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O‘quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi-gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gapda so‘zlarning bog‘lanishi, gapning uyushiq bo‘laklarini o‘rganishga o‘tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang‘ich bosqichi savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so‘zlardan gap tuzib bo‘lmaydi. Agar o‘quvchilar gapning bosh bo‘laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmuning asosini tashkil etadi.

Shuning uchun ham savod o‘rgatish davrida gapning bosh bo‘laklari ustida kuzatish o‘tkazish ma‘qul.

Gapning bosh bo‘laklarini kuzatish bilan o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko‘nikmasi shakllanadi. Gapni o‘rganish me‘yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan so‘z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan sintaktik material kam bo‘lsa ham, butun o‘quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda, gap ustida ishlab boriladi.

Dasturga ko‘ra 1-sinfda o‘quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so‘zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma‘lum tinish belgilari qo‘yilishi haqida amaliy ma‘lumotlar beriladi.

2-sinfda esa o‘quvchilar gap haqida nazariy tushunchalar oladilar. Ular gapdan kim yoki nima haqida aytilganini va u haqida nima deyilganini bildirgan so‘zni ajratishga o‘rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo‘laklarni o‘rganishga muqaddima bo‘ladi. 3-sinf gap ustida ishlash yangi bosqichdir. O‘quvchilar gapni amaliy o‘rganishdan tushuncha sifatida o‘rganishga o‘tadi. Ular gapning muhim belgilarini bilib oladilar. Bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning ta‘rifi, ega va kesim terminlari kiritiladi. 4-sinfda esa uyushiq bo‘laklarini o‘rganish bilan gap bo‘laklari haqidagi bilimlar kengaytiriladi.

Shunday qilib, o‘quvchilarda gap bo‘laklari haqidagi tasavvurni o‘stirish gapni o‘zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birichidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari gap bo‘laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar)ga bo‘linishini o‘zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo‘laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o‘zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo‘laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo‘laklar esa bosh bo‘laklarning aniqlovchilik va to‘ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ikkinchi darajali bo‘laklarning mohiyatini ochish uchun o‘quvchilar gapni tahlil qiladilar va ular qaysi gap bo‘lagiga bog‘lanib, uni izohlab kelayotganini aniqlaydilar. Ikkinchi darajali bo‘laklarning xususiyati gapni yoyish (yig‘iq gapni yoyiq gapga aylantirish) jarayonida yaqqol ko‘rinadi. Masalan, o‘quvchilar Qaldirg‘ochlar uchib keldi gapini yozadilar. Fikrni to‘liq ifodalash uchun gapga qayerga? va qachon? so‘roqlariga

javob bo‘lgan so‘zlarni qo‘yish topshiriladi. O‘quvchilar bu vazifani bajarib, qaysi gap bo‘lagi (ikkinchi darajali bo‘lak)fikrni yana aniqroq ifodalaganiga ishonch hosil qiladilar.

O‘quvchilarda gapda so‘zlarning bog‘lanishini aniqlash ko‘nikmasini shakllantirish muhim sintaktik va nutqiy ko‘nikmalar qatoriga kiradi. So‘z birikmasi gap qismi sifatida ajratiladi va boshlang‘ich sinflarni uning muhim belgilari idrok qilinadi.”So‘z birikmasi” atamasi darsliklarga kiritilmagan, ta’rifi berilmaydi. Ammo kichik yoshdagi o‘quvchilar uning quyidagi muhim belgilarini amaliy bilib olishlari zarur:

1. So‘z birikmasi mazmun va grammatik tomondan bog‘langan ikki so‘z. Masalan, Dunyo xalqlari tinchlik uchun kurashadilar gapida ikki so‘z birikmasi bor:

1) dunyo xalqlari; 2) tinchlik uchun kurashadilar.

2. So‘z birikmasida bir so‘z hokim ikkinchi so‘z tobe bo‘ladi. Hokim so‘zdan tobe so‘zga so‘roq beriladi, tobe so‘z shu so‘roqqa javob bo‘lgan so‘zdir.

Demak, gap tarkibida so‘z birikmalarni ajratish ko‘nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirib boriladi. Buning uchun o‘quvchilarning so‘z birikmasidan bir so‘zning boshqa so‘zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi.

1. Gaplarni yoyish.

2. So‘zlar aralash berilgan gapni qayta tiklash.

3. Uzluksiz (tinish belgilarisiz) matndan gaplarni ajratish.

4. Gapni tahlil qilish va sxemani tuzish.

5. O‘qituvchi bergan sxema yoki so‘roqlar asosida gap tuzish(kim? kimlarni? Nima qiladi?).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. 2000 y.

2. A.Tursinov, J.Muxtorov, Sh.Raxmatullaev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Darslik. “O‘zbekiston” nashriyoti. 1992 y.

3. A.G‘ulomov, M.Asqarova. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. “O‘qituvchi” nashriyoti. 1997 y.

TAXALLUS NIMA?

Nigora Mahmudova

Ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi.

Ijodkorlar uchun o`tmishdan an`ana bo`lib kelgan bir odat –ma`lum bir taxallus bilan ijod qilish va shu orqali ommaga tanilishdir. ”Taxallus” arabcha so`z bo`lib ikki ma`noda – xalos bolish, qutulish va o`z nomidan boshqa bir nomni qabul qilish ma`nolarida talqin etiladi .Taxallus orqali inson o`z ijod namunalarini ommaga havola etadi, ijodda o`zini namayon etadi. Shu sababli har bir ijodkor taxallus tanlayotganda o`z dunyoqarashidan kelib chiqadi.

Sharq adabiyotida tarixida Navoiy (Alisher), Bobur (Z.Muhammad), Gulxaniy (Muhammad Sharif ,Muqumiy (Muhammad Amin), Oybek (Musso Toshmuhammad) va boshqalar o`z nomlari emas , balki taxalluslari bilan mashhurdir.Yozuvchilarning boy adabiy merosi ularning taxallusi orqali aniqlangan.Tarixda bir taxallus bilan ijod qilgan turli ijodkorlar (Abdurahmon Jomiy XII-asrda yashagan Ahmadi Jomiy, Nishopurda yashagan Mavlono Muhammad Jomiy, Hindistonda yashagan Jaloliddin Jomiy va boshqalar), bir joyda yashagan ijodkorlarning bir taxallus ostida ijod qilgani (Muhammad Avfiy Buxoriy, Xoja Ismat Buxoriy, Sayfiy Buxoriy, Xayoliy Buxoriy va boshqalar) bir turli taxalluslar bilan ijod qilgan – Nodira, Komila, Maknuna ; ijodkor o`z nomini taxallus sifatida qo`llagani; o`zi ijod etgan janr xususiyatiga qarab tanlagani ma`lum. Bu holatni turlicha izohlashgan .Tanlangan taxallus, ijodkorning faoliyati ,tug`ilgan joyi bilan bog`liq bo`g`liq bo`ladi.

Ya`ni: 1.Ijodiy mehnat evaziga berilgan unvon tufayli paydo bo`lgan taxalluslar (Yusuf Xos Hojib)

2.Tug`ilgan joy-vatanga bo`lgan cheksiz mehr , sadoqat ramzi sifatida qabul qilingan taxalluslar (Abu Abdulla Rudakiy ,Abdu rahmon Jomiy).

3.Ijodkorlarning kasbi kori,sevimli mashg`uloti ta`sirida tanlangan taxalluslar (Umar Xayyom, Mavlono Sakkokiy).

4.Shoirning fe`l-atvori, mayli, ruhiy holati, kayfiyati hisobga olingan holda yuzaga kelgan taxalluslar (Boborahim Mashrab, Mahmur).

5.Ramziy taxalluslar (A.Navoiy, Z.M.Bobur)

A.Navoiy mashhur ”Majolis ul nafois” asarida Sha rq xalqlari adabiyoti taxallus tanlash haqida nazariy ma`lumotlar yozib qoldirgan. Ushbu asar taxallusning o`rganilishiga doir dastlabki manbalardan hisoblangan .

Shu o`rinda, yirik nashriyot kompaniyalari va firmalarining manfaatlari uchun 1886-yilda adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish haqida Bern konvensiyasi , Yunesko tashabbusi bilan 1952 yilda Mualliflik huququ haqidagi butunjahon Jeneva konvensiyasi ishlab chiqilgan.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA O’QISH DARSLARINI DIDAKTIK O’YINLAR ORQALI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Oxunova Mo’tabarxon Djo’rayevna

Andijon viloyati Bo’ston tumani

Xalq ta’limi bo’limi tasarrufidagi

26- sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi

boshlang’ich sinf o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish, boshlang’ich sinf o’quvchilarini o’qitishda o’quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bolaning o’quv faoliyatini rivojlantirishda turli o’yinlardan foydalanish, didaktik o’yinlar vositasida nazariy bilimlarni oson egallash hamda didaktik jarayonning samarali o’tishida motivlarning o’rni haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *pedagogik texnologiya, boshlang’ich sinf, o’quv faoliyati, kompyuterlar, didaktik o’yinlar, motiv.*

Pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o’qituvchi va o’quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lgan o’qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o’qishga o’rgatish yo’l yo’riqlarini o’qish metodikasi ishlab chiqadi. O’qish metodikasi kichik yoshdagi o’quvchilarning umumiy rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarini o’qitishda o’quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o’zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to’g’ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O’qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko’pgina metodlaridan foydalaniladi.

Bola hayotida bog’chadan so’ng maktabning dastlabki davrlari muhim o’rin tutadi. Shu bois boshlang’ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng mas’uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi.

Bu davrda bolaning zehni o’stirishga qaratilgan har bir mashg’ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o’yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya’ni o’quv faoliyatiga o’tganligi bilan xarakterlanadi.

Bolaning o’quv faoliyatini rivojlantirishda turli o’yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o’yin orqali o’z bilimlarini mukammallashtiradilar va uni chuqur o’zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda, ta’lim jarayonida qo’llanadigan didaktik o’yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o’yinlar ta’lim jarayoni samaradorligini oshiradi,

ta’lim jarayonida o’quvchilar faolligini, o’qish motivlarini rivojlantiradi. O’qish motivlari ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ham muhim o’rin tutadi.

Didaktik o’yinlar boshlang’ich sinflarda ta’limning samarali borishiga, o’quvchilarning o’quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya’ni didaktik o’yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o’quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi.

Didaktik o’yinlar nafaqat boshlang’ich sinflarda, balki ta’limning keyingi bosqichlarida ham o’quvchilarning bilimga bo’lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo’lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o’z lashtiruvchi o’quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o’yinlar samarali ta’sir ko’rsatadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, boshlang’ich sinflar uchun yaratilayotgan o’quv qo’llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko’zga tashlanib turadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, belgilangan maqsad asosida o’tkaziladigan didaktik jarayonning aniq loyihasi ishlab chiqilsa, uni amalga oshirish osonlashadi.

Didaktik jarayonning samarali o’tishida motivlar muhim o’rin tutadi. Chunki qiziqib, aniq maqsad asosida egallangan bilimlarga samarali bo’ladi.

Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo’lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a’zosi ekanligini his etishga, intizomga bo’ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo’ladi. Bola yosh bo’lishiga qaramay, endi uning maktabda oqish, uy vazifalarini bajarish, murakkab materiallarni o’rganish kabi zarur yumushlari ko’p. Muhimi, o’yindan maktabga, kundalik majburiy va davomli mehnatga o’tish bola hayotida tub burilishdir. Hatto maktabgacha tarbiya muassasalaridan kelgan bolalar uchun ham bu oson kechmaydi. Uydan maktabga kelgan bolalarga esa yana ham qiyin. Ayniqsa, sinfda 40 – 45 daqiqalik darsda o’tirish, tinglash va topshiriqlarni bajarish, uzoq aqliy mehnat bolani tez toliqtiradi. Bola maktabdan, o’qishdan sovib ketishi mumkin. Shuning uchun ham o’qituvchilar bolalarning maktabdagi hayotini qiziqarli tashkil etishga intilishlari, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga harakat qilishlari lozim. Motiv o’z- o’zidan hosil bolmaydi. Uni bolalar yoshiga va psixologik xususiyatlariga mos didaktik o’yinlar va mustaqil ishlar vositasida hosil qilish mumkin.

Ayniqsa boshlang’ich ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o’quvchilarni darsga jalb etish samarali bo’ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to’liq jalb etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o’quvchilarning bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang’ich sinf o’qituvchilari ta’lim jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e’tibor qaratishlari zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o’quvchilar bilimini hisobga olish va tekshirishning zamonaviy shakli bo’lgan matnlardan keng foydalanish, o’quvchi rivojlanishini hisobga olib, aniq maqsad asosida guruhda ishlash muvofaqiyatliroq, Bunday ish turining afzalligi shundaki, o’qituvchi darsga tayyorlanishda aniq maqsadga ega bo’ladi va ishi ancha engillashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI:

1. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008
2. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T:, 2008
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Karshi «Nasaf», 2000
5. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003

TA’LIM JARAYONIDA ELEKTRON MULTIMEDIALI O’QUV QO’LLANMALARDAN FOYDALISHNING AFZALLIKLARI.

Rasulova Feruzaxon Xoshimjon qizi

Qo’qon davlat pedagogika instituti

Ta’limda axborot texnologiyalari magistranti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta’lim jarayonida multimedialli o’quv qo’llanmalardan foydalanishda samaradorlikni ortishi, multimedialli vositalarning ta’limdagi ahamiyati va elektron multimedialli o’quv qo’llanmalar yaratuvchi dasturlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Tayanch iboralar: *Multimedia vositalari, multimedia texnologiyasi, elektron o’quv qo’llanma, Autoplay dasturi.*

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan davrda o’qitishning yangi usullaridan ko’proq foydalanilmoqda, elektron darsliklarga qiziqish ortib bormoqda. Ushbu maqolada elektron o’quv qo’llanmalardan foydalanish afzalliklarini o’rganib chiqamiz.

Ta’lim jarayonida o’quvchilarga bilimlarini yanada mustahkam va tushunarli, xotirada uzoq vaqt saqlab qolish maqsadida elektron multimedialli o’quv qo’llanmalar muhim o’rin egallaydi. Elektron o’quv qo’llanmalar-zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, [yangilash](#), saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo’lgan manbadir. Bunday qo’llanmalar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirish, dastlabki [bilimlarni rivojlantirish](#), chuqurlashtirish qo’shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo’ljallangan bo’lib, ko’proq mustaqil bilim olishda foydalaniladi.

Multimedia vositalari asosida o’quvchilarga ta’lim berish va kadrlarni qayta tayyorlashni yo’lga qo’yish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Rivojlangan mamlakatlarda o’qitishning bu usuli, hozirgi kunda ta’lim sohasi yo’nalishlari bo’yicha tadbir, qilinmoqda. Amaliyot shuni ko’rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida o’quvchilarni o’qitish ikki barobar unumlidir va vaqtdan yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkin bo’lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o’quvchilar berilayotgan materiallarni ko’rish (video) [asosida qabul qilsa](#), axborotni xotirada saqlab qolinishi 25-30 % oshadi. Bunga qo’shimcha sifatida o’quv materiallari audio, video va grafika ko’rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab kolish 75 % ortadi.

Multimedia vositalari asosida o’quvchilarni o’qitish quyidagi afzalliklarga ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq, va mukammalroq o’zlashtirish imkoniyati;
- ta’lim olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- ta’lim olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtni tejash imkoniyatiga erishish;

➤ olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo’lganda amaliyotda qo’llash imkoniyatiga erishiladi.

Multimediali elektron o’quv qo’llanma murabbiy uchun qulay bo’lib, u:


➤ dars davomida ma’ruzalar matnini o’qimasdan balki, kompyuter yordamida o’quvchi va talabalarga yetkazish va mustaqil ishlarni vaqtida berish;

➤ uy vazifalarini tekshirishda turli hisoblash va tekshiruv ishlarida kompyuter va elektron o’quv qullanmaning qulayligi;


➤ vazifa va ma’ruzalar matnini mustaqil bajarish va o’zlashtirish uchun uydagi kompyuterga elektron pochta orqali yuborishi;

➤ talabalar bilan yakkama - yakka ishlash va ishlarni tekshirib turishi uchun qulaydir.

Elektron multimediali o’quv qo’llanmalar yaratuvchi dasturlar turli xil bo’lib, ovoz yozuvchi, animatsiya yaratuvchi, test yaratuvchi dasturlar, internet orqali ham online holda taqdimot va elektron qo’llanmalar yaratuvchi platformalar mavjud. (1-rasm)



Dars jarayonida elektron o’quv qo’llanmalarni yaratish uchun Autoplay dasturidan foydalanishni tavsiya qilaman. Autoplay Media Studio dasturidan foydalanish foydalanuvchilar uchun juda oson va qulay interfeysni taqdim etadi. Autoplay Media Studio bilan ishlashda deyarli dasturlash ishlari talab qilinmaydi. Foydalanuvchi faqat turli dizaynli dasturiy muhitni tanlash uchun bir nechta tayyor shakllardagi



loyiha shablonlaridan foydalanishi mumkin. Bunda amaliy dastur muhitini dizaynga boy holatga tashkil etish uchun Autoplay dasturiy vositasi tarkibida tayyor obyektlar mavjud bo’lib, ular tarkibiga buyruq tugmasi, tovush kuchaytirgichi, fayllarni printerdan bosmaga chiqarishni ta’minlovchi, Web-saytlarni ochuvchi va ularga murojaatni amalga oshirib beruvchi qator funksional obyektlarni kiritish mumkin. (2-rasm)

Elektron qo’llanma turli pedagogik dasturiy vositalar imkoniyatlarini o’zida mujassam etishi mumkin. Masalan, o’rgatuvchi dasturlar, ma’lumotnomalar, o’quv ma’lumotlar bazasi, trenajyorlar, nazorat qiluvchi dasturlar va boshqalar. Elektron darslikdan laboratoriya praktikumini o’tkazishda foydalanish ham yaxshi samara beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ta’lim jarayonini yanada samaradorligini oshirish uchun qulay vositalaridan biri bu ta’lim jarayonida turli xil elektron o’quv qo’llanmalar, o’rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlardan foydalanishdir. Yuqorida tavsiya etilayotgan

dasturiy vositalar orqali multimediali o’quv qo’llanmalar tayyorlab, o’quv jarayonida foydalanish, talabalarda mavzuni yanada mukammalroq tushunishi va eslab qolishi salohiyatini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qodirov B.G’, Begimqulov U.Sh., Abduqodirov A.A. “Axbor texnologiyalari”. Elektron darslik. 2002 y.
2. Жук Юлия Александровна Мультимедийные Технологии Сыктывкар. 2012 й
3. Вихман, В. В. Мультимедиа технологии: электронно-методический комплекс : учебное пособие / В. В. Вихман. — Новосибирск : НГТУ, 2008

FOYDALANILGAN SAYTLAR

4. <https://www.researchgate.net/publication/273444949>

BARQAROR IQTISODIY O’SISHNI TA’MINLOVCHI OMILLARNING YAIMGA TA’SIRI VA PROGNOZ VARIANTLARI

Boltayeva Dilafza Jumaqulovna
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
“Iqtisodiyot” fakulteti 3–kurs talabasi

Mamlakatda aholi sonining o’sishi, YaIM ishlab chiqarish, aholi daromadlari, jamg’armalari hamda ularning asosiy kapitalga investitsiyalar kiritish kabi ko’rsatkichlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda aholi turmush farovonligini baholashda asosiy rol o’ynaydi. Ularning o’zgarish tendensiyalarini retrospektiv (statistik) ma’lumotlardan foydalanib, matematik usullar yordamida prognoz qilish mumkin. Prognoz qilishda o’tgan davrda aholi sonining o’rtacha yillik mutlaq o’sishi kelgusida saqlanib qoladi.

1-jadval.

O’zbekiston iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko’rsatkichlari o’zgarish dinamikasi

Yillar	Aholi soni, ming kishi	Aholi daromadi	Aholining kapitalga investitsiyalari asosiy nisbatan	Aholi jon boshiga daromad, ming so’m
Haqiqatda				
2005	32125,5	145393	361,1	444,2
2019	32120,5	145393	12108	4526,5
Prognoz				
2022 (I-var.)	33571	192654	25031	5738,7
2022 (II-var.)	34573	258955	76365	7497,9

Statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko’rsatadiki³¹, mamlakatimizda aholi soni muntazam ravishda ko’payib bormoqda. 2019-yilda O’zbekiston aholisi 33905,8 ming kishini tashkil etdi. Bu ko’rsatkich 1991-yilga nisbatan 52,1 foizga yoki 11 mln. kishiga, 2005-yilga nisbatan esa qariyb 22,3 foizga yoki 5,85 mln. kishiga ko’pdir. Ushbu o’zgarish tendensiyalari istiqbolga 2005-2019-yillar statistik ma’lumotlari³² dan foydalanib aholi soni o’zgarishini prognoz qilish uchun quyidagi chiziqli va ko’rsatkichli trend modellari ishlab chiqildi:

$$y_{I-var.} = 0,005t^2 + 0,269t + 21,31; \quad (R^2 = 0,813) \quad (1)$$

$$y_{II-var.} = 21,07 * e^{0,015t}; \quad (R^2 = 0,99) \quad (2)$$

Bu modellardan foydalanib, O’zbekistonda aholining yillik sonining kelajakda o’zgarishining prognozlari amalga oshirildi. Unga ko’ra, mamlakatimiz aholisi 2022-yilda chiziqli (I-variant) modelga ko’ra 33571 ming kishini, chiziqsiz model (II-variant) bo’yicha esa 34537 ming kishini tashkil etishi mumkin. Bu ko’rsatkichlar 2019-yilga solishtirganda

³¹ O’zbekiston hududlarining yillik statistik to’plami. O’zR davlat statistika qo’mitasi. Toshkent, 2020. – 244 b.

³²

<https://www.google.com/search?q=stat.uz&oq=st&aqs=chrome.1.69i57j69i59l2j69i60l4.1322j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>

variantlar bo'yicha 1450,5 va 2416,5 ming kishiga yoki mos ravishda 4,5 va 4,5 foizga ko'pdir. Aholi o'sish sur'atlari 2021-2022-yillarda 1-variant bo'yicha o'tgan 2019-yilga solishtirganda o'rtacha 2.9 foiz atrofida. II-variant bo'yicha esa 4,7 foizdan yuqori sur'atlar bilan ko'payishi mumkin. Ushbu prognozlarning ishonchliligi statistik baholashning deteminatsiya koeffitsiyenti bilan izohlanadi. Ya'ni aholining ushbu davrda o'sishining variantlari bo'yicha 81 (I-variant) va 99 (II-variant) foizi vakt omiliga bog'liq hisoblanadi. Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan aholi bandligi hamda mehnat resurslarini tarmoqlar bo'yicha taqsimlanish balansini tuzishda ham foydalanish mumkin. O'zbekistonda aholi sonining muntazam o'sib borishiga qaramay, aholi jon boshiga YAIM ishlab chiqarish hajmining o'sib borish tendensiyasi saqlanib qolmoqda. YAIMning kelajakda o'zgarishini prognozlash mamlakat iqtisodiy o'sish tendensiyalarini baholashda va uning uchun qanday darajada milliy resurslardan foydalanish zarurligini belgilashda va tartibga solishda muhim manbadir. Mamlakat YAIM hajmining oshib borishi iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hamda iqtisodiyotda band bo'lganlarga uzviy bog'liq hisoblanadi³³.

Umuman ekonometrik modellarga asoslangan prognozlar barqaror iqtisodiy o'sish tendensiyalarini ko'rsatib, bu sohadagi o'zaro bog'liqlik qonuniyatini ham izohlashga asos yaratib beradi. Ushbu prognoz ma'lumotlarida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'rta muddatga ishlab chiqarish, moliya hamda ijtimoiy sohalar rivojlanish dasturlarini asoslashda foydalanish mumkin. Hamda prognoz ko'rsatkichlari mamlakat iqtisodiyoti tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni (xizmat ko'rsatishni) rivojlantirish sur'atlarini aniqlash, ularning investitsiyalarga bo'lgan talablarini aniqlash bo'yicha hisob-kitob ishlarini bajarishga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami. O'zR davlat statistika qo'mitasi. Toshkent, 2020. – 244 b
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statitika qo'mitasi
3. Abdullayev A., Umarov N. Milliy hisoblar tizimi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi. - T.: Moliya, 2001. -92 b.
4. 1 Эконометрика: учебное пособие. // Н.М.Горева, Л.М.Демидоваб Л.М.Клозогурб и др. –М.:Эксмо, 2008. -224с.
5. <https://www.google.com/search?q=stat.uz&oq=st&aqs=chrome.1.69i57j69i59l2j69i60l4.1322j0j7&sourceid=chrome&ie=UTF-8>

³³ Abdullayev A., Umarov N. Milliy hisoblar tizimi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar statistikasi. - T.: Moliya, 2001. -92 b.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA’LIMDAGI O’RNI VA AHAMIYATI

Abduxalimova Go’zal Hazratqulovna

Jizzax davlat pedagogika instituti

“Musiqi ta’limi va san’at” yo’nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogik texnologiya, ta’rifi, tarixiy taraqqiyoti, uning ta’limdagi o’rni haqida so’z boradi.*

Kalit so’zlar: *ta’lim, texnologiy, pedagogika, bilim, innovatsiya.*

Jamiyat rivojidadagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot ishlab chiqarishni texnologiyalashtirishga olib keladi. Hozirgi davrda texnologiyalashtirish jarayoni hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Texnologiyalashtirish ob’ektiv jarayon bo’lib, ishlab chiqarishning barcha sohalariga kirib boradi, ular evolyutsiyasining yangi vazifalarini sifatli hal etilishiga asos soladi.

O’tgan yillarimizga nazar tashlab, ularni sarhisob qilsak, mustaqilligimiz sharofatini yanada chuqurroq anglaymiz. Biz ta’limda butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma’noda o’tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz.

Yangilangan ta’limda o’quvchining yuragidagi cho’g’ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir. Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta’lim texnologiyasi, o’qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta’lim muammolariga oid ma’ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg’or pedagogik texnologiya», «zamonaviy ta’lim texnologiyasi» ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, entsiklopediyalarda izohlanganicha yo’q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko’pgina ta’riflari mavjud.

Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta’lim sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o’qituvchi faoliyati yangilanadi, o’quvchi va talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, isonparvarlik tuyg’ulari tizimi shakllantiriladi. Ma’lumotlilik asosida yotuvchi bosh g’oya ham tabiat va inson uzviyigini anglab yetadigan avtoritar va soxta tafakkur yuritish usulidan voz kechgan, sabr-bardoshli, qanoatli, o’zgalar fikrini hurmatlaydigan, milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlar kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishni ko’zda tutgan insonparvarlik hisoblanadi. Bu masalaning yechimi qaysidir darajada ta’limni texnologiyalashtirish bilan bog’liqdir. Dastlab "texnologiya" tushunchasiga aniqlik kiritaylik. Bu so’z texnikaviy taraqqiyot bilan bog’liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so’zdan - "texnos" (techne) - san’at, mahorat, hunar va "logos" (logos) - fan so’zlaridan tashkil topib "hunar fani" ma’nosini anglatadi. Biroq, bu ifoda ham, zamonaviy texnologik jarayonni to’liq tavsiflab berolmaydi.

Texnologik jarayon, har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalangan holda, operatsiyalarning muayyan ketma-ketlikda bajarilishni ko’zda tutadi. Aniqroq aytadigan

bo’lsak, texnologik jarayon - bu mehnat qurollari bilan mehnat ob’ektlari (xom ashyo)ga bosqichma-bosqich ta’sir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishchi (ishchi mashina)ning faoliyatidir. Ana shu ta’rifni tadqiqot mavzusiga o’giradigan bo’lsak, ya’ni: Pedagogik texnologiya - bu o’qituvchi (tarbiyachi)ning ta’lim-tarbiya vositalari yordamida o’quvchi (talaba)larga muayyan sharoitda ta’sir ko’rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayonidir. Yuqorida keltirilgan ta’rifdan ko’rinib turibdiki, pedagogik texnologiya tushunchasini izohlashda texnologiya jarayoni asos qilib olindi. Aslini olganda ham, bu tushunchaga berilgan ta’riflar pedagogik adabiyotlarda nihoyatda ko’pdir.

Pedagogik adabiyotlarda "texnologiya" atamasining xilma-xil ko’rinishlarini uchratish mumkin: "o’qitish texnologiyasi", "ta’limli texnologiya", "ma’lumot texnologiyasi", "o’quv jarayoni texnologiyasi" va hokazo. O’qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo’lsa-da, aynan o’xshash ma’noni anglatmaydi, chunki u ma’lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o’quv materialini o’zlashtirish yo’lini muayyan texnologiya atrofida ifoda etadi. U ko’proq xususiy metodika bilan bir qatorda turadi.

Pedagogik texnologiya esa ma’lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifodalaydi va "o’qituvchi - pedagogik jarayon o’quvchi (talaba)" funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi. Alohida qayt etib o’tish joizki, ayni vaqtda ta’lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g’oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq ta’riflar berilgan. Yuqorida qayd etilganidek, pedagogik texnologiya nazariyasi o’tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo’lsa-da, aynan “pedagogik texnologiya” tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani “amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizim loyihasi” deya ta’riflaydi hamda asosiy diqqatni o’quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi. N.F.Talzina esa pedagogik texnologiyaning “fan va amaliyot oralig’ida muayyan tamoyillarni olg’a suruvchi metodlar ishlab chiqaruvchi, ularni izchil qo’llash kabi masalalarni hal etishga yo’naltirilgan mustaqil fan” bo’lishi lozimligini qayd etadi va hokazo.

Pedagogik jarayonni tafakkur asosida standartlash loyihasi g’oyasi XVI asrda yashagan slavyan pedagogi Ya.O.Komenskiy tomonidan ilgari surilgan edi. U o’zining "Buyuk didaktika" deb nomlangan mashhur asarida ta’lim- tarbiya jarayonini bir qolipga solmoqchi bo’lganki, unda "har bir usul va narsalar vaqt jihatidan" shunday joylashtirilishi kerak ediki, "butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak" edi. Buyuk pedagog Ya.O.Komenskiy etmagan orzuga XX asr pedagoglari etib, pedagogik texnologiyalar yaratishdi.

XXI asrda bu ijtimoiy voqelik innovatsion pedagogik texnologiyalar nomini olib, butun dunyo pedagoglariga dasturamal bo’lib xizmat qilib kelmoqda. Amaliyotda qo’llanilayotgan pedagogik texnologiyalarni umumlashtirib, quyidagicha turkumlash mumkin.

-ta'lim oluvchilarni faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (o'yinli texnologiyalar, muammoli o'qitish, kommunikativ o'qitish texnologiyalari kabi)

-o'qitish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik texnologiyalar (dasturli o'qitish, differentsiyali o'qitish texnologiyasi, yakka holda o'qitish, istiqbolli o'qitish, guruhli va jamoali o'qitish texnologiyasi, axborotli texnologiya kabi)

-o'quv materialini metodik taqqoslashtirish va didaktik rekonstruktsiya qilishda pedagogik texnologiyalar. (aqliy harakatni shakllantirishning tartibli texnologiyasi, didaktik birlikni mustahkamlash texnologiyasi va boshqalar).

-xalq pedagogikasiga asoslangan texnologiyalar.

Bugungi kunda biz pedagogika sohasidagi ilg'or texnologiyalarni kengroq va chuqurroq o'zlashtirishimiz, ularni o'z mintaqamizga mos holda qayta ishlab chiqishimiz kerak bo'ladi. Pedagogik texnologiya tushunchasiga hozirgi kunda turlicha ta'riflar berilmoqda. Muhimi shuki, pedagogik texnologiya ko'zlagan maqsadga kafolatlangan natija sifatida erishishni ifodalovchi jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. “Moliya ” nashriyoti, 2003 y.
2. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. “Nasaf” 2000 y.
3. U. Tolipov, M.Usmanbayeva. pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005.
4. O'. Tolipov. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy kO'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. T. “Fan”. 2004y.
5. O'. Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. “Fan”. 2005 y.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA NUTQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

G’aniyeva Hulkar Safarovna

*Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli
18-maktab 2-toifali ona tili va adabiyoti o’qituvchisi*

Bozorova Rayhon Sadullayevna

*Navoiy viloyati Navbahor tumani XTBga qarashli
19-maktab 2-toifali ona tili va adabiyoti o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali nutqiy madaniyatni rivojlantirishda qo’llaniladigan interfaol usullardan foydalanish, nutqni rivojlantirishga oid fikr va mulohazalar keltirilgan. Mazkur fanni o’qitishni nazariy va amaliy jihatdan tashkil etish o’qituvchidan chuqur bilim va yuksak mahoratni talab etishi, o’quvchilar o’rgangan bilimlarini hayotda qo’llay olishni o’rgatish o’qituvchi kutgan natijani berishini ta’minlaydi.*

Kalit soʻzlar: *interfaol, texnologiya, nutqiy madaniyat, to’g’rilik, aniqlik, mantiqlik, soflik.*

Har bir shaxs ma’lum bir jamiyat vakili hisoblanadi. Jamiyat a’zolari o’zaro doimo aloqada bo’ladilar. Biri obyektiv olamda o’z sezgi a’zolari orqali his etgan ma’lum narsa va hodisa haqida boshqalarga tovush to’lqinlari yordamida axborotni yetkazadi. Fikrimizni boshqalarga tovushlar vositasida so’zlash va harflar vositasida yozish orqali bayon qilamiz. So’zlash va yozish orqali ma’lum bir fikrni bayon qilishimiz nutq hisoblanadi.

Tariximizda go’zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo’lib kelgan. Mahmudxo’ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdutauf Fitrat, Ashurali Zohiriy kabi bir qator ma’rifat darg’alari tilimiz muhofazasi, tilning sofligi va nutq odobi haqida jiddiy fikrlarni bayon qilishgan.

Bugungi nutq madaniyati tushunchasi nutq odobini ham o’z ichiga oladi. Nutq madaniyati fikrni mustaqil, ravon va go’zal va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda ifodalasni nazarda tutadi. Raso nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma’rifiy taraqqiyotining, millat ma’naviy kamolotining muhim belgisi, o’ziga xos ko’zguvidir. Nutqiy muliqotning samaradorligi nutq madaniyatiga bog’liq, chunki madaniy nutqqina chinakam ta’sir kuchiga egabo’la oladi.

Tilshunoslikda “nutq madaniyati” atamasini, asosan, ikki xil ma’noda qo’llaniladi, ya’ni: 1) tildan bemalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda zaruriy sifatlarning barchasini mustahkamlashtira bilishni ta’minlaydigan ko’nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o’rganish va o’rgatish bilan shug’ullanuvchi bo’lim.

Nutqiy madaniyatni rivojlantirishda interfaol usullardan ham foydalanishimiz mumkin. Aslida nutqiy madaniyat oiladan shakllantirilishi lozim. Doimiy ravishda bolaga to’g’ri va

o`rinli so`zlashni uqtirib borishimiz lozim. Maktab ostonasiga qadam qo`yganda yana bir yangi olamni ko`radi. Unda ham nutq madaniyatini rivojlantirishga doir bir qator chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Masalan, 5-sinfda mavzularni o`zlashtirish jarayonida tez aytish mashqlari bajariladi. Tez aytishlar o`quvchilarning nutqi ravon bo`lishida yetakchi omil bo`lib xizmat qiladi. Kitob mutoala qilish nutq madaniyatini o`stirishning asosiy omili sanaladi.

Adabiyot darslarini o`tishda sinfdan tashqari o`qish mashg`ulotlariga duch kelamiz. Bu mashg`ulotlar o`quvchilarning fikr doiralari kengayishida muhim vosita bo`lib xizmat qiladi. Har bir kitobxon badiiy asar o`qir ekan undan o`ziga ma`naviy va axloqiy tarbiya oladi. Qahramonlarning turmush tarsi, xarakter xususiyatlari, insonlar bilan munosati, odamlar orasida o`zini tuta bilishi, qahramonlar xarakteriga mos bir- biridan qiziq , bir- biridan ta`sirli voqea- hodisalar kitobxonning ko`z o`ngida gavdalanadi. O`qigan asariga fikr bildiradi, qahramonlarning salbiy va ijobiy tomonlarini ochib berishga harakat qiladi.

Nutqiy madaniyatni rivojlantirishda “Tahlil” metodidan ham foydalanish mumkin. Bunda o`quvchilarga har xil manzara tasviri tushurilgan rasmlar beriladi. Ular badiiy tasvir vositalaridan foydalangan holda matnni tasvirlashlari lozim. Bu o`quvchilarga sezilarli darajada ta`sir qiladi. Bir-biridan chiroyli va mazmunga boy matn tuzishga harakat qiladilar. Ma`lum bir fikr bildirishimiz uchun so`zga boy bo`lishimiz kerak.

Fikrni bayon qilishda nutqning to`g`riligiga, aniqligiga, mantiqiyiligiga, ravonligiga, sofligiga alohida e`tabor qaratish lozim. Nutqning to`g`riligi nutq madaniyati haqidagi ta`limotning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to`g`rilik mavjud bo`lgandagina yuzaga kela oladi. Ona tili ta`limining asosiy maqsadi ham o`quvchilarda aynan to`g`ri nutq tuzish ko`mikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

Ayni paytda aniq nutq tuzishda shakldosh, ma`nodosh, ko`p ma`noli so`zlar, paronimlar, so`zlarning uslubiy bo`yog`I kabilardagi ma`no o`ziga xosliklarni yaxshi tasavvur qilmoq zarur. Nutqning aniqligini o`rganishda ‘juftini top’, “Venn diagrammasi”, “Tushunchalar tahlili”, “O`z o`rningni top”, “Bilaman, Bilib oldim, Bilishni xohlayman”, “Lug`at diktant”, “Shaxmat”, “So`zdan so`z o`yini”, “Xatosini top” kabi bir qator interfaol usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu usullar o`quvchilardan ko`proq sinchkovlikni talab etadi. Ularda nutqiy malakalarni shakllantiradi.

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki, ona tili va adabiyot darslarida og`zaki va yozna nutq savodxonligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodni yetuk, ma`naviyatli, madaniyatli, savodxon qilib yetishtirish, ijod qilishga o`rgatish har bir fan o`qituvchining vazifasidir. Interfaol metodlar esa bugungi yoshlarni erkin fikrlash, mustaqil ishlash ko`nikmalarini hosil qilishda muhim o`rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1.11-sinf. Ona tili (Darslik) N.M.Mahmudov, Y.R.Odilov, G.Sh.Ziyodullayeva Toshkent- 2018

2.O`zbek tilidan ma`ruzalar to`plami. N.Erkaboyeva Toshkent-2017

3.Til va adabiyot jurnali 2003-yil 3- son

4.Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. R.Qo`ng`urov, E.Begmatov, Yo.Tojiboyev .-
Toshkent-1992

ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA OLMON TILINI O’RGANISH

Babayeva Vasila Tashpulatovna

*BuxDU, Tabiiy yo’nalishlarda chet tili kafedrası
katta o’qituvchisi*

Annotatsiya : *Paradigma tushunchasi grekcha paradeigma so‘zidan olingan bo‘lib, namuna degan ma‘noni anglatadi. Hozirgi tulshunoslikda esa u majmua, uyushma ma‘nolarida ham faol qo‘llanilmoqda. An‘anaga ko‘ra barcha tillar lug‘aviy birliklarning ma‘no munosabatlariga ko‘ra paradigmasi tiplari sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya va so‘z oilalari deb e‘tirof etiladi. Zamonaviy lingvistikada sinonimlar paradigmatic va sintagmatic nuqtai nazardan tasnif qilinadi.*

Kalit so‘z: *Paradigma, lug‘aviy birliklar, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya, semantika.*

Oliy ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitishda talabning leksik minimumini oshirib borish asosiy maqsaddir. Lug‘aviy birliklar o‘ziga xos sistemaga ega bo‘lib, doimo bir – biri bilan turli munosabatda birliklar semantikasida «yorishadi», sistemalashadi. Ana shunday sistemalashgan munosabatlardan biri birliklarning ma‘no paradigmasidir. Paradigma tushunchasi grekcha paradeigma so‘zidan olingan bo‘lib, namuna degan ma‘noni anglatadi. Hozirgi tulshunoslikda esa u majmua, uyushma ma‘nolarida ham faol qo‘llanilmoqda. An‘anaga ko‘ra barcha tillar lug‘aviy birliklarning ma‘no munosabatlariga ko‘ra paradigmasi tiplari sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya va so‘z oilalari deb e‘tirof etiladi. Zamonaviy lingvistikada sinonimlar paradigmatic va sintagmatic nuqtai nazardan tasnif qilinadi.

Jahon ilm-fani taraqqiyotidan xabardor bo‘lish va tajriba almashib turish chet tillarni o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining ta’lim sohasiga kirib kelishi tarbiyachi va pedagoglarga ta’lim mazmunining barcha bo‘g‘inlari va bosqichlari, ularning maqsadi, mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish imkonini berdi.

Paradigmatic-sintagmatic sinonimlar. Bularga absolyut sinonimlar, masalan, Aufo-Kraftwagen, hamda semantik sinonimlar, masalan tapfer-furchlos kiradi. Sintagmatic sinonimlar faqat ba’zi kontekstlarda ko‘rinadi. Ular haqiqiy sinonimlar emas. Masalan, Goethe-Dichter-Verfasser.

Paradigmatic sinonimlar turiga semantikasi kuchaytirilgan stilistik sinonimlar, masalan, groß-rießig-kolossal, emotsional jilosi kuchaytirilgan sinonimlar Gesicht-Fratze-Visage kabilar mansubdir. Xerbeot Gyorner va Gyunter Kempkellar tomonidan 1999 yili chop etilgan «Wörterbuch. Synonyme» lug‘atida hozirgi zamon olmon tilida qo‘llanilib kelinayotgan sinonim so‘zlarning lug‘atshunoslik nuqtai nazaridan yangicha, to‘liq namunalari berilgan.

Multimediya vositalari – bu insonga o‘zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo‘lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositadir. Bu mavzuni tushuntirish jarayonida multimediya vositalaridan foydalanilsa talabalarning leksik minimumini oshirib borish 90% tezlashadi. Bu vositalardan ma’ruza davomida foydalanilsa nemis tilidagi yangi so‘zlarni talabaga tushuntirib berish va talaba tushunib olishi ancha yengillashadi. Til birliklarining o‘zaro zid ma’nolarini anglatishga ko‘ra guruhlashishi hodisasi antonimiya deyiladi. Antonimiya hodisasi barcha so‘z turkumlariga xos. Masalan, Erfolg-Mißerfolg, Reichtum-Armut, stehen-sitzen,.

Polisimeyada birdan ortiq ma’noni anglatuvchi bir so‘z haqida gap yuritilsa, omonimiyada shaklan teng keladigan birdan ortiq so‘z haqida gap ketdi. Omonimlar tovush tomondan bir xil, ma’no tomondan esa har xil til birliklaridir. Masalan: Star a) Singvogel b) berühmter, beliebter Darsteller, Singer c) Augenkrankheit. Nutq jarayonida omonimiya turli tillarda turli maqsadlarda qo‘llanishi haqida U.Tursunov shunday yozadi:

«... omonimiyada maxsus poetik janr-tuyuq tuzilishda keng foydalaniladi. Ma’lumki, tuyuq xalq og‘zaki ijodida ham, klassik va hozirgi adabiyotda ham alohida o‘rin egallaydi. Askiya ham omonimiyadan juda ustalik bilan foydalanishini talab qiladigan janrdir».

Nemis tili sinonim, antonim, omonimlarga boy va bular nuqtani rang-barang jilolantirish fikr va hissiyotning nozik tomonlarini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bu mavzuni tushuntirish jarayonida o‘z ichiga ixtiyoriy matnni ma’lum bir xarakterdagi rasmni, xarakterlanuvchi o‘yinlarni, ovozni, jadvallarni, grafiklarni, olgan slayddan foydalanish, namoyish jarayonida o‘qituvchi har bir slaydni o‘z nutqi bilan to‘ldirib borishi talabada ko‘proq ma’lumotlarni eslab qolish va tushunish imkoniyatini yaratadi. Nemis tilini o‘qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan axborotlarni to‘plash va saqlashda EHM imkoniyatlari bilan to‘la tanishish, nemis tilini nihoyatda tez o‘rgatuvchi programmalarni tinglashi va ko‘rishi natijasida kompyuter bilan mukammal muloqot ko‘nikmasiga ega bo‘lish, talabalarning ijodiy fikrlashi, har bir so‘zlarni xotirada saqlab qolish, turli holatlarni tez ilg‘ay olish, nuqtani ravon o‘stirish, intellektual rivojlanishini ta’minlash, tili o‘rganilayotgan mamlakat haqida dastlabki tasavvurlarning shakllantirishda, alfavitni, har bir so‘zning ma’no va tarjimasini, so‘z va so‘z yasovchi qo‘shimchalarni sinonimlar, omonimlar, antonimlarni o‘rganishda muhim vosita maqsadlarda foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
2. H.Görner, G.Kempcke. Wörterbuch. Synonyme. München, 1999.
3. U.Tursunov va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1965, 148 b.
4. Tashpulatovich, B. M. . (2021). Using Multimedia Technologies in Teaching Foreign Languages. Middle European Scientific Bulletin, 12, 64-67.
5. Babayev Makhmud Tashpulatovich, Babayeva Vasila Tashpulatovna. USE of Proverbs, sayings and Expressions in teaching German. International Engineering Journal for Research&Development Vol.6. 2021. 52-56.

6. BV Tashpulatovna, MM Halimovna, BM Tashpulatovich -Chet Tili O ‘Pgatishda O
‘Yin-Mashqlarning Roli " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM, 2021. 139-144

7. VT BABAYEVA, MT BABAYEV, S SobirovnaRAJABOVA STUDYING A
FOREIGN LANGUAGE E-Conference Globe, 7-13

VINCE ERECTA O’SIMLIK TURIDAN AJRATIB OLINGAN KOPSININ VA N1- ATSETIL KOPSININ ALKALOIDLARINI AORTA SILLIQ MUSKULINING SARKOPLAZMATIK RETIKULUM Ca^{2+} -TASHISH TIZIMLARIGA TA’SIRI

L.Yunusov., G.Abdurasulova.,
A.Zaynabiddinov., Sh.Adizov

Yurak–qon tomir tizimi patologiyalari orasida eng keng tarqalgani bu arterial gipertoniya bo’lib, ishemiya, infarkt va insult kasalliklari rivojlanishining asosiy faktoridir. Ushbu kasalliklarga qarshi bugungi kunda terapevtik maqsadda uch yuzdan ortiq farmakologik preparatlardan foydalaniladi. Ammo, bu preparatlarning aksariyat qismini qo’shimcha salbiy ta’siri ham mavjuddir. O’z navbatida mahaliy dorivor o’simliklar xomashyosi asosida kardioprotektiv xossaga ega bo’lgan samarali birikmalarni izlash, molekulyar ta’sirini aniqlash, farmakologik preparatlar yaratish va davolashning yangicha yondashuvlarini ishlab chiqish muhim ilmiy - amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida standart biofizik/fiziologik tadqiqot uslublari, jumladan – in vitro sharoitida qon tomir preparatining izometrik qisqarish faolligini qayd qilish (mexanografiya), ingibitorli tahlil uslublaridan foydalanildi. Olingan natijalarni qayta ishlashda OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, Northampton, MA 01060–4401, AQSh) matematik–statistik tahlil dastur paketidan foydalanildi.

Biz tajribalarimizda o’rganilayotgan alkaloidlarni IP_3R ga ta’sirini Krebs eritmasi tarkibida Ca^{2+} -ionlarisiz sharoitda fenilefrin ta’sirida aorta muskuli qisqaradi. Ushbu holatda qisqarish sarkoplazmatik retikulumdan IP_3R orqali chiqayotgan Ca^{2+} -ionlari hisobidan amalga oshadi. Olib borgan tajribalarimizda Krebs eritmasi tarkibida Ca^{2+} -ionlarisiz sharoitda fenilefrin 1 mkM konsentratsiyasida aorta qisqarish kuchini Krebs eritmasi tarkibida $Ca^{2+}=2,5$ mM mavjud qisqarishga nisbatan $65,3\pm 4,2\%$ ga teng bo’lgan qisqarish kuzatildi. Bu holatda qisqarish faqat IP_3R dan chiqayotgan Ca^{2+} ionlari hisobiga vijudga keladi. Shu muhitda kopsinin va N1-atsetil kopsinin kopsinin alkaloidlarning ta’siri tekshirilganda qisqarish kuchini dozaga bog’liq holatda kamaytirishi kuzatildi. Kopsininning maksimal ta’siri konsentratsiyasi 200 mkM da qisqarish kuchini $18,7\pm 3,1\%$ ga, N1-atsetil kopsinin 100 mkM konsentratsiyada $26,8\pm 5,2\%$ gacha kamaytirishi kuzatildi.

O’tkazilgan tajribalar tahlili shundan dalolat beradiki, kopsinin N1-atsetil kopsinin alkaloidlarining Krebs eritmasi tarkibida Ca^{2+} -siz sharoitda fenilefrin yordamida chaqirilgan aorta muskuli qisqarishiga relaksant ta’sirini saqlanib qolishi ushbu alkaloidlarning sarkoplazmatik retikulum IP_3R orqali Ca^{2+} ionlari chiqishiga ta’siri bilan izohlashimiz mumkin.

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIKA FANINI O‘QITISHDA OG‘ZAKI, KO‘RSATMALI VA AMALIY METODLAR.

Raxmatova Ra'no Baxromboyevna

Buxoro viloyat Qorako'l tuman

46-umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'qitishda qo'llaniladiga og'zaki, ko'rsatmal va amaliy metodlari haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Katexezik suhbat, metodik adabiyot, arifmetik, komponentlik, katexezik, evrestik.*

Boshlang'ich sinf matematika kursi maktab matematika kursining organik qismi bo'lib hisoblanadi. V–XI sinflarda o'qitiladigan matematikaning eng asosiy va o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan elementar tushunchalari beriladi. Yuqori sinflarda shu tushunchalar kengaytirilgan, chuqurlashtirilgan va boyitilgan holda o'qitiladi. Demak, boshlang'ich sinf matematikasining mazmuni yuqori sinf matematikasining mazmunini ham belgilab beradi.

1) Og'zaki metodlar – qisqa muddat ichida hajmi bo'yicha eng ko'p ma'lymotlarni berish, o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish, ularni hal qilish yo'llarini ko'rsatish imkonini beradi.

Bu metodlar o'quvchilarning abstrakt tafakkurlarining rivojlanishiga sharoit yaratadi.

a) Tushuntirish. Bilimlarni tushuntirish metodining mohiyati shundan iboratki, bunda o'qituvchi materialni bayon qiladi, o'quvchilar esa uni, ya'ni bilimlarni tayyor holda qabul qilib olishadi.

Materialning bayoni aniq, tushunarli, qisqa bo'lishi kerak. Boshlang'ich matematika kursining bir qator masalalarini qarashda bilimlarning izchil bayoni zarur. Misollar: 1. ko'p xonali sonni bir xonali songa yozma bo'lish algoritmi

(656:4; 1896:6)...

2. 1 yoki 0 ga ko'paytirish hollari. Bolalarda ko'paytirish amali haqida tarkib topgan bilimlar 1 yoki 0 ga ko'paytirish holini tushunib olishlariga yordam bermaydi. o'qituvchi bilimlarni tayyor holda yetkazishi kerak.

O'qituvchining bilimlarni tushuntirish metodidan ma'lu-motlar to'g'rsidagi nazariy materiallar ishlatish bo'yicha yo'l-yo'riq berishda foydalaniladi.

b) Suhbat bu eng ko'p tarqalgan va yetakchi o'qitish metodlaridan biri bo'lib, darsning har xil bosqichlarida, har xil o'quv maqsadlarida qo'llanishi mumkin, ya'ni uyga berilgan topshiriqlarni va mustaqil ishlarni tekshirishda, yangi materialni tushuntirishda, mustahkamlash va takrorlashda qo'llanilishi mumkin.

Suhbat – o'qitishning savol-javob metodidir, bunda o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini qay darajada o'zlashtir-ganliklari va amaliy tajribalariga tayangan holda, maxsus tanlangan savollar va ularga beriladigan javoblar yo'li bilan o'quvchilarni qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy masalalarini hal qilishga olib keladi.

Metodik adabiyotda suhbat metodidan ko‘pincha matematik tushunchalar bilan tanishtirilayotganda (son, arifmetik amallar va hokazo) qonuniyatlar tipidagi bilimlar (arifmetik amallar xossalari va ular komponentlari bilan natijalari orasidagi bog‘lanishlar) tanishtirishda foydalanish tavsiya etiladi.

O‘qitishda suhbatning ikki xilidan, ya’ni katexezik va evrestik suhbatdan foydalaniladi.

Katexezik suhbat – shunday savollar tizimi asosida tuziladiki, bu savollar ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar, ta’riflarni oddiygina qayta eslatishni talab etadi.

Bu suhbatdan asosan bilimlarni tekshirish va baholashda yangi materialni mustahkamlashda va takrorlashda foydalaniladi.

2.Ko‘rsatmali metodlar.

O‘qitishning ko‘rsatmali metodlari – o‘quvchilarga kuzatishlar asosida bilimlar olish imkonini beradi. Kuzatish hissiy tafakkurning faol shaklidir, bundan o‘qitishda, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda keng foydalaniladi. Tevarak atrofdagi predmet va hodisalar va ularning turli-tuman modellari (har xil tipdagi ko‘rsatma-qo‘llanmalar) kuzatish ob‘ektlari hisoblanadi. o‘qitishning ko‘rsatmali metodlarini o‘qitishning og‘zaki metodlaridan ajratib qo‘yib bo‘lmaydi. Ko‘rsatma-qo‘llanmalarni namoyish qilishni har doim o‘qituvchining va o‘quvchilarning tushuntirishlari bilan birgalikda olib boriladi. O‘qituvchining so‘zi bilan ko‘rsatma vositalardan birgalikda foydalanishning 4 ta asosiy shakli aniqlangan:

- 1) o‘qituvchi so‘zlar yordamida o‘quvchilarning kuzatishlarini boshqaradi;
- 2) og‘zaki tushuntirishlar ob‘ektning bevosita ko‘rin-maydigan tomonlari haqida ma’lumotlar beradi;
- 3) Ko‘rsatma-qo‘llanmalari o‘qituvchining og‘zaki tushuntirishlarini tasdiqlovchi yoki konkretlashtiruvchi illyustrasiya bo‘lib xizmat qiladi;
- 4) o‘qituvchi o‘quvchilar kuzatishlarini umumlashtiradi va umumiy xulosa chiqaradi.

3. Amaliy metodlar. Malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish va mukammallashtirish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan metodlar o‘qitishning amaliy metodlari hisoblanadi. Xususan, bunday metodlar jumlasiga yozma va og‘zaki mashqlar, amaliy va laboratoriya ishlari, mustaqil ishlarning ba’zi turlari kiradi. Mashqlar asosan mustahkamlash va bilimlarni tatbiq qilish, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish metodi sifatida qo‘llaniladi.

Mashq deb biror amalni, shu amalni o‘zlashtirish yoki mustahkamlash maqsadida rejali ravishda tashkil qilingan takroriy bajarishga aytiladi. Mashqlar tayyorlash, mashq qildirish va ijodiy mashqlarga katta ahamiyat beriladi. Ijodiy xarakterdagi mashqlarga masalan, masala va misollarni turli usullar bilan yechish, ifoda bo‘yicha masala tuzish, qisqa yozuv, chizmaga ko‘ra masala tuzish, muammoli masalalarni yechish mashqlari va boshqa mashqlar kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

3. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasi (OO‘Y uchun darslik) Toshkent. . “Turon-Iqbol” 2016 yil
4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.

СОВРЕМЕННЫЕ АНТРОПОГЕННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ ПРИАРАЛЬЯ

Джаксымуратов К.М

*к.г.-м.н., доцент, заместитель директора по научной работе и инновациям,
Нукусский филиал Навоийского государственного горного
института, г.Нукус, Узбекистан*

КаDIRбаев А

*студент 3 курса, Нукусский филиал
Навоиского государственного горного института, Узбекистан*

Современные физико-географические процессы и техногенно-антропогенные изменения довольно широко развиты на изучаемой территории, большинство из них характерно только для аридного климата. Антропогенные и техногенные изменения вызваны интенсивным использованием орошаемых земель, строительством новых коллекторно-дренажных сетей и использованием природных ресурсов. Еще в 50-е годы планирующим органам было ясно, что расширение орошаемых земель для возделывания хлопчатника и связанное с этим интенсивное потребление воды, отрицательно скажется на уровне моря. Однако экономические соображения получили приоритет над экологическими требованиями. Площадь орошаемых земель Приаралья до 1960 г. составляла 2,3 млн.га, а в настоящее время уже превышает 7,5 млн.га. Последствия этого фатального решения имели крайне отрицательное значение для населения и природы. Широкомасштабные мероприятия по орошению прилегающих к Аральскому морю территорий, привели к нарушению естественного водного баланса моря. В ходе постепенной интенсификации возделывания хлопчатника сокращается приток воды в Аральское море из рек Амударьи и Сырдарьи.

Следствием дефицита воды явилось необратимое нарушение всей экологической системы региона. В последние годы ежегодный приток рек в Аральское море в среднем снизился с 55 км³ до 5 км³. Площадь водной поверхности в последние годы сократилась более чем на 50% (с 69500 кв.км до 33600 кв.км), объем воды снизился с 1040 до 231 км³, содержание солей в воде увеличилось с 5 до 30 г/л. На высохшем морском дне образовались солончаки, из которых ежегодно за счет дефляции в атмосферу поднимается около 75 млн.тонн соли и пыли, которые разносятся по экологически важным территориям дельт. Проследим прогнозируемый процесс высыхания Аральского моря при условии притока воды в объеме 5 км³ в год, где на долю грунтовых вод приходится в среднем в 0,2 км³ в год .

Качество поверхностных вод ухудшается из-за возврата в реку коллекторно-дренажных вод с повышенной минерализацией, загрязненными пестицидами, неорганическими удобрениями, а также сброса в нее неочищенных промышленных и хозяйственных стоков.




Рис.1. Антропогенные изменения Приаралья

Строительство коллекторно-дренажной сети началось в 70-е годы с расширением посевных площадей под технические и зерновые культуры, с целью регулирования водно-солевого баланса путем отведения избыточных высокоминерализованных грунтовых вод за пределы орошаемых массивов дренажными сооружениями (КС-1, КС-2, КС-3, ГЛК, ККС) в сторону Аральского моря (оз.Каратерень, оз.Судочьи и др.). (рис.11).

Суммарный годовой сток сбросных и дренажных вод в коллекторно-дренажную сеть по районам (Нукусский - 148 млн. м³, Кегейлийский 77 млн. м³, Чимбайский - 170 млн. м³) составил 396 млн. м³. Накопление осадков в надводной дельте идет непрерывно, временами чередуется с размывами. Эрозионно-аккумулятивной деятельности каналов и коллекторов, из современных физико-геологических процессов и явлений отмечаются оплывины бортов коллекторов, суффозионные воронки, засоление (вторичное засоление), такырообразование и эоловые процессы. Они проходят по извилистым руслам древних протоков и заключаются в подмыве берегов и накоплении наносов. С этой деятельностью ведется борьба путем чистки и спрямления русел водотоков. В местах пересечения коллекторами отложений русловой фации наблюдаются оплывины пород длиной 8-15 м, высотой равной глубине коллектора и мощностью до 0,5-1,5 м. Оплывины образуются за счет выноса грунтовыми водами нижнего слоя песка и обрушения верхнего слоистого комплекса глинистых осадков. В результате чего ширина коллектора увеличивается, глубина уменьшается. В дельте развиты такыровидные поверхности с нехарактерной для такыров трещиноватостью. На такырных участках вскрыты маломощным слоем глины, которые залегают на супесчаном и песчаном основаниях. Глинистый слой образовался в результате вымывания и сноса поверхностными водами мелких фракций в пониженные участки. Засоление грунтов развито в понижениях рельефа и местами вблизи оросительной сети за счет испарения близко залегающих грунтовых вод. В наиболее глубоких понижениях развиты процессы заболачивания дна и засоления бортов.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Завьялов П. О. и др, Мониторинг состояния физических, химических и биологических систем Аральского моря в условиях экологического кризиса, УДК 551.465, 2007

2. Джаксымуратов К.М. Формирование пресной линзы подземных вод водозабора Кегейли методом искусственного восполнения. Сб. научных трудов кафедры ГиИГ КазНТУ, N 2, 1997. С.40-45.

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONIDAGI XUSUSIYATLARI

Eshmurotova Gulshod Norboyevna

Qo'ng'iroq tumani MTB ga qarashli

30-sonli MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: *Bugungi ushbu maqolada hozirgi kundagi bolalarning bilish jarayoni, ta'lim olishining o'ziga xos prinsiplari, bilish faoliyatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi, bilish, bilish usullari, bilish faoliyati, shaxs.*

Shaxsning o'tmish avlodlar yaratib qoldirgan ijtimoiy-tarixiy tajribalarni o'zlashtirish jarayonida shaxsning rivojlanishi haqida ta'limot maktabgacha ta'lim didaktikasida ta'lim mazmunini tanlash va tuzish prinsiplarini ishlab chiqishning metodologik asosi hisoblanadi. Bolani maktabgacha tayyorlash jarayonida ularda faoliyatining yangi turi bo'lgan ta'lim olishga, o'qishga ishtiyoq uyg'otishi lozim. Bu o'rinda bolalarni ruhan ta'lim jarayoniga kirishishga tayyorlash maqsadida dastlabki o'quv elementlarini o'rgatish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining maqsadi- bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iborat. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat.

- bola huquqlari, uning o'ziga xos rivojlanish xususiyati va salohiyatini hisobga olish;

- ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohasining o'zaro bog'liqligi;

- bolaning salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;

- bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;

- o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;

- bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;

- maktabgacha ta'lim tashkilotining oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;

- milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi- bu maktabgacha ta'lim tizimini rivojlanishi va uning ta'lim tizimidagi ustuvorligini ta'minlovchi Konseptual Nizomdir.

Bilish- inson tomonidan voqelikni aks ettirish jarayoni. Bilish jarayoni sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psixik protseslarda ifodalanadi.

Bilish usullari- bilish jarayonining qonun-qoidasi, mezoni, tamoyili, shakli va usullari hamda vositalari, shuningdek bilish jarayoniga qo'yiladigan talablar tizimlarining majmuasiga bilish usullari deyiladi.

Bilish faoliyati- boladagi individual o’zgarishlar sur’atini e’tiborga olgan holda tashkil etiladi. Bunda didaktik harakatlarning takrorlanishi va mazmuni jihatidan yakka yutuqqa erishiladi.

Shaxs-kadrlash tayyorlash tizimining bosh subyekti va obykti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

Bilimlarning tarbiyalovchilik yo’nalishi ularning maqsadga muvofiq tanlanishi, jamiyatimizning milliy istiqloq g’oyalarining aniq mazmuni va asoslarida yoritilishi ularning mohiyatini aniqlashtirilishi, bolalarga tushunarli tarzda yetkazishida namoyon bo’ladi. Bunday ta’limlar bolada dunyoni tushunish asoslarini shakllantirgan holda uni jamiyat hayotiga olib kiradi, kattalarning mehnat ehtiyojlariga, ularning munosabatlari olamiga olib kiradi. Bu esa bolalarda mehnat buyumlariga, tabiatiga kattalar talabiga nisbatan to’g’ri munosabatni shakllantiradi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, hissiyot, tafakkur va nutqning rivojlanishi jadal kechadi. Bog’cha yoshidagi bolalarda turli narsalarni idrok qilishda ularning ko’zga yaqqol tashlanib turuvchi belgilariga asoslanmasa ham, lekin chuqur tahlil qila olmaydi. Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo’ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. Bog’cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo’ladi. Bu yoshda bolalarda ixtiyoriy diqqatning o’sib borishi uchun o’yin juda katta ahamiyatga ega. O’yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to’plab, o’z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarini ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolalarning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o’z oldiga qo’ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning xotirasi ko’rgazmali, obrazli bo’lishi mumkin. Bola ravshan va emotsional rang-barang materialni oson esda qoldiradi. Kattalarning vazifasi bolalarning mumkin qadar ko’proq ma’lumotlarni va tasavvurlarni eslab qolishgagina emas, balki ular uchun tushunarli, foydali bo’lgan turli bilimlarni egallashiga erishishdan iborat. Bolalar bu xildagi bilimlardan o’z o’yinlarida, rasmlarida, yaqinlari bilan suhbatda foydalanadilar. Bu bilimlar ularning aqliy va axloqiy o’sishlari uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F.R.Qodirova, Sh.Q.Toshpo’latova, N.M.Kayumova, M.N.A’zamova- “Maktabgacha pedagogika” – Toshkent 2019.
2. Z.T.Nishanova- “Bolalar psixodiagnostikasi” - Toshkent 1998.

ATROF –MUHITNI MUXOFAZA QILISH TO‘G‘RISIDA CHORA TADBIRLAR

SHeraliyev Lazizbek Nodirbek o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti

4- bosqich talabasi

SHeraliyeva Maftunaxon Maqsudali qizi

Toshkent davlat transport universiteti

4- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi SHNQ-2.05.02-07ga asosan yangi avtomobil yo‘llarini qurish yoki mavjudlarini rekonstruksiya qilish loyihalari RD 119.0027714-24-93 ga muvofiq atrof- muhitga ta’sirini baholash , Atrof-muhitni muhofaza qilish vazifalari, Atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha chora tadbirlar, O‘zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish Konsepsiyasi, Atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha Prezident farmonlari, Konsepsiyaning maqsadi va vazifalari.*

Kalit so‘zlar: *avtomobil yo‘llarida atrof-muhit, ekologiya, tabiatni muxofaza qilish, atmosferani muxofaza qilish, yo‘l xaritasi.*

2030-yilgacha bo‘lgan davrda o‘zbekiston respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi

O‘zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasiga](#) muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. Atrof muhitning joriy holati tahlili, global va mintaqaviy ekologik muammolar, yangi ekologik xavf-xatarlar O‘zbekiston Respublikasida aholining hayot sifatini yaxshilash borasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonning ajralmas qismi hisoblangan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini (onito o‘rinlarda — Konsepsiya) ishlab chiqish zaruratini vujudga keltirdi. Konsepsiya ko‘rsatib o‘tilgan davrda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi, ularning amalga oshirilishi esa kelajak avlodlarning manfaatlari yo‘lida davlatni barqaror rivojlantirishni ta’minlash imkonini beradi.[6]

Konsepsiyaning maqsad va vazifalari

Quyidagilar Konsepsiyaning maqsadlari hisoblanadi: O‘zbekiston Respublikasi aholisining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof muhitning qulay holatini ta’minlash; atrof muhitga va aholining salomatligiga salbiy ta’sirni pasaytiruvchi innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga barqaror iqtisodiy rivojlanish; atrof muhit obyektlaridan oqilona foydalanishni va onitori resurslar qayta tiklanishini ta’minlash. Quyidagilar Konsepsiyaning vazifalari hisoblanadi: atrof muhit obyektlarini (yer, suv, atmosfera havosi, yer qa’ri, o‘simlik va hayvonot dunyosi) saqlash va qo‘riqlanishini ta’minlash; qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarni kengaytirish; iqtisodiyotni ekologiyalashtirish, tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, ekologik jihatdan eng kam xavf tug‘diruvchi materiallar, mahsulotlardan, ishlab chiqarish

obyektlari va boshqa obyektlardan ustuvor darajada foydalanish; atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini, shuningdek, atrof muhitning ekologik onitoning tizimini takomillashtirish; atrof muhitni muhofaza qilishni ilmiy jihatdan ta’minlash; ekologik xavfsizlikni e’tiborga olgan holda, chiqindilar bilan bog’liq ishlarni amalga oshirish tizimini takomillashtirish, zaharli kimyoviy va radioaktiv moddalardan ekologik xavfsiz foydalanishni ta’minlash; aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat organlari faoliyatining oshkorlik darajasini oshirish va fuqarolik jamiyatining rolini kuchaytirish; atrof muhitga minimal og’irlik tushiradigan barqaror rivojlanishni ta’minlovchi jamiyatni shakllantirish; atrof muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlikni kengaytirish. [5]

Yangi avtomobil yo’llarini qurish yoki mavjudlarini rekonstruksiya qilish loyihalari RD 119.0027714-24-93 ga muvofiq atrof-muhitga ta’sirini baholash muolajasi (OVOS) o’tkazilganidan so’ng amalga oshirilishi zarur. I va II toifali avtomobil yo’llari (avtomagistrallar va tezkor yo’llar) qurilishida OVOS to’liq hajmda amalga oshiriladi. Atrof-muhitga ta’sirini baholash va holatini bashorat qilish avtomobil yo’llarining u yoki bu toifasiga qo’yiladigan umumiy va aniq ekologik talablarga asoslanishi kerak. Yo’l atrofdagi tabiiy landshaftga organik uyg’unlashib ketishi zarur. I va II toifali avtomobil yo’llari aholi punktlarini aylanib o’tishi va bunda havoni ifloslanishi nuqtai nazaridan yilning eng yomon davrida shamolning ustivor yo’nalishi hisobga olinishi kerak. Avtomobil dvigatellaridan chiqayotgan chiqindi gazlarning kamayishiga erishish maqsadida III va IV toifali yo’llar (shuningdek aholi punktlari ichidagi yo’llar) optimal tezlikdagi transport oqimi harakatini eng yaxshi tashkil etish imkoniyatini yaratish nuqtai nazaridan kelib chiqib hisob-kitob qilinishi va o’tkazilishi kerak. Transport oqimining shovqin darajasi sanitariya me’yorlaridan oshmasligi zarur. Yo’l atrofidagi hududga ko’rsatiladigan salbiy ta’sirni kamaytirish maqsadida yo’l bo’yida tashqi salbiy ta’sirlarga chidamli bo’lgan yashil daraxtlardan himoya mintaqasi yaratilishi kerak. Tabiiy muhitni asrash, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish umummilliy vazifa hisoblanadi va bu ekologiya tizimini, tabiat komplekslari va ayrim ob’ektlarning muhofazasini ta’minlashga, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo’lish huquqini kafolatlashga qaratilgan. [7]

Maxsus bilimni talab qiladigan masalalarni hal etishga ba’zi hollarda mutaxassislar jalb qilinmayapti, ekologiyaga zarar etkazayotgan barcha aybdor shaxslarga, shu jumladan, korxonalar va tashkilot rahbarlariga bo’lgan talablarni asossiz ravishda susaytirish yoki ularni javobgarlikka tortmaslik hollari mavjud. Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish to’g’risidagi qonunlarning buzilish sabablarini va shart-sharoitlarini aniqlash va bartaraf etish masalasiga etarlicha ahamiyat berilmayapti. Tabiatni muhofaza qilishga oid qonunlarni to’g’ri va bir xilda qo’llanishini ta’minlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qaror qiladi: 1. Tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan ziyon-zahmat etkazmasdan oqilona foydalanish to’g’risidagi qonunlarga qat’i amal qilish eng muhim davlat vazifalaridan biri ekanligiga, ularni hal qilish fuqarolarning sog’lig’i va farovonligi, shuningdek respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi bilan bog’liq ekanligiga sudlarning e’tibori qaratilsin. 2. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlar O’zbekiston Respublikasining [«Tabiatni](#)

[muhofaza qilish to‘g‘risida](#)»gi, «[Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida](#)»gi, «[O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida](#)»gi, «[Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida](#)»gi, «[Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida](#)»gi qonunlari, er, suv, er osti boyliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, shuningdek, boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. (2-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 29 noyabrdagi 46-sonli [qarori](#) tahririda) .[2]

Bunda «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunning [2-moddasiga](#) muvofiq yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi ifloslanishdan, buzilishdan, zararlanishdan, oriqlab ketishdan, vayron bo‘lishdan, yo‘q bo‘lib ketishdan, oqilona foydalanmaslikdan muhofaza etilishini. **Tabiatni muhofaza qilish tabiat** va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko‘zlab ongli ravishda o‘zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go‘zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma‘muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi. Chunki bir joyning iqlimi Quyosh nurining tushish burchagiga, ya‘ni geografik kenglik, yer yuzasining tuzilishi, shamollar, okeanlarning uzoq yoki yaqinligi, oqimlari va boshqalarga; o‘simliklar qoplami esa iqlim, yer yuzidagi tog‘ jinslari, relyef, tuproqlarga bog‘liq.[3]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 20.12.1996 yildagi 36-son
2. *2-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2017 yil 29 noyabrdagi 46-sonli [qarori](#) tahririda*
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tabiatni_muhofaza_qilish+%26hl=ru&ct=clnk&gl=uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son [Farmonida](#) 1-ILOVA
5. O‘zbekiston Respublikasining Atruf muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini 2019 — 2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (onito o‘rinlarda — “Yo‘l xaritasi”) [2-ilova](#).
6. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atruf muhitni muhofaza qilish KONSEPSIYASI. 1-BOB.
7. SHNQ -2.05.02-07. 9-BET.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH

Tajiboyeva Gavhar Yusupovna

*Samarqand viloyati Bulung’ur tumani
32-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang’ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni turlarini, ya’ni matematik o’n minutlik, qiziqarli matematika soatlari, matematika to’garak, tashkil etishni nazariy asoslari tahlil qilindi.*

Kalit so’zlar: *boshlang’ich sinflar, matematika, sinf, matematik o’n minutlik, qiziqarli matematika soatlari, matematika to’garak.*

Matematikadan sinfdan tashqari mashg’ulotlar deganda o’quvchilarning matematik bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida tashkil qilingan mashg’ulotlarni tushunamiz.

Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o’quvchilardagi fanga bo’lgan qiziqishini rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to’ldiruvchi matematik bilim, malaka va ko’nikmalar bilan qurollantirishdan foydalanish mumkin.

Matematik o’n minutlik. Boshlang’ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari mashg’ulotlar uyushtirishdagi dastlabki qadam matematik o’n minutliklardir.

O’n minutlik dars yoki darsdan tashqari vaqtlarda butun sinf o’quvchilari ishtirokida haftada bir marta uyushtiriladi.

O’qituvchi o’n minutlik uchun shunday masala misol, mashq va o’yinlar tanlashi kerakki, ular hajm jihatdan kichik bo’lsin, lekin o’quvchilarning aktivligini oshirsin, o’quvchilarning kelajakda umumiy bilish faoliyatlarini hamda nutq madaniyatlarining kamol topishida yo’naltiruvchi vosita bo’lib qolsin.

O’n minutlikni faqat sinfda o’tkazmasdan, balki maktab hovlisida va hatto maktabdan tashqarida o’tkazish mumkin. Bunda o’quvchilar bilan tevarak – atrof va tabiatdagi matematik mutanosiblikni sekin – asta mushohada qilish asosida o’tkaziladi.

Qiziqarli matematika soatlari. Mashg’ulotlarning bu turi nisbatan ko’proq vaqtga (taxminan 45 minut) mo’ljallangan bo’lib, qiziqarli o’yin, sonli topishmoqlar, she’riy masala, hazil masala va sahnalashtirilgan masalalardan tarkib topadi. Bunday mashg’ulotlar 1 – sinf o’quv yilining II yarmidan boshlab avval bir oyda bir marta, keyinchalik 2 martadan o’tkazilishi mumkin. Unda o’quvchilarning o’zlari tashabbus ko’rsatishlariga erishmoq kerak.

Matematika to’garak. Matematika to’garagi sinfdan tashqari ishlarning eng ommalashgan turi. To’garak ixtiyoriy ravishda tuziladi. Har qaysi matematika to’garagida qatnashadigan o’quvchilar soni 15-20 dan oshmasligi kerak, aks holda o’qituvchiga qiyinchilik tug’diradi va o’quvchilar to’garakda aktiv ishtirok eta olmaydilar. To’garak a’zolarining soni ko’payib ketsa, ularni ikki guruhga bo’lish maqsadga muvofiqdir. Guruhlar bilan bir hafta, ikkinchisi bilan ikkinchi hafta shug’ullanish mumkin. Mashg’ulot

30 – 40 minut davom etsa yetarli. Ma’lum vaqt oralig’ida guruhlarni qo’shib mashg’ulot o’tkazish va mashg’ulotlarni musobaqa yoki viktorina o’tkazish maqsadga muvofiqdir. Matematika to’garagi mashg’ulotini sentyabr oyining ikkinchi yarmidan boshlab (birinchi sinf uchun ikkinchi yarim yillikdan,) may oyining birinchi yarmida yakunlash mumkin. To’garak ishlarini boshlashdan oldin o’qituvchi kamida 3 – 4 mashg’ulotga yetadigan material tayyorlab, uni rejalashtirish va to’garakni tashkil qilishga tayyorgarlik ko’rishi kerak.

Matematika to’garagida o’rganiladigan material mazmuni va hajmini chegaralab qo’yish qiyin. Bunda maktab sharoiti va o’qituvchining tayyorgarligiga qarab to’garakda turli xil tarixiy, nazariy va amaliy materiallarni o’rganish mumkin.

Matematika to’garagining muvaffaqiyatli ishlashida, o’quvchilarni to’garak ishiga jalb qilishda, qiziqirishda dastlabki mashg’ulotlarning ro’li katta. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, dastlabki mashg’ulotlarning ko’p qismini qiziqarli matematikaga ajratish ham yaramaydi, chunki keyingi mashg’ulotlarda qiziqarli matematikadan boshqa materillarga qiziqish kamayadi, natijada o’quvchilar to’garakdan soviy boshlaydi. Shuning uchun dastlabki mashg’ulotlarda ham, keyingi mashg’ulotlarda ham qiziqarli materiallar hajm jihatdan barobar ma’quldir.

Sinfdan tashqari ish tashkilotchisining matematik va umumpedagogik mahorati ham bu ishning sifatiga va ilmiy metodik darajasiga ta’sir ko’rsatmasdan qolmaydi. O’qituvchining shaxsiy malakasi ham katta ahamiyatga ega. Shu sababli sinfdan tashqari ish har bir o’qituvchini qanoatlantiradigan aniq uslubiy ko’rsatmalar berishi qiyin.

To’garak mashg’ulotlarini o’tkazish sinf darslariga yaqin. Sinfdagi va sinfdan tashqari ishlarining o’xshashligi jamoa o’quv ishini tashkil qilish formasi bilan aniqlandi, bunda o’qituvchi o’quvchilar guruhi bilan mashg’ulot olib boradi, zaruriy tushunchalarni beradi, o’quvchilardan so’raydi va h. Bu yerda o’quvchilarga katta tashabbuskorlik berish maqsadga muvofiq, ularga muhokama qilinayotgan masala yuzasidan mulohazalarini bemalol aytish uchun to’la imkoniyat berish kerak.

Bunda o’quvchilarni matematik tilda gapirishga o’rgata boorish, ularni matematik nuqtalari (og’zaki nutq va yozma nutq) ustida ishlashi ham eng muhim pedagogik vazifalardan biridir. Bundan tashqari to’garaklarda to’garak kutubxonasi, matematika burchagi tashkil qilish va ularni jihozlash, ayrim tadqiqot ishlari olib boorish maqsadga muvofiqdir. Bu ishlarni yaxshi tashkil qilish uchun sharoitga qarab, chorak dasturlari, yarim yillik matematik va taqvimiy dasturlari tuziladi.

Boshlang’ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ish turi matematika to’garagini tashkil etishda o’quvchilarning matematikaga bo’lgan qiziqishlariga qarab tanlab olinar ekan. Matematikadan to’garaklarni tashkil etishda qiziqarli misol va masalalardan, mantiqiy masalalardan foydalanish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boltayev J, Qodirov A ||Boshlang’ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar || Toshkent, 2002, 52 bet.

2. Bikbayeva N.U, Yangabayeva E, K.Girfanova «Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini boshlang‘ich matematik ta‘limning Davlat ta‘lim standartlari asosida o‘qitish» Toshkent.: – 2008, «Turon - Iqbol», 8 bet.

3. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o‘qitish metodikasi (kasbhunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma) – T.: «Ilm-Ziyol», 2003, 240-bet

BIOLOGIYANI O’QITISHDA O’QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI TARKIB TOPTIRISH.

Sobirova Dilnoza Nasrilloevna

Buxoro viloyati Qorako’l tumani

46-umumta’lim maktabi biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biologiyani o’qitishda o’quvchilarda mustaqil fikrlashni tarkib toptirish mavzusida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *mustaqil va ijodiy fikr, biologik ob’ektlar, qo’shimcha adabiyotlar va multimedialar.*

Biologik ta’lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismini ijodiy faoliyat tajribalari tashkil etib, mazkur faoliyatni tarkib toptirish uchun avvalo o’quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini tarkib toptirish lozim. Fikr inson faoliyati, uning o’z kuchi, qudrati va bilimni tashkil etuvchi ma’naviy-insoniy sifatidir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo’lganligi uchun, biologiyani o’qitish jarayonida o’quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish zarur.

Biologiyani o’qitishda o’qituvchi o’quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish uchun avvalo:

- O’quvchilarning darsda mustaqil ishlashlari uchun o’quv topshiriqlarini tuzishi, biologik ob’ektlar, tabiatdagi mavsumiy o’zgarishlarni o’rganish maqsadida tajriba va kuzatish o’tkazish yuzasidan ko’rsatmalar tayyorlashi;
- O’quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta’limi uchun qo’shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim.

O’quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish uchun, ta’limtarbiya jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasini qo’llash zarur. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining asosiy g’oyasi o’quvchilarni har tomonlama rivojlantirish sanaladi.

Mazkur texnologiyaning asosiy xususiyatlari:

- o’quvchilarni o’z bilish faoliyatini sub’ektiga aylantirib, fikr yuritish mexanizmini shakllantiradi, rivojlantiradi.
- o’quvchilarning bilish faoliyati emperik va nazariy bilish yaxlitligida tashkil etilib, o’qitish jarayonida bilimlarni deduktiv usulda o’rganish ustuvor bo’ladi.
- o’qitish jarayonining asosini o’quvchilarning o’quv topshiriqlarini bajarish orqali vujudga keltiriladigan mustaqil faoliyat tashkil etadi.
- o’quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo’nalish sanaladi. Fikr yuritishning bu ikki tipi bir-birini to’ldiradi va taqozo etadi.

Tanqidiy fikr yuritish shaxsning voqea va hodisalar haqidagi munosabati va fikrini vujudga keltirib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Tahliliy fikr yuritish (axborotni tahlil qilish, zarur faktlarni tanlash, taqqoslash, faktlar va hodisalarni chog’ishtirish).

O’quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko’nikmalarini shakllantirish uchun biologiya o’qituvchisi har bir darsda avval o’rganilayotgan ob’ektlar bilan o’rganilgan ob’ekt o’rtasidagi bog’lanishlarni aniqlaydigan topshiriqlarni berishi kerak.

O’quvchilar darslikda berilgan o’quv axborotini tahlil qiladi, organlar sistemasi haqidagi faktlarni tanlaydi, ularni avvalgi ob’ektlar bilan taqqoslab, xulosa chiqaradi. Demak, daryo qichqichbaqasining ichki tuzilishini tahlil qilib, avval o’rganilgan oq planariya, yomg’ir chuvalchangi, suv shilliq qurti bilan taqqoslab o’rganadi. O’quv materiallarining bu tarzda o’rganilishi o’quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko’nikmalarining tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

- Bog’lanishli (assotsiativ) fikr yuritish (avval o’rganilgan bilimlar, faktlar orasidagi bog’lanishlarni aniqlash, tanish ob’ekt va hodisalarning yangi xususiyatlari va sifatlarini topish).

Bog’lanishli fikr yuritish o’quvchilarning avval o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini kutilmagan, noodatiy vaziyatlarda qo’llab yangi bilim va ko’nimalarni o’zlashtirishlariga zamin tayyorlaydi.

O’qituvchi «Organik olam evolyutsiyasining yo’nalishlari» mavzusini o’rganishda o’quvchilarning botanika va zoologiya o’quv fanlaridan o’zlashtirgan bilimlarini faollashtirish maqsadida ularga o’quv topshiriqlari bilan birga quyidagi jadvalni to’ldirish tavsiya etadi.

Shunday qilib, tanqidiy fikr yuritish tahliliy, bog’lanishli, mustaqil, mantiqiy, tizimli fikr yuritishni mujassamlashtirib ular o’rtasida ichki va tashqi, muayyan va nisbiy bog’lanishlar mavjud. O’quvchilarda, ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarni rivojlantirishda o’qituvchi yuqorida qayd etilgan tahliliy fikr yuritishning tarkibiy qismlaridan, xususan, mustaqil fikr yuritish ko’nikmalaridan foydalanishi mumkin. SHuni qayd etish kerakki, o’quvchilarda nomlari zikr etilgan fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirmay turib ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipova J.O., G’ofurov A.T. Biologiya o’qitish metodikasi. Akademik litsey va kasbhunar kollejlari biologiya o’qituvchilari uchun o’quv-metodik qo’llanma. – T.: Bilim, 2004, .

2. Tolipova J.O., G’ofurov A.T. Biologiya ta’limi texnologiyalari. T . “O’qituvchi” 2002 yil.

ADABIYOT DARSLARIDA ASARLAR YUZASIDAN TUZILGAN SAVOLTOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH.

Payzullayeva Feruza Ramazonovna

Buxoro viloyati Qorako’l tumani

46-umumta’lim maktabi

ona tili adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada savol va topshiriqlarning o’quvchi mustaqil faoliyatini tashkil etishdagi va ijodiy tafakkurini o’stirishdagi o’rni haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *evristik, sulibat, induktiv, deduktiv, aqliy hujum, ritorik savollar, kuzatuvchanlik, ziyraklik va o’quvchining tafakkuri darajasi.*

Darslikdagi materiallarning o’zlashtirilishini ta’minlovchi matndan tashqari materiallardan biri shu asar mazmun-mohiyati yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlardir. Professor A.Zunnunov darsliklardan o’rin olgan bu didaktik ashyolami uch guruhga bo’ladi:

- bilimlarni mustahkamlash vazifasini bajaruvchi;
- mantiqiy fikrlash usullarini egallashga imkoniyat beruvchi;
- o’zlashtirilgan bilimlarni amalda qo’llash imkonini beruvchi

Bunga qo’shimcha qilib «Adabiyot» darsliklarida o’rganilajak asar mazmunining mohiyatini ochishga, uning badiiy jozibasini, qimmatini, ta’sirchanlik jihatlarni topishga, matnda aks etgan milliy ruhni ilg’ashga, mustaqil fikrlash va shaxsiy munosabatni bildirishga yo’naltiruvchi mazmundagi savol va topshiriqlarni ham kiritish maqsadga muvofiqdir. Savol-topshiriqlar evristik, sulibat, induktiv, deduktiv, aqliy hujum singari bir qator metodlarning asosiy vositasi hisoblanadi. Ular uy vazifalarini so’rashda ham yetakchilik qiladi. O’qituvchining har qanday savoli o’quvchilardan keng miqyosda javob talab qiladigan, ularning aqliy faolligini oshirishga, mulohaza yuritishga, taqqoslashga yo’naltiradigan tarzda tuzilishi adabiy ta’lim maqsadiga muvofiqdir.

Dars davomida o’qituvchi tomonidan o’quvchilar ishtirokini talab qiladigan savollar o’rtaga tashlanmasa, ularning mavzuga ijodiy yondashishlariga erishib boimaydi. Agar o’qituvchi ritorik savollar bilan birga o’quvchilardan javob talab qiladigan savollarni qo’llasa, ritorik savol, o’quvchilarning aqlini zo’riqtirib, e’tiborini kuchaytirib borib, ularni nisbatan kuchliroq aqliy faoliyat asosida umumlashmalar qilishga, xulosalar chiqarishga tayyorlaydi. Javob talab qilinadigan savollar esa o’quvchini zaruriy faktlarni aniqlab, isbodab berish bilan birga o’z mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etish ko’nikmasini ham tarbiyalab boradi

O’quvchining yangi ma’lumot olishiga qaratilgan savollari uning durtyoqarasliini kengaytiradi, bilimlarini boyitadi. Bunday savollar ko’pincha o’z oitidan faol harakatlarni yetakab keladi. Yangi axborot olgan o’quvchi ko’pincha faol amaliy ishga o’tadi, javobda ko’rsatilgan adabiyotlarga murojaat qiladi. O’quvchilar bir-biriga o’xshamagan savollar tuzishga, o’z fikrlarini savol shaklida to’g’ri shakllantirishga harakat qiladilar. Savollar o’quv materialidagi asosiy g’oyalar, muammolar qav darajada chuqur o’zlashtirilganligini

ko’rsatadi. O’quvchilarining o’z o’rtoqlariga savollar berishi ham ko’p ijobiy sifatlarga ega. Bu barcha o’quvchi laming faolligini oshuradi, o’z savoliga, o’rtoqlarining javobiga tanqidiy nazar shakllana boradi. Demak, o’quvchilar tafakkurini rivojlantiruvchi, bilimlarning yuzakiligini bartaraf qiluvchi, ularga o’zgartiruvchanlik bag’ishlovchi savollar o’quv faniga nisbatan qimmatli qiziqishni ham ko’rsatadi. Ba’zi savollar yuzaki qiziqishni namoyish etsa, boshqalari o’quv fanini chuqur o’rganishga intilishni ko’rsatiladi. Darsda savollarning ko’p berilishi - o’qituvchining katta yutug’i. U o’z tarbiyalanuvchilarida yo’nalganlik bo’lishini ta’minlashi uchun ularni so’rashga o’rgatishi har bir darsni shunday taslikil etishga urinishi kerak.

O’quvchiga yordam berish - ta’limning har qanday turida o’qituvchining muhim vazifasi. Bu vazifa o’qituvchidan katta kuzatuvchanlik, ziyaklik va o’quvchining tafakkuri darajasini bilimi talab qiladi. Shu bilan birga, o’quvchining qobiliyatiga, mustaqilligiga daxl qilmaydigan yordam darajasini aniqlab olish, unga qiyinchiliklarni mustaqil ravishda bartaraf qilishni o’rgatadigan yo’llarni bilish nazarda tutiladi. O’qituvchi o’quvchilarga yordam berar ekan, ular ta’lim jarayonining har bir bosqichida mustaqil ishlash tajribasini o’rganib borishlari lozimligini nazardan qochimagan ma’qul.

Agar bu talab nomiga bajarilsa, o’quvchi o’zi hal etish tajribasiga ega bo’lmagan holda qiyin muammo bilan uzoq vaqt yolg’iz qolsa, uning qobiliyati va tafakkurining mustaqilligi o’zlashtirishga putur yetadi. Shuningdek, o’qituvchining qiyinchilikni tamomila bartaraf qiladigan yordami ham o’quvchining tafakkur mustaqilligi rivojiga halqat beradi.

Xulosa qilib aytganda, o’quvchilarning mustaqil tafakkuri va faoliyatini tashkil etishda ritorik javob talab qiladigan va qo’shimcha savol va topshiriqlarning ham o’z o’lmi mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Husanboyeva Qunduzxon Parpaliyevna Niyozmetova Roza Xasanovna Adabiyot o’qitish metodikasi o’quv qo’llanma Ikkinchi nashr Toshkent – “ INNOVATSIYA-ZIYO” - 2020

DIFFERENCES IN AMERICAN AND ENGLISH VOCABULARY

KarimovaUmida

*Teacher, the Department of English
History and Grammar,
Samarkand State Institute of Foreign Languages*

Abstract: *This article is dedicated to the major difference in American and English pronunciation is in intonation and voice timbre. Americans speak with less variety of tone than the English. American voice timbre seems harsh or tinny to the English, theirs gurgling or throaty to Americans. English conclusion: Americans speak shrilly, monotonously, and like a schoolboy reciting. American conclusion: the English speak too low, theatrically, and swallow their syllables.*

Key words: *pronounce, miscellaneous, fantastically.*

It's easy to point out the differences between the American and the English vocabulary: the differences seem quaint and there are comparatively so few that Americans can easily spot them. Many of the differences are merely a matter of preference: Americans prefer railroad and store while the English prefer the synonyms railway and shop, but all four words are used in both England and America. In addition, Americans know or can easily guess what braces, fishmonger's, or pram means, just as the English know or can figure out what innerspring mattress, jump rope, and ice water mean. Finally, many of the words that once separated American English from English no longer do: American cocktail (1806), skyscraper (1833), and supermarket (1920s) are now heard around the world, and the English increasingly use radio, run (in a stocking), and Santa Claus instead of wireless, ladder, and Father Christmas. The following list gives some of the most interesting and typical differences between the American and English vocabulary, differences that may especially interest tourists and those who enjoy both American and English books and movies.

Examples:

airfield—aerodrome.

apartment; apartment house, apartment building ; block of flats (to an Englishman an apartment means a room). Our high-rise apartment (building) is the English tower block (of flats).

barbershop—barber's shop. The English frequently use the possessive -V or -s' where we do not, as in dolts house, ladies' room, and shop.

can opener—tin opener, candy—sweets

There are, of course, hundreds of more terms that differ in American English and British English. American use of prepositions sometimes also differs: Americans live on a street, the English live in it; Americans chat with people, the English chat to them; Americans speak of an increase in something, the English of an increase on it; Americans

get snowed in, they get snowed up; Americans say something is different/row something else, the English say it is different to it.

The more precise differences include:

Americans pronounce the a in such words as ask, brass, can't, dance, fast, grass, half, last, and path as a short, fiat [a]; the English pronounce it more as the broad [a:] in father. American shorter, flatter [a] is just a continuation of the way first colonists from Southern England pronounced it; the English dropped this pronunciation in the 18th century and began to use the broad [a:] (this same change took place in parts of New England and the South, giving some Americans the pronunciation of aunt as "ahnt" and vase as "vahz").

On the other hand, most Americans sound the short [o] in such words as box, hot, lot, not, pot, and top almost as the broad [a:] in father, while the English (and some New Englanders) give it a more open sound, with the lips rounded.

And some are just unique pronunciations of individual words. Such miscellaneous differences in pronunciations include:

ate, Americans say "eight"—"et" is an accepted English pronunciation.

been, Americans say "bin"—the English say "bean."

clerks- "dark."

either, neither, most Americans say, "e-ther, ne-ther"—"I-ther, ni-ther" is the English pronunciation.

issue, Americans say "ish-you"—the English say "is-sue."

leisure, most Americans say "le-sure"—the English say "laysure."

lieutenant, Americans say "lew-tenant"—the English say "lef-tenant."

nephew, Americans say "nef-hew"—the English say "nev-hew."

schedule, Americans say "sked-ule"—the English say "shed-ule."

Differences in American and English Spelling.

England, including its colonies, began to follow Johnson's spelling; but, in 1758, three years after Johnson's dictionary was published, Noah Webster was born, in Hartford, Connecticut, and 21 years after Johnson's dictionary the American Revolution began—two events that were to help separate English and American English. After graduating in law from Yale, Webster couldn't make a living doing legal work, so he became a teacher. He then found English schoolbooks hard to obtain, and unsatisfactory, so he compiled his own three-part Grammatical Institute of the English Language, including an elementary spelling book (in 1783), a grammar (in 1784) and a reader (in 1785). Part I became the fantastically successful The American Spelling Book, which went through edition after edition and sold 80 million copies in its first hundred years, 1783-1883. It was one of the most influential books ever published in America: from the time America became a nation, past the Civil War, and almost into the Gay 90s, generations of Americans learned to spell and pronounce from it, spelling and pronouncing each syllable in every word over and over again under stern teachers. It was known to millions as Webster's Speller, the Blue-Backed Spelling Book (1853) and the Blue-Backed Speller.

Americans are more scrupulous about clearly articulating certain unaccented syllables, especially -ary, -ery, and -ory, and certain ds, gs, hs, Ps, rs (following vowels) and t's than

the English. Thus the English say melanchy, monastery, necessary, preparatory, secretary, etc, when Americans fully articulate the final syllables. Also, except in parts of New England and the South, Americans articulate the first l in fulfill, the h in forehead, the r in lord and there, and the final t in trait, rather than pronounce them as the English do: fu'fill, for 'rid, laud, theh, and trai.

Written forms of American English are fairly well standardized across the United States. An unofficial standard for spoken American English has developed because of mass media and of geographic and social mobility. This standard is generally called a General American or Standard Midwestern accent and dialect, and it can typically be heard from network newscasters, although local newscasters tend toward more provincial forms of speech. Despite this unofficial standard, regional variations of American English have not only persisted, but have actually intensified, according to William Labov.

Regional dialects in the United States typically reflect the elements of the language of the main immigrant groups in any particular region of the country, especially in terms of pronunciation and vernacular vocabulary.

British and American English are the reference norms for English as spoken, written, and taught in the rest of the world. For instance, the English-speaking members of the Commonwealth often closely follow British English forms while many new American English forms quickly become familiar outside of the United States. Their structural peculiarities, especially morphology, syntax, and word-formation, as well as their word stock are essentially the same. The main lexical differences between the variant are caused by the lack of equivalent lexical units in one of them, divergences in the semantic structures of polysemantic words and peculiarities of usage some words in different territories.

LIST OF USED LITERATURE:

1. A course in modern English lexicology R. S Ginzburg, S. S Khidekel, G. Y. Knyazeva, A. A Sankin (1979)
2. Alimardonov R. A “Pronunciation Theory of English” 2009.
3. K Umida, H Shoxrux, Y Mahzuna, T Madinabonu, “Main features of constructivism for teaching and learning”
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=adhXOhoAAAAJ&citation_for_view=adhXOhoAAAAJ:2osOgNQ5qMEC

ҚИЁСИЙ ТИПОЛОГИЯДА ҚЎЛЛАНИЛИШГА БАҒИШЛАНГАН ЗАМОНАВИЙ ДАРСЛИКЛАР ЯРАТИШНИНГ АХАМИЯТИ

Ачилова Мадина Шерзод қизи

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

3-босқич (бакалавр) талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада қиёсий типологиянинг асосий параметрлари, изоморфизм ва алломорфизм хусусиятлари, қиёслашда синхрон ва диахрон ёндашиш, тиллараро ва бир тил ичидаги қиёслаш хусусиятлари, турли тил системаларини қиёсий ўрганишнинг замонавий методлари, тилшуносликда янги йўналишларнинг мавжудлиги ва уларнинг қиёсий типологияда қўлланилишига бағишланган замонавий дарсликлар яратишнинг аҳамияти ҳақида гапирилади.

Калит сўзлар: қиёсий тилшунослик, типология, изоморфизм, алломорфизм, синхрон ва диахрон ёндашиш, замонавий дарсликлар.

Юқори малакали илмий-педагогик кадрларни тайёрлашда янги замонавий дарсликлар яратиш ҳозирги кундаги таълим йўналишининг долзарб масалаларидан биридир.

Мазкур дарсликлар қиёсий тилшунослик ва таржимашунослик назарияси мутахассислиги фанлари учун мўлжалланган, шунингдек, ҳозирги замон испан, рус ва она тиллари қиёсий типологиясининг фундаментал муаммоларига ва типологик тадқиқотларнинг замонавий йўналишларига қаратилган бўлмоғи лозим. Унда қиёсий тилшунослик бўйича фаннинг асосий ривожланиш босқичлари ва факторлари, типологик тадқиқотларнинг принциплари ва категориялаш тамойиллари, герман, славян ва туркий тилларининг юзага келиш эволюцияси ва қиёсий таҳлили, тилларнинг типлари ва қариндошлик даражасига кўра турлари каби масалаларга таҳлилий ёндашишни кўрсатиш ва улар ҳақида илмий тушунчалар ҳосил қилиш йўллари, замонавий йўналишлар, лингвистик мактаблар ва лингвистик концепциялар, замонавий таржима назарияси ва амалиётида умумэтироф этилган тенденциялар, таржима турлари ва усуллари, лексик семантик ва грамматик мувофиқлик категориялари, назарий таълимотлар, илмий изланишлар ва долзарб муаммоларга бағишланган масалалар ёритилганлиги мақсадга мувофиқдир ва булар қуйидагиларни ўз ичига олмоғи лозим:

- Талабанинг тил тарихи ва назарияси тўғрисида кенг билимни эгаллай олиши, дунё тилларининг умумий ва хусусий қонуниятлари ҳақида тасаввурга эга бўлиши, тилшунослик тарихи, тилшунослик мактаблари, замонавий тилшунослик масалаларини ва тилшунослик методларини ўз ичига олган;

- Чет тилини ўрганиш амалиётида назарий билимларни қўллаш, тилшунослик бўйича илмий изланишларга касбий нуқтаи назардан қараш, дунё тилшунослигида рўй бераётган жараёнларни ўзаро боғлиқлик нуқтаи назардан таҳлил қилиш,

тиллернинг умумий ва хусусий белгилари ҳақидаги тушунчаларни амалиётда қўллаш кўникмалари ёритиб беришга қаратилган;

- Тилларни қиёслаш соҳасидаги назарий билимларини кўрсатиш ва чет тиллар тузилмаларидаги ўхшашлик ва фарқларини ўзлаштириши билан бирга тўғри фойдаланиш ва малакасини оширишга йўналтирилган;

- Турли концепцияларни танқидий баҳолаш ва уларни қиёсланаётган тилларнинг материали асосида таҳлил қилиш асослари келтирилган;

- Қиёсий типологиянинг асосий ривожланиш босқичлари ва факторлари; типологик тадқиқотлар тарихи ва методлари; типологик тадқиқотларнинг принциплари ҳақидаги маълумотлар билан бойитилган;

- Қиёсий тилшунослик фанининг бошқа фанлар билан узвий боғлиқлиги ва уларнинг қиёсий типологияга таъсир қилиш йўллари аниқлашга қаратилган;

- Қиёсий тилшунослик фанининг методологиясини қўллаш олиш кўникмаларини хосил қилишга йўналтирилган;

- Қиёсий тилшунослик фани бўйича янги йўналишларнинг мавжудлиги ва уларнинг талқини ҳақидаги янги маълумотлар билан бойитилган;

- Ўзбекистонда ва хорижий давлатларда нашр қилинган илмий адабиётлар билан ишлаш ва лингвистик адабиётлардан самарали фойдалана олиш кабиларни ўз ичига олмоғи лозим.

Қиёсий типологиянинг шаклланиши ва ривожланишининг асосий босқичлари ва факторлари. Тилларнинг генеологик таснифи, тиллар қариндошлиги ҳақида маълумот. Қиёсий типологиянинг асосий параметрлари. Изоморфизм ва алломорфизм хусусиятлари. Қиёслашда синхрон ва диахрон ёндашиш. Тиллараро ва бир тил ичидаги қиёслаш хусусиятлари. Қиёсий тилшуносликнинг адабиёт билан муносабати каби мавзуларда янада кўпроқ маълумотлар бериб борилиши билан бир қаторда талабаларни тилшунослик фанига чуқур кириб боришларини таъминлашда бундай замонавий дарсликларнинг ахамияти каттадир.

Хулоса қилиб айтганда бундай замонавий дарсликларни чет тилларини ўрганаётган талабалар этиборига ҳавола этиш орқали турли қардош ва қардош бўлмаган тиллардаги айрим хусусиятларни фонологик, грамматик, семантик, этимологик, лексик ва стилистик нуқтаи назардан янги ва қизиқарли мисоллар асосида солиштириш, ва интерференция муаммоларига ечим топиш имконияти пайдо бўлади. Қиёсий типологиянинг лексикография, стилистика, таржима назарияси ва тил ўқитиш методикаси каби фанлар билан узвий боғлиқлиги. Тил ва маданият. Қиёсланаётган тилларнинг миллий-маданий хусусиятларининг барча тил сатҳларида намоён бўлиши ҳақидаги таълимот янада қизиқарли кўриниш касб этиб боради.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент. 2008.
2. Аракин В.Д. Сравнительная типология английского и русского языков. - М.: Просвещение, 1990.

3. Абдуазизов А.А. Элементы общей и сравнительно-типологической фонологии. - Т.: Фан, 1981.
4. Буранов Ж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. - М.: Высшая школа, 1983.
5. Бўронов Ж. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1973.

MUZEYLAR ELEKTRON ARXIVINI SHAKILLANTIRISH

Tayrov Kudiyar Baxtiyar uli

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti magistranti

Annotatsiya: *Muzey elektron arxivini shakllantirish, rivojlanishning yangi bosqichiga olib chiqish va muzeyidagi noyob hujjatlar elektron arxiv ma’lumotlaridan aholining masofaviy tashrif buyurish imkoniyat yaratish dolzarb jabhalari so’z etiladi.*

Kalit so’zlar: *Platforma, estetik, katalog, eksponat, ekspozitsiya, elektron konten.*

Matnli ma’lumotlar bazalari, tasvirlar kataloglarini shakllantirish va ularni keyinchalik mashinada o’qiladigan shaklga tarjima qilish bugungi kunda rejalashtirilgan muzey faoliyatining zarur tarkibiy qismidir. Aytish joizki, bunday tizimlar muzey rivojlanishining o’ziga xos katalizatoriga aylandi. Hujjatlar va eksponatlarni raqamlashtirish muzeyga madaniy merosni asrab-avaylash va hisobga olish faoliyatini ham, tashrif buyuruvchilar bilan muloqotni ham yangi zamonaviy bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar keng tarqalishi bilan barcha muzey ishlari jadalroq davom etadi. Matnli ma’lumotlar bazalari, rasm kataloglarini shakllantirish va keyinchalik ularni mashinada o’qiladigan shaklga o’tkazish bugungi kunda rejalashtirilgan muzey faoliyatining zaruriy qismidir. Ta’kidlash joizki, bunday tizimlar muzeylar rivojlanishining o’ziga xos katalizatoriga aylandi. Hujjatlar va eksponatlarni raqamlashtirish muzeyga madaniy merosni saqlash, hisobga olish va tashrif buyuruvchilar bilan o’zaro munosabatlarni yangi zamonaviy darajaga olib chiqishga imkon beradi. Hujjatli, yodgorlik dalillari va estetik qadriyatlarni to’plash va saqlash borasida insoniyat birinchi tajriba o’tkazgan paytdan to hozirgi kungacha muzeyning vazifasi o’zgarishsiz qolmoqda. Texnologik taraqqiyot muzey sohasida inqilob qilmaydi, balki unda sodir bo’layotgan jarayonlarga yangi turtki beradi. Raqamli texnologiyalarning tarqalishi bilan barcha muzey ishlari yanada jadallashadi.[1]

Axborot va kompyuter texnologiyalari tarixi muzeyi. besh yil oldin, 800 ga yaqin Rossiya muzeylari axborot tizimlari bilan jihozlangan va elektron hisobga olish ma’lumotlari, shuningdek, hujjatlar va madaniy meros ob’ektlarining raqamli tasvirlariga ega bo’lgan raqamli hujjatlarni yuritishni boshlagan. “Rossiya muzeylarini axborotlashtirishning boshlanishi barcha muzey xodimlari o’zlarining amaliy faoliyatida foydalanishlari mumkin bo’lgan axborot-ma’lumot tizimlarini yaratish edi. O’n besh-yigirma yil oldin ko’plab muzey xodimlari barcha kitoblarni elektron shaklga o’tkazish mumkinligiga shubha bilan qarashgan va siz muzeyda nafaqat qancha qimmatbaho buyumlar, balki aniq nima ekanligini ham aniq bilishingiz mumkin”, deydi direktor o’rinbosari Aleksandr Dremailov.[2]

Biz muzeyga tashrif buyuruvchilar uchun barcha fondlarni jismonan ochib bera olmaganimiz uchun bizga elektron ekspozitsiya yordamga kelishi kerak, uning asosi raqamlashtirilgan ko’rgazmalar. Boshqa Davlatlarda (Rossiya, Buyuk Britaniya) davlatlarda esa elektron kontent yaratish bo’yicha ishlar qizg’in davom etmoqda. Ammo biz davom etishimiz va doimiy ish uchun elektron arxivga ega bo’lishimiz kerak. Bunday tizim nafaqat

yozuvlarni yuritish, balki eksponatlar tasvirlari, raqamlashtirilgan kitoblar va hujjatlarni saqlashni ham o‘z ichiga oladi. Muzeyga nafaqat ma’lumotlarni qo‘lda olish, balki muzey xodimlari va tashrif buyuruvchilar manfaati uchun butun muzey axborot resursini boshqarish imkonini beruvchi platforma kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] https://www.edok-journal.ru/articles/kultura/muzeyam_nuzhny_elektronnye_arkhivy/
- [2] https://edok-journal.ru/articles/kultura/muzeyam_nuzhny_elektronnye_arkhivy/

TEKNOLOGIYA FANINI O’QITISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR

Ibragimova Dilrabo Abdug’aniyevna
Surxondaryo viloyati Denov tumani
50-maktab texnologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada texnologiya fanini o’qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar borasida fikr yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *kompetensiya, texnologiya, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetensiya.*

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchlifuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulkustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta vafarovon hayot kechirishi uchun shartsharoitlar yaratishga, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirishga, xalqaro maydonda O’zbekistonning munosib o’rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ma’lumki, Prezidentimiz Sh. Mirziyoev tashabbuslari bilan 2017-yilning 7-fevral kuni "O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida"gi PF- 4947-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon asosida 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi belgilab berildi.

Harakatlar strategiyasining to’rtinchi ustuvor yo’nalishi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo’naltirilgan bo’lib, unda "...ta’lim, madaniyat, ilmfan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" masalalariga katta e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, Harakatlar strategiyasida yurtimizda yillarga beriladigan nomlardan kelib chiqib, har bir yil bo’yicha davlat dasturlari qabul qilinishini nazarda tutgan holda amalga oshirilishi belgilangan bo’lib, dasturning 4.4-bo’limi "Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish" deb nomlangan bo’lib, unda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta’lim va o’qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish kabi masalalar belgilangan.

Ma’lumki, Harakatlar strategiyasi asosida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o’rta ta’lim to’g’risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli, 2017 yil 6 aprelda "Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasbhunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida"gi 187-sonli Qarorlari qabul qilinganligi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda uzviyligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risidagi qarorning qabul qilinishi ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilinayotganligidan dalolat beradi, deb o’ylaymiz. Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida

texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari: O'quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorlikni, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida turli va tabiiy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hada ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni ba jarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish; ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilgan. O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch va fanga oid kompetensiya elementlari mavjud.

Kommunikativ kompetensiya: texnologiya faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay olish, o'z do'stlari bilan texnika tilida muloqotga kirisha olish; mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish; o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi: texnologiya fanini yo'nalishlar bo'yicha chuqurroq o'rganish, yo'nalishlarni bugungi kun talabi bo'yicha o'z ixtirolarini olib kirish, har bir buyumni tayyolashda dizayner-modelerlik kasbi bo'yicha yondasha olish, shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish; guruhlarda ishlashda ma'suliyatni o'ziga olish, lider bo'la olish, turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish; konstitutsion huquq va burchlaridan to'g'ri foydalana olish; jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo'natish) foydalana olish; media vositalardan texnologiya fanini o'rganishga oid zarur bo'lgan axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish; Texnologiya o'qituvchisi o'quvchilarda yuqorida qayd etilgan tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirish maqsadida o'quv fani mazmunini tahlil, etishi, o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ekskursiyalar va sinfdan tashqari mash g'ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalashi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda tayanch, umumiy va fanga doir xususiy kompetensiyalarni tarkib toptirish muammosi o'qituvchilarning kasbiy pedagogik kompetensiyalariga aniqlik kiritish, pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kompetensiyaviy yondashuv talablari asosida kurslarning mazmunini yangilash, shu asosda o'qitishni tashkil etish va boshqarish davr talabi sanaladi.

TARIX DARSINI O'QITISHDA INTERFAOL USUL VA TEXNOLOGIYALAR

Yuldasheva Sevara Po'latjonovna

*Farg'ona viloyati Farg'ona shahar
1-o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishga doir bir qancha innovatsion metod va texnologiyalardan foydalanish haqida qisqacha ma'lumotlar keltirildi.*

Kalit so'zlar: *fikr, sabab, misol, umumlashma, poleolit, mezolit, neolit, bronza, temir, insert.*

Bugungi kunda yurtimizda har sohada turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bugungi kun o'quvchisi ham ilmga chanqoq, yangilik va izlanishlarga o'ch. Bunday davr o'qituvchiman o'z ustida tinimsiz izlashni, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalanishni, darsni qiziqarli tashkil etish bilan bir qatorda AKT dan foydalana olishni talab etmoqda. Shu boisdan ushbu maqolada tarix darslarini o'qitishning bir necha interfaol usullari va texnologiyalari bilan tanishtiramiz:

"FSMU" texnologiyasi. Ushbu texnologiya orqali o'quvchining individual fikri aniqlanadi.

F-Fikr

S-Sabab

M-Misol

U-Umumlashma

Bunda o'quvchilar mavzuga yoki mavzuning biror muammoli qismiga fikr bildiradilar. So'ngra shu fikrga kelish sabablarini aytib o'tadilar. Fikrini misollar bilan dalillagach o'z fikriga umumlashma yasaydi. Bu texnologiya orqali har bir o'quvchining individual fikri va mavzuni o'zlashtirganlik darajasi aniqlanadi.

"Fikrla va davom ettir" metodi. Bunda o'qituvchi biror mavzu bo'yicha kalit so'zlarni boshlanishini yozib qo'yadi, o'quvchi esa kalit so'zga mos ta'rifni yozishi lozim bo'ladi. Masalan 6-sinfda "Qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish" mavzusini o'rgatishda qo'llash mumkin.

1. Poleolit-bu

2. Mezolit-bu

3. Neolit-bu

4. Eniolit-bu

5. Bronza-bu

6. Temir-bu...

Bu usulni doskada bajartirish yoki kartochkalarga yozib tarqatma holida ham qo'llash mumkin.

"Insert" jadvali. Bu jadval ham bugungi kunda keng qo'llanilmoqda. Bunda o'qituvchi o'tilgan mavzu yuzasidan ma'lumotlarni jadval ko'rinishida tarqatma holida tayyorlaydi.

Ma'lumotlar orasida to'g'ri ma'lumotlar bilan bir qatorda noto'g'ri ma'lumotlar, shuningdek bu mavzuga mos kelmaydigan, hali o'tilmagan ma'lumotlar ham uchraydi. O'quvchi ma'lumotlarni o'qib jadvalga joylashtirishi lozim.

V	bilaman
(-)	to'g'ri ma'lumot
(+)	yangi axborot
(?)	tushunmadim

Yuqoridagi usul va texnologiyalarning barchasi mazmuniga ko'ra yagona maqsad sari yo'naltirilgan, ya'ni o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish va o'zlashtirish darajasini aniqlash uchundir. Darslarda bunday usul va texnologiyalardan foydalanish darsni qiziqarli tashkil etish bilan bir qatorda o'quvchilar faolligini oshiradi, individual fikrlashga o'rgatadi hamda mavzuning tez va oson o'rganilishiga yordam beradi.

Tarix darslarini tashkil etishda yangicha pedagogik texnologiyalar o'zni muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa bu borada darslarda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Dars mavzusini tushuntirayotganda ma'lum bir davrdagi muhim tarixiy voqelik ko'rsatilsa mavzuning mazmuni yanada aniq o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Masalan: Gannibalning yurishlari Kan jangi, Zama jangi tasvirlangan videolavhalar o'quvchilarga multimedia shaklida ko'rsatilganda yanada o'zlashtirish mukammalroq bo'ladi.

Bundan tashqari, turli xil ko'rgazmalar, tarqatmalardan foydalanib mavzu ustida ishlash ham ijobiy samara beradi. Dars jarayonida ko'pincha yangi mavzu materiallarini tushuntirib berayotganda SWOT metodidan samarali foydalanish mavzuning mazmunini mukammal ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, dars jarayonida yangi mavzuni test savollari tarzida tayyorlab, o'quvchilar bilan birgalikdan bosma tekstlar bilan ishlash ham yangi mavzuning mustahkam o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Asosiy maqsad o'quvchi shaxsining mavzuni o'zlashtirib olishiga qaratilar ekan, qanday uslub va usullardan foydalanmaylik, asosan, ta'limning sifat samaradorligiga erishishimiz faoliyatimizning asosiy maqsadi bo'lib qolaveradi.

Tarix darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchi bilan birgalikda o'qituvchining ham mavzu ustida yanada mukammalroq ishlashiga olib keladi. O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o'quvchidan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

"Kelajak-yoshlar qo'lida". Shunday ekan mustaqil fikrlaydigan, bilimli, fikrini erkin bayon eta oladigan yoshlarni tarbiyalash biz o'qituvchilarning vazifamizdir. Har bir o'qituvchi mana shu vazifani yurakdan his qilsa va bunga vijdonan yondoshsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Yurtimiz nomini ulug'laydigan yoshlar ko'payaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Yo'doshov, I.Kamolov "Tarix darslarida interfaol metodlar" metodik qo'llanma

2. Gaffarov YA, Gafforova M. O‘zbekiston xalqlari tarixini o‘qitish usullari. T., 1996
3. I.A. Karimov – “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” Toshkent “Sharq” 1998
4. A. Sa‘diyev – “Maktabda tarix o‘qitish metodikasi” Toshkent. “O‘qituvchi” 1988
5. T. Toshpo‘latov, Y.G‘afforov – “Tarix o‘qitish metodikasi” Toshkent 2002

BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHILARINING BIOTEXNOLOGIYA FANIDAN MUSTAQIL O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA AXBORT- TA’LIM MUHITINING IMKONIYATLARI

Yaxshiboyeva Damira Tolib qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining biotexnologiya fanidan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etishda axborot-ta’lim muhitidan foydalanishga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *axborot-ta’lim muhiti, ta’lim portali, virtual ta’lim muhit, biologiya, biotexnologiya, mustaqil o‘quv faoliyat.*

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining mustaqil o‘quv faoliyatida biotexnologiya faniga oid auditoriya mashg‘ulotlarida egallagan bilimlarini qayta takrorlashga, zaruriy ma’lumotlarni o‘rganishda axborot-ta’lim muhitlari, ta’lim portallari, virtual ta’lim muhitlari va global tarmoqning qidiruv tizimlari muhim pedagogik dasturiy vosita bo‘lib xizmat qiladi [1].

Bu borada U.B.Baxodirovaning fikriga ko‘ra, talabalarning biologiya turkumiga kiruvchi fanlardan ko‘nikmalarini shakllantirish oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirishda internet tarmog‘ida yaratilgan axborot-ta’lim muhitlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Uning fikriga ko‘ra, axborot-ta’lim va virtual ta’lim platformasining tashkil etuvchi resurslar grafik, animatsiya, rasmlar, ovoz effektlari, matnli ma’lumotlardan iborat bo‘lishi mumkin. Axborot-ta’lim muhitlari va virtual ta’lim platformalari bitta tarkibda birlashgan axborotni taqdim etishning har xil vositalarining uyg‘unligini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, talabalarning motivatsiyasini oshirish hamda yangi bilim va ko‘nikmalarning shakllanishiga imkon beradi [2].

Shu bois, tadqiqot doirasida global tarmoqning <http://biotechnology.uz/> manzilida biotexnologiya fanidan bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida axborot-ta’lim muhiti yaratildi.

Tadqiqot doirasida yaratilgan axborot-ta’lim muhiti ochiq foydalanishga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda ta’lim oluvchi xohlagan joyda va vaqtda mustaqil ta’lim olishga va o‘zini-o‘zi mustaqil ravishda baholab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ushbu imkoniyatlari kechki va sirdan ta’lim oluvchi bo‘lajak biologiya o‘qituvchilari uchun zamonaviy o‘quv vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur axborot-ta’lim muhitining bosh oynasi quyida keltirilgan (1-rasmga qarang).



1-rasm. biotechnology.uz axborot-ta’lim muhitining bosh oynasi.

Ushbu biotexnologiya fanida yaratilgan axborot-ta’lim muhiti quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

1. Talabalarning biotexnologiya fanida individual ta’lim olishga muayyan darajada xizmat qiladi;
2. Biotexnologiya fanidan auditoriya mashg’ulotlarda o’zlashtirilgan o’quv ma’lumotlarni takrorlash va mustahkamlaydi;
3. Biotexnologiya faniga oid virtual laboratoriya ishlarning mustaqil ravishda bajarish imkoniyatini ta’minlaydi;
4. Biotexnologiya fanidan tahsil oluvchi talabalarning o’zini-o’zi mustaqil ravishda baholab ko’rish imkoniyatini ta’minlaydi.

Mazkur axborot-ta’lim muhiti o’zida turli didaktik elektron ta’lim resurslarning mujassamlagan bo’lib, bunda biotexnologiya fanidan talabalarning fanga bo’lgan qiziqishni va motivatsiyasini oshirishga, tasovvurini shakllantirishga hamda kompetentligini rivojlantirishga muhim pedagogik dasturiy vosita bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak biologiya o’qituvchilarning biotexnologiya fanidan mustaqil o’quv faoliyatini tashkil etishda taklif etilayotgan axborot-ta’lim muhitidan foydalanish samarali hisoblanadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Яхшибоева Д.Т.Бўлажак биология ўқитувчиларининг биотехнология фанидан мустақил ўқув фаолиятини ташкил этишда электрон таълим ресурсларнинг имкониятлари// Муғаллим ҳам узлуксиз билимлендириу илмий-методикалык журнали. – Нукус, 2021. – № 5. – Б. 99-102.
2. Баходирова У.Б. Микробиология фанини ўқитишда виртуал таълим технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш (Педагогика олий

таълим муассасалари мисолида) // Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. – Қарши, 2020. – 156 б.

TARIX FANINING O’QITILISHIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Kiyamova Zilola O‘rinbojevna

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi

42 sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Tarix fani o‘qituvchisi

Tarix fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar tarix fani bilan uzviy bog‘liqdir. Tarix o‘qitish o‘quvchilarga tarixiy voqelikni bildirishdan iborat. Shu jihatdan o‘quvchilarning tarixiy voqelikni bilish yo‘llari tarixiy tadqiqotga o‘xshab ketadi. O‘quvchilar tarixni o‘rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilib ko‘rilgan va tahlil qilib chiqilgan faktlar hamda ilmiy xulosalarga asoslanishi bilan birga, ba‘zan faktlarni yanada aniqlash, tarixiy faktlardan umumiy xulosalar chiqarish, umumiy xulosalardan yangi faktlarni o‘rganish uchun foydalanishlari mumkin.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30 iyun kuni «O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror «O‘zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o‘qitish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o‘quv-metodik, ma‘rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta‘lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta‘lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o‘quvchilarida, oliy o‘quv muassasalari talabalarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish maqsadida» qabul qilingan. Aynan shu qaror samarasi sifatida “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini bakalavr yo‘nalishlarga fan sifatida o‘tilishini ta‘minlash maqsadida darsliklar ishlab chiqilmoqda. So‘nggi yillarda oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini yaxshilash va rivojlantirish maqsadida talabalarning mutaxassis fanlariga berilayotgan e‘tiborning kuchayishi ortidan tarix fanlari nomutaxassis fanlar qatorida soat hajmi jihatidan qisqarib boryotgani o‘qituvchi-pedagog tomonidan fanning to‘liq mazmunini yoritib berish va talab darajasida bilimlarni yetkazib berish uchun yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixini xolisona o‘rganish, o‘zbek xalqining qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish ustuvor vazifaga aylandi. O‘zbek xalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o‘zlik va ma‘naviy yuksalish asosi bo‘lgan tarix fani ham o‘ziga xos rivojlandi. O‘zbekiston tarixini xolisona yoritishda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida aytilganidek, "... jahondagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz". Ma‘naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan tarix fani so‘ngi yillarda ilk bor o‘zining

qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishga kirishdi. "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iltiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdiridagina chinakam tarix bo'ladi". Tarixiy voqea, hodisalarni o'rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik, haqqoniylik, adolatli yondashuv muhim hisoblanadi. Tarix fanini samarali tashkil etish haqida fikr yuritishdan oldin "samarali ta'lim" tushunchasini mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar fikrlarini tahlil etgan holda o'rganib chiqsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Samarali o'qitish - bu o'qituvchilarning turli xil o'qitish uslublarini birlashtirib yoki ularni alohida qo'llash orqali o'qituvchilarda mustaqil o'rganish qobiliyati, dars atmosferasini idrok etish, tushunish va va kerakli bilimlarni egallash darajasi yuqori bo'lgan ta'lim jarayoni hisoblanadi. Shuningdek, samarali o'qitish bu o'z o'lchovlari bilan baholanishi kerak bo'lgan keng tushunchadir. Shuning uchun samarali o'qitish, ta'lim sifatini oshirish uchun tashkil etilgan turli xil murakkab jarayonlar majmuasi hisoblanadi.

Samarali o'qitishning ikkita asosiy xususiyati mavjud. Bular:

- O'qituvchilarni turli xil faktlar, ko'nikmalar, qadriyatlar va tushunchalarni o'rganishlarini osonlashtirish;
- Sinfda yagona kursni emas, balki turli xil o'qitish strategiyalari, usullar va texnologiyalarni yakka yoki kombinatsiyalangan holda ishlatish qobiliyatini o'qituvchilarda shakllantirish;

Yana bir qarashga ko'ra, samarali ta'limni o'qituvchilarning muvaffaqiyat darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy o'qituvchilik malakasi sifatida tavsiflash mumkin. Bu fikrlar qurshovida aytish mumkinki, samarali ta'lim beruvchi o'qituvchi o'z kasbi va sohasini bilgan va sevgan, bilimli, g'ayratli, fidoyi, tartibli va kirishuvchan, tez va to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga sohib, adolatli va shu bilan birga talabalarga bilimni targ'ib qilaoluvchi va ularning tinchligi va kelajagiga qiziqadigan shaxs sifatida belgilanadi. "Ta'lim" keng ma'noda oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon, tor ma'noda esa, ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiy quyi tuzilmalaridan biridir.

"Sifat" esa falsafiy termin sifatida ob'ekt yoki predmetning barcha muhim xususiyatlari yig'indisidir. "Ta'lim" va "sifat" tushunchalarining mohiyatini uyg'unlashtiradigan bo'lsak, ta'lim sifati, bu uning xususiyatlari yaxlitligi, ta'lim oluvchi o'qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun xizmat qiladigan eng qulay usullar birikuvidan iborat jarayondir. Ta'lim sifati - bu butun ta'lim tizimi tarkibiy qismlarining sifat vazifalari, murakkab rivojlanish kuchi(dinamika)ga ega bo'lgan jarayon bo'lib, bu ta'lim muassasalari faoliyatidagi o'zgarishlar, ya'ni ularning ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik va siyosiy muhitining o'zgarishi bilan izohlanadi. Ayni vaqtda zamonaviy ta'lim sifati innovatsion rivojlanish natijalaridan biri emas, balki uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shartlardan biridir.

Ushbu tadqiqot sohasi bo'lgan tarix tushunchasi ilmiy soha va fan sifatida vaqt o'tishi bilan odamlar tomonidan qilingan harakatlar va faoliyatlarni o'rganish jarayoni hisoblanadi.

Biroq, tarixiy jarayonda sodir bo'lgan barcha narsalarni o'rganish va ochib berish imkonsizdir. Chunki, tarixning pozitiv nuqtai nazarida aytilganidek, tarixiy ma'lumot sifatida qabul qilinishi mumkin bo'lgan har qanday da'vo dalillarga, ayniqsa yozma dalillarga asoslanishi kerak. Shuning uchun tarixni o'tmish voqealari va dalillari haqida yozilgan axborot deb ta'riflash mumkin. J. Slater bu fikrni quyidagicha ifodalaydi: “.....mohiyatan tarix o'tmishni o'rganish va bizning

bilimlarimiz va fikrlarimizni bir vaqtning o'zida tasdiqlash usulidir”.

Tarix tushunchasining g'arbdagi muqobili bo'lgan "history" qadimgi yunon tiliga tegishli bo'lib, "izlanish" yoki haqiqatni tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Bir fan sifatida tarix insoniyat tarixini o'zining noyob metodologiyasi orqali o'rganadi. Tarixiy metodologiya, tadqiqot sohasini, muammoni yoki mavzuni aniqlash, ushbu mavzu yoki muammoga tegishli gipotezalarni ishlab chiqish, olingan dalillar va manbalardan ma'lumot to'plash, ushbu ma'lumotlarni tahlil va tanqid qilish, mavzu bo'yicha boshqa izlanishlarni ko'rib chiqish va mavzuni tushunish, shuningdek mantiqiy asosda izohlangan tadqiqotni ochib berishdan iboratdir. Shunga asoslanib, tarixchining roli sifatida o'zining mustaqil ilmiy rivojlanishi jarayonida o'tmishni o'rganish, mavzuni aniq, real va to'liq tushunchalarini yoki tasvirlarini yaratish va barcha bu bosqichlar haqida fikrlash kabilar belgilanadi.

SEGNETOELEKTRIKLARDA FAZAVIY O’TISHLAR

Mardonov Amirjon Suxrobovich


Samarqand Davlat Universiteti, Samarqand, O`zbekiston

Annotatsiya: Ushbu tezisda nur sindirish ko’rsatgichining temperaturaga bog’liqligi hisoblash qisqacha bayon etilgan bo’lib, ular orasidagi o’zaro bog’lanish keltirilgan.

Kalit so’zlar: *sindirish ko’rsatgichi, temperatura, fazaviy o’tishlar, segnetoelektriklar.*

Asosiy qism: Segnetoelektrik materiallar optik boshqarish qurilmalarida, kondensator texnikasida va informatsiya signalini uzatish qurilmalarida keng qo’llaniladi. Ularda kuzatiladigan fazaviy o’tishlarni o’rganish birinchidan, juda katta fundamental xarekterga egaligi bilan bir qatorda katta amaliy ahamiyatga egadir. Segnetoelektrik fazaviy o’tishlarni o’rganish elektronika sohasida qo’llanilayotgan materiallar texnik xarakteristikalarini temperaturaviy tuzatma kiritish yordamida qo’llanilish sohalarini kengaytirish imkonini beradi.

Tartiblanish parametr materiallarni termooptik o’rganishlar segnetoelektrik tartiblanish tabiatini aniqlaydi. Bu tekshirishlar yordamida qutblanish vektorini kristall harorati o’zgarishi bilan qanday o’zgarganiga qarab fazaviy o’tishlar tabiatini chuqurroq tahlil qilish, tekshirish va ular ustida tadqiqot ishlari olib borish hozirgi kunda dolzarb muammolardan sanaladi.



Tartiblanish	parametrining	temperaturaga	bog’liqligi
a)	ikkinchi	jinsli	fazaviy o’tish
b)	birinchi	jinsli	ikkinchi jinsliga yaqin
c)	birinchi jinsli fazaviy o’tish		

Ekspirimentda $\delta n(T)$ ni o’lchaganda asosan ikkita kattalik o’lchanadi. Ya’ni $\delta n_i(T) = \delta n_i^0(T) + \delta n_i^S(T)$, bu yerda $\delta n_i^0(T)$ yorug’lik nur sindirish ko’rsatgichining tartiblanish parametri bilan bog’liq bo’lmagan, qolgan hamma fizik xossalar bilan bog’liq bo’lgan temperaturaviy o’zgarishlarni ifodalaydi. $\delta n_i^S(T)$ tartiblanish parametri (spontan qutblanish) ta’siri natijasida sindirish ko’rsatgichining o’zgarishlarini ifodalaydi.

Termooptik o’lchashlar $\delta n(T)$ ni yuqori aniqlikda $10^{-7} \sim 10^{-9}$ o’lchash imkonini beradi. Bu esa o’z navbatida tartiblanish parameter fluktuatsiyasini aniqlash imkonini beradi.

Tabiatda moddalar har xil agregat holatda uchraydi. Masalan, suv $T=273^{\circ}K$ dan pastda muz holatida ya’ni qattiq jism holatda, $T=273^{\circ}K$ dan yuqori haroratda suyuq holatga va $373^{\circ}K$ dan esa gaz holatiga o’tadi. Ko’pgina kristallar esa bir agregat holatida (ya’ni qattiq jism holatiga) har xil krstallik modifikatsiyada uchraydi.

Dielektrik materiallarda ko’pincha sturukturaviy o’zgarishlar qutblanish vektorining paydo bo’lishiga olib keladi. Qutblanish vektori deganda hajm birligidagi elektrik depol momentlar yig’indisi tushuniladi.


Tartiblanish parametr fazaviy o’tishlar hisobiga o’zgarishini fazaviy o’tish bo’lmagan holdagi o’zgarishiga nisbatan ajratib olish uchun $T > T_c$ sohadan ekstropolyatsiya qilish kerak bo’ladi. Buning uchun, Debay funksiyasi asosida ekstropolyatsiya qilinadi. $TiTiOPO_4$ kiristalida yorug’lik nur sindirish kursatkichining temperaturaviy o’zgarishlar o’rganildi.

Bizga ma’lumki fazaviy o’tishlar bo’yicha Landau nazaryasi fazaviy o’tish temperaturasiga juda ham yaqin temperaturalarda va fazaviy temperaturasidan uzoq temperaturalarda ishlamaydi.

$$P_s(T) \sim [(T_c - T)/T_c]^{0.48 \pm 0.02}$$

$$\delta n_i^s \sim [(T_c - T)/T_c]^{0.96}$$

Yuqoridag rasmda sindirish ko’rsatkichi fluktatsion o’zgarishlari keltirilgan. Bu rasmdan ko’rinib turibdiki sindirish ko’rsatkichining temperaturaviy o’zgarishlaridan, temperature bo’yicha olingan hosilasi keltirilgan. Temperaturaga logarifmik bog’liq ekan. Shunday qilib keltirilgan ishlarga quydagicha xulosa qilish mumkin: qutublanish vektorining sindirish ko’rsatkichiga qo’shgan hissasini aniqlash uchun debay ekstrapoliatsion chizig’idan tajriba natijalarini ayirib tashlab bu esa bizga qutublanish vektorining sindirish ko’rsatkichiga qisman hissasini ko’rsatadi.



Yuqoridagi diagrammada, yorug’lik nur sindirish ko’rsatgichining harorat ta’siridagi bog’liqligi va $TiTiOPO_4$ kristalining x va y o’qi bo’yicha hisoblangani ko’rsatilgan.

T(x), °K	T(y), °K	n(y)	n(x)
37,986	31,068	0,01139	0,004576
56,141	49,291	0,01158	0,004732
74,992	68,101	0,01177	0,004967
92,448	86,324	0,011979	0,005201
111,301	104,547	0,01223	0,00548
129,454	122,769	0,01251	0,00573
147,608	140,992	0,01276	0,005961
165,772	159,215	0,01309	0,006365
183,915	176,851	0,01348	0,006687
202,069	195,661	0,01388	0,007078
220,223	213,883	0,01421	0,007391
238,377	231,518	0,01467	0,007781
256,531	249,741	0,01513	0,008172
275,685	267,375	0,01559	0,008642
292,839	285,598	0,01611	0,009032
308,993	303,233	0,01664	0,009502
329,147	320,868	0,01717	0,009971
346,603	338,503	0,01776	0,01044
364,757	356,138	0,01842	0,01091
382,212	373,773	0,01901	0,01146
400,366	391,408	0,01967	0,01201
417,822	409,042	0,02039	0,01255
435,976	426,089	0,02111	0,01318
453,432	443,137	0,02184	0,01372
470,887	460,184	0,02263	0,01435
488,343	477,231	0,02342	0,01497
506,497	494,278	0,02427	0,01568
524,254	510,325	0,02515	0,01647
540,711	527,784	0,02598	0,01709
558,166	544,243	0,02691	0,01771
575,622	560,702	0,02782	0,01849
592,379	576,574	0,02881	0,01927
609,137	593,033	0,02981	0,01998
626,592	608,905	0,03085	0,02084
643,351	625,364	0,03184	0,02171
660,107	641,235	0,03289	0,02256
676,865	657,931	0,034125	0,02342
693,622	672,314	0,03514	0,02436

709,681	686,498	0,03631	0,02531
726,439	701,782	0,03756	0,02623
742,498	716,477	0,03881	0,02717
758,557	731,173	0,04006	0,02827
774,617	745,281	0,04131	0,02928
789,978	759,977	0,04262	0,03046
805,339	773,497	0,04401	0,03155
815,701	787,017	0,04539	0,03301
830,061	801,537	0,04681	0,03421
840,138	814,057	0,04828	0,03562
863,991	826,402	0,04975	0,03616
880,747	837,334	0,05124	0,03671
898,901	850,442	0,05281	0,03726
915,659	861,435	0,05433	0,03773
933,813	870,489	0,05582	0,03827
951,967	887,536	0,05631	0,03882
970,121	907,759	0,05701	0,03921
987,576	922,806	0,05749	0,03976
1006,428	941,028	0,05808	0,04015
1024,582	958,075	0,05861	0,04062
1042,038	975,711	0,05901	0,04101
1060,891	994,521	0,05959	0,04148
1078,346	1012,156	0,06006	0,04179
1096,501	1030,378	0,06054	0,04218
1114,654	1049,189	0,06104	0,04257
1132,808	1066,824	0,06144	0,04304
1150,962	1084,459	0,06183	0,04321
	1102,682	0,06223	
	1121,316	0,06272	
	1138,539	0,06308	
	1156,174	0,06351	

Hozirgacha adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlarga asosan ushbu chetlanish yaqin temperatura (1 K gacha) deb aniq ayta olmaymiz, aniq bir ma’lumotlar keltirilmagan. Bizning tahlilimizda ushbu chetlanish 0,5 K ni tashkil qildi. Fazaviy temperaturasidan uzoq temperatura deganda chetlanish 50 K ni tashkil etdi. Ya’ni fazaviy o’tish temperaturasi 851K bo’lsa fluktuatsion to’g’ri chiziqdan chetlanish 910 K ni tashkil qildi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Б.А.Струков, А.П.Леванюк “Физические основы сегнетоэлектрических явлений в кристаллах” М.Наука 1983г. [5-57]
2. Ландсберг Г. С. “Оптика” Тошкент 1981г. [7-25]
3. Лайнс М. Гласс А. “Сегнетоэлектрики и родственные им материалы” 1981г. [38-53]
4. А.А.Шука, “Электроника” Санк-Петербург 2005г. [21-36]
5. Л.З. Бобровников “Электроника”: учебник для вузов Питер-2004г. [11-23]

ANVAR OBIDJON SHE’RLARIDA BOLALAR DUNYOSI

Mavlonova Mamlakatxon Alijonovna

Farg’ona viloyati Yozyovon tumani

(25-maktab MMIBDO’)

FDU Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang’ich ta’lim) magistratura talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o’zbek bolalar she’riyatida Anvar Obidjon she’rlarinig tutgan o’rni haqida fikr yuritiladi. Hozirgi kunda yoshlarni mustaqil va erkin fikrlay olishlari uchun adiblarning she’rlari, hikoyalari va asarlaridan foydalanish o’z samarasini beradi.*

Kalit so’zlar: *badiiy asar, she’r, qahramon, obraz, syujet , asar, tarbiya .*

Mustaqillik erishganimizdan so’ng mamalakatimizda yoshlarga bo’lgan e’tibor yanada kuchaydi. Ayniqsa, bu masala siyosat darajasiga ko’tarildi. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o’z maruzalarida quydagi fikrlarni ta’kidlab o’tadi: “Dunyo shiddat bilan o’zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xaflar paydo bo’layotgan bugingi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, ahloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishishiga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”. Ze’ro, ma’naviy-ahloqiy barkamol, har tomonlama bilimli shaxslarsiz yurt ravnaqini tasavvur etib bo’lmaydi.

Bolalar she’riyati deganda, bolalarning yosh xususiyatlariga mos keladigan tabiat va jamiyatdagi voqea-hodisalar xususida yosh kitobxon tushunchasi darajasida ma’lumot beradigan sho’x va o’ynoqi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan asarlarni tushunish qon-qonimizga singib ketgan. Shu sababli ham shoir-u nosirlarimiz hazilkash, o’ynoqi, topqir bolakaylar haqida hazil-huzilga boy yumoristik she’r-u hikoyalar, doston-u qissalar bitadilar; hayvonot dunyosini bolalarning hayratomuz nigohi bilan qayta-qayta kashf qiladilar; parranda, darrandalarni misol qilib, ibratomuz ertag-u masallar yozadilar.

O’zbekiston xalq shoiri, “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni sohibi, Farg’ona farzandi Anvar Obidjon timsolida ijod mo’jizasining o’ziga xos kashfiyotlari yashaydi. Azaldan ona xalqimizga buyuk daholarni, adabiyot peshvolarini yetkazib bergan Farg’ona zamini o’zining shoir o’g’lini hamisha boshida tutdi, uning yozganlarini, kitob shaklidagi durdonalarini sevdi, bebaho mulki kabi ardoqladi.

Shoir oddiygina hodisadan ham poetik mazmun topa oladi. Masalan, kichkintoylarga “Kimning qizisan?”-deb savol bersalar, “Otamning qiziman”,-deb javob berishadi. Familiasini so’rasangiz, soddalik bilan otasining kasbi bilan bog’lab javob berishadi. Shu kabi xuddi qo’shiq qilganday o’ynoqi satrlarga tizadi. “Otasining qizi” she’rida Jamilaxondan familiasini so’raganda, u shunday javob beradi:

O’ylanib der

Jamila:

Kelib Norga arz qildi
To`rt yasharlik ukasi:
--Meni quvdi, atajon,
Patpillaning kulkasi.
G`ijinib musht tugdi Nor:
--Boplab qasos olamiz.
-Bog`bon qizi-
Familiyam.

Anvar Obidjon faqat bolalarning xarakterini ochishga harakat qilgan she`rlaridagina emas, balki predmetlar, narsa-hodisalarga bag`ishlangan she`rlarida ham shunday mahorat bilan qalam tebratadi.

Anvar Obidjonning mana bu she`riga e`tibor qarataylik:

Kurkani...
Yo`q, yaxshisi,
Fathillani solamiz!

Bu she`rda bolalarga xos va mos bo`lga samimiylilik ufurib turibdi, negaki, unda beg`uborlik, o`yinqaroqlik yetakchilik qiladi. Ukaning akasidan yordam so`rab murojaat qilishi, kim ayibdor degan savolga javob topish asnosida qahramonlarning xarakter-xususiyati oydinlashib boradi. She`rdagi mavhum obraz hisoblangan Fathullaning sababsiz aybdor bo`lishi, bolalarning nechog`liq sho`x bo`lishlaridan dalolat beradi. Va yana shuni ham aytish kerakki, she`rdan bolalar o`zlariga ko`p narsalarni olishlari tabiiy, albatta.

Anvar Obidjon she`riyati misolida olingan hajviy obrazlar mazmun-mohiyati va ahamiyati jihatidan diqqatga sazovordir. Hajviy obraz yaratishdagi eng yaxshi an`analarni davom ettirdi va o`zi ham namuna bo`larli obrazlar yaratdi. Uning yaratgan satirik hamda yumoristik obrazlari badiiy kashfiyot darajasiga ko`tarildi.

Anvar Obidjon ijodining yetakchi xususiyati haqida gap ketganda, eng avvalo, erishgan yutuqlari bilan xotirjamlikka berilmasligi, behalovat izlanuvchanligini alohida tilga olish joiz. Ijodiy xotirjamlikka berilish, o`z qobig`idan tashqari chiqa olmaslikni badiiy mahorat kushandasi deb bilgan shoir badiiy ijodda ham o`z e`tiqodiga qat`iy amal qiladi.

Umuman olganda, hajviy asarlar qay yo`nalishda yozilmasin, barchasi yosh avlod ta`lim-tarbiyasiga xizmat qilmog`i lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: “O`zbekiston”, 2017. – 32 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: “O`zbekiston”, 2017. – 48 b.
3. MirziyoyevM. Sh. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib ,yangi bosqichga ko`taramiz-Toshkent: “O`zbekiston”NMIU,2017.592 b “27-28-bet”
4. <https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/anvar-obidjon-sheerlarida-poetik-gozallik/>

5. <https://fayllar.org/ozbekiston-respublikasi-xalq-talimi-vazirligi-muqimiy-nomidagi-v6.html>

PROBLEMS, SOLUTIONS AND PROSPECTS IN TRANSLATION STUDIES

Sheraliyeva Shoira Tulkinovna

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

Faculty of Psychology Philology and foreign languages first year Student

Supervisor: Abdurahmonova Zilola

Abstract: *Translation isn't a natural process, so any languages that need to be translated should be undertaken by experienced translators who know both the source and targeted languages well. One of the common challenges in translation is having a deep understanding of not just the language but also the culture of the two languages that need to be translated. Translators need to be completely familiar with both language rules and the speaker's habits in order to be able to do an effective translation between two languages.*

Key words: *idiosyncrasies, bookworm, sarcasm, more colloquial words, an idiom used in the source language.*

INTRODUCTION

Common challenges in translation include knowing about a variety of features such as the language structure which differs between languages. For example, a simple English sentence has a subject, a verb, and an object, such as ‘She eats chicken.’ However not all languages share this type of structure, so the Farsi language has the subject first, followed by a verb and then lastly the object. In Arabic, subject pronouns become a part of the verb. Because of these differences’ translators have to frequently add, rearrange or remove words to be able to communicate effectively in the targeted language. These idiosyncrasies found in language present translation problems and difficulties. Idioms, for example: Explain something through using a unique grouping of words which only have that meaning when in that group. Machine translation tools are unable to cope with idioms as it's not possible to use a word-by-word translation. The latest forecast is that machine translation tools will never be able to translate idioms correctly. Anyone who is trying to localize a product by translating its characteristics into other languages needs to avoid the use of idioms as the message when translated maybe distorted and even be offensive to other cultures. Compound words frequently cause problems in translation of language. This is because when two words are joined together to create a new word the meaning of the two words may be quite different from the compound word. There are three different groups to consider. The first is when the compound word means what each word means. Examples include a crosswalk, an airport or seashore. The classification models. translate problems that followed is the model proposed by Christiane North (1991: 158-160). 81’] iic11 identifies four translation problems namely. Pragmatic, cultural, linguistic and textual

Before describing the translation problems, we will start by explaining the concept of "translations problem", a concept that has attracted the attention of the field of translation theorists such as Jean-Paul Vinay and Jean Drupelet (1958: "Comparative Stylistics French and English"), Georges Moaning (1963: "Theoretical prowlers of

translation"), Helen Chiquita and Michel Paillard (1989: "Apprehend linguistique des problèmes de traductiottl anglais — français)

The 2nd group means only 50 percent of the 2 word’s literal meaning such as the compound word a “bookworm” the words book and worm have little relationship when separated but when put together mean someone who loves books. This is very confusing indeed for a machine translation tool and may even present difficulties in translation process for the translator who needs to find equivalence in another language so that the translation means the same. The 3rd group of compound words present meanings that literally little to do with the individual words’ meanings. For example, the English compound word “deadline” means the final time for receiving or delivering something. It doesn’t have a thing to do with either line or dead. Also, a “butterfly” is neither butter nor a fly. So, compound words are most certainly some of the many common challenges of translation. On occasions a preposition combined with a verb takes on a completely different meaning from the words taken individually. These are called phrasal verbs and include such examples as fill out, look up, break down, shut up, break in and bring up. This brings about problems and challenges of translation for the translator.

MATERIALS AND METHODS

In the end the translator has to strike a deal with the client when translating text which is loaded with word combinations that aren’t easy to translate. If an idiom used in the source language isn’t easy to translate the client will need to negotiate with the translator an appropriate word or cluster of words best represents the message he or she wants to put across. One of the chief problems that need to be ironed out before releasing a translation to another culture is that no offensive words are mistakenly used in the translation.

Problems in translation of language have been around for several centuries and sometimes a translation could become Chinese whispers as its meaning seems to change slightly as each translation of a text takes place. After several translations the meaning may not seem anything like the original message. This may not matter overall depending on who the translation is targeting. But if it was a translation for a court room hearing a mistranslation could result in the wrong outcome for a defendant. Witness reports may use idiomatic language that the interpreter or translator finds difficulty in find the precise translation. Sarcasm is a bitter, sharp or cutting expression that typically means the complete opposite of any literal meaning. Sarcasm usually loses its meaning once it has been translated word-for-word into a different language. The translation has been known to cause serious misunderstandings. A publisher will try to eliminate sarcasm from a source text before it’s translated. This can’t always be done as the tone and style of the content may need to include the sarcasm in order to get the required message across. Sometimes a translator may suggest using a local idiom that may be more appropriate when used in the targeted language. The structure of sentences in English and other languages may be different. This is considered to be one of the main structural problems in translation. The culture practiced by the speakers of each language may also be vastly different. In many languages, certain terms may be completely absent... This is one of the most common challenge faced by a translator on its daily basis, also one of the main reasons why

translation is difficult. For example, in English the adjective is placed before the noun, but in French the adjective comes after the noun. In Arabic and some other languages, the subject pronoun is part of the verb, and that determines the subject gender and the voice of the sentence. You might also want to know about the 9 Most Common Translation Mistakes.

Confusing? It can get so! Language is complex, vast, and ever-evolving. The translator has to know the exact structure in each language, and use the appropriate structure, and they have to ensure that the translation is performed without changing the meaning as well. That’s why the culture practiced by the speakers of each language may also be vastly different; Often, colloquialism is woven into formal language, making the translator’s task very difficult indeed. The larger the region where the language is spoken, the more the dialects there are likely to be, and the more colloquial words you are likely to find – except in technical documents translations, legal document translations, or translations of medical transcripts.

For example, the British are famous for their dry, biting sarcasm, which is their brand of humor. However, this kind of sarcasm may not be appreciated in not just a country speaking a different language, but even another country where they speak English. Then the problem arises as to how to translate accurately without hurting sentiments or angering the target audience. Culture is also considered to be a structural translation problem.

CONCLUSION

Gain expertise only in a couple of languages that you are already well-versed with. Make use of grammar checkers, translation memory tools and other techniques to ensure that you have maintained the structure in the target language without changing the meaning or sense of the source document. Scan the internet to learn the most popular colloquialisms used in that language, and familiarize yourself with the most commonly used dialects. This can give you a fair idea when you need to translate. Soak in the culture as much as you can through movies, TV shows, magazines and books in that language. Movies and TV shows will be especially helpful in recognizing local culture and dialects. Any translator needs to choose their niche. You should not try to be jack of all trades; select one or two subjects, and become expert in them. Familiarize yourself with the compound words most commonly used in your subject area, and learn the translations. Use translation memory and other software to make your job easier to yourself.

REFERENCES:

1. BALLARD, Michel. La seduction (i runiversité, Lille Presses Univelsitaires de Lille, 1993, p, 230060.
- 2, CRISTEA,, Teodora. Strategies de la traducian, Bucureiti: Editura Fundaliei România de •OOO p. 190-197.
3. DANCETTE, Jeanne & MÉNARD, Nathan. Afodéles empiriqne.f et e•cpérimen.taus traductor/got questions d’éptstérnofogie, Metat 1996. vol.41, p, 139-156-
- 4, DANCETTE Jeanne. Porcoujs de tmd11Cft011. Lille : Presse Universitaire de Lille, 1998.

Internet researches:

support@transleday.com

office@medtrans.com.au

DNK FAZOVIY STRUKTURASINING O‘ZIGA XOS TUZILISHI

Turayev Adhamjon Abdulfayiz o‘g‘li
Eshbo‘riyev Javohir Bobomurot o‘g‘li
Xolboyeva Rayxon Saparali qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
Davolash ishi yo‘nalishi talabalari.

Do‘styorov Manguberdi Abdurazzoq o‘g‘li
Termiz davlat universiteti pedagogika instituti
Aniq va tabbiy fanlar fakulteti talabasi.

Annotatsiya: *DNK qo‘sh zanjirdan tashkil topgan tuzilma bo‘lib, uning struktura tuzilishi 1950-yillargacha sirligicha qolgan. Ushbu maqolada biz Jeyms Uotsin, Frensis Krik, Rozalind Franklin va boshqa tadqiqotchilar tomonidan DNK spiraling tuzilishi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz. DNK ning tuzilishiga nazar soladigan bo‘lsak o‘ng tomonga buralib joylashgan qo‘sh spiraldan tashkil topgan nega aynan o‘ng tomonga, nega chapga emas bu juda munozarali savol bo‘lib uning aniq yechimi bugungi kungacha to‘liq o‘rganilmagan.*


Kalit so‘zlar: *DNK, qo‘sh spiral, zanjir, fazoviy, struktura saqllovchi, o‘tkazuvchi.*

KIRISH

Bizning dunyomizga turli xil organizmlar yashaydi: mikroskop, faqat kuchli mikroskop orqali ko‘rinadigan, og‘irligi bir necha tonna yetadigan ulkan organizmgacha. Turlarning xilma-xilligiga qaramay, yerdagi barcha organizmlar juda o‘xshash tuzilishga ega. Ularning har biri hujayralardan iborat va bu fakt barcha tirik mavjudotlarni birlashtiradi. Shu bilan birga ikkita bir xil organizmni uchratish mumkin emas. Faqatgina istisno- bu bir xil egizaklar. Sayyoramizda yashovchi har bir organizm nimasi bilan noyob hisoblanadi. Har bir hujayraning markaziy organi bor-bu yadro. Unda ma‘lum moddiy birliklar-xromasomalarda joylashgan genlar mavjud. Kimyoviy nuqtai nazardan, genlar dezoksiribonuklein kislotasi yoki DNK dir. DNK ko‘plab xususiyatlarning merosxo‘rligi uchun javobgardir. Shunday qilib, DNK Ning ma‘nosi genetik ma‘lumotni ota-onadan naslga o‘tkazishdir. Bu haqiqatni aniqlash uchun butun dunyo olimlari ikki asr davomida aql bovar qilmaydigan tajribalar o‘tkazdilar dalil farazlar ilgari surdilar, muvaffaqiyatsizliklarga uchradilar va buyuk kashfiyotlar g‘alabasini boshdan kechirdilar. Buyuk tadqiqotchilar va olimlarning mehnati tufayli biz endi DNK nimani anglatishini bilamiz. Barcha tirik organizmlar yadrosida nuklein kislotalar mavjud. Molekulyar massasi oqsillardan ko‘proq. Bu molekulyar polimerik, ularning monomerleri nukleotidlardir. Proteinlar yigirmata aminokislota va to‘rtta nukleotiddan iborat. DNK azotli asos, fosfat kislotaga qoldig‘i va uglevoddan tashkil topgan.

Asosiy qism: Antiparallel joylashuv-- Ikkita zanjirli DNK bu antiparallel molekula bo‘lib, u bir-biri bilan yonma-yon joylashgan ammo qarama qarshi yo‘nalishdagi ikkita ipdan iborat ekanligini anglatadi. Ikki zanjirli DNK molekulasida bitta zanjirning 5' uchi

(fosfat uchi) uning sherigi 3'(gidroksil uchi) bilan bog' hosil qiladi va aksincha ham bo'lishi mumkin.




Har bir nukleotid bir azot bazasi, shakar (ribose) va fosfat hurujidan iborat. DNK ning har bir sohasi uchun qaysi organizmning kelib chiqishidan qat'iy nazar genetik kod sifatida 4 xil azot bazasi ishlatiladi. Bazalar va ularning belgilaridan asrning (A), timing (T), guanin (G) va sitozin (S) mavjud. DNK ning har bir sohasidagi bazalar bir-birini to'ldiradi.

DNK molekulasi 2 ta yirik polinukleotid zanjirining qo'sh spiralidir. Ular bir zanjirning Putin va boshqa zanjirning pirimidini bilan bog'langan, bu ulanishlar tasodifiy emas. Ular bir-birini to'ldirishi qonuniga bo'ysinadilar. Bog'lanishlar o'zaro A nukleotidi bilan T, va G bilan S o'rtasida kuzatiladi. Bu tamoyil DNK molekulasiga o'z-o'zini ko'paytirishning noyob xususiyatini beradi. Maxsus oqsillar- fermentlar har ikkala zanjirning azotli asoslari orasidagi vodorod aloqalarini harakatga keltiradi va buzadi. Natijada ikkita erkin nukleotid zanjiri hosil bo'lib ular to'ldiruvchilik prinsipiga ko'ra hujayraning sitoplazmasi vayadrosida mavjud bo'lgan erkin nukleotidlar tomonidan to'ldiriladi. Bu bitta ota- onadan ikkita DNK zanjirining shakillanishiga olib keladi.

XULOSA

O'ng tomonlama spiral- Uotson va Krikning modelida DNK ning ikkita zanjiri bir-birining atrofida o'ng tomonlama spiral hosil qilib aylanadi. Spirallarda hosil bo'lgan egilmalar fazoning qaysi tomoniga yinalgani aniq ko'rinib turadi DNK ning buralgan qo'sh spirali va asoslarning geometrik tuzilishi katta tirqish (katta bo'shliq) va tor tirqish (kichik bo'shliq) hosil qiladi. Bo'shliqlar DNK strukturasi ushlab turuvchi va uni boshqaruvchi oqsillarni bog'lashga xizmat qiladi va bu xususiyatlar DNK ni o'ng tomonga buralib turishini nazorat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000- yil.
2. Aldridge, Susan, (2003) The DNA story. In Royal socially of chemistry.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.(2000-2005).
4. <http://www.nature.com/scitable/topicpage/disc/of-dna-structure-and-function-watson-397>.
5. The DNA riddle:King’s College London 1951-1953. (n.d) In The Rosalind Franklin papers.

UBAYDULLA UVATOV HAYOTI VA FAOLIYATINING MUHIM QIRRALARI

Yusupova Kamola Otabek qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada islomshunos olim, tarix fanlari doktori, yurtimizda yetishib chiqqan allomalar faoliyatini o‘rganishda o‘ziga xos maktab yaratgan ustoz Ubaydulla Uvatovning hayoti va faoliyati yoritilgan. Olimning olib amalga oshirgan izlanishlari haqida uning maqolalari, ilmiy ishlari va shogirdlarining xulosalari orqali ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Temuriylar, Abu Iso at-Termiziy, doktorlik ilmi ishi, Ibn Arabshoh, Liviya Xalq Jamohiriyasi.*

Dunyo ilm-fani har qaysi davrda ham olimlar va ilm sohiblariga muhtoj bo‘lgan. Buyuk allomalarimiz ilmiy merosini o‘rganish va ularga munosib avlod bo‘lish esa har bir avlod zimmasidagi burch hisoblanadi. Mana shu burchning mas’uliyatini chuqur his etgan va butun umrini ilm-fanga bag‘shida etgan, bu ulug‘ zaminning ulug‘ yelkadoshi bo‘lgan, yetuk bilim sohibi, islomshunos olim, tarix fanlari doktori Ubaydulla Uvatovning hayot yo‘li barchamiz uchun ibrat desak, adashmagan bo‘lamiz.

Kishilarni ilm-u ma’rifatga chorlaydigan inson avvalo o‘zi ham butun zikr-u jismi bilan o‘sha aqidaga amal qilib yashashi kerak. Butun umrini ilm olishga bag‘ishlagan ulug‘ ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy merosni o‘rgangan fidoiy murabbiy tarix fanlari doktori Ubaydulla Uvatov bilan suhbatlashgan insonning hayotiga shunday fikrlar keladi. Qizg‘in va maroqli suhbat davomida hali bilganlarimiz daryodan tomchi ham emasligiga iqror bo‘lasiz. Ko‘zga ko‘ringan insonlarga nisbatan atrofdagilarni e’tibori kuchli bo‘ladi. “Biror bir kichik kamchilik qilsa ham darrov ko‘zga ko‘rinadi. Lekin Ubaydulla Uvatov haqida biror marta zarracha yomon so‘z eshitmaganmiz”,- deydi ustozning hamkasblari. Ubaydulla Uvatov hadis ilmi, muhaddislar hayotini o‘rganishga qaratilgan katta maktabga asos soldi.

Ubaydulla Uvatov 1940-yil 23-fevral kuni Qashqadaryo viloyatining G‘uzor tumani Pachkamar qishlog‘ida chorvador oilasida tavallud topdi. 1964-yil O‘rta Osiyo davlat universitetining “Sharq” fakulteti Arab filologiyasi bo‘limini sharqshunos, arab filologi mutaxassisligi bo‘yicha intizomli diplom bilan tamomlagan. 1964-yildan boshlab turli davrlarda Toshkent Davlat universitetining “Sharq” fakultetida pedagoglik faoliyatini olib borgan. Shuningdek, 1962-1963-yillarda Misr Arab respublikasi, 1966-1967-yillarda va 1975-1978-yillarda Iroq davlati, 1982-1985-yillarda Liviya Xalq Jamohiriyasida arab tili tarjimoni sifatida faoliyat ko‘rsatdi.

Uvatov yirtimiz tarixining eng ko‘zga ko‘ringan siymosi Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyatini o‘rganishga bag‘ishlangan muhim tadqiqotni sobiq sho‘ro davrida ya’ni eng murakkab davrda olib bordi. Chunonchi, Ubaydulla Uvatov Amir Temur va temuriylar davrini XV asr arab tarixchisi Ibn Arabshoh tomonidan o‘zi shohid bo‘lgan holda yozilgan o‘rta asr manbasiga tayangan holda ochib bergan. Bugungi kunda shuni komil ishonch bilan

aytish mumkinki, bundan qariyb ellik yil oldin amalga oshirilgan ilmiy ish o‘z davrining jasorati bo‘lgan. Zero, mustabid tuzum davrida Amir Temur va temuriylar tarixi haqida bu tarzda ilmiy tadqiqot olib borish o‘ta qaltis, qattiq nazorat ostida edi. Bunday tadqiqotni yuzaga olib chiqish - sarflangan kuch-quvvat, diqqat-e’tibor va umrni behudaga ko‘kka sovurish bilan barobar edi.

Ubaydulla Uvatov Ilmiy faoliyatining o‘ziga xosligi uning qamrovi kengligi bilan doim ajralib turgan. Bunday faoliyat uning fikr irodasi kattaligi, ilmiy yangilikka intilyvchanligi, doim “kashshof” bo‘lishga ya’ni “qo‘riq yerlar” ni ochishga harakat qilish xarakteriga juda ham munosib. Mustaqilligimiz sharofati bilan Ubaydulla Uvatov o‘zini batamom yurtimiz allomalari hayoti va ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganishga bag‘ishladi. Arab tilini mukammal bilishi, tarixiy manbalar bilan ishlash ko‘nikmasining to‘liq shakllanganligi tufayli islom olamida juda mashhur bo‘lgan, ammo o‘zbek kitobxonlariga hatto ismi ham ma’lum bo‘lmagan ko‘plab allomalarimizning hayot yo‘li, ilmiy merosi bilan xalqimizni tanishtirishga bel bog‘ladi. Uvatov ImomBuxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamahshariy, Abul Muyin Nasafiy, Lomishiy va yurtimizda yetishib chiqqan ko‘plab boshqa allomalar haqida birinchilardan bo‘lib o‘zbek tilida ilmiy-ma’rifiy risolalar nashr etdi. Uning ijod mahsuli zaminimizda yetishib chiqqan 70 ta olimning hayoti, faoliyati va ilmiy merosi haqidagi qimmatli ma’lumotlarni jamlagan “Buyuk yurt allomalari” kitobiga asos bo‘lib xizmat qildi³⁴.

“Mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziyning shaxsiy hayoti va barkamol ijodining har tomonlama o‘rganilishi tufayli buyuk bobokalonimizning hozirgi davrimiz uchun ham o‘rnak bo‘adigan ko‘plab ibratomuz fazilatlarining guvohi bo‘amiz. Eng avvalo, at-Termiziyning yoshligidan ilm-fanga g‘oyatda chanqoqligi va zo‘r xavas bilan qiziqishi, bu borada har qanday qiyinchiliklarga ham bardosh berib o‘z maqsadi, ya’ni o‘z bilimni oshirish yo‘lidagi jiddu-jahdi katta-katta tahsinga sazovordir,”- deydi tarixchi, islomshunos olim o‘zining Abu Iso at-Termiziy ilmiy maqolasida³⁵.

Olim at-Termiziyning hayot yo‘lini o‘rganar ekan, uning har bir asari tahliliga to‘xtalib, o‘rganuvchiga osonlik yaratish maqsadida asarlarni soda tilde bayon etgan. “Muallifning yirik asarlaridan yana biri “Ash-shamoil an-nabaviyya” (“Payg‘ambarning alohida fazilatlarini”)dir. Bu asar “Ash-shamoil Muhammadiyya”, “Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallollohu alayhi vassallam” nomlari bilan ham ataladi. Ushbu asar Saudiya Arabistonida istiqomat qilgan vatandoshimiz Said Mahmud Taroziy (u 1992-yili vafot etgan) tomonidan o‘zbekchaga o‘girilgan (arab alifbosida va kirillchada Toshkentda bir necha bor nashr qilingan). “Kitob at-ta’rix”, “Kitob al-ilal as-sag‘iyr va al-ilal al-kabiyr”, “Kitob uz-zuhd” (“Taqvo haqida kitob”), “Kitob al-asmo val-kuna” (“Roviylarning ismi va laqablari haqida kitob”), “Al-ilal fil-hadiys” (“Hadislardagi illatlar yoki og‘ishlar haqida”), “Risola fil-xilof val-jadal” (“Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola”), “Asmo us-sahoba” (“Payg‘ambar sahobalarining ismlari”) shular jumlasidandir.³⁶”

³⁴ Buyuk yurt allomalari. Ikkinchi nashr. – T.: O‘zbekiston, 2018

³⁵ U.Uvatov “Ikki buyuk donishmand” – “Sharq” HMAK, Toshkent, 2005

³⁶ U.Uvatov “Ikki buyuk donishmand” – “Sharq” HMAK, Toshkent, 2005

Ubaydulla Uvatov hatto talabalik yillarida ham ilm-fanga ayniqsa, arab tiliga ishtiyoqi kuchliligi bilan ajralib turgan edi. Uvatovning talabalik bitiruv diplom ishi “Arab tilida geologiyaga oid atamalar” mavzusida bo’lgan. Diplom ishida arab tilida geologiyaga oid yangi atamalar yasalishi masalalari tadqiq etilgan, ilmiy ishga ilova qilib bir necha yuz atama keltirilgan. Ushbu tadqiqot natijalari arab mamlakatlarida amaliy faoliyat olib borgan geologlar, injenerlar va tarjimonlar uchun amaliy ahamiyat kasb etgan³⁷.

Ilmiy tadqiqot sohasining turli javhalarida faoliyat olib borganligiga qaramar Uvatov o’zining shoh mavzusi ajdodlarimiz merosi mavzusiga yana murojaat qilib, 2002-til 16-iyun kuni Toshkent islom universitetida “Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o’rni” mavzusida doktorlik ilmi ishini himoya qildi³⁸.

O’z kasbiga o’zgacha mehr va iftihar bilan yondoshganligini Uvatovning “Abu Hakim at-Termiziy” ilmiy maqolasida ham yaqqol ko’rishimiz mumkin. Maqolaning boshqa maqolalardan farqli jihati shundaki, allomaning ilmiy faoliyatini o’rganar ekan olim o’z maqolasida nafaqat alloma hayotiga, balki, uning ustozlari va hatto, shogirdlari kimligi hamda ularning faoliyatiga ham keng o’rin ajratgan.

U.Uvatov o’zining halol mehnati, samarali faoliyati, yoshlar tarbiyasiga qo’shgan beqiyos hissasi tufayli davlatimizning oiliy mukofoylari bilan taqdirlangan: 2009-yil “Mehnat shuhrati” ordeni hamda 2017-yil “O’zbekiston respublikasida xizmat ko’rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni, 2020-yilda “Fidokorono xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

Taniqli olim, tarix fanlari doktori, professor, ko’plab olim va tadqiqotchilar yetishtirgan ustoz Ubaydulla Uvatovning hayot yo’li va ilmiy faoliyati bugungi kunda barcha yoshlarimiz uchun o’rnak bo’lib xizmat qiladi desak, mubolag’a bo’lmaydi. O’ta kamtar bu inson bizga bergan ilm va ma’rifat chiroqlari hali uzoq vaqtlargacha ilm istaguvchi qalblarni ziyo nurlari ila nurafshon etajak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buyuk yurt allomalari. Ikkinchi nashr. – T.: O’zbekiston, 2018;
2. U.Uvatov “Ikki buyuk donishmand” – “Sharq” HMAK, Toshkent, 2005;
3. Ubaydulla Uvatov – Bio-bibliografiya, O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, 2021;
4. Doktorlik dissertatsiyasi: Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o’rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy). – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.

³⁷ Ubaydulla Uvatov – Bio-bibliografiya, O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, 2021

³⁸ Doktorlik dissertatsiyasi: Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o’rni (Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziy). – T.: Toshkent islom universiteti, 2002.

ONA TILI VA ADABIYOT O’QITUVCHILARI UCHUN ZAMONAVIY DARS USULLARI ORQALI DARSLARNI TASHKILLASH UCHUN TAVSIYALAR

Matyakubova Inabat Raxmonberdiyevna

Xorazm viloyati Xonqa tumani

25-son umumta’lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Til har bir millatning ko’zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o’z onasini ko’rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Bu fikrimizning isboti sifatida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O’zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so’zlagan nutqini keltirishimiz mumkin: “Kimda-kim o’zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo’lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o’lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo’shiqlariga quloq tutsin”.

Ona tili darslari mobaynida o’quvchilarda aniqlangan bo’shliqlarni to’ldirish maqsadida, zamonaviy o’yinli va interfaol metodlarni qo’llash orqali oson hamda tajribalarga suyangan holda bartaraf etish mumkin.

“Kim epchil-u kim chaqqon” metodida mavzuga oid she’r o’quvchilarni yod olish qobiliyati tekshirish uchun she’r ikki yoki bir misraga qirqilib, aralashtiriladi. O’quvchilar she’rni tiklashadi. Bu orqali o’quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi.

“Sirli sandiq” metodi ham hamma dars davomida qo’llash uchun samarali va qiziqarli hisoblanadi. Sandiqcha ichiga narsa solinib, uni ta’riflaysiz. Ta’rifni ham sodda emas, murakkab holda qiyoslangan holda aytish maqsadga muvofiq. Javobni topgan o’quvchini rag’batlantirish orqali o’quvchilar bilimini shakllanishiga sabab bo’lamiz.

“To’g’ri-noto’g’ri” metodidan ham o’tilgan darsni takrorlash yangi mavzuni mustahkamlashda ham foydalanish mumkin. Buning uchun o’qituvchilarga ota-onalar yordamida to’g’ri va noto’g’ri tasviri tushurilgan, qo’l bilan ushlab uchun qulay holda kartochkalar tayyorlab olishlarini maslahat bergan bo’lar edim. Bu orqali ular o’quvchilarga savollar berishadi o’quvchilar shovqinsiz o’z fikr-mulohazasidan kelib chiqib, javob berishadi. Savol to’g’ri bo’lsa, to’g’ri kartochkasini noto’g’ri bo’lsa, noto’g’ri kartochkasini ko’tarishadi.

“Venn diagrammasi”da o’xshash va farqli tomonlari tahlil qilinadi, qiyoslanib qayta tushuntirilib o’rganiladi. Bu metoddan atoqli va turdosh otlar, Fe’l mayllari, ot yasovchi qo’shimchalar, sifat darajalari mavzusida ham foydalanish mumkin.

“Zanjir” metodidan ona tili va adabiyot fanining barcha mavzularida foydalanish mumkin. Gulxaniy hayoti va ijodi zanjir usulida esga olinib, sinfda o’quvchilar tomonidan takrorlanadi. Shaxs otlarini yasovchi qo’shimchalarga ham zanjir usulida misollar aytiladi, agar yasovchi so’z takrorlanib qolsa, zanjir uziladi.

“Aqliy hujum” metodidan ham ona tili va adabiyot darslarida foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilar uchun tezkor holda savollar beriladi. Shuning uchun “Aqliy hujum” deb ham nomlanadi.

1. Asliy sifatlarga misollar ayting.
2. Nisbiy sifat bilan asliy sifatning qanday farqi bor?
3. Go‘zal, chiroyli, kichik so‘zlari qanday sifat hisoblanadi?
4. Qishki, derazali, devoriy, ko‘chma so‘zlari-chi?

O‘quvchilarni ona tili darsiga qiziqtirish uchun interfaol metodlarning tashkil etilishi, yangi mavzuni mustahkamlash, o‘tilgan mavzularni takrorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan: “Tushunchalar tahlili” metodi. Bunda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash va takrorlashga ma’lumotlarni aytib ketadi, O‘quvchilarga tushunchalar tushurilgan jadval tarqatiladi. Tushunchani izohlab, o‘quvchilar uning tahlilini yozishadi.

№	Tushuncha	Tahlil
1.	Asliy sifat	Belgini to‘g‘ridan to‘g‘ri ifodalaydigan, darajalab ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lgan sifatlardir
2.	Nisbiy sifatlardir	Belgini to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, balki boshqa bir tushunchaga nisbatlagan holda ifodalaydi, darajani ko‘rsatmaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, umumta’lim maktablarida ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda, o‘quvchilarni savodxonlik darajasini oshirishda, bo‘shliqlarni to‘ldirishda hamma pedagoglar bir tan-u bir jon bo‘lishi, uni faqat ona tili va adabiyot o‘qituvchilari ixtiyoriga tashlab qo‘ymay harakat qilinsa, albatta, yaxshi natijalarga erishiladi. Bundan tashqari dastlab o‘quvchilarga harf o‘rgatishda, tovushlarni farqlashda jiddiy e’tiborli bo‘lish, ota-onalar bilan hamkorlikda savodsizlikka qarshi samarali ishlar olib borish zarur. Shundagina natija Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlagani kabi bo‘ladi: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

TARIX FANINI O’QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Qalandarova Fazilat Shonazarovna

Xorazm viloyati Xonqa tumani

25-son umumta'lim maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixini xolisona o'rganish, o'zbek xalqining qadimiy va boy tarixiga haqqoniy baho berish ustuvor vazifaga aylandi. O'zbek xalqining hayoti va taqdiriga keskin burilish yasagan mustaqillik soyasida ilm-fan, xususan milliy o'zlik va ma'naviy yuksalish asosi bo'lgan tarix fani ham o'ziga xos rivojlandi. O'zbekiston tarixini xolisona yoritishda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida aytilganidek, "... jahondagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganish amalda joriy etishni oldimizda turgan keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri, deb hisoblaymiz". Ma'naviyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lgan tarix fani so'ngi yillarda ilk bor o'zining qonuniy vazifasini bajarishga – xalqning o'zligini anglatishga xizmat qilishga kirishdi. "Tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iltiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo'ladi".

Tarixni o'qitishda qo'llaniladigan matnlarga - darslik matni, tarixiy hujjatlar, asarlar, ilmiy-ommabop va badiiy, tarixiy adabiyotlar va boshqalar kiradi. Bosma matnlar ta'lim oluvchilar tarixiy bilimlarining asosiy manbai bo'lgani kabi ta'lim beruvchining bilim manbaini, bayonining asosini tashkil etadi. Tabiiydirki, o'qituvchi shu manbalardan to'g'ri va unumli foydalangan taqdirdagina, uning bayoni didaktika talablariga, umuman tarix ta'limining yuksak talablariga javob berishi, o'qituvchi bayonining o'quvchilarga tushunarli, mazmundor, maroqli, g'oyaviy va ilmiy jihatdan ishonarli, obrazli va ta'sirli bo'lishi mumkin. Tarixiy-badiiy adabiyotlar tarixiy jarayonlarni o'zlashtirishda muhim omil hisoblanadi. Tarix ta'limida tarixiy - badiiy adabiyotlardan foydalanishda ta'lim oluvchilarning psixologik yosh xususiyatlarini hisobga olish va ularning, fanga oid qiziqishlarini ham inobatga olish kerak.

Ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar orasida qanday mutaxassis yo'nalishida tahsil olishidan qa'tiy nazar o'quvchining yetuk shaxs va faol dunyoqarashga ega fuqaro bo'lib yetishishida, fikrlashning to'g'ri shakllanishida tarix fanlari aloxida rol o'ynaydi. Bu masalaga prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ham aloxida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 30 iyun kuni «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Ushbu qaror «O'zbekiston milliy davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiy topishining eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv-metodik, ma'rifiy adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, ilm-fanning ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalar bilan

integratsiyasi mexanizmlarini mustahkamlash va rivojlantirish borasida ilmiy, madaniy, ta’lim, jamoat muassasalari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarining samaradorligini oshirish, yoshlarda, avvalambor umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o’quvchilarida, oliy o’quv muassasalari o’quvchilarida mamlakat tarixi haqidagi chuqur bilimlarni shakllantirish maqsadida» qabul qilingan. Aynan shu qaror samarasi sifatida “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” fanini bakalavr yo‘nalishlarga fan sifatida o‘tilishini ta‘minlash maqsadida darsliklar ishlab chiqilmoqda. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini yaxshilash va rivojlantirish maqsadida o’quvchilarning mutaxassis fanlariga berilayotgan e’tiborning kuchayishi ortidan tarix fanlari nomutaxassis fanlar qatorida soat hajmi jihatidan qisqarib boryotgani o’qituvchi-pedagog tomonidan fanning to‘liq mazmunini yoritib berish va talab darajasida bilimlarni yetkazib berish uchun yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabiga aylanib bormoqda. Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o’quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egalashga orgatib kelingandi. Bunday usul o’quvchi (yoki o’quvchi) larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi. Endi o’quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradigan zamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi. Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o‘rniga zamonaviy darslarni tashkil etishga ma’suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma’suliyatli, interfaol pedagogik texnologiyani mukammal o‘zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta’limni tashkil eta oladigan o’qituvchilarga talab oshib bormoqda. Shuning uchun ham, ta’lim muassasalarining oquv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o’qitish uslublari-interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularni ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar, tajriba o’quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Oliy ta’lim tizimida tarix fanlarini o’qitish deganda, tarixiy material vositasida o’quvchilarga bilim berish, ularni milliy istiqloq ruhida tarbiyalash, vatanga muhabbatva kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo‘lgan jarayon, o’qituvchi va o’quvchilarning aqliy (ichki) hamda o’quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi. Tarix fanini nafaqat mutaxassis tarix yo‘nalishi bakalavriati o’quvchilariga balki, boshqa nomutaxassis bakalavriat yo‘nalishlarga o‘tilishi qanchalik ahamiyatli? Oxirgi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim soxasini rivojlantirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlar natijasida ko‘plab nomutaxassis fanlar olib tashlanmoqda, lekin aynan tarix fani oliy ta’limda nomutaxassis bakalavriat o’quv rejalarida saqlab kelinmoqda. Bu holat faqatgina bizning yurtimizdagi jarayon emas, balki juda ko‘plab rivojlangan davlatlarda tarix fani majburiy fanlar ro‘yxatida turadi. Tarix fanini nomutaxassis majburiy fanlar ro‘yxatidan joy olishi XIX asrga borib taqaladi. Aynan shu asrga kelib, tarix fani vujudga kelgan majburiy va zamonaviy o'quv muassasalarining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'la boshlagan. Dastlab Yevropa davlatlari oliy ta’lim tizimida asosan “milliy o'ziga xoslikni rivojlantirish va itoatkor inson tarbiyalash maqsadi”da o‘qitilgan.

O’quvchilarga tarix darslarida ularning tarixiy bilimlariga bo‘lgan tafakkur tushunchalarini o‘stirishda yakka tushunchalarni umumlashtirib xulosalar chiqarishda zamonaviy ta’lim usullaridan keng va o‘rinli foydalanish ularning tafakkurini

shakllantirishda juda yaxshi samara beradi. Chunki tarixiy ma’lumotlarni taqqoslab o’rganish ularni mantiqiy fikrlash, tarixiy voqealarning mohiyatini tushunish, o’sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotining obektiv-subektiv sabablarini aniqlash, ko’nikma va malakalarini takomillashtirish, tarixiy voqealarni jonlantirish hamda ularning tarixiy tafakkurlarini shakllantirishda muhim o’rin tutadi.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DARSLARINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Raximova Tozagul Sobir qizi

Xorazm viloyati Xonqa tumani

25-son umumta'lim maktabi

Informatika va AT fani o'qituvchisi

Pedagogik texnologiyalardan biror bir fanni o'qitish jarayonida foydalanish o'qituvchidan informatika va axborot texnologiyalari fani asoslarini yaxshi bilishni, uning qonun-qoidalari va usullarini amaliyotda qo'llay bilish malakasiga ega bo'lishini talab etadi. Informatika va axborot texnologiyalari fani didaktikasi va o'qitish metodikasida asosiy o'rinlardan yana birini o'qitish usullari egallaydi. O'qitish usuli (metodi) (grekcha metod - biror narsaga yul so'zidan) – bu ta'lim va tarbiya vositasi sifatidagi o'qitish maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchining bir-biri bilan bog'langan faoliyatining tartiblangan usullaridir. O'qitish metodlarining muammosini qisqacha-qanday o'qitish kerak? degan savol yordamida ifoda qilish mumkin. O'qitishning maqsadi va vazifalari o'qitish metodini yagona ravishda aniqlamaydi. Ma'lum bir mazmun bir necha metod bilan o'rganilishi mumkin. Bunda, albatta, har bir metod yordamida o'qitish maqsadlariga erishiladi.

O'qitish metodlari ko'p qirralidir. Shu sababli ham ularni ko'plab tasniflari mavjuddir. Bu tasniflarda metodlar bir yoki bir nechta belgilar bo'yicha jamlanadi.

1. An'anaviy tasnif. Umumiy belgi sifatida bilim manbayi olinadi.

- Amaliy : Tajriba, Mashqlar qilish, Mustaqil ish, Laboratoriya ishi.

- Ko'rgazmali : Illyustratsiya, Kuzatish.

- Og'zaki : Tushuntirish, Hikoya qilish, Suhbat, Ma'ruza.

- Kitob bilan ishlash: O'qish, Tez ko'rib chiqish, Sitata olish, Bayon etish, qayta so'zlab berish, Konspekt.

- Video metod: Ko'rib chiqish, mashq ishlash.

2. Hozirgi kunda o'qitish metodlarining uchta katta guruhi alohida ajratilgandir:

- o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari;

- o'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari;

- o'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va mativatsiya metodlari;

Ma'lumki, “Informatika va axborot texnologiyalari” o'quv predmetining asosiy vazifasi o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarining ba'zi bir umumiy g'oyalari bilan tanishtirish, axborot texnologiyalarining amaliyotdagi tatbiqini va kompyuterlarning zamonaviy hayotdagi ro'lini ochib berishdan iborat. Lekin, didaktik tamoyillarni hisobga olgan holda, o'quvchilarga nafaqat faktlarning qat'iy ilmiy bayonini berish, balki o'qitishning turli qiziqarli metodlarini ham qo'llash lozim. Masalan, ko'pchilikka ma'lum va ommabop bo'lgan krossvord o'yini bolalarda qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Krossvord ko'rinishidagi so'rov shakli o'quvchilar uchun har doim qiziqarli va o'ziga tortadigan metoddir. “Kadrlar tayyorlash milliy dastri” da o'sib kelayotgan avlodni mustaqil

fikrlaydigan kilib tarbiyalash vazifasi qo‘yilgan. Ushbu masalani xal etilishi ko‘p jihatdan o‘qitishning interfaol metodlarini qo‘llashga ham bog‘liq. Avvalo, interfaol (interaktiv) tushunchani aniqlashtirib olaylik. “Interaktiv” degan so‘z inglizcha “interact” so‘zidan kelib chiqqan. Darslardagi interfaol faoliyat o‘zaro tushunishga, hamkorlikda faoliyat yuritishga, umumiy, lekin har bir ishtirokchi uchun ahamiyatli masalalarni birgalikda yechishga olib keladigan diologli aloqani tashkil etish va rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Interfaol usul bitta so‘zga chiquvchining, shuningdek bitta fikrning boshqa fikrlar ustidan dominantlik qilishligini chiqarib tashlaydi. Interfaol usullardan foydalanib o‘qitishni tashkilotchilari uchun, sof o‘quv maqsadlaridan tashkari quyidagi jihatlar ham muhimdir:

- guruhdagi o‘quvchilarning o‘zaro muloqotlari jarayonida, boshqalarning qobiliyatlarini tushinib yetish;

- boshqalar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lish va ularning yordamiga muhtojlik zaruratining shakllanishi;

- o‘quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish.

Shuning uchun interfaol usullardan foydalanib o‘qitish guruhlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan ikkita asosiy funksiyalar amalga oshirilishi lozim:

- o‘qitishning pragmatik jihati qo‘yilgan o‘quv masalasini yechishlikning shartligi;

- tarbiyaviy masalalarni yechish (hamkorlikdagi ish jarayonida guruh a‘zolariga yordam ko‘rsatish, xulq-atvor normalarini shakllantirish).

Ushbu faktni alohida qayt etish lozimki, o‘qitishning barcha interfaol usullarini verbal (og‘zaki) va noverbal usullarga ajratish mumkin.

Verbal (og‘zaki)larga quyidagilar kiradi:

- vizual: U yuz ifodasi, gavdaning xolati, harakatlar, ko‘zlar orqali aloqa.

- akustik: U intonatsiya, ovoz balandligi, tembr, nutq tempi, tovush balandligi, nutqiy a‘zolar va hakazo.

Ta’lim jarayonida interfaol usullarni qo‘llash “Aqliy hujum” jamoa bo‘lib muhokama qilishning samarali metodidir. Unda biror muammoning yechimini topish barcha ishtirokchilarning fikrini erkin ifodalash orqali amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” ning tamoyili juda sodda. O‘qituvchi sinf oldiga masalani qo‘yadi va o‘quvchilarda ushbu masalani yechish bo‘yicha o‘zlarining fikrlarini bayon qilishni so‘raydi. Ushbu bosqichda hech kimning boshqa ishtirokchilarning g‘oyalari haqida o‘z fikrini bildirishga yoki unga baho berishga haqqi yo‘q. “Aqliy hujum” yordamida bir necha daqiqa ichida o‘nlab g‘oyalarni olish mumkin. g‘oyalar soni asosiy maqsad emas. g‘oyalar to‘g‘ri yechimini ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

”Aqliy hujum” ning qoidalari quyidagilardir:

- taklif etilayotgan g‘oyalar baholanmaydi va tanqid qilinmaydi;

- ish g‘oyalar soni ko‘p bo‘lishi kerak;

- har qanday g‘oyani kengaytirishga, rivojlantirishga xarakat qilish mumkin;

- har bir g‘oya yozib boriladi;

“Aqliy hujum” o‘tkazish vaqti qat‘iy o‘rnatiladi va unga rioya qilinadi. “Aqliy hujum” tugagandan so‘ng takliflar tahlil qilinadi va ulardan eng qimmatlilari, keyinchalik ular bilan

ishlash uchun, tanlab olinadi. Tahlil qilinganda, avvalo, taklifning foydali jihatlariga e’tiborni qaratish lozim.

FIZIKA FANINI O’QITISHDA YANGI PEDAGOGIK VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Sultanov Rustam Sabir o’g’li
Xorazm viloyati Xonqa tumani
25-son umumta’lim maktabi
Fizika fani o’qituvchisi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach Respublika ta’lim sohasida tub o’zgarishlar sodir bo’ldi va bu sohada yangidan-yangi islohotlar olib borilmoqda. Umumiy o’rta ta’lim o’quv fanlari dasturlari, o’quv adabiyotlari butunlay yangidan qayta qarab chiqildi va kerakli o’zgartirishlar kiritildi. Jumladan fizikani o’qitish uslubida ham qator tajribalar to’plandi. Biroq bu sohada hal qilinishi kerak bo’lgan muammolarimiz ham yo’q emas. Buni oliy o’quv yurtlariga kirish imtihonlarini topshirish natijalaridan aniqlash mumkin. Bugungi kun fizika o’qituvchisi oldida turgan dolzarb muammolardan biri ta’limning zamonaviy texnologiyalarini loyihalash va uni o’qitish amaliyotida qo’llashdir. Fizika o’qituvchisi o’quvchilarga fizika fanidan zaruriy bilimlarni beribgina qolmay, ularda fanga nisbatan qiziqish uyg’ota olishlari kerakki, natijada bu sohada yaxshi mutaxassis, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga erishilsin. O’qituvchi o’tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o’tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo’lishi kerak.

Yoshlarga nimani va qancha o’qitamiz? Bu savolga javob umuta’lim maktab, akademik litsey va kasb – hunar kollejlari, mutaxassislik o’quv rejalari hamda fizika o’quv dasturlaridan, darsliklardan olinadi. Yoshlarni qanday o’qitamiz? Amalda bu savolga aniq javob beradigan direktiv hujjat yo’q. u o’qitish metodlari, vositalari hamda o’qitishni tashkil qilish shakllari orqali amalga oshirishga tegishli. Ularni ishlab chiqish, tanlab olish va foydalanish o’qituvchilardan yuqori darajadagi ijodkorlikni talab qiladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mustaqillikka erishilgandan so’ng, Respublikamiz rahbariyati ushbu sohaga alohida e’tibor berib, 1997-yili “Talim to’g’risidagi” Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida O’zbekistonda yoshlarni o’qitishning yangi tizimiga o’tildi va u hozirgi kunda muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatmoqda.

Fizika fanini o’qitishda zamonaviy vositalar umumiy ta’lim muassasalari o’quvchilari uchun eng samarali va qiziqarli narsalardan yiroq. Ayni paytda mavjud bo’lgan o’qitish usullari zerikarli va talabalarning qiziqishini jalb qilmaydi. Hozirgi kunda talabalar butun o’quv yilini bir xil ma’lumotlarni qayta yozib, o’z stollarida o’tkazishni xohlamaydilar. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi maktabda fizikani o’qitishda nazariy va amaliy mashg’ulotlar bilan bog’liq innovatsion texnologiyalarni ko’rib chiqishdir.

Ushbu muammoni hal qilish uchun vositalar quyidagilar bo’ladi:

- amaliy mashg’ulotlar davomida mavjud metodlarni tahlil qilish;
- nazariy tadqiqotlar o’tkazishda mavjud bo’lgan usullarni tahlil qilish;
- o’ziga xos innovatsion texnologiyani olib kirish;
- ta’lim muassasalarida fizikadan amaliy va nazariy mashg’ulotlarni o’tkazishning mavjud va innovatsion usullarini qiyosiy tahlil qilish.

Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar uchun fizikani o'qitish kursini ikki blokga bo'lish mumkin:

- nazariy kurs;
- amaliy kurs.

Nazariy kurs o'qish nazariyasini, o'ziga xos jismoniy qonuniyatlarni ko'rib chiqishni, jismoniy jarayonlarni hayotda qo'llash misollarini ko'rib chiqishni va boshqa ko'p narsalarni o'z ichiga oladi. Amaliy dars o'tilgan nazariya bo'yicha muammolarni hal qilishni, fizik jarayonlarni ko'rib chiqishni, o'rganilayotgan nazariyani amalda qo'llashni o'rganishni o'z ichiga oladi. Maktabda fizika o'qitishning barcha ushbu bloklari umumta'lim muassasalari o'quvchilari tomonidan deyarli hech qanday e'tibor va qiziqishsiz o'zlashtiriladi. Zamonaviy o'quvchilar deyarli har bir darsda kitobdagi barcha ma'lumotlarni o'qish va qayta yozishdan ko'ra ko'proq haqiqiy va moddiy narsalarni ko'rishni xohlashadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida fizika o'qitishning maqsadi o'quvchi va talabalarga ta'lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirishdan iboratdir. Shu bilan birga fizikaning metodik masalalaridan bo'lib, o'quv kursining mazmunini, tarkibini va dasturini, uni o'qitishga taaluqli darslik, o'quv qo'llanmalar va vositalarni aniqlash va ulardan o'qitish jarayonida samarali foydalanish usullarini topish hisoblanadi.

Darsni yangi pedagogik texnologiyalar :

- axborot vositalaridan foydalanib;
- ko'rgazmali qurollari yordamida;
- interfaol metodlarni qo'llash orqali;

va h.k.lardan foydalanib tashkil etsak, bu dars o'quvchi ongiga yaxshi yetib boradi va xotirasidan joy oladi. O'quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi ortadi. An'anaviy ta'limdan farqli zamonaviy ta'limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o'quvchilar faoliyati, bilimni nazorat qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash fizika fani o'qituvchisidan katta pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashishni talab etadi. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida o'quvchilarning ilmiy faoliyatini, ijodkorligini oshiruvchi va shu bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya jarayoninig samaradorligini kafolatlovchi yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan. Shu tajriba asosini tashkil qiluvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilib, bu metodlarni dars jarayoniga qo'llay bilish bugungi zamon fizika o'qituvchisi zimmasiga yuklatilgan yuksak vazifadir. Pedagogik texnologiyaning muvaffaqiyatli loyihalaniishi va yakuniy natija(samara)ning kafolatlanishi o'qituvchining didaktik masalalar mohiyatini anglab yetish darajasi va darsda ularni to'g'ri baholay olishiga bog'liqdir. Har bir o'tiladigan darsda ta'limning aniq maqsadining belgilanishi o'qitish texnologiyasini loyihalashda muhim shartlardan biri sanaladi. Bunda fan mavzulari bo'yicha o'qitishning tashxislanuvchi maqsadi aniqlanadi. Fizika fan sifatida o'tilgan vaqtdan boshlab fanning ma'lumotlar bazasi ko'payib katta hajmni tashkil etmoqda va u yuqori tezlikda yil sayin boyib boryapti. Shu sababdan fizikani o'tish jarayonida faqat zaruriy axborotlarnigina tanlab

olish va o‘quvchining o‘zlashtirish qobiliyatla riga mos holda ma’lumotlar hajmini miqdoriy o‘lchamga keltirish zarur. Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish zamonaviy talablardan biri bo‘lib, pedagogik xodimlar va o‘qituvchilardan uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashini talab etadi.

YOSHLARNI KASBGA YO’NALTIRISHGA QO’YILADIGAN PEDAGOGIK - PSIXOFIZIOLOGIK TALABLAR

Hazratova Surayyo Sirojiddin qizi
TerDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda o’quvchilarni kasbga yo’naltirishning muxim masalalari va yo’llari haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari maktab o’quvchilariga qo’yiladigan pedagogik – psixofiziologik talablarning muxim vositalari va ahamiyatli jihatlari urg’u berilgan.

Kalit so’zlar: pedagogik–psixofiziologik talablar analiz, sintez, diqqat va kuzatuvchanlik, shaxsiy-psixologikomillar, klassifikatsiyalash, diagnostik kasb, psixofiziologik holat.

Abstract: This article discusses the important issues and ways of vocational guidance of students in schools. It also emphasizes the important tools and important aspects of the pedagogical and psychophysiological requirements for school students.

Keywords: pedagogical-psychophysiological requirements analysis, synthesis, attention and observation, personal-psychological processes, classification, diagnostic profession, psychophysiological condition.

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные вопросы и пути профориентации учащихся в школах. Он также подчеркивает важные инструменты и важные аспекты педагогических и психофизиологических требований к школьникам.

Ключевые слова: анализ педагогико-психофизиологических потребностей, синтез, внимание и наблюдение, личностно-психологические процессы, классификация, диагностическая профессия, психофизиологическое состояние.

Respublikamizda barkamol shaxs va malakali mutaxassis tayyorlash jarayonining samarali tashkil etilishini ta’minlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim tizimi tarkib toptirildi. Mustaqil huquqiy demokratik davlat qurish jarayoni nazariyotchilar, amaliyotchilar va ta’lim tizimi rahbarlari oldiga kasbiy faoliyatga yo’naltirilgan moslashuvchan kadrlarni tayyorlash masalasini qo’ydi.

Respublikamizning mustaqillik yillarida orttirgan taraqqiyot tajribasi taxlil qilinib, milliy istiqloq g’oyalari tamoyillariga asoslanib, ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi ta’lim-tarbiya jarayoni o’zgardi. Bu jarayon ta’lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yaratishdan boshlandi. Ta’lim va tarbiyani islohot talablari asosida yuksak darajaga ko’tarish ham davrimizning qat’iy talabi, jamiyatning ijtimoiy buyurtmasidir. O’quvchi yoshlarni o’rganilayotgan kasbga qiziqishini shakllantirish jarayonida ularning e’tiborlilikini ifodalaydigan materiallarni tavsiflaydigan xolatlar kuzatiladi. Shuningdek, kasbga qiziqishini shakllantirishni ta’minlaydigan intellektual komponentning tarkibiy qismlarini aniqlashda quyidagilarga alohida e’tibor berish lozim:

– Analiz va sintez;

- Diqqat va kuzatuvchanlik;
- Ajratish va umumlashtirish;
- Klassifikatsiyalash va isbotlash.

Kasblarga qo’yiladigan psixofiziologik talablarni umumiy holatini izohlash uchun:

1. O’smirlarni tegishli kasbiy niyatlarini shakllantirish metodlarini ishlab chiqish;
2. Kasbiy qobiliyatlar va kasbga layoqatni shakllantirish metodlarini ishlab chiqish.

3. Turli kasblarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish metodlarini va yo’llarini ishlab chiqish.

4. Mehnat resurslarini taqsimlash va ularning muhim joylashib qolishi jarayonini iqtisodiy va ma’naviy tartibga solib turish omillarini ishlab chiqish.

5. Moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarining o’smirlarni uchun jozibali bo’lishini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.

6. Kasb tanlashning tegishli motivlari shakllanishiga ommaviy tarbiya vositalari ta’siri samaradorligini oshirish tadbirlari tizimini ishlab chiqish.

7. Kasb - xunar kolleji, oila va ishlab chiqarish bilan hamkorlikda kasbga yo’naltirish va kasbiy maslahat bo’yicha olib boradigan ishlari tizimini belgilashda “xohlayman”, “uddalayman” hamda yengil sanoat sohasi tarmoqlariga xos ishlab chiqarish korxonalarini o’rganish jarayonida o’quvchilarni mazkur sohaga xos kasblarni tanlashga yo’naltirish asoslarini mukammal o’zlashtirishni ta’minlash zarur. O’quvchi yoshlarni kasbga tayyorlash jarayoni, mehnatga munosabatini tarbiyalash, amaliy ko’nikma va malakalarni shakllantirish, o’quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va shakllantirish ishlarini o’z ichiga oladi.

Shaxsiy-psixologik omillarga esa e’tiqod ehtiyoji, moyillik, odatlar, ma’lum bir faoliyatning biror turini tanlash masalalari kiradi. Inson ongini o’rganishda shaxsning aniq vaziyatdagi, aniq maqsadi pedagogik-psixologik, kasbiy, texnik-texnologik foliyatining asosiy maqsadi yoshlarda faqat moddiy boyliklar yaratish malakasini tarbiyalash emas, balki mehnat qilish ehtiyojini ham tarkib toptirishdir. Kasbiy yo’naltirish va tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun o’qituvchi yuksak g’oyaviy, printsipial, siyosiy etuk va ma’naviy barqaror inson bo’lishi shart

Pedagog o’zining – o’quvchilarini bilish va hurmatlash, doimo ularning har tomonlama kamol topishi uchun qayg’urish, ehtiyoj va qiziqishlarini tushunish, har biriga yakka holda yondoshish kasbga yo’naltirish, pedagogik mahorat, o’z ustida uzluksiz ijodiy ishlash, o’z bilimlarini takomillashtirib borish, yuksak saviyaga erishishi muhim ahamiyatga ega.

Kasb tanlashda o’quvchi yoshlarga yordam berish maqsadida mutaxassislar (psixologlar, vrachlar, pedagoglar va boshqalar)ning maslahatlari va tavsiyalari asosiy omillardan biri bo’lib xizmat qiladi. Kasblar bo’yicha maslahat berishning bir necha xillari mavjud bo’lib ular bir - biridan farq qiladi.

Ma’lumot-axborot beruvchi maslahatlar:

Kasbni mazmuni bilan iloji boricha chuqurroq tanishtirishga qaratilgandir. U sizni o’qa kasbni shaxsga nisbatan qanday talablar qo’yishi bilan tanishtiradi, bu kasbni qacda,

qanday qilib o’rganish yo’llarini, ishga joylashish imkoniyatlarini tushuntirib beradi: shu maslahatning o’zida siz kasb mahoratini oshirish yo’llari to’g’risida ham ko’pgina ma’lumotlarni bilib olishingiz mumkin. Odatda bunday maslahatlarni o’sha kasbda uzoq vaqtdan beri ishlayotgan tajribali mutaxassislar o’tkazadilar.

Diagnostik kasb maslahati berish:

Kishini har tomonlama o’rganish asosida undagi qiziqishlar, moyilliklar, qobiliyatlar hamda shaxsdagi kasbiy jihatdan muhim bo’lgan ayrim sifatlarni aniqlab o’rganishga qaratilganidir.

Bunday maslahatdan maqsad–faoliyatning qanday sohasida siz muvaffaqiyatli ishlashingiz mumkinligini, ya’ni siz qaysi sohada jamiyat uchun maksimal foyda keltirishingiz mumkinligini hamda o’z mehnatingizdan mumkin qadar ko’proq qoniqish hosil qilishingizni oldindan belgilab berishdan iborat. Diagnostik kasb maslahatini psixologlar o’tkazadilar. Ular shaxsni o’rganishning anketa to’ldirish, testlar bilan sinash singari har xil metodlarini qo’llaydilar. Tibbiy kasb maslahati: Odamning salomatligi u tanlagan kasb talablariga qay darajada muvofiq kelishini aniqlab olishga yordam beradi. Agar siz mo’ljallayotgan kasb qandaydir bir sabab bilan sog’lig’ingizga to’g’ri kelmaydi, deb topilgudek bo’lsa, u holda vrach sizga boshqa bir kasbni, ya’ni sizning qiziqishingiz va sog’lig’ingizga zarar etmaydigan kasbni tanlashga tavsiya qiladi.

Tuzatish kirituvchi kasb maslahati:

O’quvchi yoshlarni bir kasbni tanlasa-yu, lekin uning real imkoniyatlari va qobiliyatlariga o’sha kasb muvofiq kelmagan hollarda bunday maslahat zarur bo’ladi. Bunday vaziyatda kasbiy rejani qaytadan ko’rib chiqish yoki unga aniqlik kiritish zarur bo’lib qoladi.. Meditsina kasb maslahatiga ma’lumot – axborot berish xarakteridagi va tuzatish kirituvchi xarakterdagi elementlar mavjud bo’lsa, diagnostik kasb maslahatida kasb maslahatlarining elementlari uchraydi va hakoza.

Kasb to’g’risida maslahat 3 ta bosqichga bo’linadi.

1. Kasbga tayyorlash. Bunga o’quvchining kollejni bitirgunga qadar bo’lgan jarayoni kiradi. Bunda o’smirlarning qiziqishi, xohishi u yoki bu kasbga moyilligini hisobga olgan holda kasblarga tayyorlanadi, kasblar to’g’risida axborotlar berib boriladi.

2.Yakunlovchi: kollejni bitirayotganda kasbga yo’llash ishlarini olib boriladi.

Bu yakunlovchi turda o’quvchilarni qobiliyatiga qarab u yoki bu kasblarni egallashga yordam berish. Bu xil maslahat kollej doirasidan tashqariga chiqadi va ko’pincha oliy ta’lim, tashkilotlarda amalga oshiriladi.

3.Kasbga ko’nikma hosil qilish. Bu kasbga yo’llash ishi yakunlovchi ish bo’lishi kerak, chunki o’quvchi zavod va fabrikada, shuningdek o’quv yurtlarida o’z qiziqqan sohasi bo’yicha ishlaydi va o’qiydi. Ko’nikma hosil qilish sistemali ravishda rejani bajarish va musobaqalarda ishtirok etish natijasida mustahkamlanadi.

Kasbga layoqatliligi. Kasbga layoqatliligini aniqlash 3 yo’l bilan amalga oshiriladi.

7. Sog’lig’i to’g’risida;

8. Kasbga taxminiy tayyorgarlikning puxtaligi;

v) Psixofiziologik holati.

Bu layoqatligiga qarab mutaxassislar o’smirlarga u yoki bu kasbga loyiq ekanligini aniqlashadi va kasbni o’zgartirish kerakligi yoki sog’liqqa zararligini, uning organizmi tanlagan kasbga loyiq emasligi to’g’risida ma’lumot berishadi.

Ushbu mavzu yuzasidan olib boriladigan – kasbga yo’naltirish masalalarida test, anketa, suhat metodlaridan shuningdek psixologik metodikalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishga oid metodikaning mohiyati, shuningdek, tajriba-sinov ishlarining yakuni va natijalari ilmiy asoslangan. O’smirlarni kasb-hunarga yo’naltirish borasida tashkil etilgai tajriba-sinov ishlari jarayonida yoshlarni kasbga yo’naltirish jarayonining samarali kechishini ta’minlovchi shakl, metod va vositalar aniqlandi. Ular quyidagilardan iboratdir:

2. faoliyat shakli - suhbat, anketa hamtsa test so’rovlarni tashkil qilish, uchrashuv, davra suhbat, interv’yu, konferentsiya, seminar, debat, ashliy trening, ko’rgazma, ekskursiya, tanlov, ma’ruza va boshqalar;

3. faoliyat metodlari - pedagogik kuzatuv, hikoya qilish, tushuntirish, manbalar mazmunini o’rganish, ko’rgazmalilik, amaliy mashg’ulot, ekskursiya, namoyish etish, "Aqliy hujum", "Qizil va qora", "Qora quti", "Fikrlarniig shiddatli hujumi", "Klaster", "Qarorlar qabul qilish texnologiyasi", "Muz yorar" kabi uslublar;

4. faoliyat samaradorligini ta’minlovchi vositalar - o’quv manbalari, yordamchi adabiyotlar, pedagogik amaliyot, madaniy meros namunalari, o’quv va texnik jihozlar, axborot texnologiyalari (televizor, radio, komp’yuter, audio va video magnitofonlar), ilg’or pedagoglarning ish tajribalari va hokazolar.

Demak o’smirlarni kasbga yo’naltirishga qo’yiladigan pedagogik - psixofiziologik talablar umumiy xolda quyidagi xulosalarga olib keldi:

- O’quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo’naltirishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish;
- O’quvchi yoshlarni kasbiy qiziqishi tanlagan kasb bilan o’zaro aloqasida namoyon bo’luvchi shaxsning murakkab sifati ekanligini anglash;
- O’quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo’naltirishga oid ommaviy axborot vositalarida ko’rsatuvlar uyushtirish;
- O’quvchi yoshlarni mexnat faxriylari bilan uchrashuvlar o’tkazish;
- Ishlab chiqarish korxonalariga zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish;
- o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishning tavsiyalar va uslubiy ko’rsatmalar yaratish lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2017–2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qarori. –T.: 2016 y., 29-dekabr.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil,qatiy intizom va shahsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”T.O’zbekiston 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. “ Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz“T O’zbekiston ,2017
4. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o’qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.. –T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”,
5. Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o’qitishning samaradorligini oshirish yo’llari. O’qituvchilar uchun uslubiy qo’llanma. –T.:
6. Yo’ldoshev J.G’, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari (Xalq ta’limi xodimlari uchun qo’ll.). – T.: O’qituvchi, 2004.
7. M. Ochilov “Muallim qalb me`mori” T., “O’qituvchi” 2001 y
8. M. F. Ziyaeva “Bo’lajak tibbiyot xodimining kasbiy yo’nalganligini shakllantirish” Xalq ta’limi j ., 2001 y 3-son.,
9. M. F. Ziyaeva “Kasbga qiziqish va kasb tanlash” Kasb xunar ta’limi j ., 2001 y 5-son.,
10. B. X. Raximov “Ta’lim tizimida bo’lajak o’qituvchi shaxsning kasb madaniyati” Samarqand., 1996 y.,

BIOLOGIYANI O’QITISHDA O’QUVCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI TARKIB TOPTIRISH.

Sobirova Dilnoza Nasrilloevna

Buxoro viloyati Qorako’l tumani

46-umumta’lim maktabi

biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada biologiyani o’qitishda o’quvchilarda mustaqil fikrlashni tarkib toptirish mavzusida fikrlar yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *mustaqil va ijodiy fikr, biologik ob’ektlar, qo’shimcha adabiyotlar va multimedialar.*

Biologik ta’lim mazmunining uchinchi tarkibiy qismini ijodiy faoliyat tajribalari tashkil etib, mazkur faoliyatni tarkib toptirish uchun avvalo o’quvchilarda mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini tarkib toptirish lozim. Fikr inson faoliyati, uning o’z kuchi, qudrati va bilimni tashkil etuvchi ma’naviy-insoniy sifatidir. Fikr rivoji ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo’lganligi uchun, biologiyani o’qitish jarayonida o’quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish zarur.

Biologiyani o’qitishda o’qituvchi o’quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish uchun avvalo:

- O’quvchilarning darsda mustaqil ishlashlari uchun o’quv topshiriqlarini tuzishi, biologik ob’ektlar, tabiatdagi mavsumiy o’zgarishlarni o’rganish maqsadida tajriba va kuzatish o’tkazish yuzasidan ko’rsatmalar tayyorlashi;
- O’quvchilarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil ta’limi uchun qo’shimcha adabiyotlar va multimedialarni tanlashi lozim.

O’quvchilarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish uchun, ta’limtarbiya jarayonida rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasini qo’llash zarur. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasining asosiy g’oyasi o’quvchilarni har tomonlama rivojlantirish sanaladi.

Mazkur texnologiyaning asosiy xususiyatlari:

- o’quvchilarni o’z bilish faoliyatini sub’ektiga aylantirib, fikr yuritish mexanizmini shakllantiradi, rivojlantiradi.
- o’quvchilarning bilish faoliyati emperik va nazariy bilish yaxlitligida tashkil etilib, o’qitish jarayonida bilimlarni deduktiv usulda o’rganish ustuvor bo’ladi.
- o’qitish jarayonining asosini o’quvchilarning o’quv topshiriqlarini bajarish orqali vujudga keltiriladigan mustaqil faoliyat tashkil etadi.
- o’quvchilarning aqliy rivojlanishiga zamin tayyorlab, bu jarayonda tanqidiy va ijodiy fikr yuritishni shakllantirish ustuvor yo’nalish sanaladi. Fikr yuritishning bu ikki tipi bir-birini to’ldiradi va taqozo etadi.

Tanqidiy fikr yuritish shaxsning voqea va hodisalar haqidagi munosabati va fikrini vujudga keltirib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Tahliliy fikr yuritish (axborotni tahlil qilish, zarur faktlarni tanlash, taqqoslash, faktlar va hodisalarni chog’ishtirish).

O’quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko’nikmalarini shakllantirish uchun biologiya o’qituvchisi har bir darsda avval o’rganilayotgan ob’ektlar bilan o’rganilgan ob’ekt o’rtasidagi bog’lanishlarni aniqlaydigan topshiriqlarni berishi kerak.

O’quvchilar darslikda berilgan o’quv axborotini tahlil qiladi, organlar sistemasi haqidagi faktlarni tanlaydi, ularni avvalgi ob’ektlar bilan taqqoslab, xulosa chiqaradi. Demak, daryo qichqichbaqasining ichki tuzilishini tahlil qilib, avval o’rganilgan oq planariya, yomg’ir chuvalchangi, suv shilliq qurti bilan taqqoslab o’rganadi. O’quv materiallarining bu tarzda o’rganilishi o’quvchilarda tahliliy fikr yuritish ko’nikmalarining tarkib toptirishga zamin tayyorlaydi.

- Bog’lanishli (assotsiativ) fikr yuritish (avval o’rganilgan bilimlar, faktlar orasidagi bog’lanishlarni aniqlash, tanish ob’ekt va hodisalarning yangi xususiyatlari va sifatlarini topish).

Bog’lanishli fikr yuritish o’quvchilarning avval o’zlashtirgan bilim, ko’nikma va malakalarini kutilmagan, noodatiy vaziyatlarda qo’llab yangi bilim va ko’nimalarni o’zlashtirishlariga zamin tayyorlaydi.

O’qituvchi «Organik olam evolyutsiyasining yo’nalishlari» mavzusini o’rganishda o’quvchilarning botanika va zoologiya o’quv fanlaridan o’zlashtirgan bilimlarini faollashtirish maqsadida ularga o’quv topshiriqlari bilan birga quyidagi jadvalni to’ldirish tavsiya etadi.

Shunday qilib, tanqidiy fikr yuritish tahliliy, bog’lanishli, mustaqil, mantiqiy, tizimli fikr yuritishni mujassamlashtirib ular o’rtasida ichki va tashqi, muayyan va nisbiy bog’lanishlar mavjud. O’quvchilarda, ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarni rivojlantirishda o’qituvchi yuqorida qayd etilgan tahliliy fikr yuritishning tarkibiy qismlaridan, xususan, mustaqil fikr yuritish ko’nikmalaridan foydalanishi mumkin. SHuni qayd etish kerakki, o’quvchilarda nomlari zikr etilgan fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirmay turib ijodiy fikr yuritish ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipova J.O., G’ofurov A.T. Biologiya o’qitish metodikasi. Akademik litsey va kasbhunar kollejlari biologiya o’qituvchilari uchun o’quv-metodik qo’llanma. – T.: Bilim, 2004, .
2. Tolipova J.O., G’ofurov A.T. Biologiya ta’limi texnologiyalari. T . “O’qituvchi” 2002 yil.

Konferensiyaning maqsadi:

Professor-o‘qituvchilar, talaba-yoshlarni jamiyatda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi rolini kuchaytirish, innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va takomillashtirish, shuningdek yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va rag‘batlantirish kabi ustuvor vazifalarini amalga oshirish hamda mazkur yo‘nalishda ilmiy tadqiqot ishlarini faollashtirish, yoshlarimizning ma‘naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda

5 ta muhim tashabbus muhim ahamiyat kasb etadi.

BOSH MUHARRIR:

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich

MAS‘UL KOTIB:

Xasanov Tursunali Xaydarali o‘g‘li

*Marg‘ilon shahar 11-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
Ma‘naviy va ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

NASHRGA TAYYORLOVCHILAR:

Xasanov Nurmuhammad Xaydarali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Salomov Shoxabbos Nozimjon o‘g‘li

*Andijon Davlat Tibbiyot Instituti
„ Davolash ishi " fakulteti talabasi*

“Zamonaviy ta‘lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 36-sonli respublika ilmiy-amaliy online konferensiyasi materiallari to‘plami, 1-MAY, 2022-yil. – Farg‘ona shahri: BestPublication, 2022. – 306 b.



Success
Business



Customer
Management
Standard
Development
Consistency
Business
Cycle

Innovation
Branding
Solution
Marketing
Analysis
Ideas
Success

